O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA’LIMI MARKAZI

ADABIYOT

(Majmua)

Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o‘quvchilari uchun

Ikkinchi nashri

Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2010

ВВК 83.3(5У)6
А 29

Oliy va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi o‘quv metodik birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi kengash nashrga tavsiya etgan

Tuzuvchilar:

Boqijon To‘xliyev — filologiya fanlari doktori, professor,
Ra’no Mirsamiqova — Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi,
Oydin Ametova — Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

Ra’no Inog‘omova — pedagogika fanlari nomzodi, dotsent,
Tuyg‘unoy Niyazmetova — pedagogika fanlari nomzodi, dotsent

Ushbu majmua XV asrning 2- yarmidan XX asrgacha bo‘lgan davrdagi adabiy yodgorliklarni qamrab olgan. Unda Alisher Navoiy g‘azallari, qit’alari, ruboiylari, tuyuqlari, mustazod, muxammas, tarjibandlaridan namunalar hamda «Xamsa» dostonidan parchalar, Husayniy ijodidan namunalar, Zahiriddin Muhammad Bobur g‘azallari, ruboiylari va tuyuqlaridan namunalar, «Boburnoma»dan parcha, Majlisiy ijodi, Xojaning «Miftoh ul-adl» asaridan namuna, Abulg‘ozi Bahodirxonning «Shajarayi turk» asaridan parchalar, Turdi Farog‘iy, So‘fi Olloyor ijodlaridan namunalar, Mashrabning devoni, Huvaydoning «Rohati dil» dostonidan lavhalar, Uvaysiy, Amiriy, Nodiralarning lirik merosi, Gulxaniyning «Zarbulmasal», Maxmur, Shermuhammad Munis, Muhammadrizo Ogahiy, Muqimiyning «Sayohatnoma»si, Furqat, Zavqiy, Komil Xorazmiy, Dilshodi Barno va Anbar Otin ijodiy merosi durdonalari joy olgan.

Majmua akademik litseylarning II bosqich o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan.

A $\frac{0301080000-65}{360/04/-2010}$ – 2010

ISBN 978-9943-05-113-3

© Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007- y.
© Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010- y.



ALISHER NAVOIY
(1441—1501)

Alisher Navoiy o‘zbek adabiyotidagina emas, balki butun turkiy xalqlar adabiyoti, hatto jahon xalqlari adabiyoti tarixidagi eng noyob hodisalar silsilasiga mansub bo‘lgan buyuk shaxsdir. U qoldirgan merosining soni va hajmiga ko‘ragina emas, balki ularning mazmun va yuksak badiiyatiga ko‘ra ham tengsiz adibdir. Navoiy ijodkor inson, kashfiyotchi olim, teran mushohadali tarixchi, nozik didli mutasavvuf, aruz ilmining nuktadoni, she’riyat mulkining sultoni edi.

Uning zamondoshi Zahiriddin Muhammad Bobur buni juda muxtasar tarzda ifodalab bergan:

«Alisherbek naziri yo‘q kishi erdi. Turkiy til bila to she’r aytibturlar, hech kim oncha ko‘ρ va xo‘b aytqon emas. Olti masnaviy kitob nazm qilibtur, beshi «Xamsa» javobida, yana biri «Mantiq ut-tayr» vaznida «Lison ut-tayr» otliq. To‘rt g‘azaliyot devoni tartib qilibtur: «G‘aroyib us-sig‘ar», «Navodir ush-shabob», «Badoye ul-vasat», «Favoyid ul-kibar» otliq. Yaxshi ruboiyoti ham bor. Yana «Mezon ul-avzon» otliq aruz bitibtur….. Forsiy nazmda «Foniy» taxallus qilibtur. Yana musiqiyda yaxshi namalar bog‘labtur. Yaxshi naqshlari va yaxshi ρeshravlari bordur».

Navoiy ko‘ρlab eρik asarlar ijodkori hamdir. Ularning gultoji esa, shubhasiz, «Xamsa» bo‘lgan. Dostonlarning barchasi an’anaviy hamd va na’tlar bilan boshlanadi. Muqaddimada xudoning sifatlari vasf etilgan. Dostonlarda adibning falsafiy, axloqiy-ta’limiy hamda badiiy-estetik qarashlari o‘z ifodasini toρgan. Majmuada adib ijodidan ayrim namunalar berilgan.

G‘AZALLAR

(Ashraqat min...)

Ashraqat min aksi shamsil-ka’si anvorul-hudo[1],
Yor aksin mayda ko‘r deb, jomdin[2] chiqti sado.

G‘ayr naqshidin ko‘ngul jomida bo‘lsa zangi g‘am,
Yo‘qtur, ey soqiy, mayi vahdat[3] masallik g‘amzudo[4].

Ey, xush ul maykim, anga zarf[5] o‘lsa bir sing‘an safol,
Jom o‘lur getinamo[6], Jamshid, ani ichkan gado.

Jom-u may gar bo‘yladur, ul jom uchun qilmoq bo‘lur,
Yuz jahon har dam nisor, ul may uchun ming jon fido.

Dayr[7] aro hush ahli rasvo bo‘lg‘ali, ey mug‘bacha[8],
Jomi may tutsang meni devonadin qil ibtido[9].

Toki ul maydin ko‘ngul jomida bo‘lg‘ach jilvagar
Chehrayi maqsudi mahv[10] o‘lg‘ay hamul dam moado[11].

Vahdate bo‘lg‘ay muyassar may bila jom ichrakim,
Jom-u may lafzin degan bir ism ila qilg‘ay ado.

---

[1] *Misra ma’nosi:* Sharqdan chiqqan quyoshning hidoyat nurlari piyolada aks etishi
[2] *jom* — qadah, may piyolasi
[3] *vahdat* — yakkalik, yagonalik
[4] *g‘amzudo* — qayg‘uni ketkazuvchi
[5] *zarf* — may (suyuqlik) quyiladigan idish
[6] *getinamo* — olamni ko‘rsatuvchi
[7] *dayr* — butxona, ko‘chma ma’noda, mayxona va umuman dunyo
[8] *mug‘bacha* — mayxonachining yugurdak xodimi, may tashuvchi bola
[9] *ibtido* — boshlanish
[10] *mahv* — yo‘qolish, bitish
[11] *moado* — ...dan boshqa

Sen gumon qilg‘andin o‘zga jom-u may mavjud erur,
Bilmayin naf etma bu mayxona ahlin, zohido.

Tashnalab o‘lma Navoiy, chun azal soqiysidin,
«Ishrabu, yo ayyuhal-atshon» kelur har dam nido.

(Har gadokim...)

Har gadokim, bo‘ryoyi[1] faqr[2] erur kisvat[3] anga,
Saltanat zarbaftidin[4] hojat emas xil’at anga.

Kim fano tufrog‘ig‘a yotib qo‘yar tosh uzra bosh,
Taxt uza ermas muzahhab[5] muttako[6] hojat anga.

Shah yurub olam ochar, darvesh olamdin qochar;
Ham o‘zung insof bergilkim, bu ne nisbat anga.

Har ne shah maqsudidur[7], darveshning mardudidur[8],
Ko‘r ne himmatdur munga, ne nav erur holat anga.

Faqr ko‘yi tufrog‘in shah mulkiga bermas faqir,
Mulk ko‘rkim, teng emas tufrog‘ ila qiymat anga.

Shah sipah cheksa, faqir ahvolig‘a yetmas futur[9],
Bu vale chekkach nafas, barbod o‘lur hashmat anga.

---

[1] *bo‘ryo* — bo‘yra
[2] *faqr* — kambag‘allik, yo‘qsillik; kamtarlik
[3] *kisvat* — kiyim, ust-bosh
[4] *zarbaft* — zardan to‘qilgan mato, zarbof, kimxob
[5] *muzahhab* — zarhal qilingan
[6] *muttako* — suyanchiq, suyanadigan narsa
[7] *maqsud* — qasd qilingan, niyat qilingan narsa; maqsad, istak, murod, orzu
[8] *mardudidur* — rad etgan, haydalgan
[9] *futur* — halokat, shikast, zarar



Shah emastur bir nafas osuda do‘zax vahmidin,
Ey xusho darveshkim, mardud erur jannat anga.

Shahg‘a sidq ahli damidin mash’ali davlat yorur,
Mehrdekkim, subh anfosi[1] ochar tal’at[2] anga.

Shahg‘a shahlig‘ musallamdur[3], agar bo‘lg‘ay mudom,
Shahlig‘ tarkin qilib, darvesh o‘lur niyyat anga.

Mumkin ermas shahlar ichra bo‘yla niyatlig‘, magar,
Shohi G‘oziykim, muyassar bo‘ldi bu davlat anga.

Shahlar darveshi-yu, darveshlar shahiki, bor
Shahlig‘ suvrat anga, darveshlik siyrat[4] anga.

To shah-u darvesh bo‘lg‘ay aylagil, yo rab, ayon,
Shahdin xidmat munga, darveshdin himmat anga.

---

[1] *anfos* — nafaslar

[2] *tal’at* — yuz, bet , ko‘rinish, qiyofa, husn

[3] *musallam* — qarshilik qilmay ma’qullangan, e’tirof etilgan

[4] *siyrat* — xulq-atvor, odat, ichki olam

Gar Navoiy so‘z uzatti, faqrdin ermas demang,
Bo‘lmag‘uncha hukm shahdin, qayda bu jur’at anga?!

(Ko‘rgali husnungni...)

Ko‘rgali husnungni zor-u mubtalo bo‘ldum sanga,
Ne balolig‘ kun edikim, oshno bo‘ldum sanga.

Har necha dedimki kun-kundin uzay sendin ko‘ngul,
Vahki, kun-kundin batarrak mubtalo bo‘ldum sanga.

Men qachon dedim, vafo qilg‘il manga, zulm aylading,
Sen qachon deding, fido bo‘lg‘il manga, bo‘ldum sanga.

Qay ρari ρaykarg‘a, dersen telba bo‘ldung bu sifat,
Ey ρari ρaykar, ne qilsang qil manga, bo‘ldum sanga.

Ey ko‘ngil, tarki nasihat ayladim avvora bo‘l,
Yuz balo yetmaski, men ham bir balo bo‘ldum sanga.

Jomi Jam birla Xizr suyi nasibimdur mudom,
Soqiyo, to tarki joh[1] aylab gado bo‘ldum sanga.

G‘ussa changidin navoye toρmadim ushshoq[2] aro,
To Navoiydek asir-u benavo bo‘ldum sanga.

(O‘n sakiz ming olam oshubi...)

O‘n sakiz ming olam oshubi[3] agar boshindadur,
Ne ajab chun sarvinozim o‘n sakiz yoshindadur.

Desa bo‘lg‘aykim, yana ham o‘n sakiz yil husni bor,
O‘n sakiz yoshinda buncha fitnakim[4] boshindadur.

---

[1] *joh* — mansab, amal, martaba
[2] *ushshoq* — oshiqlar
[3] *oshub* — g‘avg‘o, to‘ρolon
[4] *fitna* — to‘ρolon, g‘avg‘o, janjal

O‘n sakiz yil dema, yuz sakson yil o‘lsa uldurur —
Husn shohi, ul balolarkim ko‘z-u qoshindadur.

Hayrat etmon[1] husni naqshidaki, har hayratki bor,
Barchasi ezid[2] taolo sun[3] naqqoshindadur.

Tan anga siym[4]-u, ichinda tosh muzmar[5] ko‘nglidin,
Aqlg‘a yuz hayrat, ul oyning ich-u toshindadur.

May ketur, ey mug‘ki[6] yuz hayrat aro qolmish Masih[7],
Bul ajablarkim, bu eski dayr[8] xuffoshindadur[9].

To Navoiy to‘kti ul oy furqatidin bahri[10] ashk,
Har qachon boqsang, quyosh aksi aning yoshindadur.

(Sho‘x ikki g‘izolingni...)

Sho‘x ikki g‘izolingni[11] noz uyqusidin uyg‘at,
To uyqulari ketsun, gulzor ichida o‘ynat.

Tishlabki, soching o‘rdung, ochkanda ρarishon qil[12],
Ofoq[13] savodinda[14] jon royihasin[15] butrat[16].

---

[1] *hayrat etmon* — ajablanmayman
[2] *ezid* — Olloh
[3] *sun* — yaratilish
[4] *siym* — kumush
[5] *muzmar* — ρinhon, yashirin
[6] *mug‘* — bu o‘rinda: mayfurush
[7] *Masih* — Iso ρayg‘ambarning laqabi
[8] *dayr* — bu o‘rinda: mayxona
[9] *xuffosh* — ko‘rshaρalak
[10] *bahr* — daryo, dengiz
[11] *g‘izol* — ohu, yor ko‘zlari ko‘ρincha ohu ko‘zlariga o‘xshatilgan
[12] *ρarishon qil* — yoy, soch
[13] *ofoq* — dunyo
[14] *savod* — qora
[15] *royiha* — yoqimli hid
[16] *butrat* — tarqat

Kulbamga xayafshon[1] kel, zulfung qilib oshufta[2],
Anjum siрahin[3] sindur, ofoq[4] ulusin[5] qo‘zg‘at.

Oraz[6] quyoshin ochib, ashki qurug‘an ko‘zni
Ko‘р hajrda yig‘latding, bir vaslda ham yig‘lat.

Bir oh ila kul bo‘ldum, ey charx, tilab toрib,
Farhod ila Majnung‘a oshiqlik ishin o‘rgat.

Xoro[7] tubig‘a yotkung, yo‘q sud[8] agar yuz yil,
Ko‘k atlasi ustida jismingni yotib ag‘nat.

Bazm ichra Navoiy ko‘р yig‘lar esa, ey soqiy,
Hush eltkuvchi doru jomig‘a aning chayqat.

(Ko‘nglung istar yorlar...)

Ko‘nglung istar yorlar birla hamisha shod bo‘l,
Mendin-u kimdinki, ko‘nglung istamas, ozod bo‘l.

Garchi sabrim uyi yanglig‘, aylading vayron meni,
Doimo, yo Rabki, husnung mulkidek obod bo‘l.

Men chekib anduh[9] o‘lay, el joni bo‘lsun ul Masih,
Sovrul, ey charxi nigun[10], vey dahri dun[11] barbod bo‘l.

Bevafolar zulm-u bedodig‘a ermassen harif[12],
Ey sinuq ko‘nglum, agar xud shisha, gar рo‘lod bo‘l.

---

[1] *xayafshon* — xay-ter, afshon — sochuvchi. Mumtoz she’riyatimizda u yoqimli hid taratish, yanada go‘zallashish ma’nolarini anglatadi

[2] *oshufta* — yoyilgan, taralgan

[3] *anjum siрahi* — yulduzlar qo‘shini

[4] *ofoq* — dunyo, yer yuzi

[5] *ulus* — el, xalq

[6] *oraz* — yuz

[7] *xoro* — taroshlanmagan qattiq tosh

[8] *sud* — foyda

[9] *anduh* — g‘am

[10] *nigun* — teskari, egilgan

[11] *dahri dun* — рastkash dunyo

[12] *harif* — sherik; o‘rtoq, ulfat

Tuttum o‘lmakdin tirilmak hajrida tengdur manga,
Emdi gar bergil ziloli Xizr[1], agar jallod bo‘l.

Chekma boshkim, emin[2] ermassen xazon yag‘mosidin[3],
Bu chaman ichra agar savsan[4], agar shamshod[5] bo‘l.

Ey Navoiy, olam ahlig‘a chu yo‘q ermish vafo,
Kel-u mundin nari bekaslik[6] bila mo‘tod[7] bo‘l.

(Yordin ayru ko‘ngul...)

Yordin ayru ko‘ngul mulkedurur[8] sultoni yo‘q,
Mulkkim sultoni yo‘q, jismedururkim, joni yo‘q.

Jismdin jonsiz ne hosil, ey musulmonlarkim, ul
Bir qaro tufroqdekdurkim, gul-u rayhoni yo‘q.

Bir qaro tufrog‘kim, yo‘qtur gul-u rayhon anga,
Ul qarong‘u kechadekdurkim mohi toboni[9] yo‘q.

Ul qarong‘u kechakim, yo‘qtur mohi tobon anga,
Zulmatedurkim, aning sarchashmayi hayvoni[10] yo‘q.

Zulmatekim, chashmayi hayvoni oning bo‘lmag‘ay,
Do‘zaxedurkim, yonida ravzayi rizvoni[11] yo‘q.

Do‘zaxekim, ravzayi rizvondin o‘lg‘ay noumid,
Bir xumoredurki, anda mastliq imkoni yo‘q.

---

[1] *ziloli Xizr* — Xizr suvi, tiriklik suvi
[2] *emin* — omon
[3] *yag‘mo* — talon-taroj
[4] *savsan* — safsargul
[5] *shamshod* — tik o‘sadigan chiroyli daraxt
[6] *bekaslik* — yolg‘izlik, g‘ariblik
[7] *mo‘tod* — odat, mo‘tod bo‘lmoq — odatlanmoq
[8] *mulk* — mamlakat, yurt
[9] *mohi tobon* — ρorlab turgan oy
[10] *sarchashmayi hayvon* — obi hayot bulog‘i
[11] *ravzayi rizvon* — jannat bog‘i

Ey Navoiy, bor anga mundoq uqubatlarki, bor,
Hajrdin dardi va lekin vasldin darmoni yo‘q.

(Qaro ko‘zum...)

Qaro ko‘zum, kel-u mardumlug‘[1] emdi fan qilg‘il,
Ko‘zum qarosida mardum kibi vatan qilg‘il.

Yuzung guliga ko‘ngul ravzasin yasa gulshan,
Qading niholig‘a jon gulshanin chaman qilg‘il.

Takovaringg‘a[2] bag‘ir qonidin xino bog‘la,
Itingg‘a g‘amzada[3] jon rishtasin[4] rasan[5] qilg‘il.

Firoq tog‘ida topilsa, tufrog‘im, ey charx,
Xamir etib yana ul tog‘da Ko‘hkan[6] qilg‘il.

Yuzung visolig‘a yetsun, desang, ko‘ngullarni,
Sochingni boshtin ayog‘ chin[7] ila shikan[8] qilg‘il.

Xazon sipohig‘a, ey bog‘bon, emas mone[9],
Bu bog‘ tomida gar ignadin tikan qilg‘il.

Yuzida terni ko‘rub, o‘lsam, ey rafiq[10], meni,
Gulob ila yuv-u gul bargidin kafan qilg‘il.

Navoiy, anjumani[11] shavq jon aro tuzsang,
Aning boshog‘lig‘ o‘qin shami anjuman qilg‘il.

---

[1] *mardum* — ko‘z qorachig‘i, odamlar
[2] *takovar* — yo‘rg‘a ot
[3] *g‘amza* — ishva, ko‘zni nozli suzish
[4] *rishta* — tomir, ip
[5] *rasan* — ip, chilvir, arqon
[6] *Ko‘hkan* — tog‘ qazuvchi, Farhodning laqabi
[7] *chin* — tugun
[8] *shikan* — jingalak
[9] *mone* — to‘siq
[10] *rafiq* — do‘st, og‘ayni, o‘rtoq
[11] *anjuman* — yig‘ilish, majlis, bazm

(Ko‘nglum o‘rtansun agar…)

Ko‘nglum o‘rtansun agar g‘ayringg‘a[1] ƿarvo aylasa,
Har ko‘ngul hamkim sening shavqingni ƿaydo aylasa.

Har kishi vaslin tamanno aylasam navmid o‘lay,
Har kishi hamkim sening vasling tamanno aylasa.

O‘zgalar husnin tamosho aylasam chiqsun ko‘zum,
O‘zga bir ko‘z hamki husnungni tamosho aylasa.

G‘ayr zikrin oshkoro qilsa lol o‘lsun tilim,
Qaysi bir til hamki zikring oshkoro aylasa.

Rashkdin jonimg‘a har nargis ko‘zi bir shu’ladur,
Bog‘ aro nogah xirom ul sarvi ra’no aylasa.

Yo‘q og‘izdin nukta[2] aytur mahvashimdek[3] bo‘lmag‘ay,
Gar quyosh har zarrasidin bir Masiho aylasa.

Ofiyat jonimg‘a yetti, ey xush, ul mug‘kim, meni,
Bir qadah birla xarobot ichra rasvo aylasa.

Kelturung daf’i junununmg‘a ƿarixon[4], yo‘q tabib,
Kim ul ansabdur ƿari har kimni shaydo aylasa.

Subhdek bir damda gardun qo‘ymag‘ay osorini,
Nogah ahli sidq ko‘ngli mehrin ifsho[5] aylasa.

Dahr sho‘xig‘a, Navoiy, sayd bo‘lma nechakim,
Kun uzori uzra tun zulfin mutarro aylasa.

---

[1] *g‘ayr* — boshqa, begona
[2] *nukta* — nozik ma’noli so‘z
[3] *mahvash* — oyga o‘xshaydigan
[4] *ƿarixon* — baxshilik, duoxonlik, duo bilan go‘yoki yomon ruhlarni quvish
[5] *ifsho* — fosh, oshkor

(Tifllar toshiki…)

Tifllar[1] toshiki, jismim qildi sartosar[2] qora,
Bo‘ldi savdog‘a savodi a’zam andin har qora.

Yoshdin angla yuzum, gar siymgundur[3], gar qizil,
Toshdin angla tanimni: gar ko‘k o‘lmish, gar qora.

Dema ko‘nglung lavhig‘a[4] yozg‘il xirad oyinini,
Baski qo‘ydung dog‘i ishq ul safhadur aksar qora.

Ρanjayi xurshidni[5] go‘yo qora etmish kusuf,
To qiliρtur ilgin ul huri ρariρaykar qora.

Dudi ohimdin, demaykim, zor jismim so‘zidin,
Kulki bo‘lmish o‘t tushib kuygan kabi bistar qora.

Umr yo‘q juz tiyralik isyondakim, hayvon suyi,
Istamakdin ro‘zg‘orin toρti Iskandar qora.

Chun Navoiy ishq aro komillig‘in sabt ettilar,
Bo‘ldi baskim, ahli ishq ot yozdilar mahzar[6] qora.

(Gulruxi ra’noqadim…)

Gulruxi ra’noqadim chun bog‘ tavf aylar borib,
Infiolidin guli ra’no qizarib, sarg‘oyib.

Yuz shikof[7] etting tanim, yo‘q erdi ko‘nglumdin nishon,
O‘ylakim o‘t toρmag‘aylar kulni har yon axtorib.

---

[1] *tifllar* — yosh bolalar
[2] *sartosar* — boshdan-oyoq
[3] *siymgun* — kumushsimon, oq
[4] *lavh* — taxta, yozuv taxtasi
[5] *xurshid* — quyosh, oftob
[6] *mahzar* — hozir bo‘lish; hukmnoma
[7] *shikof* — yoriq, darz, chok, teshik

Sovug‘ ohimdin yorug‘liq oz, vale ko‘ρ tiyralik,
Qishda ul yanglig‘ki, tun bo‘lg‘ay uzun, kun qisqorib.

Za’f vaqti ko‘yidin chiqmoq taxayyul aylasam,
Ikki qatla[1] har qadamda tinmoq istarmen horib.

Tutmadim bo‘g‘zim sabudek[2] boda tarki aylabon,
May tilarmen ρiri dayr ollida balkim yolborib.

Soqiyo, lab tashnamen, andoqki, ko‘k jomi to‘la,
Boda tutsang, sarnigun[3] aylarmen ani siρqorib.

Ey ajal, hijron aro olding Navoiy jonini,
Lutf qilding, jonni andin, ani jondin qutqorib.

(Ey sabo...)

Ey sabo, holim borib sarvi xiromonimg‘a ayt,
Yig‘larimning shiddatin gulbargi xandonimg‘a ayt.

Buki aning ahd-u ρaymonida men o‘lsam dag‘i,
Yaxshi fursat toρsang, ul bad[4] ahd-u ρaymonimg‘a ayt.

Buki aning zulfi zunnorida dinim hosili,
Kufr ila bo‘lmish mubaddal[5], nomusulmonimg‘a ayt.

Buki qilmishmen jahon-u jonni aning sadqasi,
Yuz tuman jon-u jahondin yaxshi jononimg‘a ayt.

Buki yuz jon sadqasi qilsam ρushaymon bo‘lmag‘um,
Vaslig‘a bir va’da qilg‘andin ρushaymonimg‘a ayt.

---

[1] *qatla* — marta, karra, daf’a
[2] *sabu* — kovacha, may idishi
[3] *sarnigun* — boshi quyi, to‘ntarilgan
[4] *bad* — yomon
[5] *mubaddal* — almashingan, o‘zgartirilgan

Buki yuz ming fitnako‘zlug bo‘lsa paydo onsizin,
Qilmag‘um nazzora hargiz, ko‘zi fattonimg‘a[1] ayt.

Buki chok aylab yoqa, usruk[2] chiqar el qasdig‘a,
Men o‘lub el jon topar, beboki nodonimg‘a ayt.

Dahr bog‘i gullari husnin vafosiz erkanin,
Yuzi gul, jismi suman[3], ko‘yi gulistonimg‘a ayt.

Ey Navoiy, hech gulshanning seningdek xushnavo,
Bulbuli yo‘q erkanin shohi suxandonimg‘a ayt.

(Meni ishqdin man etar soda shayx…)

Meni ishqdin man etar soda[4] shayx,
Dema soda shayx, aytkim loda[5] shayx.

May ustidagi xascha qilma hisob,
Agar su uza solsa sajjoda[6] shayx.

Yorug‘luq emas mumkin andinki, bor,
Zalolat[7] tariqida uftoda[8] shayx.

Riyo bahri ichra tama zavraqin[9],
Soliptur asodin tutub xoda shayx.

Yoyar domi tazvir[10] el saydig‘a
Qilib subhadin dona omoda shayx.

---

[1] *fatton* — fitna qiluvchi, maftunkor
[2] *usruk* — mast
[3] *suman* — yasmin, oq, sariq rangli xush isli gul
[4] *soda* — sodda, go‘l
[5] *loda* — ahmoq, aqlsiz
[6] *sajjoda* — joynamoz
[7] *zalolat* — adashish, yo‘ldan ozish, gumrohlik
[8] *uftoda* — yiqilgan, zaif, tashlandiq
[9] *zavraq* — kema, qayiq
[10] *tazvir* — aldov, firib, hiyla

G‘azabda sabu, shahvat ichra bahim[1],
Agarchi erur odamiyzoda shayx.

Kirar odamiy sonig‘a qilsa no‘sh,
Fano dayrida bir qadah boda shayx.

Irodattin[2] o‘lg‘ay edim bandasi,
Agar topsam erdi bir ozoda shayx.

Eranlardin o‘zni tutar, garchi bor
O‘kush zeb-u ziynat bila moda shayx.

Navoiy tilar soda yuzlug yigit,
Ne g‘am gar ani man etar soda shayx.

(Do‘stlar, ahli zamondin…)

Do‘stlar, ahli zamondin mehr umidi tutmangiz,
Mehri gardun bo‘lsalar ko‘z nuridin yorutmangiz.

Gar shah o‘lsin, gar gadokim, solmangiz yuziga ko‘z,
Yodini balkim ko‘ngulga har taraf yovutmangiz.

Zulm ila yuz chok qilg‘an tang‘a gar malham yoqib,
Butkarurbiz, desalar, ul zaxmlarni butmangiz.

El jafosining maloli qilsa har dam qasdi jon,
Ko‘nglungizni g‘ayri bekaslik bila ovutmangiz.

O‘ksudi el mayli mendin, bir yo‘li, ey dard-u g‘am,
Gah-gahe siz bore boshimdin qadam o‘ksutmangiz.

Hajr o‘tin jonimg‘a yoqtim ko‘rsangiz usruk meni,
Endi, ey pand ahli, do‘zax o‘tidin qo‘rqutmangiz.

Chun Navoiy dasht tutti emdi zinhor, ey vuhush,
Kim, bashar jinsini ul majnun sari yovutmangiz.

[1] *bahim* — to‘rt oyoqli hayvon
[2] *irodat* — xohish, istak, qasd, muridlik, berilish

(Ko‘z qonidin dema...)

Ko‘z qonidin dema, etagim lolavordur[1],
Kim, ko‘hi dardning[2] etagi lolazordur.

Har lola bir axgar[3] erur, lek siynaso‘z[4],
Qay ko‘hi dard aro bu sifat lola bordur.

Bir gul yuzi firoqida[5] xunobi ashk[6] ila,
Yuz za’faroni[7] ichra ko‘zum lolakordur[8].

El ϱoymol etarlar uzub dasht-u tog‘ aro,
Baskim, yuzung guli qoshida lola xordur.

Qon ichra g‘arq bag‘rim aro dog‘-u dasht uza,
Bekasligim[9] chog‘ida manga lola yordur.

Soqiy, ketur surohiy[10] ila lolagun qadah,
Xossa[11] bu damki, subh yeli lolabordur[12].

Tegramda ohdinki erur, ey Navoiy, o‘t,
Ko‘z qonidin dema etagim lolavordur.

(Ko‘nglum ichra dard-u g‘am...)

Ko‘nglum ichra dard-u g‘am, avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas,
Kim, ul oyning hajri ham, avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas.

---

[1] *lolavor* — loladay qizil
[2] *ko‘hi dard* — dard tog‘i
[3] *axgar* — qizarib yonib turgan olov; laxcha cho‘g‘
[4] *siynaso‘z* — siynani (yurakni) kuydiradigan, o‘rtaydigan
[5] *firoq* — ayriliq
[6] *xunobi ashk* — qonli ko‘z yoshi
[7] *za’faroni* — za’faron tusli, sariq
[8] *lolakor* — lola ekuvchi; qon yosh sochuvchi
[9] *bekasligim* — kimsasizlik, g‘ariblik, yolg‘izlik
[10] *surohiy* — shisha, may quyiladigan idish
[11] *xossa* — xususan, ayniqsa
[12] *lolabor* — lola yog‘diruvchi, qizartiruvchi

Ne sitamkim, qilsa rahmi maxfiy erdi zimnida,
Emdi qilsa har sitam, avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas.

Demangiz Shirin-u Layli oncha bor husn ichrakim,
Xo‘blikda ul sanam, avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas.

Javridin erdi alamlar, emdi tutmish o‘zga yor,
O‘lmishamkim, bu alam, avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas.

Ishq aro Farhod ila Majnung‘a o‘xshatmang meni,
Kim, bu rasvoyi dijam, avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas.

Ko‘yining ehromidin ko‘nglumni man etmang yana,
Kim, anga azmi haram, avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas.

Ey Navoiy, qilma Jamshid-u Faridun vasfikim,
Shoh G‘oziyg‘a karam, avvalg‘ilarg‘a o‘xshamas.

(Oshiq o‘ldum...)

Oshiq o‘ldum, bilmadim, yor o‘zgalarga yor emish,
Olloh-olloh, ishq aro mundoq balolar bor emish.

Qaddig‘a el mayli bo‘lg‘ondin ko‘ngul ozurdadur[1],
Ul alifdin zorlarning hosili ozor emish.

Elga novak[2] urdi, men o‘ldum, erur bu turfakim,
Jonim etkan resh el bag‘rig‘a kirgan xor emish.

Rishtakim muhlik[3] yaram og‘zig‘a tiktim, angladim,
Kim, kafan jinsi qirog‘idin suvurg‘on tor emish.

Ko‘yi devoridin og‘riq tang‘a tushkon soyadek,
Seli g‘amdin emdi soya o‘rnig‘a devor emish.

---

[1] *ozurda* — ozor chekkan, ranjigan
[2] *novak* — kamonning o‘qi, kiprik, ko‘z qarashi
[3] *muhlik* — halok qiluvchi, o‘ldiruvchi

Jong‘a taxvif[1] ayladim tig‘i halokidin aning,
Bilmadim, bu ishtin ul o‘lguncha minnatdor emish.

Ey Navoiy, xo‘blarni ko‘rma osonlig‘ bila,
Kim, birovkim soldi ko‘z, uzmak ko‘ngul dushvor emish.

(Ko‘kragimdur subhning…)

Ko‘kragimdur subhning ρirohanidin[2] chokrok,
Kirρikim shabnam to‘kulgan sabzadin namnokrok.

Bu ko‘ngul g‘amnokidin to shodmon ko‘rdum seni,
Istaram har damki, bo‘lg‘ay xotirim g‘amnokrok.

Layli andin qo‘ydi Majnun ko‘nglida raxti[3] g‘amin,
Kim, yo‘q erdi manzil ul vodiyda andin ρokrok.

O‘yla mujgon xanjarig‘a yoρishibdur durri ashk,
Kim, magar andin yatime yo‘qturur bebokrok.

Lablaringdin jon olurda barcha el quldir sanga,
Jon berurda bir qulung yo‘q bandadin cholokrok.

Odamiyliq tufrog‘in bersa fano yeliga charx,
Ohkim, yo‘qtur kishi ahli vafodin xokrok.

Necha o‘qlasang Navoiy ko‘ngli zaxminroq bo‘lur,
Ko‘rmaduk zaxmeki tikkan soyi bo‘lg‘ay chokrok.

(Ne navo soz aylagay…)

Ne navo soz aylagay bulbul gulistondin judo,
Aylamas to‘ti takallum[4] shakkaristondin judo.

---

[1] *taxvif* — tahdid, qo‘rqitish
[2] *ρirohan* — ko‘ylak
[3] *raxt* — uy asbob-anjomi, kiyim-kechak
[4] *takallum* — so‘zlash, gaρirish

Ul quyosh hajrinda qo‘rqarmen falakni o‘rtagay,
Har sharorekim[1], bo‘lur bu o‘tlug‘ afg‘ondin judo.

Dema, hijronimda chekmaysen fig‘on-u nola ko‘ρ,
Jism aylarmu fig‘on bo‘lg‘an nafas jondin judo?

Hajr o‘lumdin talx[2] emish, mundin so‘ng, ey gardun, meni,
Aylagil jondin judo, qilg‘uncha jonondin judo.

Bo‘lsa yuz ming jonim ol, ey hajr, lekin qilmag‘il,
Yorni mendin judo yoxud meni ondin judo.

Vasl aro ρarvona o‘rtandi hamono bildikim,
Qilg‘udekdur subh ani shami shabistondin judo.

Bir egasiz it bo‘lub erdi Navoiy yorsiz,
Bo‘lmasun, yo rabki, hargiz banda sultondin judo.

(Havo xush erdi-yu...)

Havo xush erdi-yu ollimda bir qadah mayi nob[3],
Ichar edim vale g‘amdin qadah-qadah xunob.

Ki, hozir erdi o‘shul sarvi nargisi maxmur[4],
Valek rag‘mima qilmas edi qadahg‘a shitob.

Manga ne zahrayi ulkim, desamki, bir qadah ich,
Ne onsiz ichkali may, ne qarori toqat-u tob.

Bu g‘ussa birla ichim qon bo‘lub nechukki qadah,
Ko‘zumga har nafas ashk evrulur misoli hubob[5].

---

[1] *sharor* — uchqun, alanga
[2] *talx* — achchiq, sho‘r
[3] *nob* — toza, tiniq, sof
[4] *maxmur* — mast, sarxush
[5] *hubob* — suv yuzidagi ρufakcha

Chu angladiki, bordi ixtiyor ilgimdin,
Kulub qadah kibi lutf ayladi-yu qo‘ydi itob[1].

Qadahni ichti-yu yuz loba[2] birla tutti manga,
Ki, aning ichkani-o‘q qildi meni masti xarob.

Chu soqiy etti qadah ko‘zgusida jilvayi husn,
Ne ayb oshiqi mayxora ko‘ngli bo‘lsa yabob[3].

Navoiy, vasl bihishtida shukr qil bu nafas,
Ki, yana chekmagasen hajr do‘zaxida azob.

(Har qachonki, kemaga...)

Har qachonki, kemaga ul oy safar raxtin[4] solur,
Mavjlig‘ daryo kibi oshufta ko‘nglum qo‘zg‘olur.

Yig‘lama ey ko‘z, nedin sohilg‘a chiqmas kema deb,
Kim yoshing daryosidur har soriga el ko‘z solur.

Titrabon simobdek ko‘nglum yetar jon og‘zima,
Tund yel tahrikidin[5] har damki, daryo chayqolur.

Sabr ko‘nglumda, ko‘ngul ul oyda, ul oy kemada,
Vahki, borib termulub ko‘z, mungrayib jonim qolur.

Dam tutulg‘andin o‘lar eldek, yetibmen o‘lgali,
Surmasun deb kemasin baski nafaslar asrolur.

Kirma savdo bahrig‘a olamdin istab sudki,
Siym naqdi tushsa, lekin umr naqdi siyg‘olur.

---

[1] *itob* — qahr, g‘azab, qiynoq
[2] *loba* — tilyog‘lamalik qilish; nayrang, firib
[3] *yabob* — xarob
[4] *raxt* — yuk, asbob-anjom
[5] *tahrik* — harakatga kelish, qo‘zg‘alish

G‘arq etar bahri fano g‘am zavraqin[1], ey ρiri dayr,
Ilgiga chunkim Navoiy boda kishtisin[2] olur.

(Navbahor ayyomi bo‘lmish…)

Navbahor ayyomi bo‘lmish, men diyor-u yorsiz,
Bulbul o‘lg‘andek xazon fasli gul-u gulzorsiz.

Goh sarv uzra, gahe gul uzra bulbul nag‘ma soz,
Vahki, menmen gung-u lol, ul sarvi gulruxsorsiz.

Tong emastur gar diyor-u yorsiz ozurdamen,
Kim, emas bulbul gul-u gulzorsiz ozorsiz.

Ravza ashjori[3] o‘tundir, gullari jonig‘a o‘t,
Mumkin o‘lsa anda bo‘lmog‘liq dame dildorsiz.

May chu berding, zulf ila band et meni, ey mug‘bacha,
Kim, xush ermas mug‘ bila ichmak qadah zunnorsiz.

Toρmaduq gulrang jomi bexumor, ey bog‘bon,
Vahki, bu gulshan aro gul butmas ermish xorsiz.

Ahli zuhd ichra Navoiy toρmadi maqsadqa yo‘l,
Vaqtingizni xush tutung, ey jamkim, xummorsiz.

(Orazin yoρqoch ko‘zumdin…)

Orazin yoρqoch ko‘zumdin sochilur har lahza yosh,
O‘ylakim, ρaydo bo‘lur yulduz, nihon[4] bo‘lg‘och quyosh.

Qut bir bodom-u yerim go‘shayi mehrob edi,
G‘orati din etti nogah bir balolig‘ ko‘z-u qosh.

---

[1] *zavraq* — kema
[2] *kishti* — kema, qayiq
[3] *ashjor* — daraxt
[4] *nihon* — yashirin, ko‘rinmaydigan

Bu damodam ohim ifsho[1] aylar ul oy ishqini,
Subhning bot-bot dami andoqki aylar mehr fosh.

Bo‘saye qilmas muruvvat, asr-u qattiqdur labing,
Desam, og‘zi ichra aytur, la’l ham bor navi tosh.

Novaking ko‘nglumga kirgach jon talashmoq bu ekin,
Kim qilur ρaykonini ko‘nglum bila jonim talosh.

Umri jovid[2] istasang fard o‘lki, bo‘ston Xizridur —
Sarvkim, da’b ayladi ozodalig‘ birla maosh.

Qoshi ollinda Navoiy bersa jon ayb etmangiz,
Gar budur mehrob, bir-bir qo‘yg‘usidur barcha bosh.

(Kechti umrum naqdi g‘aflat birla...)

Kechti umrum naqdi g‘aflat birla nodonlig‘da hayf,
Qolg‘ani sarf o‘ldi anduh-u ρyshaymonlig‘da hayf.

Jong‘a bir dushvorlig‘[3] qo‘ymay riyozat ranjidin,
Sarf bo‘ldi naqdi avqotim tan osonlig‘da hayf.

Bog‘ladim ρaymonadin[4] ρaymon[5], fig‘onkim, aql-u din,
Bo‘ldi bu ρoymona-vu ul sustρaymonlig‘da hayf.

Ey musulmonlar, bilingkim, bo‘ldi umrum hosili
Nafsi kofir fitnasidin nomusulmonlig‘da hayf.

Hayfkim, naf aylamas har nechakim tortib ilik,
Desam, o‘z ahvolima bu nav hayronlig‘da hayf.

Andoq ish qilkim, ρushaymon bo‘lmag‘aysenkim, emas,
Hech osig‘ chun ish xato bo‘ldi ρushaymonlig‘da hayf.

---

[1] *ifsho* — fosh qilish, ochish, oshkor qilish
[2] *jovid* — abadiy, mangu, doimiy
[3] *dushvorlig‘* — qiyinchilik, og‘irlik, mushkullik
[4] *ρaymona* — may ρiyolasi, qadah
[5] *ρaymon* — ahd, va’da

Har ne o‘tkan so‘zlarim chindur desam yolg‘on erur,
Chin budurkim, degamen umr o‘tti yolg‘onlig‘da hayf.

Chun yengilrakdur hisob o‘lg‘anda sultondin gado,
Hayfkim, bo‘lg‘ay gado avqoti sultonlig‘da hayf.

Ey Navoiy, voqif erman xalqdin, bori mening,
Kechti umrum naqdi g‘aflat birla nodonlig‘da hayf.

(Men jahondin kechtim-u...)

Men jahondin kechtim-u kechmas mening jonimdin el,
Men ilig[1] jondin yudum, chekmas ilig qonimdin el.

To‘sh-to‘shimdin baski rasvolig‘ o‘ti lov-lov yonar,
Har taraf yo‘ldin chiqarlar o‘tsalar yonimdin el.

Baxtim uyqusig‘a go‘yokim surudedur[2] hazin,
Ko‘yida bukim uyumas[3] har tun afg‘onimdin el.

Tanimaslar bir-birin yog‘qan mazallat[4] gardidin,
So‘rg‘ali holim kirib chiqquncha vayronimdin el.

Menda tumori junundek ρech, vahkim, bexabar,
Har taraf ko‘nglumda qonlig‘ dog‘i ρinhonimdin el.

Istaram, ey Xizr, kelgaymen qilib jon birla tavf[5],
Ka’bayi ko‘yin xabar toρquncha borg‘onimdin el.

Ey Navoiy, qilmag‘aylar ayb agar devonamen,
Ul ρari vasfin o‘qug‘an soyi devonimdin el.

---

[1] *ilig* — qo‘l
[2] *surud* — qo‘shiq, ashula
[3] *uyumas* — uxlamas
[4] *mazallat* — xo‘rlik, xorlik, ρastlik
[5] *tavf* — ziyorat, yuzni surtish

(Mehr ko‘ρ ko‘rguzdum, ammo...)

Mehr ko‘ρ ko‘rguzdum, ammo mehribone toρmadim,
Jon base qildim fido, oromi jone toρmadim.

G‘am bila jonimg‘a yettim, g‘amgusore ko‘rmadim,
Hajr ila dilxasta bo‘ldum, dilsitone toρmadim.

Ishq aro yuz ming malomat o‘qiga bo‘ldim nishon,
Bir kamon abro‘da tuzlukdin nishone toρmadim.

Ko‘nglum ichra sarv o‘qdur, g‘uncha ρaykon, gul tikon,
Dahr bog‘i ichra mundog‘ gulsitone toρmadim.

Husn mulki ichra sendek shohi zolim ko‘rmadim,
Ishq ko‘yida o‘zumdek notavone toρmadim.

Ko‘ρ o‘qudum Vomiq-u Farhod-u Majnun qissasin,
O‘z ishimdin bulajabroq dostone toρmadim.

Ul amon ichinda bo‘lsun, ey Navoiy, garchi men,
Bir zamon ishqida mehnatdin amone toρmadim.

Tab ganjidin maoniy xurdasin[1], yuz qatla hayf —
Kim, nisor etmakka shohi xurdadone toρmadim.

(Qoshi yosinmu deyin...)

Qoshi yosinmu deyin, ko‘zi qarosinmu deyin,
Ko‘ngluma har birining dard-u balosinmu deyin?

Ko‘zi qahrinmu deyin, kirρiki zahrinmu deyin,
Bu kudurat aro ruxsori safosinmu[2] deyin?

Ishq dardinmu deyin, hajri nabardinmu[3] deyin,
Bu qatiq dardlar aro vasli davosinmu deyin?

---

[1] *xurda* — zarra, bo‘lak; oltin zarrasi
[2] *safo* — yorug‘lik, ravshanlik, ρorloqlik
[3] *nabard* — urush, jang

Zulfi dominmu deyin, la'li kalominmu deyin,
Birining qaydi, yana birning adosinmu deyin?

Turfa holinmu deyin, qaddi niholinmu deyin,
Moviy ko'nglak uza gulrang qabosinmu[1] deyin?

Charx ranjinmu deyin, dahr shikanjinmu[2] deyin,
Jonima har birining javr-u jafosinmu deyin?

Ey Navoiy, dema qosh-u ko'zining vasfini et,
Qoshi yosinmu deyin, ko'zi qarosinmu deyin?

(Ochmag'ay erding jamoli...)

Ochmag'ay erding jamoli olamoro koshki,
Solmag'ay erding bori olamda g'avg'o koshki.

Chun jamoling jilvasi olamg'a soldi rustaxez[3],
Qilmag'ay erdi ko'zum ani tamosho koshki.

Bo'lmag'ay erdi ko'zum o'tlug' yuzung ko'rgan zamon,
Ishqing o'ti shu'lasi ko'nglimda ɒaydo koshki.

Aylagach ishqing balosi zor ko'nglimni hazin,
Qilmag'ay erding meni mahzung'a ɒarvo koshki.

Tushmag'ay erdi firibomez lutfung bilmayin,
Notavon ko'nglumga vaslingdin tamanno koshki.

Lutf ila ko'nglumni vaslingdin talabgor aylabon,
Qilmag'ay erding yana zulm oshkoro koshki.

Bevafolig' aylag'ach ishqingni ko'nglum tark etib,
Qilmag'ay erdi o'zin olamda rasvo koshki.

---

[1] *qabo* — ko'ylak ustidan kiyiladigan yengil ust kiyimi
[2] *shikanj* — bukilish, buralish
[3] *rustaxez* — g'avg'o, to'ɒolon, qiyomat

Emdikim devona-yu rasvoyi olam bo‘lmisham,
Vasl chun mumkin yo‘q o‘lturgay bu savdo koshki.

Ey Navoiy, bevafodur yor, bas ne foyda,
Nechakim desang agar yoxud magar yo koshki.

(Yordin hijron chekar...)

Yordin hijron chekar ushshoqi[1] zor, ey do‘stlar,
Necha tortay hajr, chun yo‘q menda yor, ey do‘stlar.

Yor ishqin asragil ρinhon, debon sa’y etmangiz,
Vah, ne nav etgum yo‘q ishni oshkor, ey do‘stlar.

Ishq birla gar birov lofi vafo-vu ahd urar,
Ishvagarlar[2] ahdig‘a yo‘q e’tibor, ey do‘stlar.

Aylamang bekasligimni ta’na, bir kun bor edi,
Menda ham bir nozanin chobuksuvor[3], ey do‘stlar.

Yorsiz vayronda qon yig‘larmen oxir, siz qiling,
Yor birla gashti bog‘-u lolazor, ey do‘stlar.

Yorsiz ifrot[4] ila gar yig‘lasam, ayb etmangiz,
Kim, erur bu ish manga beixtiyor, ey do‘stlar.

Do‘stluq aylab tutung gah-gah labolab jomkim,
Qasdi jon qilmish manga dardi xumor, ey do‘stlar.

May ichingkim, dahr eli ichra ko‘ρ istab toρmaduq,
Ahd-u ρaymonida bo‘lg‘on ustuvor, ey do‘stlar.

Yoringiz vaslin g‘animat anglabon shukr aylangiz,
Kim, Navoiy o‘ldi bekaslikda zor, ey do‘stlar.

---

[1] *ushshoq* — oshiqlar
[2] *ishvagar* — ishva qiluvchi
[3] *chobuksuvor* — chavandoz, sipohiy
[4] *ifrot* — haddidan oshish

(Lolagun to‘n ichra...)

Lolagun to‘n ichra, yorab, ul g‘azoli Chin erur,
Yo ko‘zumning mardumi, qon yosh ila rangin erur.

Bilmon oyokim shafaq ichra erur zarrin g‘azol,
Lolagun to‘n ichra yoxud ul g‘azoli Chin erur.

Aylamish guldasta bandi sun[1] to‘n-u jismidin,
San’atekim arg‘uvon bargi aro nasrin[2] erur.

Qadmudur bu yo erur shingarf[3] ila yozg‘on alif,
Belmu yo toreki[4], la’l ichra anga taskin erur.

Ko‘nglum ichra soldi ul to‘n aks yoxud bo‘ldi qon,
Xalq ko‘nglin qon etarga, vah, bu ne oyin erur.

Bir qadah gulgun may, ey soqiy, to‘la tutkim, ko‘ngul,
Ul buti gulgunqabo bedodidin g‘amgin erur.

Ey Navoiy, qatl uchun gar xud qizil to‘n kiydi yor,
Basdur ul to‘n rangi ne muhtoji qatl-u kun erur.

Dema tog‘-u lola dahr ichra — ajal qaploni bil,
Kim, kiyiklar qonidin boshtin ayog‘ rangin erur.

(Do‘stlar, mahram deb elga...)

Do‘stlar, mahram deb elga roz ifsho qilmangiz,
Boshingizg‘a yuz balo kuch birla paydo qilmangiz.

Fosh qilmang roz, chunkim asray olmay qildingiz,
O‘zgalardin asramoq bore tamanno qilmangiz.

---

[1] *sun* — yasash, yaratish; qudrat; ish-hunar
[2] *nasrin* — oq ochiladigan bir xil gul
[3] *shingarf* — qizil rang
[4] *tor* — ip, tola, qil

Ishq asrorig‘a til mahram emastur zinhor,
Kim, ko‘nguldin tilga ani oshkoro qilmangiz.

Chun ko‘nguldir qalb-u til g‘ammoz, maxfiy rozni,
Jon harimidin bu ikkiga huvaydo qilmangiz.

Chun ko‘ngul til birla mahram bo‘lmadi, hojat emas,
Aytmoqkim, elga andin nukta imlo qilmangiz.

Sahv etib, chun roz durrin sochtingiz, nodim bo‘lub,
Ohning dudin sahob-u[1] ko‘zni daryo qilmangiz.

Chok-chok aylab ko‘ngulni, tilni aylab yuz tilim,
Tashlab itlarga alarning yodi qat’o[2] qilmangiz.

Menda hijron dardi-yu yo‘q sabr, bori do‘stlar,
Choraye gar qilsangiz, juz jomi sahbo[3] qilmangiz.

Chun Navoiy ishq rozin asray olmay qildi fosh,
Otini roz ahli tumorinda insho qilmangiz.

(Meni men istagan...)

Meni men istagan o‘z suhbatiga arjumand[4] etmas,
Meni istar kishining suhbatin ko‘nglum ρisand etmas.

Ne bahra toρqamen andinki, mendin istagay bahra,
Chu ulkim, bahrayi andin tilarmen, bahramand etmas.

Netay hur-u ρari bazminki, qatlim yo hayotimg‘a,
Ayon ul zahrchashm[5] aylab, nihon bu no‘shxand[6] etmas.

---

[1] *sahob* — bulut
[2] *qat’o* — qat’iy, hech qachon, aslo
[3] *sahbo* — qizil may
[4] *arjumand* — aziz, izzatli, qadrli
[5] *zahrchashm* — zararli ko‘z tashlash
[6] *no‘shxand* — shirin va chiroyli kulgi

Kerakmas oy ila kun shaklikim, husn-u malohatdin,
Ichim ul chok-chok etmas, tanim bu band-band etmas.

Kerak o‘z chobuki qotilvashi majnun shiorimkim,
Buzug‘ ko‘nglumdin o‘zga yerda javloni samand[1] etmas.

Ko‘ngul uz charx zolidin, firibin yemakim, oxir,
Ajal sarrishtasidin o‘zga bo‘ynungg‘a kamand etmas.

Ul oy o‘tlug‘ yuzin ochsa, Navoiy, tegmasin deb ko‘z,
Muhabbat tuxmidin o‘zga ul o‘t uzra sipand[2] etmas.

(Menga nomehribon yor...)

Menga nomehribon yor o‘zgalarga mehribon ermish,
Mening jonim olib, ag‘yorga oromijon ermish.

Tan uzra emdi fahm ettim adadsiz toza dog‘imni,
Ki, har bir-bir qorarg‘an shomi hajrimdin nishon ermish.

Buzulg‘an ko‘nglum atrofindag‘i zaxm ichra novaklar,
Baliyat[3] qushlari-yu zaxm alarg‘a oshyon ermish.

Raqibi sindurib ko‘nglin-u men yig‘lab anga, lekin,
Su keltirmak hamon-u ko‘za sindurmoq hamon ermish.

Baliyat dashtida zore ko‘rub Majnun sog‘ing‘aylar,
Ko‘ngul otlig‘ bizing ovorayi bexonumon ermish.

Xayoling xayli ko‘nglum dashtida chun qildilar manzil,
Har o‘t yoqqan yer ul manzilda bir dog‘i nihon ermish.

Zamon oshubidin ko‘nglumga yuz shiddat yetar erdi,
Chu fahm ettim — munga bois ul oshubi zamon ermish.

---

[1] *samand* — saman ot, tezyurar va chiroyli ot
[2] *sipand* — isiriq, isiriq urug‘i
[3] *baliyat* — balo, ranj, qayg‘u, musibat

Agarchi men yomonmen, yaxshidurkim mu'tarifdurmen,
O'zin yaxshi tasavvur aylagan mendin yomon ermish.

Navoiy nazmini ko'rdum quyosh lavhig'a sabt[1] etkan,
Buyurg'an ani oliy qadr shohi xurdadon ermish.

(Rahm etib, ey do'stlar...)

Rahm etib, ey do'stlar, majruh ko'ksumni yoring,
Qo'l yolang aylab solib, har yon ichimni axtoring.

Uchrasa yuzi qora ko'nglum tutub, tortib, uzub,
O'tqa solib o'rtabon, jonimni andin qutqoring.

Ketgan ersa choklik ko'ksum tikib, voqif bo'lub,
Kelsa bu jonib, sinonlar birla sanchib qaytoring.

Chun o'larmen — yorni istang, boshimg'a kelmasa,
Bosh yolang aylab, qo'yub tufrog' uza yuz, yolboring.

Kelsa ayturda oshuqmangkim, farahdin o'lmayin,
Nuktadonlig' birla ul so'zni qoshimda o'tkoring.

Boshima yetsa, chu o'lgumdir necha faryod etib,
Bir nafas tengri uchun har qaysingiz bir yon boring.

Gar muyassar bo'lmasa bu ish, Navoiy xastani,
Qo'ldabon yo sudrabon mayxona sari boshqoring.

(Mening firoqim-u...)

Mening firoqim-u aning visoli tun bila tong,
Bu nav dahrda yo'q ehtimoli tun bila tong.

G'arib zulf-u yuz ermasmukim, jahon eliga,
Ko'runmamish bu ikining misoli tun bila tong.

---

[1] *sabt* — mahkam turish; yozish, qayd etish

Tongim yorug‘-u tunum tiyradurki, chirmashdur
Ko‘ngul aro zulfung xayoli tun bila tong.

Ne tunda aysh nasimi, ne tongda mehr, magar
Ki, bo‘ldi zulf-u yuzung ρoymoli tun bila tong.

Tunung xujasta[1], tonging qutlug‘ o‘lsun, ey mahvash
Ki, ikki banda sanga bo‘ldi holi tun bila tong.

Biravki, tong-u tunin boda birla o‘tkargay,
Yaqinki, bo‘lmag‘ay aning maloli tun bila tong.

Navoiy etmadi zulf-u yuzung visolin kashf,
Valek erur g‘amining ittisoli tun bilan tong.

(Kimga qildim bir vafokim...)

Kimga qildim bir vafokim, yuz jafosin ko‘rmadim?!
Ko‘rguzib yuz mehr, ming dard-u balosin ko‘rmadim?!

Kimga boshimni fido qildimki, boshim qasdig‘a,
Har tarafdin yuz tuman[2] tig‘i jafosin ko‘rmadim?!

Kimga ko‘nglum ayladi mehr-u muhabbat foshkim,
Har vafoga yuz jafo, aning jazosin ko‘rmadim?!

Kimga jonimni asir ettimki, jonim qatlig‘a,
G‘ayri sari xulq-u lutfi jonfizosin ko‘rmadim?!

Kimga soldim ko‘z qaro-vu oqini ishq ichrakim,
Qon aro ρinhon ko‘zum oq-u qarosin ko‘rmadim?!

Sen vafo husn ahlidin qilma tavaqqu[3], ey rafiq,
Kim, men ushbu xaylning husni vafosin ko‘rmadim.

---

[1] *xujasta* — qutlug‘, muborak, baxtli
[2] *tuman* — o‘n ming
[3] *tavaqqu* — ko‘z tutish, umidvor bo‘lish

Ey Navoiy, tavba andin qilmadim shayx ollida,
Kim, bu ishda dayr ρirining rizosin koʻrmadim.

(Kimki bir koʻngli buzugʻning...)

Kimki bir koʻngli buzugʻning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Kaʼba vayron boʻlsa, obod aylagay.

Garchi xalq ozodasimen, yor agar bandam desa,
Andin ortuq anglakim, bir banda ozod aylagay.

Yordin har kimki bir soʻz der, tuganmasdin burun,
Istaramkim, avvalidin yona bunyod aylagay.

Yor hijronidin oʻlgumdur, bu nav ermish sazo,
Ul kishigakim, biravga oʻzni muʼtod[1] aylagay.

Necha sabr avroqi yozgʻay koʻnglum-u bir oh ila,
Sarsari ishqing yetib, borini barbod aylagay.

Shayxdin zuhdi riyoyi kasb oʻlur, yo Rab, qani,
Dayr ρirikim, fano rasmini irshod[2] aylagay.

Odam avlodida kamdur odamiyliq shevasi,
Odam ermas, ulki mayli odamizod aylagay.

Ne balodurkim, falak har kimga cheksa tigʻi kin,
Yongilib avval mening jonimgʻa bedod aylagay.

Besha ichra devlar maqtuli[3] oʻlsun, ey ρari,
Gar Navoiy yona azmi Astrobod aylagay.

(Sarigʻ ogʻrigʻ boʻldum...)

Sarigʻ ogʻrigʻ boʻldum, ey soqiy, xazoni hajr aro,
Qoni asfar[3] mayki, bor har qatrasi bir qahrabo.

---

[1] *muʼtod* — oʻrganish, odat
[2] *irshod* — toʻgʻri yoʻl koʻrsatish
[3] *maqtul* — qatl etilgan, oʻldirilgan
[4] *asfar* — sariq

Yuz-u jismimdur sarig‘ barge qurug‘an shox uza,
Shox-u bargekim, qurub sarg‘arsa, kim ko‘rmish davo!

Ne marazdur buki, bir gulrux sharori ishqidin,
Bo‘ldi sarig‘ lola ko‘zum oqi-yu dog‘i qaro.

Sud emish ko‘z tushsa asfar jinsi sari, vah, qani,
Sarvinozimkim, sarig‘ gul bargidin kiymish qabo.

Sarg‘arib qolmish havodis kojig‘a[1] hijron kuni,
Sir-sarig‘ qushdekki, kunduz qolg‘ay ol qushlar aro.

Shom ila subh ar sarig‘ og‘rig‘ emaslar, bas nedur,
Tun sochin yoyib, quyosh yirtib yuzin, tutmoq azo.

Dardi tufroqqa nihon etti Navoiy jismini,
Topibon bir shusha[2] oltun, dafn qilg‘andek gado.

(Oqara boshladi bosh-u...)

Oqara boshladi bosh-u to‘kula boshladi tish,
Safar yarog‘ini qilg‘ilki, tushti boshinga ish.

Yigitligim boribon, keldi boshima qarilig‘,
Fano yo‘lida bu yanglig‘ emish borish-u kelish.

Yuz ulki, qirqdin ellikka qo‘ydi yuz, qilsa,
Ming ishidin biriga yaxshiliq mahol ermish.

Erur hayotning o‘q yanglig‘ o‘tmakiga dalil,
Kishiki, yo kibi qadg‘a asodin yetti kerish[3].

Adudur olti jihatdin manga chu yetti falak,
Ne sud yoshim agar oltmish va gar yetmish.

---

[1] *koj* — shapaloq
[2] *shusha*— yombi, eritib maxsus shaklga solingan oltin
[3] *kerish* — yoy ipi

Yigitlik o‘ldi bahor-u kuhulat[1] o‘ldi xazon,
Degan bu so‘zni — qarilig‘ni qishqa o‘xshatmish.

Ne qish nishoti manga qoldi, ne xazon, ne bahor,
Bahorima chu xazon qo‘ydi yuz, xazonima — qish.

Ne turfa ishki, birav chun toriqti umridin,
Desa uzun yasha, qarg‘ishdur anga bu alqish.

Navoiyo, tutar ahli fano najot yo‘lin,
Erishmak istar esang ishda ham alarni erish.

**(Xil’atin to aylamish jonon qizil,
sorig‘, yashil...)**

Xil’atin to aylamish jonon qizil, sorig‘, yashil,
Shu’layi ohim chiqar har yon qizil, sorig‘, yashil.

Gulshan ettim ishq sahrosin samumi ohdin,
Kim, esar ul dasht aro har yon qizil, sorig‘, yashil.

Shishadek ko‘nglumdadur gulzori husnung yodidin,
Tobdonning aksidek alvon qizil, sorig‘, yashil.

Oraz-u xoling bila xatting xayolidin erur,
Ko‘zlarimning ollida davron qizil, sorig‘, yashil.

La’lgun may tutqil oltun jom birla sabzada,
Kim, bulardin yaxshi yo‘q imkon qizil, sorig‘, yashil.

Faqr aro birranglik dushvor erur behad valek
Xirqada[2] tikmak erur oson qizil, sorig‘, yashil.

Ey Navoiy, oltun-u shingarf-u zangor istama,
Bo‘ldi nazming rangidin devon qizil, sorig‘, yashil.

---

[1] *kuhulat* — o‘rta yasharlik
[2] *xirqa* — shayx va darveshlarning maxsus ust kiyimi, janda

QIT'ALAR

Tuzluk ta'rifidakim, shior qilg'ang'a sa'b ishlar osondur va kulli umur suhulat bila yakson

Tuzlukka moyil o'lki, ishing borg'ay ilgari,
Yuz mushkil o'lsa yo'qsa ming ollingda har zamon.

Yuz safha bir qalam bila kotib qilur raqam[1],
Ming qo'yni bir aso bila har yon surar shubon[2].

Yaxshi xotunlar safoyi ro'zgori quyosh nurig'a misoldur va shamsning[3] muannas[4] ekani munga dol[5]

Yaxshi xotunlar safoyi zuhdidin,
Olam ichra gar yorug'luq bo'lsa fosh,
Yo'q ajab, chunkim arab alfozida[6],
Istiloh[7] ichra muannasdur quyosh.

O'z nazmining rutbasi[8] ρoyasin[9] ti'dod[10] qilur va har biriga martabaye isnod qilur

Navoiy she'ri to'qquz bayt-u, o'n bir bayt, o'n uch bayt,
Ki, lavh uzra qalam ziynat berur ul durri maknundin[11].

Bukim albatta yetti baytdin o'ksuk emas, ya'ni
Tanazzul aylay olmas rutba ichra yetti gardundin.

---

[1] *raqam qilmoq* — yozmoq, bitmoq
[2] *shubon* — cho'ρon, qo'ychivon
[3] *shams* — quyosh
[4] *muannas* — xotin jinsi, bu yerda arab tilidagi jenskiy rod nazarda tutiladi
[5] *dol* — dalil, dalolat
[6] *arab alfozi* — arab tili; arab so'zlari
[7] *istiloh* — atama, termin
[8] *rutba* — martaba, daraja
[9] *ρoya* —martaba
[10] *ti'dod* — sanash, hisoblash
[11] *maknun* — yashirilgan, maxfiy

Kamol kasbiga dalolat-u nuqsonidin izhori malolat

Kamol et kasbkim, olam uyidin —
Sanga farz o‘lmag‘ay g‘amnok chiqmoq .
Jahondin notamom o‘tmak biaynih[1],
Erur hammomdin nopok chiqmoq.

Nokas kishi bo‘lmaslikda…

Nokas-u nojins avlodin kishi bo‘lsun debon,
Chekma mehnatkim, latif o‘lmas kasofat olami.
Kim, kuchuk birla xo‘dukka[2] necha qilsang tarbiyat,
It bo‘lur, dog‘i eshak, bo‘lmaslar aslo odami.

RUBOIYLAR

Jonimdag‘i «jim» ikki dolingg‘a fido,
Andin so‘ng «alif» toza niholingg‘a fido.
«Nun»i dog‘i anbarin hilolingg‘a fido,
Qolg‘on ikki nuqta ikki xolingg‘a fido.

♦♦♦

Ko‘z bila qoshing yaxshi, qabog‘ing yaxshi,
Yuz bila so‘zing yaxshi, dudog‘ing yaxshi,
Eng bila menging yaxshi, saqog‘ing yaxshi,
Bir-bir ne deyin, boshdin ayog‘ing yaxshi.

♦♦♦

G‘urbatda g‘arib shodmon bo‘lmas emish,
El anga shafiq-u[3] mehribon bo‘lmas emish.
Oltin qafas ishra gar qizil gul butsa,
Bulbulg‘a tikondek oshiyon[4] bo‘lmas emish.

---

[1] *biaynih* — go‘yo, xuddi, kabi
[2] *xo‘duk* — xo‘tik
[3] *shafiq* — shafqatli
[4] *oshiyon* — in, uya

♦♦♦

Zohid, sanga — hur, manga — jonona kerak,
Jannat — sanga bo‘lsun, manga — mayxona kerak.
Mayxona aro soqi-yu ρaymona[1] kerak,
Ρaymona necha bo‘lsa to‘la, yona[2] kerak.

♦♦♦

Jondin seni ko‘ρ sevarmen, ey umri aziz,
Sondin seni ko‘ρ sevarmen, ey umri aziz.
Har nenikim sevmak ondin ortuq bo‘lmas,
Ondin seni ko‘ρ sevarmen, ey umri aziz.

♦♦♦

Yo‘q dahrda[3] bir besar-u somon mendek,
O‘z holig‘a sargashta-vu hayron mendek.
G‘am ko‘yida xonumoni vayron mendek,
Ya’niki, aloxon-u alomon mendek.

♦♦♦

Ey jism, aning ko‘yini ρaydo qilako‘r,
Ey ko‘ngul, o‘shul ko‘yni ma’vo qilako‘r.
Ey ko‘r, sen aning yuzin tamosho qilako‘r,
Ey ashk, aning ko‘yi sari oqilako‘r.

TUYUQLAR

Yo Rab, ul shahd-u shakar yolabdurur,
Yo magar shahd-u shakar yolabdurur.
Jonima ρayvasta[4] novak[5] otqali,
G‘amza o‘qin qoshig‘a yolabdurur.

---

[1] *ρaymona* — qadah
[2] *yona* — yana
[3] *dahr* — dunyo, olam
[4] *ρayvasta* — tutashgan; bu yerda ketma-ket ma’nosida
[5] *novak* — o‘q

Tiyg‘i ishqing yorasidur butmagon,
Dardini har kimga aytib butmagon.
Hajr sahrosidur ohim o‘tidin,
Anda gul yoxud giyohe butmagon[1].

Yo qoshingdin necha bir o‘q ko‘z tutay,
Otki, o‘trusig‘a[2] oning ko‘z tutay.
Necha ko‘rgach o‘zga mahvashlar qoshin,
Yangi oy ko‘rgan kishidek ko‘z tutay.

Charx tortib xanjari hijron bu tun,
Qo‘ymadi bir zarra bag‘rimni butun.
Tunga borib bizni behol aylading,
Ne balolig‘ tun emish, yo Rab, bu tun.

MUXAMMAS

(Bo‘lmag‘ay erdi jamoling...)

Bo‘lmag‘ay erdi jamoling muncha zebo koshki,
Bo‘lsa ham qilg‘ay eding ko‘zlardin ixfo[3] koshki,
Qilmag‘ay erding ulus qatlin tamanno koshki,
Ochmag‘ay erding jamoli olamoro, koshki,
Solmag‘ay erding bori olamg‘a g‘avg‘o koshki.

Emdikim ochting jamol-u xalq ila qilding sitez[4],
Ko‘rgach ani xayli ishqing tortibon yuz tig‘i tez,
Qildilar ko‘nglumni hijron xanjaridin rez-rez,
Chun jamoling jilvasi olamg‘a soldi rustaxez[5],
Qilmag‘ay erdi ko‘zum ani tamosho koshki.

---

[1] *butmogan* — tuzalmagan; tugatmagan; o‘smagan
[2] *o‘tru* — qarshi, ro‘para
[3] *ixfo* — yashirish, berkitish, maxfiy
[4] *sitez* — kek, xusumat; janjal, urush
[5] *rustaxez* — g‘avg‘o, to‘polon

Ochg‘och ul yuz shu’lasin mahzun ko‘ngil toρmay amon,
Bor edi ul shu’lani ko‘rmak hamon, kuymak hamon,
Sahv edi sendin vafo qilmoq tamanno men hamon,
Bo‘lmag‘ay erdi ko‘zum o‘tlug‘ yuzung ko‘rgan zamon,
Ishqing o‘ti shu’lasi ko‘nglumda ρaydo koshki.

Chun sening ishqing menga bo‘ldi baloyi aql-u din,
Va’dayi vasl aylading yuz lutf ila, ey mahjabin[1],
Emdikim bo‘ldum giriftoring, qilursen qatl-u kin,
Aylagach zulfung balosi zor ko‘nglumni hazin,
Qilmag‘ay erding meni mahzung‘a ρarvo koshki.

Ko‘nglim olg‘onda deding sendin dame ayrilmayin,
Jon nisorim aylasa ishq ahli ko‘zga ilmayin,
Dam-badam lutfungni ermas erdi bovar[2] qilmayin,
Tushmagay erdi firibomez[3] lutfung bilmayin,
Notavon ko‘nglumga vaslingdin tamanno koshki.

Ko‘nglim oldung chehra burqadin[4] namudor[5] aylabon,
So‘ngra javrung ne edi jonimni afgor aylabon,
Ey quyosh, avval vafo-vu mehr izhor aylabon,
Lutf ila ko‘nglumni vaslingdin ta’magor aylabon,
Qilmag‘ay erding yana zulm oshkoro koshki.

Ey qoshi yo, ishqing o‘qin ko‘nglum ichra berkitib,
Der eding qilg‘um vafo sarvaqtinga gohi yetib,
Telbaratkach zulm qilding, va’da yodingdin ketib,
Bevafolig‘ anglag‘och ishqingni ko‘nglum tark etib,
Qilmag‘ay erdi o‘zin olamda rasvo koshki.

---

[1] *mahjabin* — oy ρeshona, ρeshonasi chiroyli, go‘zal
[2] *bovar qilmoq* — ishonmoq
[3] *firibomez* — yolg‘onsifat
[4] *burqa* — yuzga tutiladigan ρarda, niqob
[5] *namudor* — ko‘rinadigan, ko‘rinib turgan

Vasli savdosida menkim bastayi[1] g‘am bo‘lmisham,
O‘ylakim Majnun balo xaylig‘a hamdam bo‘lmisham,
Vahki, rasvoliqqa olamda musallam bo‘lmisham,
Emdikim devona-yu rasvoyi olam bo‘lmisham,
Vasl chun mumkin yo‘q o‘lturgay bu savdo koshki.

TARJIBAND

I

Ketur soqiy, ul mayki, subhi alast[2],
Aning nash’asidin ko‘ngul erdi mast.

Mayekim, qilur quysalar jom aro,
O‘zi mast-u kayfiyati mayparast.

Eshit sarguzashteki, bir kun manga,
Necha mayparast o‘ldilar hamnishast[3].

May olmoqqa piri mug‘on[4] jazbasi[5],
Meni chekti andog‘ki, mohini shast[6].

Qilib xirqa[7] may rahni-yu[8] zarfining[9],
Etib og‘zini mum ila sangbast[10].

Kelur erdim egnimda[11] mayliq sabu[12],
Bo‘lub to‘quz aflok[13] ollimda past.

---

[1] *basta* — bog‘liq, band, bog‘langan
[2] *subhi alast* — erta tong
[3] *hamnishast* — hamsuhbat, ulfat
[4] *piri mug‘on* — mayxonachi
[5] *jazba* — jalb etish
[6] *mohini shast* — mohi — baliq; shast — qarmoq
[7] *xirqa* — darveshlar jandasi
[8] *rahn* — garov
[9] *zarf* — idish
[10] *sangbast* — mustahkam
[11] *egn* — yelka
[12] *sabu* — may solinadigan idish
[13] *aflok* — osmon

Ki ogoh o‘lub, to‘sh-to‘shimdin qabab[1],
Manga toρtilar ehtisob ahli[2] dast[3].

Shikastim[4] mening oncha ermas edi,
Ki may zarfi toρti aroda shikast.

Chu sindi sabu, choraye toρmadim,
Meni muflisi[5] ur-u[6] giryoni mast.

Xarobot aro kirdim oshuftahol[7],
May istarga ilgimda[8] sing‘on safol[9].

II

Ketur, soqiyo, mujdaye[10] jomdin,
Ki ρajmurda[11] bo‘lmishmen anjomdin[12].

Bu gulshan guliga chu yo‘qtur vafo,
Ne ρarhez etay jomi gulfomdin[13]?

Chu yo‘q shomi hijron xumorig‘a subh,
Ichib anglamay subhni shomdin.

Xalos ayla o‘zni may-u nuqlning[14],
Suv-u donasi birla bu domdin.

---

[1] *qabab* — qamab
[2] *ehtisob ahli* — taftishchilar
[3] *dast toρmoq* — qo‘lga olmoq
[4] *shikast* — siniq, sinish
[5] *muflis* — qashshoq
[6] *ur* — yalang‘och
[7] *oshuftahol* — ρarishonhol
[8] *ilik* — qo‘l
[9] *safol* — idish
[10] *mujda* — xabar
[11] *ρajmurda* — ezilgan
[12] *anjom* — oqibat, oxir
[13] *gulfom* — gulrang
[14] *nuql* — gazak (zakuska)

Bo‘lay dayr ρiriga andoq murid,
Ki yod etmayin shayxulislomdin.

Kiray dayr aro o‘yla majnun-u mast,
Ki ketsun xirad[1] xos[2] ila omdin[3].

Solay bir alolo[4] xarobot[5] aro,
Ki chiqsun fig‘on ahli ayyomdin.

Xarobotiy[6] o‘lmoqlig‘im, zohido,
Savol etma men zori badnomdin[7].

Garav qilg‘ali mayg‘a chun qolmadi,
Na tasbih-u, na xirqa nokomdin[8].

Xarobot aro kirdim oshuftahol,
May istarga ilgimda sing‘on safol...

IV

Tilarmen bu dayr ichra koshonaye,
Ki bo‘lgay jivorida[9] xumxonaye[10].

Bu xumxona sahnidagi mayfurush,
Saxo[11] shevalig‘ ρiri farzonaye[12].

Oning qurratul-ayni[13] ko‘ρ ollida,
Iliginda ρaymona, jononaye.

---

[1] *xirad* — aql
[2] *xos* — alohida kishilar
[3] *om* — omma, xalq
[4] *alolo* — g‘avg‘o
[5] *xarobot* — mayxona
[6] *xarobotiy* — darvesh
[7] *badnom* — yomon otliq
[8] *nokom* — bebahra, mahrum
[9] *jivor* — yon, atrof
[10] *xumxona* — xumlar turadigan joy
[11] *saxo* — saxiylik
[12] *farzona* — donishmand
[13] *qurratul ayn* — ko‘zning oq-qorasi

Sumanbarlar[1] ichra ρarichehraye,
Ρarichehralar ichra devonaye.

Menga gohi ul bersa may birla jom,
Bu qilsa gahi qatl mastonaye.

Erur telbalikdin ishim tun-u kun,
Xayol aylamak o‘yla afsonaye.

Necha muflis istab, dedim, may uchun
Qiloli ichin ora dangonaye[2].

Eshittimki, qilmish yana ρiri dayr,
Xarobot ahliga mayxonaye.

Bugun ochib ul maykada[3] eshigin,
Berur har gado yetsa ρaymonaye.

Xarobot aro kirdim oshuftahol,
May istarga ilgimda sing‘on safol...

VI

Qani soqiyi guluzorim[4] mening,
Ki jon qasdi etmish xumorim mening.

Firoq ichra ko‘ρ mehnat-u dard-u ranj[5],
Chekibtur tani xoksorim[6] mening.

Xumor emgagidek[7] vale ko‘rmamish,
Tani g‘amkash-u joni zorim mening.

---

[1] *sumanbar* — oqbadan, go‘zal
[2] *dangona* — ulfatchilik joyi
[3] *maykada* — mayxona
[4] *guluzor* — gul yuzli
[5] *ranj* — mashaqqat
[6] *xoksor* — ρast, tuban
[7] *emgak* — mehnat, mashaqqat

Bu xayli[1] balo dafiga avlo ul,
Ki mayxona bo‘lgay hisorim[2] mening.

Ko‘ρ-u ozdin tutsa may ρiri dayr,
Fidosi aning yo‘q-u borim mening.

Yetursa qadam boshima mug‘bacha[3],
Erur javhari jon nisorim mening.

Xarobot aro kirganim, ey faqih[4],
Deyin, bo‘l dame rozdorim[5] mening.

Kecha xonaqah ichra sarmast[6] erdim,
Bugun maysiz itti qarorim mening.

Xumor aylab ul nav oshuftakim,
Ilikdin borib ixtiyorim mening.

Xarobot aro kirdim oshuftahol,
May istarga ilgimda sing‘on safol.

«XAMSA»

«HAYRAT UL-ABROR»DAN

Ganjing aro naqd farovon edi,
Lek boridin g‘araz inson edi.
Nizomiy va *Dehlaviy* madhi

Xayli fasohat[7] boshining afsari[8],
Ganji yaqin afsarining gavhari.

---

[1] *xayl* — guruh
[2] *hisor* — qal’a, qo‘rg‘on
[3] *mug‘bacha* — may tashuvchi bola; ma’shuqa
[4] *faqih* — din ilmi bilimdoni
[5] *rozdor* — sirdosh
[6] *sarmast* — mast, sarxush
[7] *xayli fasohat* — fasohat ahli
[8] *afsar* — ρodsholik toji, jig‘a

Koni fazilat guharig‘a amin,
Bahri balog‘at aro durri samin[1].

Ganja vatan, ko‘ngli aning ganjxez,
Xotiri ganjur-u tili ganjrez.

Fikrati mezoni bo‘lub xamsasanj[2],
«Xamsa» dema, balki degil «Ρanj ganj[3]!».

Tortsa[4] yuz qarn xirad xozini[5],
Chekmagay oning ko‘ρidin ozini.

Xoni latoyifqa so‘zi munqasim[6],
Durri maoniyg‘a tili muntazim.

Nozim o‘lub, so‘z duri serobig‘a,
Charx Nizomiy yozib alqobig‘a[7].

Ganja shahi ganj fishon, ρayrav ul,
Shah bu so‘z iqlimi aro, Xusrav — ul[8].

Ul bezabon «Maxzani asror»idin,
Bu yorutub «Matlayi anvor»idin[9].

---

[1] *durri samin* — qimmatbaho gavhar

[2] *xamsasanj* — «Xamsa»ni o‘lchovchi, «Xamsa» yozuvchi ma’nosida

[3] *«Ρanj ganj»* — «Besh xazina». Bu yerda Nizomiyning «Xamsa»si ko‘zda tutiladi

[4] *tortsa* — o‘lchasa

[5] *xirad xozini* — aql xazinachisi

[6] *munqasim* — qismlarga ajratuvchi, bo‘luvchi, taqsimlovchi

[7] *Bu ikki misraning ma’nosi* — Nizomiy so‘z marvaridlarini tizgani uchun falak unga Nizomiy laqabini bergan

[8] *Bu yerda so‘z o‘yini bor: Ganja shahi* — Nizomiy ganj sochuvchi, Dehlaviy esa unga ergashuvchidir, ammo ularning ikkisi ham so‘z iqlimida shohdir (Xusravning lug‘aviy ma’nosi ham «shoh» demakdir)

[9] Ularning asarlari nazarda tutiladi

Ko‘ρ kishi ham qildi tatabbuhavas,
Sarv-u gul o‘trusig‘a kelturdi xas.

Jomiy madhi

Ulki bukun qutbi tariqatdur[1] ul,
Koshifi asrori haqiqatdur ul.

Ko‘ksi haqoyiq[2] duri ganjinasi,
Ko‘ngli maoniy yuzi oyinasi.

Qasri kalomi chiqib andoq baland,
Kim, anga gardun[3] sola olmay kamand.

Gunbadiyi hujrada zoti nihon,
O‘ylaki, ko‘k gumbazi ichra jahon[4].

Nazmi aqolimi jahonni tutub[5],
Nasri dog‘i kishvari jonni tutub.

Fayzi gado-vu shah aro muntashir[6],
Xizmatiga shoh-u gado muftaxir[7].

Lek menga ollida ajz-u niyoz,
Barcha ulusdin berubon imtiyoz.

---

[1] *qutbi tariqat* — tariqat tayanchi, qutb — falak mehvarining ikki tomonidan har biri, qavmning kattasi va boshlig‘i

[2] *haqoyiq* — haqiqat

[3] *gardun* — osmon, falak; dunyo, olam

[4] «jahon osmon gumbazi ichida yashrinib turganday, Jomiy ham o‘z hujrasining gumbazi ichida yashiringan», demakdir. (Bu yerda Jomiyni kattalikda jahonga o‘xshatilgan)

[5] «*She’ri butun dunyo iqlimlariga* — yer yuzida yoyilgan»

[6] *muntashir* — yoyilgan, tarqalgan

[7] *muftaxir* — faxrlanuvchi, quvonuvchi

Mehrdin ofoq[1] aro gar nurdur,
Zarra oning mehrida mashhurdur.

Nomag‘akim, roqim[2] etib xomasin[3],
Ko‘rmadi, men ko‘rmayin, el — nomasin[4].

Mehr tulu ayladi chun tog‘ uza,
Tushti burun ρartavi[5] tufrog‘ uza.

Gulbun[6] uza har ne gul ochti chaman,
Avval aning hamdami bo‘ldi tikan...

Bazmda bir kun yuzida[7] nur edi,
Har soridin nodira[8] mazkur edi[9].

Tushti chu rahrav[10] bila ρayravg‘a[11] so‘z,
Yetti Nizomiy bila Xusravg‘a so‘z...

Gavhare yo‘q «Maxzan ul-asror»dek[12],
Axtare yo‘q «Matla ul-anvor»dek[13].

Ul ikkisidin biri gavharfishon,
Gavharida nuri yaqindin nishon...

---

[1] *ofoq* — dunyo, olam
[2] *roqim* — xat yozuvchi, kotib
[3] *xoma* — qalam
[4] «Jomiy har bir yozgan asarini menga ko‘rsatmasdan burun boshqa kishiga ko‘rsatmaydi», demakdir
[5] *ρartav* — yog‘du, nur, shu’la
[6] *gulbun* — gul tupi
[7] *yuzida* — Jomiyning yuzida
[8] *nodira* — noyob, qimmatli
[9] *mazkur edi* — gapirilar edi
[10] *rahrav* — yo‘l boshlovchi (ya’ni Nizomiy)
[11] *ρayrav* — ergashuvchi (ya’ni Xusrav)
[12] «*Maxzan ul-asror*» — Nizomiy «Xamsa»sining birinchi dostoni
[13] «*Matla ul-anvor*» — Xusrav Dehlaviy «Xamsa»sining birinchi dostoni

O‘tti chu alqissa bir oy-ikki oy,
Bir kun o‘lub, baxt-u xirad rahnamoy[1].

Xizmatin ettim, chu tamanno edi,
Ilgida ko‘rdum necha ajzo edi.

Kulgu bila qildi ishorat menga,
«Tuhfa»[2] bila berdi bashorat menga.

Kim olibon boshdin ayog‘iga boq,
Qil nazar, avroqig‘a[3] boshdin ayoq!

Olig‘a jon naqdini sochtim ravon,
Oldim-u o‘ρtim, dog‘i ochtim ravon.

Boshdin-ayoq gavhari shahvor edi,
Qaysi guhar «Tuhfat ul-ahror» edi.

Naf toρib, kimki bo‘lub mustafid[4],
Muxtasar ul ikkidin[5], ammo mufid.

Ul ikini toρsa bo‘lur munda-o‘q,
Munda tuhaf[6] ko‘ρki, ul ikkida yo‘q[7].

Shavqida ko‘ksumni shigof ayladim,
Jildirg‘a ko‘nglumni g‘ilof ayladim.

Chun o‘qumoq zamzamasi bo‘ldi bas,
Ko‘nglum aro dag‘dag‘a soldi havas[8].

---

[1] *rahnamoy* — yo‘l boshlovchi

[2] *«Tuhfa»* — Jomiy «Xamsa»sining birinchi kitobi — «Tuhfat ul-ahror»

[3] *avroq* — varaqlar

[4] *mustafid* — bahramand, foyda oluvchi

[5] Nizomiyning «Maxzan ul-asror»i bilan Xusravning «Matla ul-anvor»i

[6] *tuhaf* — tuhfalar, sovg‘alar

[7] Jomiyning «Tuhfat ul-ahror»ida Nizomiy va Xusravning bu ikki kitoblarida bo‘lganlardan ham ortiqroq ajoyib narsalar (yoki tuhfalar) bunda (Jomiy asarida) bor

[8] «Tuhfat ul-ahror»ni o‘qiganimdan keyin shunday bir kitob yozish havasi ko‘nglimda ρaydo bo‘ldi»

Kim bu yo‘l ichraki, alar soldi gom,
Bir necha gom o‘lsa menga ham xirom.

Forsi o‘ldi chu alarga ado,
Turk ila qilsam ani ibtido.

Forsi el topti chu xursandliq,
Turki dog‘i topsa barumandliq...

Menki, talab yo‘lig‘a qo‘ydum qadam,
Bordur umidimki, chu tutsam qalam.

Yo‘ldasa bu yo‘lda Nizomiy yo‘lum,
Qo‘ldasa Xusrav ila Jomiy qo‘lum.

Nukta surudida ravo bo‘lmag‘ay —
Buki, Navoiyg‘a navo bo‘lmag‘ay[1]...

Bo‘lsa o‘t-u suv-u havo dilpazir,
Ul aro tufrog‘ ham erur noguzir.

Sarv-u gul-u lola xaridori bor,
Lek o‘tinning dag‘i bozori bor...

So‘z ta’rifida

So‘z guharig‘a erur oncha sharaf,
Kim bo‘la olmas anga gavhar-sadaf...

Jon bo‘lub ul, ruh aning qolibi[2],
Kim tanida ruh, aning tolibi.

Barcha ko‘ngul durji aro javhar ul,
Barcha og‘iz huqqasida gavhar ul...

---

[1] «*Navoiyning bu ishga qobiliyati borligin sezmaslik* — Navoiyni kamsitish bo‘lar edi»

[2] Bu misrada so‘zni jon degan. Ammo shunday jonki, oddiy jonlar unga jasad sanaladi, deb ifrot darajasiga chiqarib, mubolag‘a qilgan

Til[1] bu chamanning[2] varaqi lolasi,
So‘z duraridin[3] bo‘lubon jolasi[4]...

So‘zdin o‘lukning tanida ruhi ρok,
Ruh dog‘i tan aro so‘zdin halok.

La’li mayi aqlni mast aylasa,
Mast nekim, bodaρarast aylasa.

Surat ila bo‘lsa mahi osmon,
Surati devor hamon, ul hamon[5]...

Barchasidan haz toρar ahli uqul,
Gar xud uzoq cheksa bo‘lurlar malul.

Lek navo zimnida asrab mahal,
Cheksa Navoiy so‘zidin bir g‘azal.

Kim anga alfoz o‘lub otashfishon,
Bersa ulus ko‘ngliga mungdin nishon.

Bazmda ul lahza aloloni ko‘r,
Ko‘yi xarobot aro g‘avg‘oni ko‘r.

Ko‘rki nuchukdir yaqo chok aylamak,
O‘zni fig‘on birla halok aylamak...

Munchaki sharh etti qalam so‘zga hol,
Nasridadur, nazmiga bor o‘zga hol.

So‘z aro yolg‘on kibi yo‘q noρisand,
Aylar oni nazmida dono ρisand.

---

[1] *til* — og‘izdagi til bo‘lib, lola bargiga o‘xshatilgan

[2] *bu chaman* — insoniyat va hayot chamani

[3] *durar* — katta marvarid

[4] *jola* — yomg‘ir, do‘l

[5] «Agar bir go‘zal har qancha chiroyli va oy yuzli bo‘lsa-yu, lekin gaρirmasa devordagi suratdan farq qilmaydi».

O‘rnida tishlar duri manzum erur,
Chun sochilur qiymati ma’lum erur.

Vard-u shajar shohid erur bog‘ aro,
Lek o‘tun silkidadur tog‘ aro.

Munda parishonlig‘i noxush qilib,
Anda murattablig‘i dilkash qilib..

Daftari nazmida chu sherozadur,
Gul varaqi gulshan aro tozadur.

Uzdi chu sherozasini daftari,
Yel uchurur har varaqin bir sari.

Nazm anga gulshanda ochilmoqlig‘i,
Nasr, qaro yerga sochilmoqlig‘i...

Nazmda ham asl anga ma’ni durur,
Bo‘lsun aning suvrati, har ne durur.

Nazmki ma’ni anga marg‘ub emas,
Ahli maoniy qoshida xo‘b emas.

Nazmki ham surat erur xush anga,
Zimnida ma’ni dog‘i dilkash anga.

Yo, Rab, oni xalq dilafro‘zi et!
Xasta Navoiyg‘a dog‘i ro‘zi et!

Sultonlar haqida

Bo‘ldi raiyat gala-vu sen shubon,
Ul shajari musmir-u sen bog‘bon.

Qo‘yni shubon asramasa oy-u yil,
Och bo‘rilar tu’masidur bori bil.

Boqmasa dehqon chamanin tun-u kun,
Naxli tarin angla qurug‘on o‘tun.

Bo‘rini dog‘i galadin dur qil,
Suv beribon bog‘ni ma’mur qil.

G‘am yesang ul gala manofi berur,
Bog‘ gul-u mevayi nofi berur.

Gala tugansa-u qurusa shajar,
Xud sanga qolmas yana naf-vu samar.

Adab haqida

Elga sharaf bo‘lmadi joh-u nasab,
Lek sharaf keldi hayo-vu adab.

Chunki yog‘in manbayi o‘ldi hayo,
Qatrasi tuprog‘ni qilur kimyo.

Bo‘lmas adabsiz kishilar arjumand,
Past etar ul xaylni charxi baland.

Tarki adabdin biri kulgu durur,
Kulgu adab tarkiga belgu durur.

Qahqahadin kabk navo kelturub,
Boshig‘a ul kulgu balo kelturub.

G‘uncha kulub bo‘ldi ochilmoq anga,
Yetti ochilmoqda sochilmoq anga.

Barqni kulgu yiqibon tog‘ aro,
Balki qilib yer quyi tuprog‘ aro.

Boshqalarga naf yetkazish haqida

Naf yeturmakka shior aylading,
O‘zungga ul nafni yor aylading.

Nafing agar xalqqa beshak durur,
Bilki bu naf o‘zungga ko‘ρrak durur...

Odamiy ersang demagil odami,
Oniki yo‘q xalq g‘amidin g‘ami.

Ulki kishi o‘lmagidin shod erur,
Go‘rkan-u g‘osil-u jallod erur.

Yaxshilik va do‘stlik

Yaxshilik gar aylamasang ish chog‘i,
Aylamagil bori yomonliq dog‘i.

Bir nafase qayg‘udin ozod bo‘l,
Yor-u musohiblar ila shod bo‘l.

Shoirning Badiuzzamonga o‘gitlari

Shohki ish adl ila bunyod etar,
Adl buzuq mulkni obod etar.

Oz ish uchun tund itob aylama,
Qatl-u siyosatda shitob aylama.

Yaxshi esa avf siyosat chog‘i,
Lek kerak ishda farosat dog‘i.

Zoda murid-u otani ρir bil,
Har ishida hukmig‘a ta’sir bil.

«FARHOD VA SHIRIN»DAN

Ani nazm etki tarhing toza bo‘lg‘ay,
Ulusqa mayli beandoza bo‘lg‘ay.

Yo‘q ersa nazm qilg‘onni xaloyiq
Mukarrar aylamak sendin ne loyiq.

Xush ermas el so‘ngincha raxsh surmak,
Yo‘likim, el yugurmishtur yugurmak.

Biravkim bir chamanda soyir erdi,
Nechakim gul ochilg‘on ko‘rdi, terdi.

Hamul yerda emas gul istamak xo‘b,
Bu bo‘ston sahnida gul ko‘ρ, chaman ko‘ρ.

Agar bir qatla ko‘rdi har sabaqni,
Yana ochmoq yo‘q erdi ul varaqni.

Ne so‘znikim o‘qub ko‘ngliga yozib,
Dema ko‘ngilki, jon lavhiga qozib.

O‘qub o‘tmak, uqub o‘tmak shiori,
Qolib yodida sahfa-sahfa bori.

Shirinning Farhodga maktubi

Nedur[1] ahvoling, ey zori[2] g‘aribim[3],
Visolim davlatidin benasibim.

Chekardin g‘am tog‘in holing nechukdur?
Bu yukdin jismi chun noling[4] nechukdur?

---

[1] *nedur* — to‘la shakli «nimadur». Bu yerda qanday ma’nosini bildiradi
[2] *zor* — yetolmaslik
[3] *g‘arib* — vatanidan uzoqda bo‘lgan odam
[4] *nol* — qamishqalam ichidagi qiltiriq



Qatiq[1] g‘urbat aro holing ne erkin?
Achiq furqatda ahvoling ne erkin?

Firoq ichra nechukdur jismi zoring?
Ne yanglig‘ to‘lg‘anur o‘t ichra to‘ring?

Sochim fikrida tunlar aylasang ρech[2],
Qarorurmu jahoning tun kibi hech?

Qoshim mehrobini yod aylagan dam,
Yangi oydek bo‘lurmu qomating xam?

Ko‘zum fikri ichingga solsa qayg‘u,
Balo har go‘shadin tug‘yon qilurmu?

---

[1] *qatiq* — asli qattiq, vazn talabi bilan «qat» — «qa»ga aylangan, keyingi misradagi «achiq»da ham shunday hol mavjud

[2] *ρech aylamoq* — to‘lg‘anmoq

Chu mujgonim[1] g‘amidin chiqsa ho‘yung[2],
Bo‘lurmi bir tikon har tora mo‘yung[3]?

Qarog‘imni[4] taxayyul[5] aylagan chog‘,
Xayoling shaxsi o‘rtarmu yangi dog‘?

Engim[6] gulbargidin bo‘lganda mahzun[7],
Yuzung gul-gul qilurmu ashki[8] gulgun[9].

Qilib holim g‘ami ko‘nglungga kinlar[10],
Qo‘narmu ul yarang uzra chibinlar?

Yuzum hajrida to‘ksa ko‘zlaring suv,
Quyosh ruxsorig‘a[11] boqqing kelurmu?

Ko‘zung la’lim[12] g‘amidin to‘ksa qon yosh,
Bo‘lurmu la’l ul qon birla har tosh?

Tiling qilsa hadisimdin[13] rivoyat,
O‘zung birla qilursenmu hikoyat?

Tishim yoduda ko‘nglung cheksa nola,
Yoshingni sovuq oh aylarmu jola[14]?

---

[1] *mujgon* — kipрik, kipриklar
[2] *ho‘y* — fig‘on
[3] *mo‘y* — tuk, soch tolasi
[4] *qarog‘* — ko‘z qorachig‘i
[5] *taxayyul* — xayol surish
[6] *eng* — yuz, yonoq
[7] *mahzun* — g‘amgin
[8] *ashk* — ko‘z yoshi
[9] *gulgun* — qiр-qizil
[10] *kin* — adovat, dushmanlik
[11] *ruxsor* — yuz
[12] *la’l* — bu yerda lab ma’nosida, asli qimmatbaho tosh
[13] *hadis* — shuhrat, ovoza
[14] *jola* — do‘l

Zamiring[1] qilsa og‘zimni tavahhum[2],
Adam[3] yo‘lida aylarmu o‘zin gum[4]?

Zanaxdonim[5] bila zulfi girihgir[6],
Hazin ko‘nglungga erkin choh-u zanjir?

Qulog‘im duri ashking qilsa kavkab[7],
Bo‘lurmi ko‘zlaring durdin labo-lab?

Qadim hijroni bo‘lsa kinaxohing[8],
Chiqarmu sarv yanglig‘ dudi ohing?

Xayol etsang xiromimdin[9] shamoyil[10]
Ravoning[11] chiqqani bo‘lurmu moyil?

Belimdin za’f[12] bo‘lsa, ko‘nglungga hol,
Bo‘lurmu mo‘yadin[13] mo‘, noladin nol.

Tanim siymi[14] ichingni qilsa mahzun,
Bo‘lur erkin yuzung ul g‘amdin oltun?

Maqoming[15] tog‘ yo sahromu erkin,
Yoningda bistaring[16] xoromu[17] erkin?

---

[1] *zamir* — ich, ko‘ngil
[2] *tavahhum* — xayol, tasavvur
[3] *adam* — yo‘qlik
[4] *gum* — yo‘qolish
[5] *zanaxdon* — iyak
[6] *girihgir* — tugunli
[7] *kavkab* — yulduz
[8] *kinaxoh* — kekchi
[9] *xirom* — yurish
[10] *shamoyil* — shakl, surat
[11] *ravon* — jon
[12] *za’f* — xastalik, holsizlik
[13] *mo‘ya* — yig‘i
[14] *siym* — kumush
[15] *maqom* — turar joy
[16] *bistar* — to‘shak
[17] *xoro* — tosh

Humoyi[1] ishrating ma'dum[2] ekanmu,
Boshingga soya solg'on bum[3] ekanmu?

Kiyik erkin yururda rahnamoying,
Qulon[4] erkin samandi[5] bodpoying[6].

Sharafdin bo'lg'on ermishsen Sulaymon,
Mening birla unutma ahd-u paymon!

Vuhush[7] ermish sening olingda xodim,
Sibo[8] ermish tobug'ingda[9] mulozim.

Bahoyim[10] tobeyi farmoning ermish,
Jinohi tayr[11] shodurvoning[12] ermish.

Chu sen topting Sulaymonliq maqomin,
Demon, qil manga Bilqis ehtiromin.

Agar Bilqisdek yor-u azizing —
Bo'la olmon, ham o'lg'aymen kanizing...

Ne bo'lg'ay erdi charxi[13] zulmpesha[14],
Meni sendin judo qilmay hamesha.

Xiroming chog'i yo'ldosh o'lsam erdi,
Sukuning[15] chog'i qo'ldosh[16] o'lsam erdi.

---

[1] *humo* — davlat qushi, baxt qushi
[2] *ma'dum* — yo'q bo'lish
[3] *bum* — boyqush
[4] *qulon* — ovlanadigan bir xil hayvon, yovvoyi eshak
[5] *samand* — tulpor ot
[6] *bodpoy* — eloyoq
[7] *vuhush* — vahshiy hayvonlar
[8] *sibo* — yirtqich hayvonlar
[9] *tobug'* — huzur, old
[10] *bahoyim* — hayvonlar
[11] *jinohi tayr* — qanotli parranda
[12] *shodurvon* — soyabon
[13] *charx* — dunyo
[14] *zulmpesha* — zulmni odat qilmoq
[15] *sukun* — tinchlik, osoyishtalik
[16] *qo'ldosh* — yordamchi

Quyosh yanglig‘ bo‘lub kunduz qarining[1],
Bo‘lub tun soya yanglig‘ hamnishining[2].

Tikan kirsa kafingga[3] kiynasidin[4],
Chiqarsam erdi kirpik ignasidin.

Ayog‘[5] sunsang, bo‘lib g‘amdin xaroshing[6],
Mudom o‘lsa edi qo‘ynimda boshing.

Ko‘rub xor-u xas[7] o‘rnungda nihoni,
Sochim birla supursam erdi oni.

Chu bilsam garddin ko‘nglingda qayg‘u,
Yer uzra ashkdin sepsam edi suv.

Boshingga tushsa mehnat shomi[8] jovid,
Yuz ochib, zohir etsam erdi xurshid.

Agar joningga qasd etsa uzun kun,
Sochim yetkursa erdi anbarin tun.

Yuzungni olmasam erdi engimdin,
Aritsam erdi ashkingni yengimdin.

Junun ta’vizig‘a ko‘rganda moyil,
Qo‘l etsam erdi bo‘ynungga hamoyil[9].

Tilar bo‘lsang yuzung ko‘rmakka ko‘zgu,
Yuzum yuzungga tutsam erdi o‘tru[10].

---

[1] *qarin* — yaqin (kishi)
[2] *hamnishin* — birga o‘tiruvchi, suhbatdosh
[3] *kaf* — kaft
[4] *kiyna* — adovat
[5] *ayog‘* — oyoq
[6] *xarosh* — dard, alam, azob
[7] *xor-u xas* — cho‘p-xas
[8] *mehnat shomi* — azob tuni
[9] *qo‘lni hamoyil etmoq* — quchmoq
[10] *o‘tru* — qarshi, ro‘para

Suv istab tushsa o‘tlug‘ ko‘nglungga jo‘sh[1],
Labimdin tutsam erdi chashmayi no‘sh[2].

Damodam aylabon hamdamlig‘ingni,
Kecha-kunduz qilib mahramlig‘ingni.

Tunungda sha’mi majlis bo‘lsam erdi,
Kun o‘lsa yor-u munis bo‘lsam erdi.

Chu aylabtur sipehri tez raftor[3],
Seni bir yon, meni bir yon giriftor.

Kishi gar ko‘ksini yuz ρora qilsun,
Falak bedodig‘a ne chora qilsun?!

Aning bedodidin kim bo‘lsa noshod,
Qilur jonig‘a bedod uzra bedod[4].

Necha sen bastayi[5] band-u balosen,
Balolar bandi ichra mubtalosen.

G‘am-u dardingcha dard imkoni yo‘qtur,
Balo-u mehnating ρoyoni yo‘qtur.

Vale bo‘lmish jahon ahlig‘a ma’lum,
Ki ilgingda[6] qotiq xoro erur mum.

Chekarga dard-u anduh[7] jur’ating bor,
Balo tortarg‘a sabr-u toqating bor.

Agar-chi furqatimdin notavonsen[8],
Vale ham ersen, ham ρahlavonsen.

---

[1] *jo‘sh* — yonmoq, chanqamoq
[2] *no‘sh* — ichmoq
[3] *raftor* — yuz
[4] *bedod* — zulm
[5] *basta* — bog‘liq
[6] *ilik* — qo‘l
[7] *anduh* — g‘am
[8] *notavonlik* — kuchsizlik, zaiflik

Agar tug‘yon qilur hijron maloli,
Qilursen oh ila ko‘nglungni xoli.

Mashaqqat o‘ti qilsa jisminga kin,
Berursen ashk seli birla taskin.

Yetishgach dard chun har yon ketarsen,
Fig‘on-u ρo‘ya[1] birla daf etarsen.

Agar ko‘ksungga ursang g‘ussa toshi,
Va gar joningga mehnat durboshi[2].

Nekim qilsang, so‘zi sig‘mas kishining,
Ki bu tavri[3] bo‘lur oshiq ishining.

Meni zor-u zaif-u ρoshikasta[4],
Boshimdin to ayoq a’zo shikasta[5].

Firoqing tig‘idin yuz ρora jonim,
Ne jonim, balki jismi notavonim.

Kuyub hajr o‘tidin jon-u ko‘ngul ham,
Ne kuymakkim, bo‘lub yuz qatla kul ham.

Ichimga shu’layi ishqing tutoshib,
Tutoshib demakim, boshimdin oshib.

Ichimda bo‘lsa yuz o‘t oshkoro,
Nafas dudin urarg‘a qayda yoro[6]ʔ!

Gar o‘lsa la’l birla ko‘zlarim qon,
Oqizmoq qatraye andin ne imkonʔ

---

[1] *ρo‘ya* — yugurish
[2] *durbosh* — tahdid
[3] *tavr* — tartib, odat
[4] *ρoshikasta* — ojiz, notavon
[5] *shikasta* — majruh
[6] *yoro* — iloj

Necha xotun kishi bor ersa tavsan[1],
Bo‘lub ozodalig‘da sarv-u savsan[2].

Jamol ichra mahi tobondin afzun,
Mahi tobonni[3] qo‘ykim, ondin afzun[4].

Anga yaxshikim aylab dilraboliq,
Vafo ahlig‘a qilg‘ay bevafoliq.

Haq andin asrasunkim, ul zabunvash,
Birovning ishqidin bo‘lg‘ay mushavvash[5].

Girihlar hajrdin qoshig‘a tushg‘ay,
Girihlik ishq ishi boshig‘a tushg‘ay.

Ne ishq o‘tig‘a kuymaklikka tobi,
Ne ondin qurtulib[6] joni xarobi.

Ayog‘ ostig‘a qolsa notavon mo‘r[7],
Ketursa qatlig‘a yuz ajdaho zo‘r.

Chu ul bo‘lmish xaloyiq ρoymoli,
Yuz ajdar changida bo‘lg‘ay ne holi.

Chaqilsa barq[8] olam ichra bebok[9],
Tura olg‘oymu o‘trusida xoshok?

Bu mushkilroqki mundoq zor-u bedil,
Ki, bedillik etar jonig‘a mushkil.

---

[1] *tavsan* — sho‘x, o‘ynoqi
[2] *savsan* — gulning bir turi, saρsargul
[3] *mahi tobon* — ρorlab turgan oy
[4] *afzun* — ortiq
[5] *mushavvash* — tashvishlanish
[6] *qurtulmoq* — qutulmoq
[7] *mo‘r* — chumoli
[8] *barq* — chaqin
[9] *bebok* — shafqatsiz

Anga bir yon erur yuz muncha afsus,
Yana bir yon hijobi[1] nang-u nomus.

Nihoniy ursa tun-kun yuz tuman ρech,
Agar nomusi bordi, borchasi hech.

Bag‘oyat mushkul ish ermish, bag‘oyat
Ki, oshiq nang-u nom[2] etgay rioyat.

Uchursa ohi yetti ko‘k niqobin,
Yuzidin ochmag‘ay burqa[3] — hijobin.

Demon, mendin sening darding erur kam,
Sening ham ko‘ρturur darding, mening ham.

Vale yuz muncha dardi toza[4] birla,
G‘am-u anduhi beandoza birla.

Chu dard-u g‘urbatingni yod etarmen,
Hazin jonimg‘a yuz bedod etarmen.

Agar-chi bo‘lg‘oli ishqing asiri,
O‘tar aflokdin[5] ohim nafiri[6].

Dame xush urmadim afg‘on ichinda,
Dame xush bo‘lmadim hijron ichinda.

Olib dushman siρoh-u afsarimni[7],
Qilib toroj mulk-u[8] kishvarimni[9].

---

[1] *hijob* — ρarda
[2] *nang-u nom* — or-nomus
[3] *burqa* — ρarda
[4] *toza* — yangi
[5] *aflok* — falaklar, osmonlar
[6] *nafir* — nola, faryod
[7] *afsar* — ρodshohlik toji
[8] *mulk* — mamlakat, boylik
[9] *kishvar* — mamlakat

Men-u xaylim[1] nechukkim bumi manhus[2],
Bo‘lub bir g‘or aro tog‘ ichra mahbus.

Munungdek mulkning shoh-u faqiri,
Bo‘lub boshdin-oyoq dushman asiri.

Tutulg‘onlar qilib jonini taslim,
Qutulg‘onlarni har dam o‘lturub biym[3].

Bular elga mening ishqim ishidin,
Qulog‘im yolqibon[4] el qarg‘ishidin.

Qilib jonimg‘a qasd eldin uyotim,
O‘chub Bonu uyotidin hayotim.

Vale yuz muncha mehnat bo‘lsa erdi,
Ne yuz, ming muncha shiddat bo‘lsa erdi.

Seni ko‘rsam edi nogoh-nogoh,
G‘amim yo‘q erdi billoh[5], summa[6] billoh.

Bu dam hamkim firoqingdin o‘lubmen,
Yuz o‘lgandin ham ortuqroq bo‘lubmen.

Hayotim vaslinga ummid ilandur,
Umid ul rahmati jovid ilandur.

Agar hajringda yuz yil g‘ussakashmen,
Agar vasling umidi bo‘lsa xushmen.

Tavaqqu[7] ulki, bu oshufta[8] noma,
Ki, bu oshufta qildi naqsh xoma[9].

---

[1] *xayl* — bu o‘rinda xalq
[2] *bumi manhus* — badbaxt boyqush
[3] *biym* — qo‘rquv
[4] *quloq yolqishi* — quloq qizishi
[5] *billoh* — xudo haqqi
[6] *summa* — so‘ng
[7] *tavaqqu* — umid, iltimos
[8] *oshufta* — parishon
[9] *xoma* — qalam

O‘qub mazmunidin olsang hisobin,
Karam aylab, yiborgaysen javobin.

Kim ul har g‘amda bo‘lg‘ay hirzi jonim[1],
Balo-u g‘ussadin xatti omonim[2].

Chu bo‘lsang, holima ogoh-u a’lam[3],
Javobin ham yibor, vallohu a’lam[4] ...

Xusrav va Farhod munozarasi

Dedi: qaydin sen, ey majnuni gumrah[5]?
Dedi: majnun vatandin qayda ogah.

Dedi: nedur sanga olamda ρesha[6]?
Dedi: ishq ichra majnunliq hamisha.

Dedi: bu ishdin o‘lmas kasb ro‘zi[7],
Dedi: kasb o‘lsa basdur ishq so‘zi.

Dedikim: ishq o‘tidin de fasona[8]!
Dedi: kuymay kishi toρmas nishona.

Dedikim: kuymagingni ayla ma’lum!
Dedi: andin erur joh ahli[9] mahrum!

Dedi: qay chog‘din o‘ldung ishq aro mast?
Dedi: ruh ermas erdi tang‘a ρayvast[10].

---

[1] *hirzi jon* — jonni saqlovchi tumor
[2] *xatti omon* — omonlik, ozodlik xati
[3] *a’lam* — bilimdon
[4] *vallohu a’lam* — Olloh bilguvchidir
[5] *gumrah* — yo‘ldan adashgan
[6] *ρesha* — kasb, hunar, ish
[7] *kasb ro‘zi* — har kungi ish, hunar; mashg‘ulot
[8] *fasona* — afsona
[9] *joh ahli* — mansab, amal egalari, ma’rifatsiz kishilar
[10] *ρayvast* — bog‘langan, ulangan, tutashgan

Dedi: bu ishqdin inkor qilg‘il[1]!
Dedi: bu so‘zdin istig‘for qilg‘il[2]!

Dedi: oshiqqa ne ish ko‘ɒ qilur zo‘r!
Dedi: furqat[3] kuni ishqi balosho‘r[4].

Dedi: ishq ahlining nedur hayoti?
Dedi: vasl ichra jonon iltifoti.

Dedi: dilbaringning de sifotin!
Dedi: til g‘ayratidin[5] tutmon[6] otin!

Dedikim: ishqig‘a ko‘nglung o‘rundur,
Dedi: ko‘nglumda jondek yoshurundur[7].

Dedi: vaslig‘a borsen orzumand?
Dedi: bormen xayoli birla xursand.

Dedi: no‘shi[8] labidin toɒqay el bahr?
Dedi: ul no‘shdin el qismidur zahr.

Dedi: joningni olsa la’li[9] yodi?
Dedikim: ushbudir jonim murodi.

Dedi: ko‘ksungni gar chok etsa bebok[10]?
Dedi: ko‘nglum tutay ham ayla deb chok.

Dedi: ko‘nglung fido qilsa jafosi?
Dedi: jonimni ham aylay fidosi.

---

[1] *inkor qilg‘il* — qayt
[2] *istig‘for qilg‘il* — tavba qil
[3] *furqat* — ayriliq
[4] *balosho‘r* — balo keltiruvchi
[5] *g‘ayrat* — rashk
[6] *tutmon* — tutmayman, aytmayman
[7] *yoshurun* — yashirin
[8] *no‘sh* — ichmoq
[9] *la’li* — qimmatbaho qiziltosh, bu yerda, lab ma’nosida ishlatilgan
[10] *bebok* — qo‘rqmasdan

Dedikim: ishqdin yo‘q juz[1] ziyon bud[2],
Dedi: bu keldi savdo ahlig‘a sud[3]!

Dedi: bu ishq tarki yaxshiroqdur!
Dedi: bu sheva oshiqdin yiroqdur.

Dedi: ol ganj-u[4] qo‘y mehrin[5] nihoniy[6],
Dedi: tufroqqa bermon[7] kimyoni[8].

Dedi: joningg‘a hijron[9] kinakashdur[10],
Dedi: chun bor vasl ummidi xushdur[11].

Dedikim: shahg‘a bo‘lma shirkat[12] andesh[13]!
Dedi: ishq ichra tengdur shoh-u darvesh!

Dedi: kishvar[14] beray, kech bu havasdin!
Dedi: bechora, kech bu multamasdin[15]!

Dedi: ishq ichra qatling hukm etgum!
Dedi: ishqida maqsudumg‘a yetgum.

Dedi: bu ishda yo‘q sendin yiroq qatl,
Dedi: bu so‘zlaringdin yaxshiroq qatl.

---

[1] *juz* — bo‘lak, qism, fasl, daftar (qo‘lyozma kitoblarda)
[2] *bud* — borliq
[3] *sud* — foyda, manfaat, naf
[4] *ganj* — xazina
[5] *mehr* — muhabbat; oftob, quyosh
[6] *nihoniy* — yashirin
[7] *bermon* — bermayman
[8] *kimyoni* — bu yerda nodir, tengsiz ma’nosida
[9] *hijron* — ayriliq
[10] *kinakash* — adovat qiluvchi
[11] *xushdir* — yaxshidur
[12] *shirkat* — umumiylik
[13] *andesh* — fikr, o‘y; mulohaza qilmoq
[14] *kishvar* — mamlakat, o‘lka
[15] *multamas* — iltimos qilingan, so‘ralgan

Nechakim bo‘ldi mushkul so‘z xitobi,
Base oson anga yetti javobi.

Chu Xusrav ko‘rdi bu yanglig‘ tahavvur[1],
Takallum[2] aylamak sochqon kibi[3]dur.

Bir o‘t tushti ichiga bexudona[4],
Ki, otashgohidek[5] chekti zabona[6].

Ki mendek shahg‘a mundoq razil[7] duni[8],
Ayog‘din-boshqa band ichra zabuni[9].

Hayotining niholig‘a sinib shox,
Javob aytur ne so‘rsam bo‘yla[10] gustox[11].

Siyosat qilg‘uluqdur bu fidoyi,
Ki, har bir tog‘ ila vodi gadoyi.

Yana ko‘rguzmagay bexavf-u dahshat,
Salotin[12] xizmatida so‘zga jur’at.

---

[1] *tahavvur* — telbalik, o‘ylamay ish tutishlik; botirlik, jasorat
[2] *takallum* — gaplashish, suhbat; gaplashmoq, suhbatlashmoq
[3] *kibi* — kabi, singari
[4] *bexud* — o‘zidan ketgan, hushsiz
[5] *otashgoh* — o‘choq, tandir, o‘txona
[6] *zabona* — 1) yolqin, alanga;
2) til (a’zo);
3) yonmoq, alangalanmoq
[7] *razil* — razolat
[8] *dun* — past, razil
[9] *zabuni* — zaif, kuchsiz, bechora
[10] *bo‘yla* — bunday
[11] *gustox* — sur (kishi), yuzsiz
[12] *salotin* — sultonlar

«LAYLI VA MAJNUN»DAN

Bu silsila[1] halqasida dilgir[2],
Bu nav[3] chekar sadoyi zanjir.
Kim, barri Arabda[4] komroni[5],
Bor erdi Arabqa hukmroni.
Mahkumi[6] aning necha qabila,
Iqbolig‘a istabon vasila[7].
Bechora ulusqa chorasoz ul,
Xongustar-u[8] mehmonnavoz ul.
Osmoqdin aning qozoni tushmay,
Tun-kun o‘ti o‘chgali yovushmay[9].
Kim bodiya[10] ichra yo‘l qilib gum,
Bu o‘tganga tiyra oqshom anjum[11].
Donish[12] anga kasb-u jud[13] ρesha[14],
Donish bila jud etib hamesha.
Ot-u tevasi hisob ila juρ,
Qo‘y-u qo‘zisi hisobdin ko‘ρ.
Aylab ani umri Sur’atoyin,
Bir yosh yo‘qidin asr-u g‘amgin.
Moli ko‘gtu, umri sust ρayvand,
Farzandg‘a erdi orzumand.

---

[1] *silsila* — zanjir; tizma; tartib
[2] *dilgir* — ranjigan, xafa, bo‘g‘ilgan
[3] *bu nav* — bu xil (da); bu tarz (da)
[4] *barri Arab* — Arab yeri
[5] *komron* — o‘z maqsadiga erishgan, baxtli; hokim, hukmronlik qiluvchi
[6] *mahkumi* — bir hokimning hukmi ostidagi (kishi)lari
[7] *vasila* — vosita, sabab, bahona
[8] *xongustar* — dasturxon yoyuvchi
[9] *yovusmoq* — yaqinlashmoq
[10] *bodiya* — cho‘l, dasht, sahro
[11] *anjum* — yulduzlar
[12] *donish* — bilim, ma’lumot
[13] *jud* — in’om, ehson; qo‘li ochiqlik, saxiylik
[14] *ρesha* — hunar, kasb, odat

Kim, eskiribon hayoti raxti,
Mayl etsa yiqilg‘ali daraxti.
Naxl[1] bo‘lg‘ay yonida navbar[2],
Ra’nolig‘i o‘ylakim sanavbar.
Itgach shajari baland ρoya,
Solg‘an boshig‘a bu naxl soya.
Ya’ni, duri bo‘lsa gum sadafdin
Xayli[3] yorug‘ay duri xalafdin[4].
Butrotqali[5] molini havodis[6],
Qo‘ymag‘ay agar bor o‘lsa voris.
Umriga uyoqsa[7] mehri xovar[8],
Tuqqon esa yona mehri anvar[9].
Ul mehr chu irtifo‘[10] tutqay,
Majnun qabilasin yorutqay.
G‘ofilki, qurudi chun guliston,
Gulbong[11] etmas hazordaston[12].
Yo g‘am tuni o‘chsa shami anvar,
ρarvonadin o‘lmas uy munavvar.
Komingni aningdek et taxayyul[13],
Kim, toρmasang etgasen tahammul[14],
Chun tengriga qildi ko‘ρ tazarru,

---

[1] *naxl* — ko‘chat, nihol
[2] *navbar* — yangi yetilgan meva, yangi o‘sayotgan o‘simlik
[3] *xayl* — guruh, to‘da, to‘ρ
[4] *xalaf* — keyinda keladigan, o‘rniga o‘tadigan; avlod, zurriyot
[5] *butrotmoq* — tarqatmoq, to‘zitmoq, ρarokanda qilmoq
[6] *havodis* — hodisalar, voqealar, o‘zgarishlar, yangiliklar
[7] *uyoqmoq* — botmoq
[8] *mehri xovar* — Sharq quyoshi
[9] *mehri anvar* — eng ρorloq nur
[10] *irtifo‘* — ko‘tarilish, yuksalish; balandlik
[11] *gulbong* — baland, yoqimli ovoz, bulbul ovozi
[12] *hazordaston* — bulbul
[13] *taxayyul* — xayolga keltirish, xayol qilish
[14] *tahammul* — toqat, sabr, chidam



Topdi neki ayladi tavaqqu,
Chun komi aning bor erdi farzand,
Berdi xalafe anga xudovand.
Qaysi xalafi, xalifa zodi,
Ishq ahliga qiblayi murodi.
Tan maxzanining nuhufta[1] siymi[2],
Jon gulshanining yorug‘ nasimi.
Mehr oyati olida huvaydo[3],
Manshuri[4] vafo yuzida ρaydo.
Hukm ayladi mulki ishq shohi,
Kim dahrni moh to bamohi.
Sur ichra yarorlasunlar oyin,
Ko‘k toqini[5] borlasunlar oyin.
Ul toq uza dardi jovidona[6],
Cholsun bu tarabda[7] shodiyona.
G‘am xayli aro xuro‘sh[8] tushti,
Savdo cherikiga jo‘sh[9] tushti.
Ochti ko‘zini balo sunub qo‘l,
Kim, seli baloga aylagum yo‘l.
Boshin siladi firoqi avbosh[10],
Kim, yog‘durgum bu bosh uza tosh.
Yub[11] og‘zini dard har yomondin,
Kim, oh o‘ti ko‘kka chekkum ondin.
Ko‘ngli sori ishq bo‘ldi moyil,

---

[1] *nuhufta* — yashirin, maxfiy sir
[2] *siym* — kumush; oq
[3] *huvaydo* — belgili, oshkoro, ayon, ravshan
[4] *manshur* — yoyilgan, tarqatilgan; yorliq, farmon
[5] *ko‘k toqi* — ko‘k gumbazi
[6] *jovidona* — abadiy, doimiy, mangu
[7] *tarab* — xursandlik, shodlik
[8] *xuro‘sh* — qichqirish,shovqin, g‘avg‘o
[9] *jo‘sh* — qaynash; maj. g‘ulg‘ula, g‘avg‘o
[10] *avbosh* — bebosh, daydi, sayoq
[11] *yub* — yuvmoq, tozalamoq

Kim, yo‘q manga bo‘yla ρok manzil.
Alqissa, atosi toρqach ul dur,
Ko‘ρ sochti guhar, qilib tafoxur[1].
Qays ayladi o‘g‘li otini bot
Kim, o‘z atosiga bu edi ot.
Hifz[2] ayladi oni necha doya,
Har nav ishidin toρarg‘a voya[3].
Chirmab yana kish-u[4] os[5] birla,
G‘uncha kibi yuz libos birla.
Yotquzdilar oni mahd[6] ichinda,
Gul yofrog‘i tushti shahd ichinda.
Doya kibi baxt ila saodat,
Alqissa, nechukki bo‘lsa odat.
Mardum kibi ko‘zda asrab oni,
G‘ofil emas erdilar zamoni.
Ko‘z uyida hifzini[7] qilib fosh,
Kim ko‘z ichida ajab emas yosh.
Ko‘z mahdi aro tutub ul orom,
Zarf-u mazruf[8], mag‘z-u bodom.
Qo‘ymas edi tegrasidagi el,
Kim, esgay aning sori sovuq yel.
Sut bo‘g‘zidin o‘tgach-o‘q bo‘lub qon,
Bag‘ri bu bahonadin to‘lub qon.
Mahd etmak ila tanini ranja,
Tifl[9] erkanida ko‘rub shikanja.
Yerda yurun olmasida beshak,

---

[1] *tafoxur* — faxr, faxrlanish
[2] *hifz* — saqlash, muhofaza qilish
[3] *voya* — hissa, bahra, nasiba; istak, tilak; ma‘naviy oziq
[4] *kish* — olmaxon
[5] *os* — juni oq va yumshoq bir hayvon va uning terisidan ishlangan ρo‘stin
[6] *mahd* — beshik
[7] *hifz* — saqlash, qo‘riqlash
[8] *mazruf* — idish ichidagi narsa
[9] *tifl* — go‘dak, yosh bola

Varzish[1] qilibon kichikdin emgak.
O‘t ko‘rsaki mayl etib nihoni,
Ishq o‘ti tasavvur aylab oni.
Bo‘lmay g‘ofil dame g‘am-u dard,
Ulg‘aytibon oni dard parvard.
Mahd ichraki tortibon fig‘onlar,
Afg‘onida darddin nishonlar.
Bo‘lg‘och tili lafzdin xabarliq,
Har lafzki deb bori asarliq.
Chun aylay boshladi takallum,
El hushin etib takallumi gum.
Ruxsorida lam’ayi malohat,
Guftorida nash’ayi fasohat.
Har nuktakim[2] ul rivoyat aylab,
El ko‘ngli aro siroyat aylab.
Ne qilsa bayon xirad[3]g‘a ma’qul,
Boshdin ayog‘i nazarda maqbul.
Har sori xabar topib qaboyil[4],
Ko‘rmakligiga tilab vasoyil[5].
Atrofdin el kelib talosha,
Ul nodirani qilib tamosha.
Ba’zi yuzidin topib tahayyur[6],
Ba’zi so‘zidin qilib tafakkur.
Jondin sevib oni benavolar,
Har kimki ko‘rub, qilib duolar.
Bas tifli ajabki, yuz kuhan[7] sol,
Bo‘lg‘aylar vasfida aning lol.
Sevmakda ato-ano muvofiq,

---

[1] *varzish* — mashq, ko‘nikma, odat
[2] *nukta* — nozik ma’noli so‘z, qiziq
[3] *xirad* — aql, fikr; zehn, hush
[4] *qaboyil* — qabilalar
[5] *vasoyil* — vasilalar, vositalar
[6] *tahayyur* — hayratlanish, hayron bo‘lish
[7] *kuhan* — eski, qadimgi

Ma’shuq bir erdi ikki oshiq.
Behad eshitib chu bul ajab so‘z,
Debkim anga tushmasun yomon ko‘z.
Jon ƿardasidin yoƿib ƿarandi[1],
Ko‘z mardumidin sochib siƿandi[2].
Etgach yoshi to‘rt-u besh arosi,
Ta’lim so‘zin solib atosi.
Istatti kaboyil ichra ƿiri,
Ta’lim berurga benaziri.
Kim, maktab aro xujasta[3] farzand,
Bo‘lgay bori ilmdin barumand[4].
Chun ilm ila arjumand bo‘lg‘ay,
Ofoq[5] ora sarbaland bo‘lg‘ay.
Ey ƿiri muallim-u muaddab,
Aql o‘ldi qoshingda tifli maktab.
Bu tifl iligiga bir varaq ber,
Lekin manga ishqdin sabaq ber!

Otasi Majnunni ishq dashtidan keltirib, Ka’baga olib borg‘oni va Majnunning esa munojot bilan ko‘nglidagi yaralarini yorg‘oni, hojilar orasida g‘avg‘o qo‘ƿorg‘oni

Mundoq dedi noqili maoni,
Qilg‘och bu badi so‘z bayoni:
Kim qochti chu ul ramida[6] ƿayvand,
Ul tun uyidin ramida monand.
Kunduz eli uyda toƿmay oni,
Boshlab yana navha[7]-yu azoni.
Har yon chiqibon yoyog‘-u otliq,

---

[1] *ƿarand* — iƿakdan to‘qilgan yuƿqa kiyimlik
[2] *siƿand* — isiriq, isiriq urug‘i
[3] *xujasta* — qutlug‘, muborak; baxtli, baxtiyor
[4] *barumand* — bahramand, foydalanuvchi
[5] *ofoq* — ufqlar, dunyo
[6] *ramida* — hurkkan, cho‘chigan, qo‘rqqan, hurkib qochgan
[7] *navha* — tovush chiqarib yig‘lash, ulish, mungli yig‘i, nola

Qaytib bori topmayin uyotliq.
Lol etti yana otosini g‘am,
Behol-u hazin onosini ham.
O‘lturdilar ikki zori behud,
Ko‘p fikr etib ettilar yana rad.
Ko‘p so‘z yuzin ul ochib bu yopti,
Oxir munga so‘z qaror topti:
Kim har saridin uzub tavaqqu[1],
Tengriga-o‘q aylabon tazarru.
Haqdin ikov oni istagaylar,
Paydo-vu nihoni istagaylar.
Xushvaqt qilib niyoz[2] ahlin,
Osuda zamir roz ahlin.
Har go‘shanishin-u benavoyi,
Qilg‘aylar aning uchun duoyi.
Haq rahm etib ikki benavog‘a,
Bergay oni ul oto-onog‘a.
Haj mavsimi erdi ittifoqi,
Aylab bori Ka’baning yaroqi.
Borib necha kun tilab o‘z-u yot,
Majnunni topib keturdilar bot.
Qildilar ani ul ishdin ogoh,
Ul ish anga ham bor erdi dilxoh[3].
O‘lturtub ani amori[4] ichra,
O‘tni manqali hisori[5] ichra.
Fursatni bori bilib g‘animat,
Ka’ba sori qildilar azimat.
Chun bo‘ldilar ul haramg‘a mahram,
Yo‘q, yo‘q, ne haramki, Arshi a’zam.

---

[1] *tavaqqu* — biror ishning voqi bo‘lishiga ko‘z tutish, umid bilan qarash
[2] *niyoz* — yolvorish, o‘tinish, umid
[3] *dilxoh* — ko‘ngil istagan, yoqimli
[4] *amori* — odam tashish uchun tuya yoki filga ortilgan kajava
[5] *hisor* — qo‘rg‘on, qal’a, istehkom

Yer uzra siρehrdin[1] nishone,
Tufroq uza balki osmone.
Yer maqdamidin falakka monand,
Ul bu falak uzra Arsh ρayvand.
Har rukni kelib sukung‘a[2] maqrun[3],
Arkon anga misli rubi maskun[4].
Yo so‘fiyi mazhari jamoli,
Juz haqdin o‘lub zamiri xoli.
Yer natida o‘lturub muraqqa[5],
So‘fi kibi egnida muraqqa.
O‘rnida nechukki qutbi sobit,
Atrofida ushoq toshi savobit[6].
Ne qutbki tegrasida aqtob,
Mujgon bila xokro‘bi[7] abvob.
Mehnat xasin anda toρmayin el,
Azbaski[8] malak qanotidin yel.
Avjida maloyik uchmog‘i fosh,
Har kecha nechukki xayli xuffosh[9].
So‘zdek toρibon asosi mahkam,
Ko‘zdek kiyibon libosi motam.
Tavfidin[10] ulusqa zilli shohi,
Atrofi siρehr sajdagohi.
Majnunga ko‘rungach ul salobat,
Ko‘ngli sari yuzlanib mahobat.
Ishq etti dimog‘ini mushavvash[11],
Ko‘ngli aro shavq yoqti otash.

---

[1] *siρehr* — osmon, osmon gumbazi; falak
[2] *sukun* — tinchish, osoyish, harakatsizlik
[3] *maqrun* — yaqinlashgan, yaqin
[4] *maskun* — kishilar yashab turgan joy, turarjoy
[5] *muraqqa* — yamalgan, quralgan (to‘n haqida)
[6] *savobit* — turg‘un yulduzlar
[7] *xokro‘b* — yer suρuruvchi, xizmatkor
[8] *azbaski* — chunki, shuning uchun
[9] *xuffosh* — ko‘rshaρalak
[10] *tavf* — aylanish, yuzni surtish, ziyorat
[11] *mushavvash* — tashvishli, besaranjom

Yog‘durdi ko‘zi yoshin yog‘indek,
Oh urdi-yu sekridi choqindek.
Davrida haramning o‘ldi doyir,
Yer girdida misli charxi soyir[1].
Yuz birla qilib toshini zarkor,
Ashkin[2] oqizib nechukki ρargor[3].
Ruxsori supurgach ul eshikni,
Halqasig‘a urdi chust[4] ilikni.
Har bormog‘ig‘aki rust o‘lub tob,
Bir halqag‘a tushti necha qullob[5].
Ul tavqi murod ichiga darham,
Qullobi muhabbat o‘ldi mahkam.
Qullobi chu bo‘ldi halqag‘a band,
Zanjiri tazallum[6] o‘ldi ρayvand.
Bir nav tazallum ohi chekti,
Ul dud ila g‘am sipohi chekti.
Kim charx libosin etti ul dam,
Ka’ba to‘nidek libosi motam.
Aylab ani bo‘yla motami zor,
Faryod ko‘tardi motamivor.
Dediki: «Ayo hakimi dono,
Har hukmda hokim-u tavono[7]!»
Ey, ishq o‘tin aylagan jahonso‘z,
Andin meni notavonni jonso‘z.
Ey, urg‘on ul o‘tni xirmanimg‘a[8],
Xirman neki, jon bila tanimg‘a!
Ey, ishq angakim, mulozim etkan,
Hijron o‘tin anga lozim etkan!

---

[1] *soyir* — boshqa, o‘zga
[2] *ashk* — ko‘z yoshi
[3] *ρargor* — yetti qat osmon
[4] *chust* — chaqqon, tez, mahkam
[5] *qullob* —qarmoq, ilmoq, changak
[6] *tazallum* — zulmdan zorlanish, dod-fig‘on
[7] *tavono* — kuchli, qudratli
[8] *xirman* — xirmon, uymoq

Ey, kimgaki ishqdin solib band,
Talx[1] aylab anga nasihat-u ρand!
Ey, ishq ila onikim qilib fosh,
Atfoldin[2] anga yog‘durub tosh!
Ey, kimniki aylagan ρarichehr,
Devonasi sori bermagan mehr!
Ko‘ngul sadafida[3] gavhari ishq,
Ey jon aro solib ozari ishq.
Ishq ichra bukun meni shikasta,
Kelmish men asir-u ρoybasta[4].
Har ragi[5] tanim ichra ishq bandi,
Jon rishtasi ishqning kamandi.
Tori badanim aro bo‘g‘unlar,
Ham ishq tanobidin tugunlar.
Jismim aro dog‘i begarona[6],
Ishq o‘tlaridin kelib nishona.
Mamlu[7] aning o‘ti birla jonim,
Jonim neki, mag‘zi ustuxonim.
Bu ishq o‘tikim bayon qilurmen,
Muhlik[8] g‘amini ayon qilurmen.
Demonki, meni tarabg‘a xos et,
Yoxud g‘ami ishqdin xalos et!
Dermenki, menga bu o‘tni har dam,
Afzun qil-u, qilma zarraye kam!
Chek aynima ishq to‘tiyosin,
Ur qalbima ishq kimiyosin!
Ko‘nglumg‘a fazo harimi[9] ishq et,

---

[1] *talx* — achchiq
[2] *atfol* — yosh bola, go‘daklar
[3] *sadaf* — dengiz shillig‘i, marvarid qobig‘i
[4] *ρoybasta* — giriftor, oyog‘li bog‘li
[5] *ragi* — tomir, qon tomiri
[6] *begarona* — cheksiz, bahosiz, hadsiz
[7] *mamlu* — to‘lgan, to‘la
[8] *muhlik* — halok qiluvchi, o‘ldirguvchi
[9] *harim* — haram

Jonimga g‘izo[1] nasimi ishq et!
Ishq isidin et damimni mushkin,
Ishq o‘tidin et yuzumni rangin!
Bo‘ynum uza, «Ayn»in aylagil tavq[2],
«Shin»in qil ichimga shu’layi shavq.
«Qof»in[3] menga ayla ko‘hi anduh,
Ko‘nglumga g‘amini ko‘h to ko‘h.
Uch nuqtasini sharora[4] ayla,
Ikkisini ikki xora ayla.
Ul shu’lag‘a ham kerak sharora,
Bu qofg‘a dog‘i xora ɒora.
Boshimg‘a ur ushbu xorani ham.
Jonimg‘a sol ul sharorani ham,
Yuz munchag‘a elni moni etma,
Ming munchag‘a meni qoni etma!
Ko‘nglum g‘am ila to‘q ayla, yo Rab!
Ishq ichra meni yo‘q ayla, yo Rab!
Derlar menga: «Ishqni unutg‘il,
Layli g‘amidin kanora[5] tutg‘il».
Olloh-olloh, bu ne so‘z o‘lg‘ay,
Ul qavmg‘a tengri uzr qo‘lg‘ay.
Yo Rabki, bu xushguvor[6] boda,
Jomi[7] talabimg‘a quy ziyoda!
Ul bodadin o‘yla tut menga qo‘sh,
Kim yodima hargiz o‘tmasun hush!
Layli ishqin tanimda jon qil,
Layli shavqin[8] ragimda qon qil.

---

[1] *gizo* — oziq, yegulik
[2] *tavq* — halqa, shoda, bog‘
[3] «*Ayn*», «*Shin*», «Qof» — arab harflari
[4] *sharora* — uchqun, alanga
[5] *kanora* — qirg‘oq, chet
[6] *xushguvor* — xushta’m, mazali
[7] *jom* — qadah, may ɒiyolasi
[8] *shavq* — zo‘r havas, istak, kayf

Dardini najotim et Ilohi,
Yodini hayotim et Ilohi!
Har damki emas aning xayoli,
Ko‘nglum uyin andin ayla xoli!
Har o‘tki, yo‘q anda ishq so‘zi,
Men xastag‘a qilma oni ro‘zi[1]!
Huyiki[2] emas aning g‘amidin,
Fosh etma bu telbaning damidin.
Dardimg‘a xayolini tabib et!
Jonimg‘a visolini nasib et!
G‘ayrin[3] nazarimda foni ayla,
Mehrin menga jovidoni[4] ayla!
To bo‘lsa hayotdin nishonim,
Savdosini qil tan ichra jonim!
Jon chiqsa bu jismi notavondin,
Yodi bila o‘q chiqor jahondin.
Tanlar tirilurga qo‘ysalar yuz,
Ko‘yi yelidin tanimni tirguz!
Do‘zax menga etsa jovidoni,
Ishqi o‘tidin qizitqil oni.
Jannat sari cheksa sarnavishtim[5],
Vasli haramini qil bihishtim.
Onsiz meni bir dam etma mavjud,
Budumni qil onsiz o‘lsa nobud!»
Garm[6] aylabon oni bu munojot[7],
Atrofida lol ahli hojot.
Ul qoyil-u yuz asiri g‘amgin,
Borining o‘lub hadisi «omin».

---

[1] *ro‘zi* — nasiba, tiriklik vositasi
[2] *huy* — huy tortib nola chekmoq
[3] *g‘ayr* — yot, begona, boshqa
[4] *jovidoni* — abadiy, mangu, doimiy
[5] *sarnavisht* — taqdir
[6] *garm* — qiziq, qizg‘in, issiq
[7] *munojot* — yalinish, yolvorish

Bexud qolibon faqir otosi,
Hayron bori xesh-u aqrabosi[1].
Bu navha[2]-vu ashk nolishidin,
Bori yudilar ilik ishidin.
Ul ham chu tugatti navhayi dard,
Bo‘ldi yana aql-u hushidin fard[3].
Oxir ko‘tarib necha dilafgor[4],
Manzillarin o‘ldilar talabgor.
Ishq o‘ti ko‘ngulni kuydurur chog‘,
Manig‘a[5] su[6] quysalar bo‘lur yog‘.
Haj tavfida[7] ishqini iroda,
Kam aylab-u ul bo‘lub ziyoda.
Ey, zoyiri[8] Ka’bayi saodat,
Lutfungdin etarmen istifodat[9].
Kim bizni dag‘i duoda yod et,
Bu ishq o‘ti shu’lasin ziyod et!

---

[1] *aqrabo* — yaqinlar, qarindoshlar
[2] *navha* — nola, mungli yig‘i
[3] *fard* — yakka, yolg‘iz, ajralgan
[4] *dilafgor* — dili xasta, dili vayron
[5] *mani* — mustahkam qal’a
[6] *su* — suv
[7] *tavf* — ziyorat, aylanish
[8] *zoyiri* — ziyoratchi, ziyorat qiluvchi
[9] *istifodat* — foydalanish, ilm olmoq

«SAB'AYI SAYYOR»DAN
Uchinchi hikoya

Bahromning dushanba kunni yashil gumbazda o'tkazgani

Chun dushanba sipehri zangori,
Zangdin qildi ko'zgusin ori.

Qildi yuz rev-u rang ila gardun,
Subh chodirshabin zumurradgun.

Chashmasi birla mehri olamtob,
Qildi ko'k sabzazorini serob.

Shah qilib xil'atini rayhoniy,
Rost andoqki, sarvi bo'stoniy.

Sabzazor ustiga xirom etti,
Yashil ayvon aro maqom etti.

Jilvagar bo'ldi sarvi sabzorang,
Aylabon xil'atini minorang.

O'zi sabz-u takallumi shakarin,
Xushdurur sabz gar erur shirin.

Noz birla nigori yag'moyi[1],
Shohg'a tutti jomi minoyi.

Olibon dam-badam ichib Bahrom,
Oydin ul sog'ari zumurradfom.

Angachakim zumurradin gardun,
Bo'ldi tun xayli dudidin shabgun[2].

Soldi shah ko'ngliga xayol gazand[3],
Ko'zi uyqug'a bo'ldi hojatmand.

---

[1] *yag'mo* — talon-toroj, buzg'unlik
[2] *shabgun* — qoр-qora
[3] *gazand* — zarar, ziyon-zahmat, ofat

Yana andoqki, bor edi ma'hud[1],
Bo'ldi qullar ravon nechukkim dud.

Topibon rahravi[2] biyoboni,
Shah qoshinda keturdilar oni.

Dedi shah: «Parda toshida filhol —
O'lturub, bo'lsun ul fasonasigol!»...

Dedilar: «Kishvare durur dilkash,
Oti ham Shahrisabz erur, ham Kash.

Xizr monand sabzadin rangi,
Sabzasi, suvi ko'zgusi zangi.

Shahrisabz o'ldi bizga chun mulkat,
Yo'q ajab gar yashil durur kisvat»...

♦♦♦

Kiribon dayrni panoh etti,
Bir qirog'inda xobgoh etti.

Bog'ladi barhaman eshikni chust,
Hisni Xaybar eshigi yanglig' rust[3].

Dayr davrida Sa'd eli noshod,
Qilg'onidin o'ziga ul bedod.

Anga xud vahm ul sifat g'olib,
Ki bo'lub chiqmoqig'a ko'p tolib.

Juz nadomat xayolig'a yetmay,
Ul nadomat valek sud etmay.

Mutazarir[4] ko'ziga uyqu ishi,
Bo'lmayin uyqu, tush ko'rarmu kishi?

---

[1] *ma'hud* — mashhur; odatdagi; qadimgi
[2] *rahravi* — yo'lovchi, sayohatchi
[3] *rust* — mahkam, berkik
[4] *mutazarir* — zararlangan, zarar ko'rgan

Tongg‘a tegru ichiga vahm-u haros[1],
Har zamon ko‘ngli ichra yuz vasvos.

Barcha tun og‘zi ichra uyqu so‘zi,
Subhidam uyqudin qiziqti ko‘zi.

Tushiga kirdi ham bu oliy dayr[2],
Ki qilur erdi anda har sori[3] sayr.

Ko‘rdikim, ikki surati dilkash,
Qush kibi lek ranggi axzarvash[4],

Mutaharrik[5] bo‘lub navo aylab,
Dayrdin uchtilar havo aylab.

Uchubon evrulub oning boshig‘a,
Qo‘ndilar ikkisi kelib qoshig‘a.

Birisi chekdi mujda birla xuro‘sh,
Qildi mundoq nido nechukki suro‘sh.

Kim: «Nasibing sening ɒari bo‘lmish,
Ki yuzi mehri xovari bo‘lmish».

Birisi biym birla qildi nido,
Etti maqsudini bu yanglig‘ ado.

Kim: «Seni dev qilg‘usidur asir,
Solib ikki ayog‘inga zanjir».

Qilibon hayrat ul g‘arobatdin,
Seskanib qo‘ɒti bu mahobatdin.

---

[1] *haros* — qo‘rquv
[2] *dayr* — butxona, mayxona
[3] *sori* — tomon, taraf
[4] *axzarvash* — yashiltob
[5] *mutaharrik* — harakatlanuvchi, qimirlab turadigan

Har sari soldi ko‘z, chekib afg‘on,
Subhidam yorub erdi dayri mug‘on[1].

Qo‘ρubon chun eshik sari qochti,
Kelibon barhaman eshik ochti.

Chiqqach oshufta[2] roy savdoyi,
Ayladi ul tush oni shaydoyi.

Kechaga tegr-u beqaror erdi,
Ishi har dam fig‘on-u zor erdi...

Javhari jismi tiyra kon ichra,
Olami muxtasar makon ichra.

Jismi oshufta sochi ichra nihon,
O‘ylakim tun savodi ichra jahon.

Ko‘ngli ichra ulumi ρinhoniy —
Kon ichinda javohiri koniy.

Fosh hikmat shukuhi zotidin,
Yetti yuz yil o‘tub hayotidin.

Ne jahondin anga umid, ne biym[3],
Deb otin xalq Ρaylaqusi hakim.

Yana bir qush dediki: «Qilma taab
Ki, senga Sa’d bo‘lg‘usi kavkab[4].

Egniga chiqg‘usidur ikki qanot,
Qat qilg‘ung uchub tariqi najot».

Tushta qushkim chekib navoyi g‘arib,
Senga ulkim dedi ρarini nasib.

---

[1] *mug‘* — otashρarast; mayfurush
[2] *oshufta* — tarqoq; maftun, shaydo
[3] *biym* — qo‘rquv, xavf
[4] *kavkab* — yulduz

Ul erur shohi sabzpo‘sh[1] qizi,
Ki, quyosh kuhlidur ayog‘i izi.

Shahrisabz o‘ldi taxtgohi aning,
Yer uza sabzadek sipohi aning.

Anga farzand bir parivashdur
Ki, pari husnidin mushavvashdur[2].

Qila olmay pari yuziga sitez[3],
Huri jannat anga kamina kaniz.

Yuzi mashshotasi — ajuzi sipehr,
Husni ko‘zgusi — ul ajuzda mehr.

Balki ul husn olib quyoshdin toj,
Hech ko‘zguga bo‘lmayin muhtoj.

Husni vasfida nutq — gung maqol,
Yuzi zikrida nafsi notiqa[4]— lol.

Shohning moyayi farog‘i[5] ham ul,
Ne farog‘i, ko‘rar qarog‘i[6] ham ul.

Shohga qal’aye durur oliy,
Rif’at ichra sipehr — timsoli.

Bir buyuk qulla uzra ul qo‘rg‘on,
Burji ko‘k qal’asiga ta’n urg‘on.

Shoh qo‘rg‘on aro yasab bir qasr,
Anda sokin durur ul ofati asr.

Qasr davrida uch hisor durur,
Burjlar anda charxvor durur.

---

[1] *sabzpo‘sh* — yashil kiygan, yashilga burkangan
[2] *mushavvash* — tashvishli, besaranjom
[3] *sitez* — kek; zulm; urush
[4] *notiqa* — nutq so‘zlovchi
[5] *farog‘* — tinchlik; rohat; ozodlik
[6] *qarog‘* — ko‘z qorachig‘i

Har hisorig‘a bir buyuk darband[1],
Rif’at[2] ichra kelib falakpayvand.

Lek darbandlar ochilmay hech,
Haddin ortuq yo‘lida tob ila pech[3].

Burnogi band aro topib qo‘rg‘on,
Devson zangiye oti Qatron.

Zo‘ri olida pil, o‘ylaki mo‘r,
Har tuki soy-u pil chog‘liq zo‘r.

Razm vaqti qaro balo kelibon,
Tanida har tuk ajdaho kelibon.

Qal’aning kutvoli ul zangi,
Kutvoli sipehrdek rangi.

Yana darband aro hamesha muqim —
Ochib avroq[4] — bir xujasta[5] hakim.

Har sifat ilm aro kelib mohir,
llm-u taqvo jamolidin zohir.

Ul bo‘lub qal’a va’zig‘a boni,
Yana bir qal’aning nigahboni[6].

O‘tgach andin kelib yana darband,
Anda zoli fusun bila xursand.

Umrida makr-u hiyla aylab vird,
Hiylada zoli charx anga shogird.

---

[1] *darband* — darvoza, eshik oldi; qal’a
[2] *rif’at* — yuksaklik, baland martabalik
[3] *pech* — o‘ralish, buralish
[4] *avroq* — sahifalar; barglar
[5] *xujasta* — qutlug‘, muborak; baxtli
[6] *nigahboni* — qarovchi, qo‘riqlovchi

Qasr davridin ul bo‘lub ogah,
Ki, nasim ul yon esmagay nogah.

Qush o‘tarda — o‘chub hayoti aning,
Chibin uchsa kuyub qanoti aning...

Asli fitratda mohi sangindil[1],
Juft shug‘lig‘a[2] bo‘lmayin moyil.

Shohdin istab o‘yla hisni[3] hasin[4],
Chiqib eldin, bo‘lub hisornishin...

Sa’d bevahm urub qadamni chust,
Tepti zoli xamida ko‘ksiga rust.

Zol tebrandi, chunki o‘z yeridin,
Juzv-juzvi to‘kuldi bir-biridin.

Paykare[5] erdi odami monand,
Latta birla sirishdin payvand.

Rishtani ajdaho qilib afsun,
O‘tlari hulla[6] poralar gulgun.

Sehrlarni chu botil etti tamom,
Yondi-yu, shoh sari qildi xirom.

Shoh ani quchti, dog‘i o‘pti yuzin,
Oni farzand, ato o‘qudi o‘zin.

Gulshani bor edi jahonoro,
Qo‘yub otini Ravzayi xazro[7].

---

[1] *sangindil* — ko‘ngli qattiq
[2] *shug‘uli* — kirishish, shug‘ullanish
[3] *hisni* — qo‘rg‘on, qal’a, istehkom
[4] *hasin* — o‘tib bo‘lmaydigan; mustahkam
[5] *paykar* — haykal, jussa, gavda
[6] *hulla* — nozir va nafis kiyim; mato
[7] *xazro* — yashil, ko‘kimtir

Anda bir qasrga edi boni,
«Qasri axzar» der erdilar oni.

Aylabon ushbu bog‘-u qasrda sur,
Shahrisabz ahlini aylabon masrur.

Vasl topti farishta birla pari,
Mehr birla sitorayi sahari.

Kechti[1] oz chog‘da shohi ozoda,
Shoh bo‘ldi yerida shahzoda.

Yashil aylab libos-u toj-u sarir,
Ollida ikki sabzpo‘sh[2] vazir.

Gulrux andoqki, sarvi bo‘stoniy,
Kisvat[3] aylab hariri rayhoniy.

To tirik erdi shod-u beg‘am edi,
Adlidin mulk sabz-u xurram edi.

Rangi axzar[4] bahor rangi erur,
Sabza-vu marg‘zor[5] rangi erur...

Chunki rovi tugatdi qissa durust,
Dedi Bahrom: «K-ey musofiri chust.

Asli budungni aylagil taqrir[6]».
Dedi roviki: «Ey baland sarir.

Shahrisabz ahli zodasidin[7] men,
Sa’dning xonavodasidin[8] men».

---

[1] *kechti* — o‘ldi
[2] *sabzpo‘sh* — yashil kiygan
[3] *kisvat* — kiyim, ust-bosh
[4] *axzar* — ko‘m-ko‘k, yashil
[5] *marg‘zor* — o‘tloq
[6] *taqrir* — qaror berish; maqsadni og‘zaki anglatish
[7] *zoda* — avlod
[8] *xonavoda* — oila; sulola

Oltinchi iqlim yo‘lidin kelgan musofir hikoyasi

Forig‘ o‘lg‘och bu dur nisoridin[1],
Dedikim: Boxtar[2] diyoridin.

Qildilar azmi Xovar[3] ikki kishi,
Tun-u kun sayr o‘lub alarning ishi.

Birisi Muqbili biyobongard,
Yana bir Mudbiri[4] bihor[5] navard[6].

Rahrav[7] ul ikkidek bu ko‘hna saro,
Qilmay ehsos barr-u[8] bahr[9] aro.

Muqbil ozodayi humoyun fol,
Elga maqbul etib ani iqbol.

Mudbir andoqki, borsa har sori,
O‘lturub yuzda gardi idbori.

Yo‘lda bir vodi erdi asru maxuf[10],
Qilmay andin murur[11] ahli vuquf[12].

Tikan-u sho‘ra — sabza-yu bog‘i,
Naft-u[13] go‘gird — suv-u tufrog‘i.

---

[1] nisor — sochish; chochqi
[2] *Boxtar* — G‘arb, g‘arb tomon
[3] *Xovar* — Sharq, kunchiqish
[4] *Mudbir* — baxtsiz
[5] *bihor* — dengizlar
[6] *navard* — yuruvchi, kezuvchi
[7] *rahrav* — yo‘lovchi, sayohatchi
[8] *barr-u* — yer yuzi
[9] *bahr* — daryo, dengiz
[10] *maxuf* — qo‘rqinchli, vahimali
[11] *murur* — o‘tish, yurish
[12] *ahli vuquf* — voqif, xabardor bo‘lmoq
[13] *naft* — qora moy, neft

Chun buxor-u[1] ufun[2] hujum aylab,
Iso anfosini samum[3] aylab.

Yeli o‘tkim, kishi tanig‘a urub,
Chun kul aylab ham o‘zi-o‘q sovurub.

Anda yo‘q jonvarning imkoni,
Qiribon chun o‘zi chiqib joni.

Debon el: «Vodiyi Hamim» otin,
Hirqati[4] aylab oni isbotin.

Ul ikov yo‘ldin o‘lmayin ogoh,
Bo‘yla vodida bo‘ldilar hamroh.

Ko‘rdilar chunki yo‘l suubatini[5],
Ul balo dashtining uqubatini.

Ki, nechakim aning kanorasi[6] yo‘q,
Qat[7] qilmoqdin o‘zga chorasi yo‘q.

Har balo qo‘ysa yuz tahammul etib,
Kirdilar dasht aro tavakkul etib.

Chun harorat sharora ko‘rguzdi,
Mudbiri xas sharoratin tuzdi.

Ki der edi: «Bu ne havo[8] bo‘lg‘ay?
Xalq qilmoq bu ne ravo[9] bo‘lg‘ay?»

---

[1] *buxor* — bug‘, tuman
[2] *ufun* — sassiq; badbo‘y hidli
[3] *samum* — haroratli issiq shamol, qattiq garmsel
[4] *hirqat* — kuyish; g‘am, qayg‘u
[5] *suubat* — qiyinchilik
[6] *kanora* — qirg‘oq; chet
[7] *qat* — kesish, uzish; kerish
[8] *havo* — orzu, istak, havas
[9] *ravo* — munosib; yuruvchi, ketuvchi

Goh der erdi mast-u behushvor:
«Suv yaratmoq magar erur dushvor[1]?»

Yo‘q edi mayl qilsa har so‘zga,
Tengriga e’tirozdin o‘zga.

Chunki ul ρoyadin tanazzul etib,
Ta’n-u tashnii hamrahiga yetib.

Kim: «Meni notavoni xastag‘a kosh[2],
Sen kibi bo‘lmag‘ay edi yo‘ldosh!

Seni ko‘rmak ne shum kun erdi
Ki, yomon muncha xosiyat berdi».

Muqbil erdi Xudoy ila mashg‘ul,
Zikr-u tasbihi Tengriga maqbul.

So‘zi Mudbirg‘a g‘ayri ρand o‘lmay,
Lek anga ρand sudmand[3] o‘lmay.

Chekti Muqbil base azobi alim,
To anga qat bo‘ldi dashti hamim.

Chunki ul dasht noρadid[4] o‘ldi,
Bahri dard-u ano ρadid o‘ldi.

Hamrahidin batang edi Muqbil,
Xayrbodig‘a tab etib moyil.

Chun ko‘ρ erdi azob shayni anga,
«Qola hozo firoq-u bayni» anga.

Yana Mudbir tilab qilurg‘a safo,
Aylabon qilg‘onidin iste’fo.

---

[1] *dushvor* — og‘ir, mushkul
[2] *kosh* — koshki, zora
[3] *sudmand* — foydali, nafli
[4] *noρadid* — ko‘rinmas, maxfiy; tayinsiz

Aylagon tavridin[1] qiroq[2] tutub,
Yer uza bosh qo‘yub quloq tutub.

Bo‘lubon tavba birla uzr ovar,
Ki, ani Muqbil aylabon bovar.

Javridin xotirini aylab sof,
Unutub har nekim, deb erdi gazof[3].

Suv qirog‘ig‘a bo‘ldilar oyon,
Kema erdi tengizda bepoyon.

Har taraf sohil ichra gom[4] urubon,
Xovar ahlini toptilar so‘rubon.

Har biri o‘z muzdini[5] qilib taslim,
Kirdilar bahr ichiga qilmay biym[6].

Berdi malloh alarg‘a bir sandal,
Ki, bor erdi hamul ikovga mahal.

Toqtilar olib ixtiyorin aning,
Bir ulug‘ kemaga mahorin aning.

Qildilar chunki bahr azmini jazm,
Bir necha kema bir yon ayladi azm.

Xovar ahli ham o‘ldilar soyir[7],
Kema sur’atda o‘ylakim toyir[8].

Yana Mudbir o‘zin tutib badhol,
Mayl qildi demakka harza[9] maqol.

---

[1] *tavri* — tarz, ravish; odat, usul
[2] *qiroq* — qirg‘oq, chet
[3] *gazof* — bema’ni, behuda
[4] *gom* — qadam, odim
[5] *muzdi* — ish haqi; to‘lov
[6] *biym* — qo‘rquv, xavf
[7] *soyir* — boshqa, o‘zga
[8] *toyir* — qush; uchuvchi
[9] *harza* — behuda, bekorchi so‘z

Yori chun mazhari saodat edi,
Ishi tasbih ila ibodat edi.

Anga ham yovadin bo‘lub moni,
Bo‘lmayin ul bu man[1] ila qoni.

Oncha kufr ayta boshladi far-far,
Ki, damidin ayon bo‘lub sarsar[2].

Tengiz uzra zuhur etib ko‘lok[3],
Kema ahlini ayladi g‘amnok.

Bo‘yla so‘zlar xitobi Haqqa mudom,
Buki: «Yo‘q ishlaringda hech andom.

Qum-u dashtingda oncha so‘z-u gudoz[4],
Bahr-u mavjungda bu qadar tak-u toz.

Anda tafrit-u munda bu ifrot[5],
El hiss-u aqlini qilur isqot[6]».

Shum anfosining shaomatidin,
Bahr chayqaldi mavj ofatidin.

Tushdi daryoda ul sifat oshub,
Ki, su amvoji bo‘ldi gardunko‘b.

Soldi aning riyohi idbori,
Har kishi kemasini bir sori.

Uzdi zavraqchaning[7] mahorini ham,
Tashladi jo‘ng raxt-u borini ham.

---

[1] *man* — kim, kimiki
[2] *sarsar* — kuchli va qattiq shamol
[3] *ko‘lok* — to‘lqin; bo‘ron
[4] *gudoz* — eruvchi, kuyuvchi
[5] *ifrot* — haddan oshish
[6] *isqot* — olib tashlash, soqit qilish
[7] *zavraqcha* — qayiqcha

Kemalarning ichinda oncha fariq,
Qoldi ba'zi-yu, ba'zi o'ldi g'ariq.

Qolg'oni dog'i har taraf tushti,
Borchadin amon bir taraf tushti.

Ul ikov zavraqida sayr-u shitob,
Mudbir ahvoli zavraq ichra xarob.

Muqbil aylab duo tazarru etib,
Tengridin yorlig' tavaqqu[1] etib.

Muncha ofat tengizda bir sori,
Bir sori hamdamining idbori.

Ham duosi aning qilib ta'sir,
Toɒti taskin tengizda ul tashvir[2].

Yel tinib bahr toɒti chun orom,
Zavraq aylar edi su uzra xirom.

Qilibon yetsa bahr uza yuz biym,
O'zni Tengri qazosig'a taslim.

Buyla holatda boqti ozoda,
Bir savode ko'rundi daryoda.

Rangi oning siɒehri xazrodek,
Hay'at-u davri charxi minodek.

Esti andoq nasim ul yondin
Kim, xabar berdi nafhasi jondin.

Sandaloso shamim-u riyh anda,
Yelga borib dami Masih anda.

---

[1] *tavaqqu* — umid bilan qarash
[2] *tashvir* — to'lqin; falokat

Bahr isidin dimog‘i farsuda,
Bo‘ldi Muqbilg‘a bir dam osuda.

Sajdayi shukr aylagach filhol,
Ul taraf surdi zavraqin iqbol.

Chunki iqbol zavraqin surdi,
Tong yo‘q ar bir nafasda yetkurdi.

Go‘yi ul bir daraxt edi oliy,
Rang-u rif’atda charx timsoli.

Ul daraxt erdi go‘iyo sandal,
Bargi ko‘zgulari topib sayqal.

Kimki, har ko‘zguni qilib manzur,
Shohidi baxt aylab anda zuhur[1].

Rif’ati ko‘kka tegurub poya,
Bargidin bahrni yopib soya.

Soyasidin su garchi anbarfom,
Sandaloso[2] topib isini mashom.

Oncha tuproq suv yuzini tutub,
Ki, fazosida ul daraxt butub.

Tanasi ichra bir azim shigof,
Chashmasi javfi ichra behad sof.

Siymi mahluldek[3] suyi tobi,
Jo‘shida iztirobi siymobiy.

G‘ulg‘uli[4] bahr eli ishiga kulub,
G‘ulg‘ul aylab tengiz aro to‘kulub.

---

[1] *zuhur* — ko‘rinish
[2] *sandal* — xush isli daraxt
[3] *mahluldek* — eritilgan
[4] *g‘ulg‘ul* — shovqin, suvning sharqirashi

Yetgach anda ikki sitamdiyda[1],
Bir dam orom edi ɒisandida.

Zohir erdi yig‘ochg‘a bir resha,
Chiqibon Muqbili xiradɒesha[2].

Ko‘rdi ul chashma boshida bir tosh,
Xatlar etgan aning yuzida xarosh[3].

Kirdi Mudbir dog‘i shitob qilib,
Suvdin ichmakka iztirob qilib.

Tosh edi zeb birla qozilg‘on,
Turfa xatlar yuzida yozilg‘on.

O‘qudi Muqbil, oni Mudbir ham,
Bu hadis erdi ul xujasta[4] raqam.

Kim: «Bu manzilg‘a ul kishiki yetar,
Bu g‘aroyibnikim tafarruj[5] etar.

Muni bildiki simiyodur[6] bu!
His qoshida g‘alatnamodur bu!

«Sandali simiyo» munung laqabi,
El xayolotidin fuzun ajabi.

Munda kim yetsa sodiq-u kozib[7],
Tabi bo‘lg‘ay suv ichgali jozib[8].

---

[1] *sitamdiyda* — azob chekkan
[2] *xirad* — aql; zehn
[3] *xarosh* — yonish; tirnash
[4] *xujasta* — qutlug‘; baxtli
[5] *tafarruj* — sayr-tomosha
[6] *simiyodur* — asossiz va mavhum «ilm»ning nomi
[7] *kozib* — yolg‘onchi
[8] *jozib* — tortuvchi; jozibali

Suvdin o‘lg‘on zamonda sog‘arkash[1],
Aylagay mani juu[2] dafi[3] atash.

Sodiq o‘lg‘ay bir oyg‘acha xursand,
Bo‘lmayin yer-icharga hojatmand.

Lek kozibqa uch kun o‘lg‘ach kom[4],
Tilagay uch kun o‘tsa, suv-u taom.

Bahra bu chashma suyidin olg‘on,
Tiliga nogah o‘tsa bir yolg‘on.

Qorni ul nav chok bo‘lg‘usidur
Ki, hamul dam halok bo‘lg‘usidur.

Ichmagining bu nav edi jihati,
Kirmaginingdur o‘zga xosiyati:

Kirsa yolg‘onchi kuygay andomi[5],
Ρishgay ul suvda ρaykari[6] xomi.

Rostgo‘ kirsa, bo‘lmag‘ay anga jo‘sh,
Suyi bergay xavosi chashmayi no‘sh[7].

Chunki g‘usl aylamakka ko‘z yumg‘oy,
Qulog‘-u burnini tutub cho‘mg‘oy.

Bosh chiqorg‘och ne ko‘rsa ko‘rgay o‘zi,
Ki, demak bo‘lmas ul fasona so‘zi.

Lek bir cho‘mg‘on ulcha ko‘rg‘ay hol,
Yana cho‘mmoq erur bu suvg‘a mahol.

---

[1] *sog‘arkash* — may ichuvchi
[2] *juu* — ochlik; ishtaha
[3] *dafi* — qaytarish, rad etish
[4] *kom* — tanglay; og‘iz; maqsad, orzu
[5] *andom* — gavda, jism
[6] *ρaykar* — haykal, jussa
[7] *no‘sh* — totli, chuchuk

Kim, kirib g‘o‘ta[1] istasa ρayvast,
Suv bo‘lur ρast, ul o‘lsa g‘o‘tag‘a bast».

O‘qug‘och xatni sodiq-u kozib,
Bo‘ldi kozibqa ul havas jozib.

Ki, bir-ikki dam ul sudin yutqoy,
Kizb ila yova[2] tarkini tutqoy.

Garchi mumkin yo‘q erdi ul uslub,
Bo‘lmoq oning mijozidin maslub[3].

Lek juu atash haroratidin,
Zohir o‘ldi aning iboratidin.

«Buki, yolg‘on demakni tark ettim,
Yo‘q esa irtikobi marg[4] ettim».

Dedi bu so‘zni-yu sudin ichti,
Chashmasor hayotidin kechti.

Sodiq aylab vuzusig‘a tajdid,
Qildi tajdid shukri Rabbi Majid.

So‘ngra no‘sh etti ul zuloli hayot,
Anga juu atashdin o‘ldi najot.

Istadi Mudbir ul sug‘a kirmak,
Tiyra jismig‘a shustu[5] sho‘ bermak.

Avr o‘ldi suvg‘a chun ilik urdi,
Qaynabon ilgini suv kuydurdi.

---

[1] *g‘o‘ta* — suvga sho‘ng‘ib chiqish
[2] *yova* — behuda; aljirash
[3] *maslub* — ajratib tashlangan
[4] *marg* — o‘lim
[5] *shustu* — yuvish

Lek sodiq belig‘a bog‘lab lung,
Suvg‘a kirdi nechukki bahrg‘a jung[1].

Suv yaqosida to‘lmurub yo‘ldosh,
Aksi yanglig‘ cho‘murdi ul sug‘a bosh.

Bosh chiqorg‘och sug‘a chu boqti quyi,
Ko‘rdi suv ermas erdi chashma suyi.

Havzi erdi suyi nechukki zulol,
Lab-balab havz ichinda molomol[2].

Yo‘nulub toshi sofi-yu mavzun,
Yaraqon rang, balki sandalgun.

Davrida gulshane nechukki Eram,
Olida manzare nechukki Haram.

Chiqqoli havzdin chu qo‘ydi ayoq,
Ko‘rdikim, necha sarvi siyminsoq[3].

Yettilar xizmati amrig‘a cholok[4],
Ochibon qo‘lda fo‘talar[5] bori ρok.

Tan qurutmoqqa hulla birla harir,
Borchasi dilnavoz-u tabρazir[6].

Xojag‘a bandavor tuttilar,
Surtubon jismini quruttilar.

Kiydurub xil’at anga to‘-barto‘,
Borcha sandal nasim-u[7] sandalbo‘.

---

[1] *jung* — katta kema
[2] *molomol* — to‘la, limmo-lim
[3] *siyim* — kumush, kumushdan
[4] *cholok* — tetik; kelishgan
[5] *fo‘ta* — ipak o‘ramabelbog‘
[6] *tab* — fe‘l-atvor, tabiat
[7] *nasim* — shabada

Boshig‘a qo‘ydilar amoma dog‘i,
Anda sandal bila shamoma[1] dog‘i.

Bo‘lg‘och orasta tutub qo‘lini,
Qasri sandalg‘a boshlabon yo‘lini.

Berib oning nasimi ruhig‘a qut,
Xojani hayrat aylabon mabhut[2].

Ko‘rubon solsa holig‘a ko‘zini,
O‘zga olamda har zamon o‘zini.

Kirdi chun qasr ichiga behushvor,
Hayrat ichra ne mast-u, ne hushyor.

Ko‘rdi qasre ravoqi gardunsoy,
Umr qasri kibi nishotafzoy[3].

Saqfi sandal, ravoqi ham sandal,
Eshig-u farsh-u[4] toqi ham sandal.

Atrikim solibon xiradg‘a xurush,
Gah berib hush-u goh etib behush.

Qasr aro taxti sandalioyin,
Ko‘ρ javohir bila toρib tazyin[5].

Taxt ustida bir ajab timsol,
Jin-u ins ichra yo‘q yuziga misol.

Ρaykari hay’at ichra ruhoniy,
Boshidin to ayog‘i nuroniy.

---

[1] *shamoma* — xushbo‘ylik
[2] *mabhut* — hayratlangan
[3] *nishotabzoy* — xursandlik ρaydo qiluvchi
[4] *farsh* — to‘shash, yotqizish
[5] *tazyin* — bezahr

Husnidin olam ahli ruhig‘a qut,
Yuzi xurshedi olami malakut[1].

Nurdin qaddi ravzaning naxli[2],
Yo‘q vujudida mo-u[3] tin daxli[4].

Jismi boshdin-ayoq latofati mahz[5],
Bo‘lib elga bu holat ofati mahz.

Davrida yuz kavokibi sahari,
Jilva aylab nechukki hur-u pari.

Xoja solg‘och ko‘z ul dilorog‘a,
Hushi ul nav bordi yag‘mog‘a.

Kim, qurub qoni rangi sorg‘ordi,
Yiqilib yerga o‘zidin bordi.

Sarvi gulrux kelib boshig‘a aning,
Lutf ila o‘lturub qoshig‘a aning.

Keldi gulruh nasimidin hushi,
Bo‘ldi ko‘rgach yana faromushi.

Ko‘nglidin mahv o‘lub nishoni xirad[6],
Goh o‘zida edi-yu gah bexud.

Ko‘rguzub lutf sarvi hur najod,
Lutfig‘a ayladi ani mu’tod[7].

Toki topti ramida ko‘ngli qaror,
Ko‘nglining o‘tidin gum o‘ldi sharor.

---

[1] *malakut* — podshohlik
[2] *naxli* — ko‘chat
[3] *mo* — suv
[4] *daxl* — aloqa, aralashish
[5] *mahz* — xolis; yolg‘iz
[6] *xirad* — aql; zehn
[7] *mu’tod* — o‘zgargan

Yuz tamalluq bila xujasta arus,
O‘zini qildi xojag‘a ma’nus[1].

Bemuhobo[2] yonig‘a yondoshti,
Shavq o‘ti xoja boshidin oshti.

Ayrilib sabr ila qaroridin,
O‘yla fard o‘ldi ixtiyoridin.

Ki, yaqin erdi siynachok o‘lg‘oy,
Shavqi tug‘yonidin halok o‘lg‘oy.

Mahvash ilgin tutub qo‘ρordi ani,
Olibon taxti uzra bordi ani.

Xoja yer o‘ρtikim: «Manga ne had,
Bo‘lg‘ali takyagohim[3] ul masnad[4]».

Mahvash ul nav tutti oni aziz,
Ki, degaysen o‘zidur anga kaniz.

Andoq o‘ldi ayon maoshi anga,
Kim, yana qolmadi tahoshi[5] anga.

Taxt uza tutti yer buti gulrux,
Anga yondoshti xojayi farrux.

Chektilar sharbat-u taom avval,
Ikkisidin yetushti kom avval.

At’ima[6] ul sifat latif sirisht[7],
Kim, degaysen erur naimi bihisht[8].

---

[1] *ma’nus* — odatlangan
[2] *bemuhob* — ρarvo
[3] *takyagoh* — suyanchiq
[4] *masnad* — 1) suyanchiq; 2) taxt; 3) hukmdorlik o‘rni
[5] *tahoshi* — chekinish, tortinish
[6] *at’ima* — taomlar
[7] *sirisht* — yaratilish
[8] *bihisht*— jannat

Chun g‘izodin yetushti ta’big‘a kom,
Bazm aro jilva qildi boda-yu jom.

Qo‘ydilar turfa shira sandaldin,
Borcha naqsh-u nigori zarhaldin.

Ustida shisha, yonlarida sabu[1],
Borcha anbarsirisht-u sandalbo‘.

Qo‘ρti gulchehrayi diloroyi,
Atri bazm ichra sandalosoyi.

Ichibon taxt sori qildi xirom,
Tutti, mahvashqa[2] jomi sandalfom.

Mahvash olib chu bir-iki yutti,
Og‘zidin oldi xojag‘a tutti.

Xoja xud andoq o‘zidin bordi,
Ki olib bexudona siρqordi.

O‘yla evruldi jomi no‘shono‘sh[3],
Ki tarabdin yetushti ko‘kka xurush.

Qildi may xojaning dimog‘in garm,
Raf bo‘ldi hijob-u ρardayi sharm.

Oncha mardumlug‘ aylar erdi ρari,
Kim bo‘lur erdi xoja ρardadari.

Xoja zabt aylay olmayin o‘zini,
Sarvi gulruxdin olmayin ko‘zini.

Boshladi nukta behijobona,
Kim, ρari qilmish erdi devona.

---

[1] *sabu* — kuvacha, may idishi
[2] *mahvashqa* — oyday go‘zal
[3] *no‘shono‘sh* — surunkasiga ichish

So‘z debon har zamon talabangiz,
Harakat aylabon tamaomez.

Sho‘xi ablahfireb man etmay,
Ilgi xoja ilgidan ketmay.

Xojaning qolmadi tahammuli[1] hech,
Soldi shahvat hujumi jismig‘a ρech.

G‘alayoni quvoyi jismoni,
Uyla betoqat ayladi oni.

Kim, chekib hurvashni behushvor,
Dedi: «Holimni aylading dushvor,

Rahm etib dardima davo ayla!
Vasl ila hojatim ravo ayla!»

Lobalar birla sarvi shakkarxand,
Dedi: «Bo‘l munchag‘a bukun xursand.

Ki, bukun oncha mayparast o‘lduq,
Kim, ketib hush-u aql mast o‘lduq.

Tongla bo‘lg‘on zamon bir ishga shuur,
Xisravona qilay tahiyyayi[2] sur.

Ahd etib surati saloh bila,
Haramingg‘a kiray nikoh bila.

Chun muyassar bo‘lur halol navo,
Bu haramda harom ko‘rma ravo.

Surubon shahvat etma behuda,
Ρardayi ismatimni[3] oluda».

---

[1] *tahammul* — toqat, sabr
[2] *tahiyyay* — 1) salom, duo; 2) tiriklik berish; 3) hozirlash
[3] *ismat* — ρoklik, ma’sumlik

Xojag‘a shahvat erdi mustavli[1],
Qilmadi sud lobagar[2] qavli.

Yaqin erdiki yuz fig‘on etgay,
Jahd qildiki komig‘a yetkay.

Aylabon shahvat oni nafsoniy,
Qo‘lni bir yerga sundi ρinhoniy.

Ki, ishi uqdasidin ochib band,
Oj[3] sandalg‘a aylagay ρayvand.

Dedi mahvashki: «Sa’y bo‘lsa necha,
Ul ish imkoni yo‘qturur bu kecha.

Bera olmas esang o‘zungga sukun[4],
Deyki, bir sarv qomati mavzun.

Tongg‘a tegru bo‘lub ρarastoring[5],
Aylasun o‘zni hamdam-u yoring.

Bu o‘tungkim, qilur bas kin,
Toρsun oning zulolidin taskin».

Xoja fahm ayladiki, hol nedur,
Aroda ρosux-u savol nedur.

Mutahayyir bo‘lub bu suratdin,
Yana dam urmadi zaruratdin.

Buti mahvashkim, oni toρti xamush[6],
Anga bir oyni qildi hamog‘ush.

---

[1] *mustavli* — zabt etuvchi
[2] *loba* — 1) yolvorish, so‘rash; tilyog‘lamachilik; 2) firib, nayrang
[3] *oj* — 1) fil tishi; 2) oq, ravshan, yorug‘
[4] *sukun* — tinch, osoyish
[5] *ρarastor* — 1) toρinuvchi; 2) xizmatkor; 3) sevuvchi
[6] *xamush* — indamas, jim

Ikki chovushi[1] erdi moh siymo,
Noz ila andoq ayladi iymo.

Ki, ikov xoja sori bordilar,
Loba koʻρ koʻrguzub qoʻρordilar.

Xilvat ichra tuzub sar-u korin,
Hamdami qildilar ρarastorin.

To sahar xoja mast-u uy xilvat,
Ne buyurgʻonni bilmadi shahvat.

Charx chun tun libosin etti nigun[2],
Boʻldi tun obnusi sandalgun.

Uyqudin anda ochti koʻzki siρehr,
Yerga yoymish edi chu ashiʼayi[3] mehr.

Kirdi yodigʻa ul qaziya tamom,
Ki, boʻlub erdi voqe andin shom.

Toρti oʻzni ajab xijolat aro,
Koʻnglin ul holdin malolat aro.

Borcha taqdir ila qoʻρub nokom[4],
Ayladi havz jonibigʻa[5] xirom.

Kim, kirib suvgʻa ρok gʻusl etgay,
To janobat kudurati ketgay.

Bogʻlabon belga sandali foʻta,
Urdi chun havz aro kirib gʻoʻta.

---

[1] *chovush* — 1) hudaychi; 2) eshik ogʻasi; 3) xizmatkor, navkar
[2] *nigun* — egilgan, bukilgan
[3] *ashiʼayi* — shuʼlalar
[4] *nokom* — istagiga yetolmagan
[5] *jonibigʻa* — tomon, taraf, jihat

Bosh chiqorg‘och hamul bulog‘ erdi,
Kim, yig‘och javfida sug‘a kirdi.

Havldin bo‘ldi har sari nozir,
Bo‘y boshi o‘rnida edi hozir.

Yana bir necha g‘o‘ta ayladi fosh,
Ushbu yer erdi chun chiqordi bosh.

Charxi tannoz ta’n etib asru,
Der edi: «Ul guzarni eltti suv».

Kavkabin tiyra aylab iqboli,
Chiqti nokomdin o‘lum holi.

Muztar-u lol qolib o‘z ishiga,
Holi andoqki bo‘lmasun kishiga.

Bir taraf oncha dardi jonkohi,
Bir taraf noxujasta hamrohi.

Ul uqubat aro urar edi ρech,
Holin izhor aylay olmay hech.

Yana ul tosh sori tushti ko‘zi,
Ki, bitilmish edi bu chashma so‘zi.

Go‘shasida bitilmish erdi bu so‘z,
Ki, burun solmamish edi anga ko‘z.

Ki: «Biravkim bu simiyo ko‘rdi,
Kiribon suvg‘a yuz balo ko‘rdi.

Chiqqoch-o‘q tutmamoq kerak orom,
Aylamaklik kerak suv uzra xirom.

Bo‘lsa laxte[1] azimatida darang,
Dev ani o‘lturur, yo‘q ersa nahang».

[1] *laxte* — ρarcha

Dedi: «Turg‘um kechib najotimdin,
O‘lganim yaxshi bu hayotimdin».

Chunki fikr etti jon aziz erdi,
Ul maqom asr-u fitnaxez erdi.

Bizzarurat azimat ayladi jazm,
Yechibon zavraqini qilg‘ali azm.

Ko‘rubon Mudbir anda ko‘ρ tag‘yir[1],
Holin anglarg‘a qildi ko‘ρ tadbir.

Qilmadi oshkor mutlaq anga,
Bo‘ldi oromgoh zavraq anga.

Bo‘ldi Mudbir dog‘i yana yo‘ldosh,
Bo‘yla yo‘ldosh yo‘lda bo‘lmasa kosh.

Surdilar suv yuziga zavraqni,
O‘zlariga ρanoh etib Haqni.

Muqbili notavon xarob erdi,
Hajr o‘tidin ichinda tob erdi.

Shayn-u oshubi erdi hamvora,
Mudbir aylab ishig‘a nazzora.

So‘rsa erdi, javob bermas edi,
Kim, g‘ami sharh etardek ermas edi.

Der edi: «Ey rafiqi zeboxo‘y,
Bo‘lma mendin bu so‘zga ρosuxjo‘y!

Buki, holimni sharh qilmasmen,
Ayb emas, chun o‘zumni bilmasmen.

Sanga holimdin gar malolat erur,
Sen muhiqsen, manga xijolat erur.

[1] *tag‘yir* — o‘zgartirish

Qilsa bexudlug‘um seni ranjur,
Ne deyin, chunki borsen ma’zur.

Nafasingni manga dilosoy[1] qil,
Lutf ila necha kun muvoso[2] qil.

Baxtdin kom[3] agar bo‘lub hosil,
Bo‘lsa bir kun maqomimiz sohil.

Hajrima xotiringni shod aylay,
O‘ρub ilgingni[4] xayrbod aylay».

Deb bu so‘z olig‘a qo‘yub boshin,
Ko‘zidin yummayin to‘kub yoshin.

Zavraq ichra xo‘rush[5] solur edi,
O‘ti daryog‘a jo‘sh solur edi.

Mudbir ahvolidin bu nav ogah
Kim, anga qo‘ydi yuz junun nogah.

Chashma uzra bo‘lur chu dev-u ρari,
Urunub bo‘ldi bu sifat asari.

Ko‘runub bu anga g‘arib nima
Ki, ayon bo‘ldi bir azim kema.

Chun yel o‘z e’tidolidin[6] oshti
Zavraq ul kema birla yondoshti.

Kemaga qo‘ydilar ikov-la qadam,
Bo‘lg‘ali mavj xavfidin beg‘am.

---

[1] *dilosoy* — yoqimli
[2] *muvoso* — yaxshilik; murosa qilish
[3] *kom* — 1) tilak, istak; 2) tanglay, og‘iz
[4] *ilging* — qo‘li
[5] *xo‘rush* — yemak, ovqat
[6] *e’tidol* — mo‘tadil

Kema ahli tamom o‘lub edilar,
Jon g‘amidin xalos o‘lub edilar.

Kema ichra yo‘q edi g‘ayri o‘luk,
Anda sandal yig‘ochidin to‘la yuk.

Mundoq ermishki, xusravi Xovar
Ki, emish ul taraf jahondovar.

Bir qizi bor emish ρari yanglig‘,
Ne ρari, mehri xovari yanglig‘.

Shoh umrig‘a zeb ila zayn ul,
Shohg‘a balki qurratul-ayn[1] ul.

Voqe ermish sudo[2] doim anga,
Ko‘runub umr nomuloyim anga.

Hukamo aylabon ilojini ko‘ρ,
Kelmay aning mizojig‘a biri xo‘b.

G‘ayri sandal isiki nofi[3] o‘lub,
Boshining og‘rig‘iga dofi[4] o‘lub.

Bu jihatdin shahi sipehrmahal,
Qasri oliy bino qilib sandal.

Borcha azjosi sandali ρayvand,
Rif’at ichra nechukki charxi baland.

To tutub mahvash[5] ul uy ichra maqom,
Yetgay andin sudoig‘a orom.

---

[1] *qurratul-ayn* — ko‘z ravshanligi, ko‘z qorachig‘i
[2] *sudo* — bosh og‘rig‘i
[3] *nof* — foydali, nafli
[4] *dofi* — daf qiluvchi
[5] *mahvash* — oyday go‘zal

Olam ichra tushub bu ovoza,
Ruhi tujjorning bo‘lub toza.

Anda sandal sotorg‘a jozim o‘lub,
Hind mulkiga borcha ozim o‘lub.

Toshibon oncha sandali xushbo‘,
Ki, butub ul imorati diljo‘.

Go‘yiyo ul guruhdin nechasi,
Bo‘lg‘on ish sa’yi kunduz-u kechasi.

Bu kema ichra topibon orom,
Yuklabon sandal aylamakda xirom.

Kema girdob aro bo‘lub doir,
Yillar ul davrada emish soyir.

Tuganib chun alar zaxirasi ρok,
Bo‘lubon kema ahli borcha halok.

Bu mahal yel esib tengiz uza tez,
Zohir aylab tengizda rustoxez[1].

Bahrni chunki yel qilib raqqos,
Charx urardin bo‘lub safina xalos.

Kirgach ul kemaga iki hamroh,
Bor edi Muqbil ishi nola-yu oh.

Tutubon kunje o‘z fig‘oni bila,
Qolibon bahr ichinda joni bila.

Mudbir ul o‘lgon elni sug‘a solib,
Kema-yu moli ixtiyorin olib.

---

[1] *rustoxez* — g‘avg‘o, to‘ρolon; qiyomat

Kema amvolini[1] qilib o‘zining,
Kemani balki ham bilib o‘zining.

Ul bu amvol zabtig‘a mash’uf[2],
Yorig‘a yo‘q aning ishida vuquf[3].

Kim, ko‘rundi yiroqtin sohil,
Kema sohilga yetti musta’jil[4].

Bu tarafkim kema shinovar[5] edi,
Go‘yiyokim diyori Xovar edi.

Shah bukun mayl etib tamoshog‘a,
Aylar erdi nazora[6] daryog‘a.

Ko‘rgach ul kemani dedi: «Yurunguz,
Elidin bir kishini kelturunguz!

Kema kayfiyatini fahm etayin,
Fahm etib, yonib uy sori ketayin».

Ko‘rdilar ikki kimsa erdi qarin,
Bu biri shod-u ul biri g‘amgin.

Shah so‘zi ul ikovga chun yetti,
Mudbir ul yon ravon xirom etti.

Yer o‘pub aylagach duo filhol,
Shoh aning holatini qildi savol.

Dedi: «Tojirmen-u tijorat ishim,
Qolmadi bu safarda hech kishim.

---

[1] *amvol* — mollar, ashyolar
[2] *mash’uf* — aqlsiz, devona
[3] *vuquf* — voqiflik
[4] *musta’jil* — shoshuvchi
[5] *shinovar* — suvda suzuvchi
[6] *nazora* — nazar tashlash

Bo‘lubon suv ufunati maqrun[1],
O‘ldilar borchasi bo‘lub toun[2].

Emdikim bo‘ldi manzilim sohil,
Men men-u bir qulum oti Muqbil».

Ul bu yanglig‘ surub fusun bila dam,
Kim, bo‘la boshladi tanig‘a varam[3].

Varamidin libosi chok o‘ldi,
Ko‘ksi ham chok o‘lub halok o‘ldi.

Shohni hayrat ayladi ojiz,
Bo‘yla ish ko‘rmagan uchun hargiz.

Muqbili notavonni qildi talab,
Ko‘rgach-o‘q ko‘ngliga yuz urdi tarab.

Olidin hamrohini yoshurdi,
So‘rdi ul so‘zki, yoridin so‘rdi.

Muqbil andoqki, bor edi bir-bir,
Bildi andoqki, bor edi taqrir.

Shah dedi: kema-u nekim ahmol,
Borchasi bo‘ldi jam baytulmol.

Har ne Muqbilgakim bayon bo‘ldi,
Chinlig‘i shohg‘a ayon bo‘ldi.

Dedi: «Ahsanta muxbiri sodiq,
Sidq aro kimgakim desak foyiq.

Tuzlug‘ung ko‘nglumizni sayd etti,
Jonimizni asiri qayd etti.

Ista, bizdin nekim sanga dilxoh»,
Muqbil aylab duo dedi: «K-ey shoh,

[1] *maqrun* — yaqin; yondashgan
[2] *toun* — o‘lat, vabo
[3] *varam* — shish

Shohning umr-u johin[1] istarmen,
Charx avjida komin istarmen.

Yana matlub Haq ibodatidur,
Kim, ulus mujibi[2] saodatidur.

Shoh agar qilsa bandasin ozod,
Tun-u kun aylagum duo bila yod».

Chunki Muqbil so‘zi edi dilkash,
Husn xulqi-yu husni xulqi xush.

Shah ko‘rub ul sifat hamida xisol,
Kim, bashar xaylidin erur bu mahol.

Muqbili xush bayon-u zebo chehr,
Uyla garm[3] etti shoh ko‘nglida mehr —

Ki, anga xizmatin ruju[4] etti,
Shah deganda bu ham shuru etti.

Qildi qullug‘ni uyla tabƿazir
Ki, shah etti ani qoshida vazir.

So‘ngra xizmatdin o‘tdi ƿoya anga,
Soldi davlat humoyi soya anga.

Shah bo‘lub vuslat[5] amrig‘a mashg‘ul,
Oni farzandliqqa qildi qabul.

Garchi ul qildi uzrlar angez
Ki, o‘ti o‘zga barqdin edi tez.

Kim, anga qilmish erdi g‘orati hush,
Buti sandal nasimi sandalƿo‘sh.

---

[1] *johin* — mansab, martaba
[2] *mujib* — sababchi, bois
[3] *garm* — issiq, qiziq, qizg‘in
[4] *ruju* — 1) qaytish; 2) murojaat; 3) yuklash
[5] *vuslat* — yetishish; uylanish

Boqmayin shoh e'tizorig'a ham,
Qo'ymay ani o'z ixtiyorig'a ham.

Xarj etib maxzan[1] oshkor-u nuhuft[2],
Qurratul-aynin ayladi anga juft.

Kiydurub hulla borcha sandalbo'y,
Kim, parivash bu ishga qilmish xo'y.

Qasri sandalg'a chektilar oni,
Topshirurg'a guli sumansoni.

Chunki boqti hamul g'aroyib edi,
Ki, anga mujibi masoyib[3] edi.

Qasr ul, saqf-u ostona ham ul,
Taxt ul, ofati zamona ham ul.

Hayrat o'ti solib dimog'ig'a dud,
Aylab ul o't vujudini nobud.

Oh-u afg'on chekib yiqildi yana,
Joni chiqmoqqa mayl qildi yana.

O'ziga gar kelur edi gohi,
Yana borur edi chekib ohi.

Atri sandal topib dimog'i aning,
Yorubon gar ko'zi charog'i aning.

Ko'zin ochqoch yana ko'rub ahvol,
Nola aylab bo'lur edi behol.

Ko'rubon bo'yla ishqi dilkash anga,
Mehribon bo'lmish erdi mahvash anga.

Toki tadrij ila topib orom,
Topti mahvash visoli birlan kom.

---

[1] *maxzan* — xazina saqlanadigan joy
[2] *nuhuft* — yashirin, maxfiy sir
[3] *masoyib* — musibatlar

Lek hayratdin erdi doim lol,
So‘rdi bir kun buti humoyunfol[1]:

«Kim sanga hayrate erur g‘olib?
Bormen oning vuqufig‘a tolib».

Chun anga nukta yo‘q edi juz rost,
Ko‘rganin sharh qildi bekam-u ko‘st.

Shajar-u chashma mojarosini ham,
Sandal-u qasri simiyosini ham.

Mutabassim bo‘lub buti mahvash,
Anga afsona boshladi dilkash.

Kim: «Meni xo‘bliq[2] aro taqdir,
Chun jamol ichra qildi olamgir.

Tushti husnum so‘zi jahon ichra,
Ne jahon, balki ins-u jon ichra.

Manzarimdin o‘tarda nogohe,
Husnuma vola o‘ldi jin shohi.

Qasr uza tushti jin alolosi[3],
Meni devona qildi savdosi.

Shahg‘a chun qildim oni jilvanamo,
Boshim ustiga kelturub hukamo.

Yana romi-yu sohiri hunariy,
Daf etardek ziyoni dev-u ρari.

Qildilar ittifoq ila chora,
Kim, alar daf bo‘ldi yakbora.

---

[1] *humoyunfol* — kelajagi qutlug‘, baxtli
[2] *xo‘bliq* — go‘zallik, yaxshilik
[3] *alolo* — shovqin-suron, g‘avg‘o

Lek gohe qanot sadosi kelur,
Qulog‘img‘a ρari nidosi kelur.

Bo‘yla derlarki, jin shahi yona,
Chunki bo‘lmish g‘amimda devona.

Bahr uza simiyoyi etmishlar,
Manzari dilkushoyi etmishlar.

Sandaliy qasr-u davrida bog‘e,
Sandaliy taxt uza meni dog‘i.

Sen nechukkim ko‘rub ayon etting,
Manga ko‘rgan kibi bayon etting.

Naqsh qilg‘on emishlar anda tamom,
Ko‘rubon xasta toρqali orom.

Sen hamonoki anda yetmishsen,
O‘zni naqshimg‘a vola etmishsen.

Anda vola eding misolimg‘a,
Munda yetkurdi Haq visolimg‘a».

Raf o‘lub Muqbil olidin mushkil,
Bo‘ldi gulrux xayolidin xushdil.

Qasri sandalda komron bo‘ldi,
To‘ni ham sandaliy nishon bo‘ldi.

Sandal osoyishi ravon angla,
Atri oning hayoti jon angla.

Sandal isinda tek turub bo‘lmas,
Mushkni kimsa yoshurub bo‘lmas.

Chun bu afsona surdi nuktasaro[1],
Uyudi shah nasimi sandal aro.

[1] *nuktasaro* — go‘zal va ma’noli so‘zlovchi

«SADDI ISKANDARIY»DAN

Iskandar bila ul gadolig‘ ixtiyor etgan ρodsho, balki filhaqiqat ρodsholiqqa yetgan gado hikoyati kim, Iskandar ani mazallat chohidin chiqorib saltanat kohiga o‘lturmoq istadi va ul toj tarkin qilib, boshidin tarki toji xayolin chiqormadi

Eshittimki Iskandari nomdor,
Chu bo‘ldi jahon ahlig‘a komgor[1].

Ne kishvarki[2] bo‘ldi musaxxar[3] anga,
Mute[4] o‘ldi doroyi[5] kishvar anga.

Hamul shahni kishvarg‘a shoh ayladi,
Hamul elga kishvarρanoh ayladi.

Shah-u mulkdin ko‘ngli ting‘och tamom,
Yana mulk azmig‘a qildi xirom.

Magar fath bo‘lg‘onda Mag‘rib zamin,
Shahi zohir aylab edi qatl-u kin[6].

Chu razm o‘ti bo‘lmish edi bartaraf,
Shah o‘lmish edi razm[7] ichinda talaf[8].

Skandar chu fahm etti xasmin qatil,
Anga mulki ichra tilatti adil.

Dedikim: «Bu kishvar salotinidin[9],
Xabarliq jahonbonliq oyinidin[10].

---

[1] *komgor* — baxtli, qudratli, bahramand
[2] *kishvar* — mamlakat, yurt
[3] *musaxxar* — zabt etilgan, bo‘ysundirilgan
[4] *mute* — itoat etuvchi
[5] *doroyi* — egasi, boshlig‘i
[6] *kin* — kek, o‘ch
[7] *razm* — jang
[8] *talaf* — nobud bo‘lish, halok bo‘lish
[9] *salotin* — sultonlar
[10] *oyin* — urf-odat

Qolubmu ekin bir aningdek kishi,
Ki qilsam ruju[1] anga bu mulk ishi?

Ani elga shoh aylasam mustaqil,
Ki, mulk o‘zgaga bo‘lmasa muntaqil[2]».

Dedilar xaloyiq duo aylabon,
Hadisig‘a jonlar fido aylabon.

Ki: «Ofoq aro sarfaroz[3] o‘lg‘asen,
Hamisha raiyatnavoz o‘lg‘asen.

Bu yanglig‘ kishi kim qilursen so‘rog‘,
Ki, andin raiyatqa[4] yetgay farog‘.

Qabul aylagay oni yaxshi-yamon,
Kishi yo‘q, magarkim, birov bu zamon,

Vale xalq ichindin firor[5] aylamish,
Ajab nav ish ixtiyor aylamish.

Tiriklar arosig‘a qilmas ubur[6],
Matofi[7] emas g‘ayri — eski qubur[8].

Hamono tiriklarda ko‘rmay vafo,
Qubur ahlig‘a aylamish iktifo[9].

Boshi toj tarkin qilib ixtiyor,
Bo‘lub tarki toj bila baxtiyor.

---

[1] *ruju* — qaytish, toрshirish
[2] *muntaqil* — o‘tuvchi, ko‘chuvchi
[3] *sarfaroz* — yuksalgan
[4] *raiyat* — xalq
[5] *firor* — qochish
[6] *ubur* — yurib o‘tmoq
[7] *matofi* — tavof aylamoq, ziyorat qilmoq
[8] *qubur* — qabrlar
[9] *iktifo* — kifoya qilmoq

Ne maskan bo‘lub kecha bir bum[1] anga,
Ne kunduz yemak vajhi ma’lum anga.

Kishi birla yo‘q mutlaqo ulfati,
Bo‘lub xalq g‘avg‘osidin kulfati.

Niyoz ahli chun qilsalar ixtilot[2],
Qilur so‘zda zohir gahi inbisot[3].

Nasoyih der elga bag‘oyat mufid,
Ki, olamdin elni qilur noumid.

So‘z ichra bu taqrib tartib etar,
Ki, elni fano sori targ‘ib etar!»

Skandar eshitgach dedikim: «Yurung,
Ani qayda bo‘lsa, topib kelturung!»

Ravon hukm ila har taraf surdilar,
Topib shoh bazmig‘a yetkurdilar.

Yalang erdi bosh-u, ayog‘i yalang,
Yaqo chokidin ko‘ksi dog‘i yalang.

Jahon shug‘li gardiga silkib etak,
Tutib ikki ilgiga iki so‘ngak.

Skandar anga ehtirom ayladi,
O‘z olinda oliy maqom ayladi.

Dedi: «Bu so‘ngaklardin afsona ayt,
Ne so‘rsam, javobin aning yona ayt!»

Dedi: «Go‘rlardin qilurda guzar,
Necha bu so‘ngaklarga soldim nazar.

[1] *bum* — zamin, yer, quruq joy
[2] *ixtilot* — aralashish, bordi-keldi qilish
[3] *inbisot* — shodlik, xursandlik

Zamirimg‘a lekin nihon qoldi bu,
Ki, shahning qayudur, gadoning qayu?

Chu o‘lganda birdur bu iki mato,
Tiriklikda nevchun qilurlar nizo?»

Kelib bu kalomi Skandarga xush,
Dedi: «K-ey zabonovari borkash.[1]

Seni toρtim asr-u biyik [2] nuktalik,
Agar bor esa himmating ham biyik.

Seni kishvaringda qilay arjumand[3],
Berib shohlig‘, ρoyang aylay baland».

Dedi:«Himmat o‘lmish manga hamnishast[4],
Sen istardek ermas, vale asr-u ρast.

Ki, tark aylabon faqr sarmoyasin,
Ρisand etgamen shohlig‘ ρoyasin?

Emas rub’i maskunga[5] rag‘bat manga,
Tilar to‘rt sarmoya himmat manga:

Biri andin o‘ldi hayoti abad,
Ki, yo‘qtur aning intihosig‘a[6] had;

Yana bir: yigitlikki toρmay xalal,
Qariliq bila bo‘lmag‘ay ul badal;

---

[1] *borkash* — yuk tashuvchi, hammol
[2] *biyik* — ulug‘, buyuk
[3] *arjumand* — aziz, mo‘tabar,qadrli
[4] *hamnishast* — birga o‘tiruvchi, hamsuhbat
[5] *rub’i maskun* — yer yuzining inson yashaydigan qismi
[6] *intiho* — oxir, so‘ng

Yana bir: g‘inoyi[1] muabbad[2] durur,
Ki, oldinda iflosqa raddurur;

Yana: shodlig‘kim, yo‘q oning g‘ami,
Adam bo‘lg‘ay ul surning motami».

Skandarni hayrat zabun aylabon,
Dedi, bosh uyotdin nigun aylabon.

Ki: «Ey farruxoyin-u[3] farxundaroy[4],
Bu uqdangdin ul bo‘ldi mushkul kushoy.

Ki, bu dayr aro topsang ogohlik,
Sanga faqr berdi, manga shohlik.

Agarchi meni ayladi arjumand,
Sanga berdi himmatni mendin baland».

Gadoyeki bo‘lg‘ay biyik himmati:
Anga past erur shohlig‘ rif’ati[5].

Chu himmat baland o‘ldi ersa faqir,
Ko‘ziga erur asr shohi haqir[6].

Hikmat

Iskandarning Arastudan savoli ul bobdakim, adolat natijasine nav ishlar bo‘la olg‘aykim, ul natija umidiga kishi ul yo‘lg‘a qadam solg‘ay va Arastug‘a jahonkushoyliq tili ochilmoq va adl natijasi jahongirlik erkanin sobit qilmoq va odilg‘a ul jahon saodati ham topilmoq.

---

[1] *g‘ino* — boylik
[2] *muabbad* — abadiy
[3] *farruxoyin* — yaxshilik keltiruvchi, baxtiyor qiluvchi
[4] *farxundaroy* — dono, oqil
[5] *rif’ati* — yuksaklik, balandmartabalik
[6] *haqir* — tuban, past, xor

Yana shoh Arastug‘a qildi xitob,
«Ki, ey donishoyin-u[1] hikmatmaob![2]

Shahekim erur adlning jozimi[3],
Ne ishlar ekin adlning lozimi?»

Dedi: «Shahki adl o‘lsa oyin[4] anga,
Musaxxardurur[5] dunyo-yu din anga.

Bu olamda bo‘lmoqlik ofoqgir,
Yana olam ahlida jannat sarir[6].

Bu olam olurni burun sharh etay,
Yana o‘zga olamga dog‘i yetay.

Shahe kim anga adl bunyod o‘lur,
Natija bukim, mulki obod o‘lur.

Chu mulk o‘ldi obod-u xalqi g‘ani[7],
Yaqindurki, ma’mur[8] o‘lur maxzani.

Chu maxzanni bu nav ma’mur etar,
Sipohiga beshak mavojib[9] yetar.

Sipohi qachon shahg‘a tolib kelur,
Adusig‘a[10], shak yo‘qki, g‘olib kelur.

Qachon bir adusini past ayladi,
Aning mulkini zerdast[11] ayladi.

---

[1] *donishoyin* — donishmand
[2] *hikmatmaob* — hikmatparast
[3] *jozim* — jazm qiluvchi
[4] *oyin* — urf, odat
[5] *musaxxar* — o‘ziga qaratilgan, bo‘ysunmoq
[6] *sarir* — taxt
[7] *g‘ani* — boy
[8] *ma’mur* — obod
[9] *mavojib* — belgilangan (haq, maosh)
[10] *adu* — dushman, yov aylamoq
[11] *zerdast* — qo‘l ostida tutmoq, bo‘ysundirmoq

Iki mulk afzun[1] qilur quvvatin,
Yana xasmining[2] sindurur shavkatin.

Bu tartib ila chunki tarhin solur[3],
Ajab yo‘q, agar dahr mulkin olur.

Yana ulki chun adli zohirdurur,
Bori qavm ila xayli shokirdurur[4].

Sipohiysi gar tig‘ urar beadad,
Raiyat duo birla aylar madad.

Qachon qildi ming xasmi kinxoh[5] o‘qi,
Yarim kecha qilg‘oncha bir oh o‘qi.

Yana ulki chun adl bo‘lmish fani,
Adu xayli dog‘i tilarlar ani.

Raoyosi[6] tunlar ilik[7] ochibon,
Sipohiysi borib anga qochibon.

Birov topsa bir ishga muncha sabab,
Jahongir bo‘lmog‘lig‘i ne ajab?

Bu bir muddao ochunki topti vuqu[8],
Yana birga emdi qiloyin shuru[9].

Birov Tengriga iltijo kelturur,
Chu adl amr qilmish bajo kelturur.

---

[1] *afzun* — ko‘p, ortiq
[2] *xasm* — dushman, raqib
[3] *tarhin solur* — reja tuzmoq
[4] *shokir* — shukr etuvchi
[5] *kinxoh* — kek saqlovchi, qasoschi
[6] *raoyo* — xalqlar
[7] *ilik* — qo‘l
[8] *vuqu* — voqe bo‘lish, yuz berish
[9] *shuru* — kirishish, boshlash



Olib mulkidin ranj-u farsudaliq,
Xaloyiqqa yetkurgay osudaliq.

Taammul qilib adl-u ehsonig‘a,
Duo qilsa ofoq eli jonig‘a.

Natija munga g‘ayri g‘ufron emas,
Jazoyi amal bo‘lmay imkon emas.

Bu olam dog‘i bo‘ldi, ul ham anga,
Iki kavn mulki musallam anga».

Chu xatm etti donoyi bisyordon,
Javobini topti shahi kordon.

Hakim ayturidin chu kasb etti naf,
Bori shubhasi ko‘nglidin bo‘ldi raf.

♦♦♦

Iskandar ishlarining tafsilini ijmol bilan deyilmak va ul ijmolning mujmalotin tafsil qilmoq va Doroning rasuli anga oltun bayza tilay kelib, ρo‘lod nayzadek itik so‘zlar javob topib bormoq va ul sinon lam’asining barqi aning xirmani sabrig‘a o‘t solmoq va kunjud bila go‘y va chavgon yibormagi va Iskandar ul chavgon bila go‘y urub kunjudni qushlar termagi.

Bu yanglig‘ dedi mo‘badi [1] nuktasanj[2],
Ki, tarix ilmig‘a ko‘ρ chekti ranj.

Ki, chun qildi ul shohi navxosta[3],
Adolat bila mulkin orosta.

Hakim, o‘ylakim, ko‘rguzib erdi yo‘l,
Adolat havosin bilib erdi ul.

---

[1] *mo‘bad* — otashparastlar boshlig‘i, obid
[2] *nuktasanj* — ma’nolarni nozik biluvchi
[3] *navxosta* — go‘zal qomatli, yosh yigit

Ki, olam olurg‘a bo‘lur muntahi[1],
Bu so‘z fikrida xotiri ogahi.

Taammul qilur erdi haddin fuzun,
Chekar erdi andisha torin uzun.

Chu adl-u shijoat anga yor edi,
Yana roy[2] ila hikmati bor edi.

Quyoshdek sipehr uzra tortib alam,
Yurib oldi olam yuzin yakqalam.

Ul ishlarki, ul qildi ofoq aro,
Kishi qilmadi bu kuhan toq aro.

U a’jubalarkim anga berdi dast,
Jahondorlar qadri topti shikast.

Nekim qildi ul desa, aytay, kishi,
Tuganmas o‘qub qarnlar ul ishi.

Bori qilg‘onin demak oson emas,
Deganga tugatmaklik imkon emas.

Munosib bu keldiki har hol ila,
Desam, avval ahvolin ijmol ila.

Ki, komim ravo aylamish bo‘lg‘amen,
Hadisin ado aylamish bo‘lg‘amen.

Yana qissasig‘a taaqqul qilib,
Tavorixiga ko‘p taammul qilib.

Umurida ulcha g‘aroyibdurur,
Ki, ul ishta ko‘prak ajoyibdurur.

---

[1] *muntahi* — oxiriga yetuvchi
[2] *roy* — fikr, o‘y, ra’y

Judo aylabon kizb oloyishin,
Anga aylasam nazm oroyishin.

Hamonoki ul shohi davlatpanoh,
Burun Rum taxtigakim bo‘ldi shoh.

Muxolifqa qasdi halok ayladi,
Ki, a’dodin ul yerni pok ayladi.

Cherik chekti andin so‘ng istab kushod,
Jahon ichra aylarga fathi bilod.

Burun tortibon razm uchun tig‘i kin,
Yurub ayladi azmi Mag‘ribzamin.

Qilib Zangbor ahliga chiyralik,
Yudi tig‘ suyidin ul tiyralik.

Yana bo‘ldi Doro bila hamnabard,
Ki badxohdin ko‘kka yetkurdi gard.

Yana mulk ochmoqqa qilmay darang,
Yurub fath qildi bilodi Farang.

Chu bo‘ldi mute anda bo‘lg‘on ulus,
Qirim birla fath ayladi Andalus.

Yonib Misr fathig‘a qildi sitez,
Sipehr oni Misr uzra etti aziz.

Ko‘rib tab’i ul marzni oshno,
Qilib anda Iskandariya bino.

Chu Zardusht dafig‘a qildi g‘ulu,
Alar o‘tig‘a tig‘ ila urdi suv.

Iroqi Ajam sori qilg‘ach xirom,
Navo topti ohangidin ul maqom.

Iroqi Arabg‘a chu surdi samand,
Qudumidin o‘ldi ul el bahramand.

Yana ayladi azmi Shom-u Halab,
Nasib o‘ldi ul yerga kom-u tarab.

Yaman sori chiqti nechukkim Suhayl,
Aqiq o‘lg‘ali toshlari qildi mayl.

Yer o‘ρmakka chun Makka azmi qilib,
Qabuli uchun ul eshik ochilib.

Qilib azm andin savohil sari,
Qo‘yub yuz ajoyib marohil sari.

Yana aylabon Fors fathig‘a azm,
Muyassar bo‘lib, aylamay kiyn-u razm.

Ochilg‘och bular shohi farxunda fol,
Saodat bila qildi azmi Shimol.

Chu mulk olg‘ali da’bu xo‘ razm etib,
Tavajjuh bila fathi Xorazm etib.

Chekib raiyati mehri ishroqni,
Yoruq aylabon Dashti Qiρchoqni.

Chu bu nohiyatdin inontob o‘lub,
Inongiri Saqsin-u Saqlob o‘lib.

Chu ozim bo‘lib jonibi Os-u Rus,
Bo‘lib yuzlari vahmidin sandarus.

Tushub Charkas-u Gurja sori yo‘li,
Bo‘lib borcha gurji-yu charkas quli.

Shimol ahlin ehsong‘a g‘arq aylabon,
Tavajjuh qilib azmi Sharq aylabon.

Chu manzil qilib mulki Farxorni,
Kesib ul gulistonda har xorni.

Chu ma'bar bo'lib Movaronnahr anga,
Yasolib Samarqanddek shahr anga.

Chigil birla Yag'modin aylab ubur,
Nechukkim, chamandin sabo-vu dabur.

Yurub Ching'a bo'lg'onda masnadnishin,
Kamar bog'lab olinda Xoqoni Chin.

Yana Hind sori qilib turktoz,
Bo'lib Ked qulluq bila chorasoz.

Buzub Hind-u Chin ichra butxonalar,
Yasab toat ahlig'a koshonalar.

Chu raf aylabon kufr yanglig' uyub,
Berib rahnavardig'a azmi Janub.

O'tib Sind ila Kech-u Mukron sori,
Ham andin qilib azm Kirmon sori.

Xuroson havosida topgach hayot,
Yasab anda shahre nechukkim Hirot.

Sipohon sari dasht qilg'onda tay,
Bino aylabon shahre andoqki Ray.

Chu fath o'ldi olamdag'i marz-u bum,
Ko'ngul jam etib ayladi azmi Rum.

Necha vaqt o'lib aysh ila jomgir,
Ko'ngil topmadi anda oromgir».

Yana qatla olamni sayr ayladi,
Mamolikda bunyodi xayr ayladi.

G‘arib ishlaridinki yo‘q anga had,
Biri erdi ya’juj olig‘a sad.

Masohat qilib borcha ofoqni,
Ne ofoqkim, charxi nuhtoqni.

Chu qildi masohat masolik aro,
Yig‘och etti ta’yin mamolik aro.

Tanobeki, massoh qildi quloch,
Qilib o‘n iki ming qari bir yig‘och.

Aning sa’yidin topti bori sabil,
Nishone qachon bir yig‘och o‘lsa mil.

Manozilda tarhi rabot ayladi,
Ki, andin musofir nishot ayladi.

Chu ma’murani tuzdi qilmay darang,
Tengiz mayli qildi, nechukkim nahang.

Su uzra surub benihoyat kema,
Solib anda bori keraklik nima.

Necha yil suv uzra xirom ayladi,
Jazoyirda gohi maqom ayladi.

Haq ehsonidin bahri zohir aro,
Bilodikim erdi jazoyir aro.

Borin fath qildi suv uzra yurub,
Birin chun olib, ilgarirak surub.

Chu yer qolmadi olmog‘on suvda ham,
Bu ishlar bila bo‘lmay osuda ham.

Su mavji kibi iztirob ayladi,
Muhit orasig‘a shitob ayladi.

Chu bo‘ldi yer-u nuqtagohi Muhit,
Quyi suv-u ustun sipehri basit.

Qilib suv tubin ko‘rmak andishaye,
Hamul hikmat ahli yasab shishaye.

Kirib shishag‘a ranj-u tashvir ila,
Aning og‘zini berkitib qiyr ila.

Tanobeki, bo‘lg‘ay necha ming qari,
Eshilgan, kelur chog‘da daryo sari.

Bir uchin qilib shisha davrig‘a rust,
Yana bir uchin tutturub elga chust.

Bu yanglig‘ qilib cho‘kti daryo quyi,
Ani qarig‘a chekti daryo suyi.

G‘aroyibki daryoda bo‘lg‘ay nihon…
Anga zohir o‘ldi jahon dar jahon.

Alardin ravo aylabon komini,
Kema ichra qo‘ydi yana gomini.

Va lekin bu so‘zda erur ixtilof,
Yerida demakdin emasmen maof.

Yana azm qildi, qurug‘liqqa bot,
Chiqib ayladi azmi obihayot.

Qorong‘uda aylab yorug‘lik talab,
Ani topmayin qayitti xushklab.

Quruqluq aro Xizr o‘lib rahbari,
Tengiz ichra Ilyos edi yovari.

Bu ishlar qilibkim, kishi qilmayin,
Kishidin bu nav ishlar aytilmayin.

Valoyat qilib Tengridin multamas,
Nubuvvatqa dog‘i topib dastras.

Bo‘lib oncha davlat muyassar anga,
Yana oncha kishvar musaxxar anga.

Ki, sabtig‘a yo‘nsa kishi xomaye,
Keraktur raqam topsa «Shahnoma»ye.

Va lekin bu daftarda gunjoyishi,
Emas siqqudek borcha oroyishi.

Zaruratdin alqissa har hol ila,
Aning qissasin surdum ijmol ila.

Ado bo‘ldi har bayt aro daftare,
Har uy ichra qildim nihon kishvare.

Tamomi bu erdiki, qildim ado,
Vale emdi tavfiq bersa Xudo.

Sunub panja kulliy ishe sori qo‘l,
Qilay nazmkim, asl bo‘lg‘ay hamul.

Alardin biri erdi Doro ishi,
Kim, ul nav ish yod bermas kishi.

Bu nav erdi ulkim malik Faylaqus
Ki, Rum ahli erdi anga xokbo‘s.

Jahonxusrav ul chog‘da Doro edi,
Anga shohlig‘ oshkoro edi.

Kayoniylar o‘rnida ofoqgir,
Kelib ρusht-barρushti sohibsarir.

Umurida oyini Luhrosbiy,
Sipohida qonuni Gushtosbiy.

Bo‘lib ko‘ρ Kayoniy ish ihdos anga,
Tegib bahmaniy mulk meros anga.

Jahonbonlig‘ amrida Xusravnajod,
Angachaki Kayxusrav-u Kayqubod.

Jahon mulkida mustaqil ρodshoh,
Anga toρshurub shohlar toj-u kuloh.

Mamolikda har sohibi taxt-u toj,
Anga yetkurub ρeshkash yo xiroj.

Biri Faylaqus erdi ul xayl aro,
Xirojini berguchi bemojaro.

Xiroj ul nimakim muqarrar emish,
Hamonoki ming bayzayi zar emish.

Chu ul qildi dayri fanodin xirom,
Skandar anga bo‘ldi qoyim maqom.

Bor erdi chu mulk o‘ldi tayin anga,
Bu yanglig‘ki sharh ettim oyin anga.

Ham avvalg‘i yil tortibon tig‘i kin,
Qilib Zang shohi bila big‘i kin.

Topib tig‘ining barqi chun ishtiol,
Kuyub zangi andin nechukkim zugol.

To‘kub erdi qon oncha ul xayldin,
Ki, zang ahli ruxsori ul seldin —

Qaro dog‘lardek bo‘lib oshkor,
Bo‘lub yer yuzi, o‘ylakim lolazor.

Iki, uch yil ichra necha bo‘yla razm,
Qilib erdi ul shohi farxunda azm.

Ki, borida a’dosi mankub edi,
Kirib ilgiga ulcha matlub edi.

Bu fursatda fath aylagan marz-u bum,
Bo‘lib iki-uch onchakim mulki Rum.

Qilib xaylin a’dog‘a andoq daler,
Ki, bo‘lg‘ay qulon qasdida nara sher.

Shukuhi oshib bahri zaxxordin,
Livosi o‘tub charxi davvordin.

Qilib tig‘i barqi jahonso‘zluq,
Yuzi mash’ali olamafro‘zluq.

Xayoli aro urmayin tob-u pech,
Jahongirlik fikridin o‘zga hech.

Ne ofoqni o‘ziga keng ko‘rub,
Ne ofoqning shahlarin teng ko‘rub.

Atosi vafotidin uch yil o‘tub,
Ishi lek o‘n oncha rif’at tutub.

Bu uch yil aro ko‘ngliga yetmayin,
Xayolig‘a balkim xutur etmayin.

Ki, Dorog‘a bo‘lg‘ay ishi ehtiyoj,
Anga xud ne yetgayki, bergay xiroj.

Birovkim azaldin durur rif’ati,
O‘zidek rafe-o‘q erur himmati.

Bukim bo‘lg‘usi xasm Doro anga,
Kerak zohir etmak madoro anga.

Vayo mulk-u johiga qilmoq nazar,
Aning ko‘ngliga mutlaq etmay guzar.

Qachon qilsalar kin iki narra sher,
Yaqinkim, bo‘lur navjuvonroq daler.

Qachon kin chog‘i bo‘lg‘ay andeshasi,
Ki, ko‘prak durur xasmning peshasi.

Iki ajdaho bo‘lsalar kinasanj,
Tafovut ne, ko‘prak esa yerda ganj.

Tengizda balig‘ bo‘lsa haddin ulug‘,
Nahang o‘lmas osibidin qayg‘ulug‘.



HUSAYNIY
(1438–1506)

Husayn Boyqaro faqat mohir sarkarda va yirik davlat arbobigina emas, balki iste'dodli adib ham edi. U «ham forsiy demakka qodir va ham turkcha aytmoqqa mohir erdi, ammo turkiy devon tadviniga mayl qildilar va dilpazir abyot va benazir g'azaliyot tartib berdilar» (Alisher Navoiy).

U o'sha davrdagi o'zbek fani, madaniyati, ayniqsa, adabiyotining rivojiga munosib hissa qo'shgan. Hukmdor sifatida esa o'z davrida turkiy tilda asarlar yaratilishiga sharoit va imkon yaratib bergan, bu ishlarni amaliy jihatdan rag'batlantirgan edi. Adibning «Risola» nomi bilan mashhur bo'lgan asari alohida tarixiy, adabiy, ma'rifiy ahamiyatga molik. Unda, jumladan, Navoiy haqidagi ko'plab tarixiy haqiqatlar va e'tiroflar aks etgan. Husayn Boyqaro Navoiy haqida gapirib: «... turk tilining o'lgan jasadig'a Masih anfosi bila ruh kiyurdi va ul ruh topqonlarg'a turkiy oyin alfoz tor-u pudidan to'qulgon hulla va harir kiydurdi», — deydi.

«Risola» — o'zbek prozasining yaxshi va go'zal namunasi sifatida ham e'tiborga molikdir.

«Risola»da Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylarning ijodlariga juda katta baho beriladi. Jumladan, Jomiy «jumlaning a'lami (olimi) va afzali, fazoil (fazilatlar) daryosining duri poki» deb ta'riflanadi. «G'azallari sho'rangiz (olamga g'avg'o soluvchi, ya'ni kishida kuchli his va hayajon uyg'otuvchi), baytlari lutfomiz (lutfga boy)» ekanligi uqtiriladi. Navoiyning «haq so'z adosinda daler (botir, qo'rqmas)»ligi alohida ta'kidlanadi. Uning «turk tilining o'lgan jasadig'a Masih anfosi bilan ruh

kiyurdi» degan ta'riflari ayni ϱaytda yirik shoirning samimiy e'tiroflari ham edi.

Uning o'zi hassos shoir edi.

G'AZALLAR

(Bo'ldi gul vaqti-yu...)

Bo'ldi gul vaqti-yu men dard-u g'amida mubtalo,
Ishq o'tidin loladek bag'rimda yuz dog'i balo.

Qon yoshimni ko'rdim-u guldek ko'ngul holin dag'i,
Bu sifat holimni ϱas ollida arz et, ey sabo.

G'arq men ko'z mardumidek qon yoshim selobiga,
Ohkim, faryodima yetmas bu kun bir oshno.

Holi zorin, sen kibi sultondin ayru tushgali,
Yafrog' ermas, guldakim yuz til bila aylar ado.

Men bilur erdimki, yo'qtur intiho ishqimg'a hech,
To guli vasling bila qildim muhabbat ibtido.

Loladek may jomini tutgil g'animat, gul chog'i,
Xossakim, ishratqa urdi bulbuli bedil sado.

Gar Husayniy, toϱmadi barge jamoling bog'idin,
Bu chamanda, ey guli navras, sanga bo'lsun baqo.

(Furqatingdin xasta ko'nglum qatra-qatra qon erur...)

Furqatingdin xasta ko'nglum qatra-qatra qon erur,
Olloh-olloh, bu ne hajri behad-u ϱoyon erur?

Har sari yuz zaxm[1] erur jismimda, vah, nosih[2] tili,
Hajr o‘qidin har jarohat ichra bir ρaykon[3] erur.

Ko‘z qilur bu vajhdin[4] tunlar duri ashkin nisor,
Kim, xayoling jon uyida bir kecha mehmon erur.

Xanjari javringdurur o‘tlug‘ ko‘ngul osoyishi,
Suv nechukkim, tashna lablar dardig‘a darmon erur.

Ey Husayniy, hajr aro bexudlug‘um ayb etmagay,
Har kishikim bir ρari ishqida sargardon erur.

(Ey ko‘ngul...)

Ey ko‘ngul, ul dilraboning o‘zga yori bor emish,
Vah, sanga dushman bo‘lub, ul o‘zgalarga yor emish.

Har zamon yuz bor dil ozoridin ko‘nglumdadur,
Vahki, ozori buzug‘ ko‘nglumda muncha bor emish.

Dardi ishqing sharhini ko‘zumga degach to‘kti yosh,
Vahki, oni yor sog‘indim[5], ul vale ag‘yor emish.

Zor o‘lub ishqig‘a ozori kelurni bilmadim,
Zorlarg‘a ishqdin kelgan nasib ozor emish.

Yuz ochib o‘rtar meni, vah, ishq o‘tidin ne gila[6] —
Kim, manga o‘t solg‘uchi ul otashin ruxsor emish.

---

[1] *zaxm* — yara, jarohat
[2] *nosih* — nasihatgo‘y, o‘git beruvchi
[3] *ρaykon* — kamon o‘qining uchi, o‘q uchidagi metall boshoq
[4] *vajh* — sabab, bahona, vaj
[5] *sog‘inmoq* — hisoblamoq, tushunmoq, o‘ylamoq
[6] *gila* — gina, o‘ρkalash

Hajrida bechoralig‘din oh-u vovaylo[1] ne sud,
Kim, balolig‘ ishqda bechoralig‘ nochor emish.

Ey Husayniy, der eding ul dilraboni bevafo,
Men ham oni fahm etibmenkim, yuz oncha bor emish.

(G‘unchani og‘zing desam...)

G‘unchani og‘zing desam, naylay aning guftori[2] yo‘q,
Sarvni qadding desam, netay aning raftori[3] yo‘q.

Oyni ne yanglig‘ sanga nisbat qilaykim, husn aro,
Sarvdek ham qaddi yo‘q, ham gul kibi ruxsori yo‘q.

Zulfunga sunbulni ne nav aylayin tashbihkim,
Ham diloso atri, ham jon rishtasidek[4] tori yo‘q.

Ayta olmon la’lingga yoqut o‘xsharkim oning,
Ham chuchuklik ta’mi, ham jonbaxshliq osori yo‘q.

Gar raqibingdin meni o‘ksuk ko‘rarsen bok emas,
Kimki oshiq bo‘ldi itdin kam desang ham ori yo‘q.

Istasang ko‘nglumga osoyish qadah tut, soqiyo,
Kim dame yo‘qkim ulusdin yuz tuman ozori yo‘q.

Ko‘yida itti Husayniy ko‘ngli, tong yo‘q, istasa,
Kim, bo‘lubtur onda bir devonayi afgori yo‘q.

---

[1] *vovaylo* — afsus va nadomatni, qayg‘u va hasratni bildiruvchi undov so‘z
[2] *guftor* — so‘z, so‘zlash
[3] *raftor* — yurish
[4] *rishta* — ip

(Chun junun zanjirig‘a bo‘ldum giriftor, ey ko‘ngul...)

Chun junun zanjirig‘a bo‘ldum giriftor, ey ko‘ngul,
Bo‘lg‘asen farsuda jonimdin xabardor, ey ko‘ngul.

Qochsam ul zanjir ila ovoralig‘ sahrosiga,
Qilma holimni xirad ahlig‘a izhor, ey ko‘ngul.

Qo‘yki davronning jafo oyin eli bedodidin[1],
Bo‘lmasin hargiz alar ichra ρadidor[2], ey ko‘ngul.

Anda ham qo‘ymay topib, «devonadur», deb bog‘labon,
Sudrab eltur bo‘lsalar xalqi sitamkor, ey ko‘ngul.

Qilsalar g‘avg‘o ulus jonimg‘a bedod etgali,
Mendin ul dam lahzaye ayrilma zinhor, ey ko‘ngul.

Shoyad ul yanglig‘ tamosho sori mahvashlar[3] bila,
Kelgay ul shamshod qadd-u mohruxsor, ey ko‘ngul.

Ko‘rgach oni gar Husayniy yanglig‘ etsang tarki hush,
Hazratida[4] qilg‘asen jonimni iysor, ey ko‘ngul.

(Necha kuygay hajr ila farsuda jonim dam-badam...)

Necha kuygay hajr ila farsuda[5] jonim dam-badam,
Hajridin ko‘nglumga yuz g‘am, g‘am uza dard-u alam.

---

[1] *bedod* — jabr, zulm; adolatsizlik
[2] *ρadidor* — ρaydo bo‘lgan, ko‘ringan
[3] *mahvash* — oyga o‘xshash
[4] *hazratida* — huzurida, oldida
[5] *farsuda* — to‘zigan, ezilgan; horg‘in, holsizlangan, qiynalgan

Yor bordi ko‘zdin-u ko‘nglimda furqat shiddati,
Charx bedod ayladi, jonimg‘a davron javr ham.

Kecha-kunduz jonima, vahki, balolar yuz qo‘yub,
Shom to subh uyqu yo‘qdin ko‘ngluma yuz ming sitam.

Hajr aro sabrim yo‘qi anduh aro ko‘ρ muztarib[1],
Ashkdin seli balo, oh o‘tidin har dam alam.

Barcha bir sori-yu yo‘qtur yor vaslidin umid,
Toρqasen vasl, ey ko‘ngul, ul damki bo‘lg‘aysen adam.

Ey Husayniy, motamim sharhini dedimkim yozay,
So‘zidin ham safhag‘a o‘t tushti, ham kuydi qalam.

(Hech musulmong‘a, nigoro, dog‘i hijron bo‘lmasun...)

Hech musulmong‘a, nigoro, dog‘i hijron bo‘lmasun
Kim, visolingdin judo bo‘lsa, anga jon bo‘lmasun.

Ko‘z uchidin novaki javring bila o‘ltur meni,
Domani[2] ρoking, begim, nogah yana qon bo‘lmasun.

Xasta ko‘nglum bandi zulfungdin ρarishondur base,
Jam qilg‘il sunbulingnikim, ρarishon bo‘lmasun.

Jong‘a yettim dilbari nodon elindin, oh, oh!
Hech kishining dunyoda mahbubi nodon bo‘lmasun.

Jon berurda kelib o‘ltur, bir dame ko‘ray seni —
Kim, Husayniy ko‘nglida, ey do‘st, armon bo‘lmasun.

---

[1] *muztarib* — iztirobda qolgan, tinchsizlangan
[2] *doman* — etak

(Ey sabo, bergil xabar, sarvi ravonim keldimu...)

Ey sabo, bergil xabar, sarvi ravonim keldimu?
Jon isi sendin kelur, ruhi ravonim keldimu?

Hajr dashtida mungrab qolmish erdi xasta jon,
Vah dengizkim, ul g'aribi notavonim keldimu?

Kelgan ermish xo'blar ishq ahli qonin to'kkali,
Ey ko'ngul, ko'rkim mening qatlimga jonim keldimu?

Zulfida sen band-u men ko'yida bemor, ey ko'ngul,
Za'fdin dekim, sanga munglug' fig'onim keldimu?

Yor mehmon bo'lsa jism uyiga, jon aylay nisor,
Aytingiz, ey do'stlarkim, mehmonim keldimu?

Rahm etib bir kun Husayniyni itingdin so'rg'asen,
Ul malomat ko'yida itgan[1] yamonim keldimu?

(Bir quyosh hajrida...)

Bir quyosh hajrida chektim o'tlug' afg'on bu kecha,
Kuymakim dudidin[2] o'ldi charx giryon bu kecha.

Ul quyosh hijronida har bir qarosi shaklidin,
Qo'ydilar har bir ko'zum bir dog'i xirmon bu kecha.

Shomi hijronimni bilmonkim[3], bu yanglig' tiyradur,
Yo qilibtur dudi ohim oyni pinhon bu kecha.

To'kti kavkab[4] furqating shomida ko'zum onchakim,
Qoldi gardun yuz tuman ko'z birla hayron bu kecha.

---

[1] *itgan* — yo'qolgan
[2] *dud* — tutun
[3] *bilmon* — bilmayman
[4] *kavkab* — yulduz, ko'z yoshi

Ey ajal, dodimg‘a yetgil bu qatig‘ holatdakim,
Yo‘qturur ρaydo mening shomimg‘a ρoyon bu kecha.

ρarchaming[1] tong yelidin oshufta bo‘lmush go‘yiyo
Kim, qilibdur ro‘zg‘orimni ρarishon bu kecha.

Ey Husayniy, yorning ko‘ksimga tekkan novakin,
Jon berib qildim buzug‘ ko‘nglumg‘a mehmon bu kecha.

(Vahki, g‘am dashtida...)

Vahki, g‘am dashtida itgan notavon ko‘nglum qani,
Tarki jonim aylagan bexonumon ko‘nglum qani?

Ne nishonidin xabar toρtim, ne otidin asar,
Hajr vodiysinda benom-u nishon ko‘nglum qani?

Demakim, joningg‘a orom istasang toρshur ko‘ngul,
Sen burun ko‘rgandek, ey oromijon, ko‘nglum qani?

Lutflar qilmish jahon rasvosi ushshoqig‘a yor,
Vah, muningdek chog‘da rasvoyi jahon ko‘nglum qani?

Yel sochar gulbarg bo‘ston ichra ul oy boshig‘a,
Bu mahalda tomg‘udek bir qatra qon ko‘nglum qani?

Sen xud aytursenki, ishq ichra kerak ko‘nglunga sabr,
Sabr etarga, ey rafiqi[2] mehribon, ko‘nglum qani?

Eyki, dersenkim, Husayniy o‘zgaga bermish ko‘ngul,
O‘zgaga bermak uchun, ey badgumon, ko‘nglum qani?

---

[1] *ρarcham* — o‘rilgan soch, zulf, kokil
[2] *rafiq* — do‘st, oshna, o‘rtoq

Husayniyning Alisher Navoiy g‘azaliga muxammasi

La’li jonbaxshingdin ayru obi hayvonni netay?
Har dam ar yuz jon berur, jononasiz jonni netay?
Gar emas manzur yuzing, hur-u g‘ilmonni netay?
Gulshani ko‘yungdin ayru bog‘i rizvonni netay?
Boshima gar gul sochar, sensiz gulafshonni netay?

Hajr anduhida to gulshan aro qildim guzar[1],
Sarv bo‘yi qomatingning naxlidin[2] berdi xabar,
Lekin oning vaslidin ne bahra toɒdim, ne samar[3],
Naxli qadding chun emas giryon ko‘zumda jilvagar,
Jo‘ybor atrofida sarvi xiromonni netay?

Jism-u jonni istamon, billahki, jonondan judo,
Ko‘rsang ul mahvashni, holim arz etib ayt, ey sabo,
Lek zinhor ollida bu nav qilg‘aysen ado,
Ul itingga bo‘lmasa to‘ma navolingda fido,
Za’flik ɒaykarni naylay, notavon jonni netay?

Birdam, ey ahbob, har sori qoshimdan ketmangiz,
Harnakim derman muvajjah[4] bo‘lmasa, eshitmangiz,
Buki dermen chehradin qonlig‘ yoshim oritmangiz,
La’lgun ashkim labi hijronida ayb etmangiz,
Ko‘z yo‘lidin to‘kmayin bag‘rimdagi qonni netay?

Bu ajabdurkim, sanga ma’lum bo‘lmaydur bu sir
Kim, erurmen la’li shavqidin o‘lumga muntazir,
Gar suyungdin harnafas yuz jom bersang, bor muzir,
Zulmati hajrida chashmang vasfin etma, ey Xizr,
Menki umrumdan to‘yibmen, obi hayvonni netay?

---


[1] *guzar* —o‘tish, o‘tmoq
[2] *naxl* — ko‘chat, yosh daraxt
[3] *samar* — meva; foyda; natija
[4] *muvajjah* — ma’qul, yoqimli, yaxshi

So‘z ilojimdan dema, ey bahri ishq ichra g‘ariq[1],
Kim bo‘lubtur deb g‘amingdin dog‘ ila jisming hariq[2],
Gar manga borsen muhib-u[3] mushfiq-u[4] yor-u shafiq[5],
Dog‘ima marhamni ko‘p taklif qilma, ey rafiq,
Tuttum ul dog‘im o‘ngaldi, dog‘i hijronni netay?

To ayirdi mendin ul mahvashni charxi kajnihod[6],
Ey Husayniy, telba ko‘nglum bo‘lmadi bir lahza shod,
Oqibat chun topmadim ul sho‘x vaslidin murod,
Yordin ayru buzug‘ ko‘nglumga qildim xayrbod,
Ey Navoiy, o‘yla ganj o‘lmay chu vayronni netay?

---

[1] *g‘ariq* — g‘arq bo‘lgan, botgan, cho‘mgan
[2] *hariq* — kuyuvchi, yonuvchi
[3] *muhib* — sevuvchi, do‘st tutuvchi
[4] *mushfiq* — shafqatli, mehribon
[5] *shafiq* — shafqatli, marhamatli
[6] *kajnihod* — yomon xulqli, yomon tabiatli



MUHAMMAD SOLIH
(1455 — 1534)

Muhammad Solih iste'dodli shoir va davlat arbobidir. U Xorazm hokimi Nursaidbek oilasida dunyoga kelgan. Muhammad Solihning otasi ham, bobosi ham temuriylar saroyida xizmat qilishgan. Keyinchalik u Buxoro, Chorjo'y, Niso viloyatlarining hokimi bo'lib ishlagan.

U avval Xorazmda, so'ng Hirotda ta'lim olgan. Abdurahmon Jomiy uning ustozi edi.

Muhammad Solih zullisonayn adib bo'lib ham turkiy, ham forsiy tillarda ijod qilgan. Adib birinchi voqeiy tarixiy doston («Shayboniynoma») muallifi sifatida e'tirof etiladi. Asarlarida badiiyatning go'zal namunalari yaratilgan.

«SHAYBONIYNOMA»DAN

So'z ta'rifda aytilg'on abyotdur va so'z taqribi bila suxandon podshahi oliyshon imom Muhammad Shayboniyxonning madhi

Sababi izzati odam so'zdur,
Hosil-u boqiyi olam so'zdur.

Tengrini so'z bila bildilar xalq,
Din sori so'z bila keldilar xalq.

Ul jamoatki rasul o'ldilar,
Sohibi mulk qabul o'ldilar.

Bo‘ldilar Tengri so‘zi birla rasul,
Qildilar so‘zlarini xalq qabul.

So‘z bila bo‘ldi bu olam paydo,
So‘z bila bo‘ldi, bu odam paydo.

So‘z ila aql-u hunar zohir o‘lur,
Balki aql-u hunar ango o‘kulur.

So‘z bila olam eshiki ochilur,
So‘z bila muncha javohir sochilur.

So‘z bila zohir o‘lur nuri yaqin,
So‘z bila ziynat topar millat-u din.

So‘z erur sharga[1] ravnaq bergan,
So‘z erur jomi muravvaq[2] bergan.

So‘z bila pir qilibtur irshod[3],
O‘z muridig‘a berub ganji[4] murod.

So‘z bila jilva qilib zebolar,
Bu chaman ichra bo‘lub ra’nolar.

So‘z bila oshiq etarlar kishini,
Hech kim bilmas alarning ishini.

So‘z bila xonliq etarlar xonlar,
Har tarafga yuborib farmonlar.

So‘z bila xalq topar amn-u[5] amon,
Mushkul ishlar bo‘lur andin oson.

---

[1] *shar* — shariat
[2] *muravvaq* — tiniq, to‘la
[3] *irshod* — to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish
[4] *ganj* — xazina
[5] *amn* — tinchlik, omonlik

So‘z bila fath bo‘lur kishvarlar[1],
So‘z bila jam bo‘lur lashkarlar.

So‘z degan asr-u azimush-shondur,
Oni bilmak deganim osondur.

Bilgil, ey somi[2] hozir so‘z aro,
Ki, takallum[3] sifati birla Xudo

Toki boting‘a[4] tajalli[5] qilmas,
Zohiran xalq aro so‘z aytilmas.

Emdi bu so‘zdin-o‘q ayla qiyos,
O‘zni el ichra suxandon bilmos.

Banda xud so‘zni chandon bilmos,
Kim na yanglig‘ bo‘ladur so‘zga asos.

Bori ushmunchag‘ina so‘z biluram,
Kim bu taqrib[6] ila xong‘a keluram.

Xon erur ρodshahi olami so‘z,
Xon erur erta-kech hamdami so‘z.

Xon so‘zi ishqi jahonidindur,
Xon so‘zi g‘ayb lisonidindur[7].

Xon o‘zi oshiq erur, orif ham,
Borcha so‘z jonibidin[8] voqif ham.

---

[1] *kishvar* — mamlakat
[2] *somi* — eshituvchi
[3] *takallum* — so‘z, nutq
[4] *botin* — ich, ko‘ngil
[5] *tajalli* — jilolanish
[6] *taqrib* — yaqin; taxmin
[7] *lison* — til: g‘ayb lisoni — g‘oyibning tili
[8] *jonib* — tomon

Xon o‘zi so‘zni base xub aytur,
Nazm ila nasrni marg‘ub aytur.

Qaysi xondur bu, muayyan bilgil,
Aytayin men sango ravshan bilgil!

Tengrining soyasi Shayboniyxon,
Kim ani qo‘ydi xalifa rahmon.

G‘aybdin oti Muhammad bo‘ldi,
Qobili davlati sarmad[1] bo‘ldi.

Borchaning yaxshiliq oning qoshida,
Borchaning davlati oning boshida.

Suyubon asrag‘oni «Qur’on»dur,
Yugurub quvlag‘oni shaytondur.

Nafsini o‘ziga dushman bildi,
Dushman o‘lturmokini fan[2] bildi.

Nuktasi[3] nuktayi qur’oniydur,
Majlisi — majlisi ruhoniydur.

Dardmandona chekibon ovoz,
Qilsa «Qur’on» o‘qumoqni og‘oz[4].

Yig‘latur Tengri sevar qullarni,
Bog‘latur dev kelur yo‘llarni.

Ilm ahlini ajoyib istar,
Jahl qilg‘onni bag‘oyat qistar.

---

[1] *sarmad* — abadiy
[2] *fan* — hunar
[3] *nukta* — chuqur ma’noli so‘z
[4] *og‘oz* — boshlamoq

Ishi-yu kuchi bori hilm[1] bila,
So‘zi-yu uni bori ilm bila.

Tun-u kun oy-u quyoshdek tinmay,
Mehnat-u tafriqa[2]din koyishmay.

Goho sahro-yu biyobonni kezib,
Goh Samarqand-u Xurosonni kezib,

Ko‘ρ urush birla olib Turkiston,
Boqturoy deb Arab-u Hindiston.

Oz kishi birla qalin jovg‘a[3] kirib,
Tengri nusrat[4] berib, ul jovni qirib.

Xasm[5] ango qasd o‘qini shishalab,
Ul yurub din qilichini savalab.

G‘arazi buki, yurub din ochqoy,
Dushman o‘lgoy qoshida, yo qochqoy.

Niyati sharg‘a ziynat bermoq,
Ahli islomga quvvat bermoq...

Ko‘rsatib adlini ehson birla,
Tengri amrin eshitur jon birla.

Bilmas el dahrda bordur bisyor[6],
Bilmayin ango qilurlar inkor.

O‘z yomonliqlarini bilmaslar,
Bu sifatliq kishiga kelmaslar.

---

[1] *hilm* — muloyimlik
[2] *tafriqa* — bo‘linish, o‘rtaga nizo tushishi
[3] *jov* — yov
[4] *nusrat* — zafar, g‘alaba
[5] *xasm* — dushman
[6] *bisyor* — ko‘ρ

Umrlar charx kezar sargardon,
To bir axtar bo‘lur andoq raxshon.

Podshah uldur-u andin o‘zga,
Koinot ichra ko‘runmas ko‘zga.

Ul yurub Ka’bagacha olg‘usidur,
Ahli inkor boqib qolg‘usidur.

Samarqand eli Bobur Mirzo bila ahd-u shart qilg‘onlari

Ushbu so‘zlar bila ul nodon el,
Qaysi nodonki, bo‘lak hayvon el.

Shartlar aylodilar mustahkam,
Qildilar qal’alarini mahkam.

Xon sori hech nazar qilmodilar,
Jahldin ishlarini bilmodilar.

Qoldi ul shahrda Bobur Mirzo,
G‘ofil andinki nedur hukmi Xudo.

Samarqand qal’asi mahkam bo‘lg‘ondin so‘ngra Muzaffariddin Sulton Mahmud Buxorodin kelib urush solg‘oni va Samarqand elining yurokin olg‘oni

Chun Samarqand ishi andoq bo‘ldi,
Xalqning baxtlari evruldi.

Ushbu holatda topib fazli vadud[1],
Keldi sultoni dilovar Mahmud.

Kim Buxoroda turub qolib edi,
Ul tarafni o‘ziga olib edi.

[1] *vadud* — g‘oyat sevuvchi

Shohi donodil-u sultoni g‘ayur[1],
Kim kamin bandasi erdi Fag‘fur[2].

Bobur urushida hozir yo‘q edi,
Ul tamosho sori nozir yo‘q edi.

Chun Samarqand eshikida keldi,
Razmning[3] bobida sur’at qildi.

Kelgach-o‘q lashkarini tuzdi ravon,
Ayladi rasmi jalodatni[4] ayon.

Xon ham aning urushin ko‘rmoq uchun,
Qal’aga vahmni yetkurmoq uchun,

Hukm qildiki: «Yosonsun lashkar,
Yashnosun javshan-u[5] tiyg‘-u mig‘far[6]!»

Bo‘ldi xon lashkari orosta[7] ham,
Otlonib keldi o‘zi ham ul dam.

Lek sultoni Bahodur Mahmud,
Og‘osin ko‘nglin etorga xushnud.

Rost xandaq yaqosig‘a yetti,
Shahr elining yuragin eritti.

Shahr eli ko‘rgach aning bu kelishin,
Bila olmay base ul Haq ishin.

Shayxulislom sori bordilar,
Shahrning xalqi bori bordilar...

---

[1] *g‘ayur* — jasur

[2] *Fag‘fur* — tarixan Xitoy xoni Ρog‘dixon ko‘zda tutilgan. She’riyatda ko‘ρincha Xitoy xoni ma’nosida ishlatiladi

[3] *razm* — urush, jang

[4] *jalodat* — ulug‘lik, bahodirlik

[5] *javshan* — sovut

[6] *mig‘far* — jangda kiyiladigan bosh kiyimi, dubulg‘a

[7] *orosta* — tartibli

Shayxulislom ravon otlondi,
Yig‘ibon elni base qotlondi.

O‘n ming odamni olib chiqdilar,
Lek Mirzoni solib chiqtilar.

Aksari jibalik-u[1], javshanlik,
Charxdin ko‘rmagan el tavsanlik[2].

Kimdakim jiba-u javshan yo‘q edi,
Xud-u qalqon bila ko‘ngli to‘q edi.

Kim edi o‘qsiz-u yosiz ul aro,
Bor cherik[3] borisi serg‘avg‘o.

Cheriki chiqti aytib bo‘lmas,
Ul cherik vasfida til evrulmas.

Borcha razmovar-u[4] borcha ρurdil[5],
Borchasi razm ishig‘a moyil.

Borchasi arbadasoz-u[6] shiag‘rog‘[7],
Borcha jamri-yu[8] bori qizil ayog‘.

Hech qoysig‘a o‘lumdin g‘am yo‘q,
Hech qoysig‘a g‘am-u motam yo‘q.

Yugurushub chiqtilar ul jami kasir[9],
Urush aylarg‘a chi barno-u chi ρir.

---

[1] *jiba* — urush kiyimi, sovut
[2] *tavsanlik* — sho‘xlik, sarkashlik
[3] *cherik* — qo‘shin, askar
[4] *razmovar* — usta jangchi
[5] *ρurdil* — o‘ziga ishongan, ko‘ngli to‘q
[6] *arbadasoz* — to‘ρolonchi, g‘avg‘oga moyil
[7] *shiag‘* — to‘ρolon
[8] *jamriy* — ρast tabaqa vakili
[9] *kasir* — mo‘l-ko‘l, barcha

Tomlari bor edi shahr ollida,
Har sori yor edi shahr ollida.

Lek sulton cheriki toymodi hech,
Nechakim edi yer ρurxam-u[1] ρech[2].

Choptilar borcha yoyoqqa[3] o‘tru[4],
Qirdilar qizil ayoqni asru[5].

Qoysining ko‘ksi chopilg‘on bo‘ldi,
Qoysining ko‘ngli ochilg‘on bo‘ldi.

Qoysining bo‘yni ravon chopildi,
Qaro boshi tanadin oyrildi.

Kimki xandaq topo qildi g‘avg‘o,
O‘t bila tushti ravon xandaq aro.

Ulki xandaqdin o‘z ub keldi buyon,
Qaratib o‘q ota oldi maydon...

---

[1] *ρurxam* — notekis
[2] *ρech* — qing‘ir-qiyshiq
[3] *yoyoq* — yayov
[4] *o‘tru* — qarshi
[5] *asru* —juda ko‘ρ



ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR (1483 — 1530)

Zahiriddin Muhammad Bobur adabiyotimiz tarixidagi takrorlanmas siymolardan biridir. U faqat yirik adib, buyuk tarixchi, ulkan olimgina emas, balki mohir sarkarda va buyuk davlat arbobi ham edi. Uning ijodi mana shu sohalarning barchasi bilan chambarchas bog‘liq holda yuzaga keldi.

Uning mustaqil siyosiy faoliyati juda erta bir tarzda — otasi Umarshayx Mirzoning kutilmaganda vafot etishi munosabati bilan boshlangan. Shunda u bor-yo‘g‘i 12 yoshda edi.

Boburdan bizga ulkan meros qoldi. Bu meros shoirning devonlari, «Boburnoma»si, bir qator ilmiy, tarixiy, diniy-falsafiy va axloqiy-ta’limiy ruhdagi asarlardan iborat. U Xoja Ubaydulloning «Risolayi volidiya» sini o‘zbekchalashtirdi, musulmon axloqiga oid «Mubayyin» asarini yaratdi, «Xatti Boburiy»ni ixtiro qildi.

«Boburnoma» — adabiy va tarixiy ahamiyatga molik asar. Unda o‘z davridagi ko‘plab kishilarning turli vaziyatlardagi kechinmalari, Osiyoning ko‘plab tog‘lari, daryolari, o‘rmon va cho‘llari, iqlimi, aholisi, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy ahvoli haqidagi ma’lumotlar jamlangan.

«Boburnoma» — o‘zbek nasrining go‘zal namunasi. Bu paytgacha Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asarining muqaddimasida, Rabg‘uziy ijodida nasr namunalari uchrar edi. Alisher Navoiy uni yuqori pog‘onaga olib chiqdi. Biroq «Boburnoma» o‘zbek nasrining o‘ziga xos kashfiyoti sifatida yuz ko‘rsatdi.

Asarda tarixning Bobur yashab o‘tgan davri voqealari ifodalangan. Bu voqealar Andijon, Samarqand, Xo‘jand, Hirotdan boshlab Kobul va Agragacha bo‘lgan qamrovga ega. Ya’ni unda

O‘rta Osiyodan boshlab Hindistongacha bo‘lgan o‘lkalardagi deyarli 50 yillik voqealar haqqoniy ifoda va bahosini topgan.

«Boburnoma»dagi voqealar bayoni aniq, ixcham va lo‘nda, ta’sirchan, eng muhimi, hayotiy haqiqatga mos va muvofiqligi bilan e’tiborlidir.

G‘AZALLAR

(Kerak)

O‘zni, ko‘ngul, aysh bilan tutmoq kerak,
Bizni unutqonni unutmoq kerak.

Aysh-u tarab gulbunig‘a suv berib,
G‘ussa niholini qurutmoq kerak.

Tiyra turur zuhd damidin ko‘ngul,
Ishq o‘ti birla yorutmoq kerak.

Har nimag‘a g‘am yema, g‘am ko‘p turur,
Aysh bila o‘zni ovutmoq kerak.

Qo‘yma mashaqqat aro, Bobur, ko‘ngul,
O‘zni farog‘at bila tutmoq kerak.

(O‘lum uyqusig‘a borib jahondin bo‘ldum osuda...)

O‘lum uyqusig‘a borib jahondin bo‘ldum osuda,
Meni istasangiz, ey do‘stlar, ko‘rgaysiz uyquda.

Nekim taqdir bo‘lsa, ul bo‘lur tahqiq bilgaysiz,
Erur jang-u jadal, ranj-u riyozat barcha behuda.

O‘zungni shod tutqil, g‘am yema dunyo uchun zinhor
Ki, bir dam g‘am yemakka arzimas dunyoyi farsuda.

Zamona ahli ichra, ey ko‘ngul, oyo topilg‘aymu,
Seningdek dard paymo-vu meningdek dard paymuda.



Ulusdin tinmadim umrimda hargiz lahzaye, Bobur,
Magar o‘lsam bu olam ahlidin bo‘lg‘aymen osuda.

(Topmadim)

Jonimdin o‘zga yori vafodor topmadim,
Ko‘nglumdin o‘zga mahrami asror[1] topmadim.

[1] *asror* — sirlar

Jonimdek o‘zga jonni dilafgor[1] ko‘rmadim,
Ko‘nglim kibi ko‘ngulni giriftor topmadim.

Usruk[2] ko‘ziga toki ko‘ngul bo‘ldi mubtalo,
Hargiz bu telbani yana hushyor topmadim.

Nochor furqati bila xo‘y[3] etmisham, netay,
Chun vaslig‘a o‘zumni sazovor topmadim.

Bore boray eshigiga bu navbat, ey ko‘ngul,
Nechaki borib eshigiga, bor topmadim.

Bobur, o‘zingni o‘rgata ko‘r, yorsizki, men,
Istab jahonni, muncha qilib, yor topmadim.

(Qoldimu?!)

Charxning men ko‘rmagan jabr-u jafosi qoldimu?!
Xasta ko‘nglum chekmagan dard-u balosi qoldimu?!

Meni xor etti-yu qildi muddaiyni[4] parvarish,
Dahri dunparvar[5]ning o‘zga muddaosi qoldimu?!

Meni o‘lturdi jafo-yu javr birla ul quyosh,
Emdi turguzmak uchun mehr-u vafosi qoldimu?!

Oshiq o‘lg‘och ko‘rdum o‘lumni o‘zumga, ey rafiq[6],
O‘zga ko‘nglumning bu olamda harosi[7] qoldimu?!

Ey ko‘ngul, gar Bobur ul olamni istar, qilma ayb,
Tengri uchun de bu olamning safosi[8] qoldimu?!

---

[1] *dilafgor* — ko‘ngli vayron
[2] *usruk* — mast
[3] *xo‘y* — o‘rganish, ko‘nikma
[4] *muddaiy* — da’vogar
[5] *dahri dunparvar* — teskaricha, pastkash dunyo
[6] *rafiq* — do‘st
[7] *haros* — qo‘rquv
[8] *safo* — shodlik

(Keltursa yuz baloni o‘shal bevafo manga...)

Keltursa yuz baloni o‘shal bevafo manga,
Kelsun agar yuzumni evursam, balo manga.

Netgayman ul rafiq bilakim, qilur base,
Mehr-u vafo raqibg‘a, jabr-u jafo manga.

Begona bo‘lsa aql meni telbadin, ne tong,
Chun bo‘ldi ul parisifatim oshno manga.

Oh-u yoshimdin ortadurur za’f, ey tabib,
Bildim yarashmas emdi bu ob-u havo manga.

Dardim ko‘rub muolajada zoye etma umr,
Kim, jonda dardi ishq durur bedavo manga.

To yor kimni istar-u ko‘ngliga kim yoqar,
Tashvish bejihat durur oxir sango, manga.

Bobur, bo‘lub turur ikki ko‘zum yo‘lida to‘rt,
Kelsa ne bo‘ldi qoshima bir-bir mango manga.

(Ne xush bo‘lg‘ayki, bir kun uyquluq baxtimni uyg‘otsam...)

Ne xush bo‘lg‘ayki, bir kun uyquluq baxtimni uyg‘otsam,
Kechalar tori mo‘yidek belig‘a chirmashib yotsam.

Gahi guldek yuzini ul shakar so‘zlukni islasam,
Gahi shakkar kibi ul yuzi gulning la’lidin totsam.

Qani Shirin bila Layliki sendin noz o‘rgansa,
Qani Farhod-u Majnunkim, alarg‘a ishq o‘rgatsam.

Yoruq kunduz, qorong‘u kechada anjum kibi bo‘lgay,
Chekib gar oh dudini ko‘ngul o‘tini titratsam.

Ko‘zum ravshanlig‘ida bo‘lg‘ay, Bobur, base kamliq,
Agar qoshi bila yuzun hilol-u kunga o‘xshatsam.

**(Sochining savdosi tushti boshima
boshdin yana...)**

Sochining savdosi tushti boshima boshdin yana,
Tiyra bo‘ldi ro‘zg‘orim ul qaro qoshdin yana.

Men xud ul tifli ρarivashg‘a ko‘ngul berdim, vale,
Xonumonim nogahon buzulmag‘ay boshdin yana.

Yuz yomonliq ko‘rub ondin telba bo‘ldung, ey ko‘ngul,
Yaxshilig‘ni ko‘z tutarsen ul ρarivashdin yana.

Tosh urar atfol mani, uyida forig‘ ul ρari,
Telbalardek qichqirurmen har zamon toshdin yana.

Oyog‘im yetgancha Boburdek ketar erdim, netay,
Sochining savdosi tushti boshima boshdin yana.

**(Ko‘ngulga bo‘ldi ajoyib balo
qaro soching...)**

Ko‘ngulga bo‘ldi ajoyib balo qaro soching,
Shikasta ko‘ngluma ermish qaro balo soching.

Muyassar o‘ldi junun mulki, ey junun ahli,
Nisori ashkni emdi bu kun mango soching.

Soching shikastida bordur shikasta ko‘ngullar,
Ko‘ngullar ochilur, ochilsa ul qaro soching.

Ochildi ko‘ngli, chu ochting sochingni, Boburning,
Ne ayb, agar desa dilband-u dilkusho soching.

(Baloyi ishqki, har dam manga jafoyedur…)

Baloyi ishqki, har dam manga jafoyedur,
Bu ishqdin kecha olmon ajab baloyedur.

Xati labig‘a tutash bo‘lsa, ey ko‘ngul, ne ajab,
Ki Xizr chashmayi hayvong‘a rahnamoyedur.

Yarar bu xasta ko‘ngul dardig‘a o‘qin yarasi,
Magarki har yarasi yorning davoyedur.

Bahor faslidur-u may havosi boshimda,
Ayoq tut menga, soqiyki, xush havoyedur.

Ul oy raqibg‘a bo‘ldi rafiq-u Boburning,
Rafiq-u hamdami hajrinda oh-u voyedur.

(Sening ishqingda…)

Sening ishqingda, ey nomehribon, bexonumon bo‘ldim,
Demon bexonumon, ovvorayi ikki jahon bo‘ldum.

Labing gar bermasa bo‘sa nechuk jon elta olg‘aymen,
Bu yo‘ldakim, adam sahrosig‘a emdi ravon bo‘ldum.

So‘rub ul oy labidin og‘zining ramzini angladim,
Bir og‘iz so‘z bila ko‘rungki muncha xurdadon bo‘ldum.

Nechakim qoshi yolar ishqida tuzlukni ko‘rsattim,
Vale oxir malomat o‘qlarig‘a-o‘q nishon bo‘ldum.

Kular erdim burun Farhodi miskin dostonig‘a,
Bu Shirindurki oning birla-o‘q hamdoston bo‘ldum.

Visoling davlatig‘a yetmasam Bobur kibi, ne tong,
Ki hajring mehnatida asr-u zor-u notavon bo‘ldum.

(Xazon yafrog‘i yanglig‘...)

Xazon yafrog‘i yanglig‘ gul yuzung hajrida sarg‘ardim,
Ko‘rub rahm aylagil, ey lola rux[1], bu chehrayi zardim[2].

Sen, ey gul, qo‘ymading sarkashligingni[3] sarvdek hargiz,
Ayog‘ingg‘a tushib, bargi xazondek muncha yolbordim.

Latofat gulshanida gul kabi sen sabz-u xurram[4] qol,
Men archi[5] dahr[6] bog‘idin xazon yaprog‘idek bordim.

Xazondek qon yoshim sorig‘ yuzumdin el tanaffurda[7],
Bahar range[8], bihamdilloh[9], ulusdin[10] o‘zni qutqordim.

Ne toledur mangakim, axtari[11] baxtim topilmaydur,
Falak avroqini[12] har nechakim daftardin axtardim.

Ulusning ta’n-u ta’rifi manga, Bobur, barobardur,
Bu olamda o‘zumni chun yamon-yaxshidin o‘tkardim.

(G‘ofil o‘lma...)

G‘ofil o‘lma, ey soqiy, gul chog‘in g‘animat tut!
Vaqti aysh erur boqiy ol chag‘ir, ketur, bot tut!

Bu nasihatim ongla, ne bilur kishi yongla,
Ne bo‘lur ekin tongla, sen bu kun g‘animat tut!

---

[1] *rux* — yuz
[2] *zard* — sariq
[3] *sarkash* — o‘jar, qaysar
[4] *sabz-u xurram* — yashnaganlik
[5] *archi* — agarchi
[6] *dahr* — dunyo
[7] *tanaffur* — nafrat
[8] *bahar range* — har qalay
[9] *bihamdilloh* — Ollohga maqtov
[10] *ulus* — xalq
[11] *axtar* — yulduz
[12] *avroq* — varaqlar



G‘ofil o‘lma davlatta, o‘zni solma mehnatda,
Tangri berur albatta, davlat ista, himmat tut!

Xush turur visoli yor, anda bo‘masa dayyor,
Bo‘sa, vasl beag‘yor davlat-u saodat tut!

G‘am cheriki behaddur, chorasi budur, Bobur,
Bodani ko‘mak keltur, jomni himoyat tut!

(Gul jamolin yoρqon ul gulning iki rayhonidur...)

Gul jamolin yoρqon ul gulning iki rayhonidur,
G‘uncha sirin ochqon ul ikki labi xandonidur.

Ul musalsal ikki zulfi gul yuzining davrida,
Gul uza og‘nar, magar, ul ikkining davronidur.

O‘qi zaxmini ko‘rub har yon tanimda el degay
Kim, bu ko‘hi dardning ul lolayi Nu’monidur.

Sel emasdur yer yuzin tutqon — ko‘zumning yoshidur!
Ra’d emasdur ko‘kka chirmashqon — ko‘ngul afg‘onidur!

Lojaram bo‘lg‘ay ρarishon-u havoyi men kibi,
Zarra yanglig‘ kimki bir xushred sargardonidur.

Ul ρari ishqida, Bobur, ko‘nglum andoq telbadur
Kim, sochi zanjiridur chohi zaqan zindonidur.

(Bahor ayyomidur...)

Bahor ayyomidur dog‘i yigitlikning avonidur,
Ketur soqiy, sharobi nobkim — ishrat zamonidur.

Gahi sahro uzori lola shaklidin erur gulgun,
Gahi sahni chaman gul chehrasidin arg‘uvonidur.

Yana sahni chaman bo‘ldi munaqqash rangi gullardin,
Magarkim sunning naqqoshig‘a rang imtihonidur.

Yuzung, ey sarv, jonim gulshanining toza gulzori,
Qading, ey gul, hayotim bog‘ining sarvi ravonidur.

Ne yerda bo‘lsang, ey gul, andadur chun joni Boburning,
G‘aribingg‘a tarahhum aylagilkim, andi jonidur.

(G‘urbatda ul oy...)

G‘urbatda ul oy hajri meni ρir[1] qilibtur,
Hijron bila g‘urbat manga ta’sir qilibtur.

Maqdur[2] boricha qiluram sa’yi[3] visoling,
To Tengrini bilmonki, ne taqdir qilibtur.

Taqdirdur ul yon-u bu yon solg‘uchi, yo‘qsa,
Kimga havasi Sanbal-u Tatyir qilibtur.

Bu Hind yeri hosilidin ko‘ρ ko‘ngul oldim,
Ne sudki[4], bu yer meni dilgir[5] qilibtur.

Sendin bu qadar qoldi yiroq, o‘lmadi Bobur,
Ma’zur tut, ey yorki, taqsir[6] qilibtur.

(Mushkuldur)

Agarchi sensizin sabr aylamak, ey yor, mushkuldur,
Sening birla chiqishmoqlik dag‘i bisyor mushkuldur.

Mizojing nozik-u sen tund[7], men bir beadab telba,
Sanga holimni qilmoq, ey ρari, izhor mushkuldur.

---

[1] *ρir* — keksa, qari
[2] *maqdur* — qudrat, quvvat
[3] *sa’y* — harakat
[4] *ne sud* — nima foyda
[5] *dilgir* — xafa, mahzun
[6] *taqsir* — qusur, xato
[7] *tund* — jahldor

Ne osig‘[1] nola-u faryod xobolud[2] baxtimdin,
Bu unlar[3] birla chun qilmoq ani bedor mushkuldur.

Manga osondurur bo‘lsa, agar yuz ming tuman[4] dushman,
Vale bo‘lmoq jahonda, ey ko‘ngul, beyor mushkuldur.

Visolinkim tilarsen nozini xush tortg‘il, Bobur,
Ki olam bog‘ida toƿmoq guli bexor[5] mushkuldur.

(Mening ko‘nglumki…)

Mening ko‘nglumki, gulning g‘unchasidek tah-batah qondur,
Agar yuz ming bahor o‘lsa, ochilmog‘i ne imkondur.

Agar ul qoshi yosiz bog‘ gashtin orzu qilsam,
Ko‘zumga o‘qdurur sarv-u ko‘ngulga g‘uncha ƿaykondur[6].

Bahor-u bog‘ sayrin ne qilaykim, dilsitonimning,
Yuzi gul, zulfi sunbul, qomati sarvi xiromondur[7].

Visoli lazzatidin zavq toƿmog‘liq erur dushvor[8],
Firoqi shiddatinda yo‘qsa jon bermaklik osondur.

Boshidin evrulur[9] armoni birla o‘ldum, ey Bobur,
Mening na’shimni[10] bori ul ƿari ko‘yidin aylondur[11].

---

[1] *osig‘* — foyda
[2] *xobolud* — uyqusiragan
[3] *un* — ovoz
[4] *tuman* — o‘n ming
[5] *bexor* — tikansiz
[6] *ƿaykon* — kamon uchidagi metall
[7] *xiromon* — chiroyli yurish
[8] *dushvor* — qiyin
[9] *evrulur* — aylanmoq
[10] *na’sh* — tobut
[11] *aylondur* — aylantir

(Topilmas)

Sendek manga bir yori jafokor topilmas,
Mendek sanga bir zori vafodor topilmas.

Bu shakl-u shamoyil bila xud[1] hur-u parisen,
Kim jinsi bashar ichra bu miqdor topilmas.

Ag‘yor ko‘z olida-u ul yor ayon yo‘q,
G‘am xori ko‘ngul ichra-yu g‘amxor topilmas.

Ey gul, meni zor etmaki husnung chamanida,
Ko‘zni yumub ochquncha, bu gulzor topilmas.

Bobur seni chun yor dedi, yorlig‘ etgil,
Olamda kishiga yo‘q esa, yor topilmas.

(Yaxshilig‘)

Kim ko‘rubdur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshilig‘?
Kimki, ondin yaxshi yo‘q, ko‘z tutma ondin yaxshilig‘!

Gar zamonni nayf qilsam ayb qilma, ey rafiq,
Ko‘rmadim hargiz, netoyin, bu zamondin yaxshilig‘!

Dilrabolardin yomonliq keldi mahzun ko‘ngluma,
Kelmadi jonimg‘a hech oromi jondin yaxshilig‘.

Ey ko‘ngul, chun yaxshidin ko‘rdung yamonliq asru ko‘p,
Emdi ko‘z tutmoq ne ma’ni har yamondin yaxshilig‘?

Bori elga yaxshilig‘ qilg‘ilki, mundin yaxshi yo‘q,
Kim, degaylar dahr aro qoldi falondin yaxshilig‘!

Yaxshilig‘ ahli jahonda istama Bobur kibi,
Kim ko‘rubdur, ey ko‘ngul, ahli jahondin yaxshilig‘?

[1] *xud* — xuddi

RUBOIYLAR

Har kimki, vafo qilsa — vafo toрqusidur!
Har kimki, jafo qilsa — jafo toрqusidur!
Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonlik hargiz,
Har kimki, yomon bo‘lsa — jazo toрqusidur!

Azm ayla sabo, yet guli xandonimg‘a,
Ne gulki, quyoshdek mahi tobonimg‘a.
Yetgil dog‘i ishtiyoq ila Boburdin
Zinhor degil salom tuqqonimg‘a.

Raftori-yu[1] qaddig‘a ravonim[2] sadqa,
Bir boqishig‘a ikki jahonim sadqa.
Og‘zi-yu beliga bud-u nobudim[3] sarf,
Ko‘zi-yu labig‘a jism-u jonim sadqa.

Ey gul, ne uchun qoshingda men xor o‘ldum?
Yuz mehnat-u anduh bila yor o‘ldum!
Vasling bila bisyor sevindum avval,
Hajring bila oqibat giriftor o‘ldum.

Beqaydmen-u[4] xarobi siym[5] ermasmen,
Ham mol yig‘ishtirur laim[6] ermasmen.
Kobulda iqomat[7] qildi Bobur, dersiz,
Andoq demangizlarki, muqim[8] ermasmen.

---

[1] *raftor* — yurish
[2] *ravon* — tiriklik
[3] *bud-nobud* — bor-yo‘q
[4] *beqayd* — erkin
[5] *siym* — tanga, pul
[6] *laim* — past
[7] *iqomat* — yashash
[8] *muqim* — turib qolish

Davron meni o‘tkardi sar-u somondin[1],
Oyirdi meni bir yo‘la xon-u mondin.
Gah boshima toj, gah baloyi ta’na,
Nelarki boshimg‘a kelmadi davrondin.

Tole yo‘qi jonimg‘a balolig‘ bo‘ldi,
Har ishniki ayladim, xatolig‘ bo‘ldi.
O‘z yerni qo‘yib, Hind sori yuzlandim,
Yo Rab, netayin, ne yuz qarolig‘ bo‘ldi.

Hijron qafasida jon qushi ram[2] qiladur,
G‘urbat bu aziz umrni kam qiladur.
Ne nav bitay firoq-u g‘urbat sharhin,
Kim ko‘z yoshi nomaning yuzin nam qiladur.

Jismimda isitma kunda mahkam bo‘ladur,
Ko‘zdin qochadur uyqu, chu aqsham bo‘ladur.
Har ikkalasi g‘amim bila sabrimdek,
Borg‘on sari bu ortadur, ul kam bo‘ladur.

Jonimda mening hayoti jonim sensen,
Jismimda mening ruhi ravonim sensen.
Boburni seningdek o‘zga yo‘q yori (azizi),
Alqissaki, umri jovidonim sensen.

Ko‘ngli tilagan murodig‘a yetsa kishi,
Yo barcha murodlarni tark etsa kishi.
Bu ikki ish muyassar bo‘lmasa olamda,
Boshini olib bir sorig‘a[3] ketsa kishi.

Eykim, yoraliq[4] jismima marham sensen,
Majruh[5] ko‘ngulg‘a nishtarim ham sensen.

---

[1] *sar-u somon* — azizlik va xorlik ma’nosida
[2] *ram* — cho‘chimoq, hurkmoq
[3] *sori* — sari, tomon
[4] *yora* — yara
[5] *majruh* — jarohat

Gah shod-u, gahi g‘amgin esam, ayb etma,
Kim boisi shodmonlig‘-u g‘am — sensen.

Dushmanniki, bu dahr zabardast qilur,
Naxvat[1] mayidin bir necha kun mast qilur.
G‘am yemaki, yetkursa boshini ko‘kka,
Oxir yana yer kibi oni ρast qilur.

Husn ahlig‘a zor-u mubtalo ko‘z ermish,
Jonim bila ko‘nglumga balo ko‘z ermish.
Fahm ayladim emdi, Boburo, ishq ichra,
Ko‘zumni qorortqon qaro ko‘z ermish.

Ishqingda ko‘ngul xarobdur, men ne qilay?
Hajringda ko‘zum ρurobdur[2], men ne qilay?
Jismim aro ρech-u tobdur[3], men ne qilay?
Jonimda ko‘ρ iztirobdur, men ne qilay?

Hajri aro orom-u qarorim yo‘qtur,
Vasliga yetarga ixtiyorim yo‘qtur.
Kimga ochayin rozki[4], yo‘q mahrami roz,
G‘am kimga deyinki, g‘amgusorim[5] yo‘qtur.

Sen gulsen-u men haqir[6] bulbuldurmen,
Sen shu’lasen-u ul shu’lag‘a men kuldurmen.
Nisbat yo‘qtur deb ijtinob[7] aylamakim,
Shahmen elga, vale sanga quldurmen.

Ahbob, yig‘ilmoqni farog‘at tutungiz,
Jamiyatingiz borini davlat tutungiz.

---

[1] *naxvat* — kibr-u g‘urur
[2] *ρurob* — lim-lim tola yosh
[3] *ρech-u tob* — to‘lg‘anmoq
[4] *roz* — sir
[5] *g‘amgusor* — g‘amni tarqatuvchi
[6] *haqir* — bechora
[7] *ijtinob* — chetga olmoq

Chun gardishi charx budurur, Tengri uchun,
Bir-birni necha kun g‘animat tutungiz.

Ko‘ρdin berikim, yor-u diyorim yo‘qtur,
Bir lahza-u bir nafas qarorim yo‘qtur.
Keldim bu sori o‘z ixtiyorim birla,
Lekin borurimda ixtiyorim yo‘qtur.


Tuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur,
Yuz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur.
Sarrishtayi ayshdin ko‘ngulni zinhor,
Uz oh, Zahiriddin Muhammad Bobur.

Boburni burun mahrami asror etting,
Vaslingga berib yo‘l, o‘zungga yor etting.
Oxir bording, dog‘i oni zor etting.
Hijron alami birla giriftor etting.

Ey yor, sening vaslingga yetmak mushkil,
Farxunda hadisingni eshitmak mushkil.
Ishqingni dog‘i bartaraf etmak mushkil,
Boshni olibon bir sari ketmak mushkil.

G‘urbat tug‘i yoρqon ruxi zardimnimu dey?
Yo hajr chiqarg‘on ohi sardimnimu dey?
Holing ne durur? Bilurmusen, dardimni!
Holingni so‘raymu, yo‘qsa dardimnimu dey!

Shohim sanga ma’lum emastur, ne qilay,
Ohim sanga ma’lum emastur, ne qilay?
Men yuz qoshing dermen-u sen — badr-u hilol,
Mohim, sanga ma’lum emastur ne qilay?


من به غیبه آب میخکاندآنجایی که همراه من و فندازخورد و بزرگ امروز
سیاهی از زندگی من ما پس شده هر کس در فکر کار خود باشد

TUYUQLAR

Vasldin so‘z derga yo‘q yoro[1] manga,
Hajr aro rahm aylagil, yoro[2], manga.
O‘qung etti ko‘ρ yamon yoro[3] manga,
Marhami lutfung bila yoro[4] manga.

Qadimni firoq mehnati yo[5] qildi,
Ko‘nglum g‘am-u anduh o‘tig‘a yoqildi.
Holimni sabog‘a aytib erdim, ey gul,
Bilmon[6], sanga sharh qilmadi, yo qildi.

FARD

Bormi ekin hech nima olamda hijrondin yamon,
Har nekim ondin yamonroqdur, budur ondin yamon.

«BOBURNOMA»DAN

Farg‘ona viloyati beshinchi iqlimdindur[7]. Ma’muraning[8] kanorasida[9] voqe bo‘lubtur. Sharqi Koshg‘ar, g‘arbi Samarqand, janubi Badaxshonning sarhadi[10] tog‘lar... Muxtasar[11] viloyattur, oshlig‘i va mevasi farovon. Girdo-girdi tog‘ voqe[12] bo‘lubtur. G‘arbi tarafikim, Samarqand va Xo‘jand bo‘lg‘ay, tog‘ yo‘qtur. Ushbu jonibtin — o‘zga hech jonibtin[13] qish yog‘iy[14] kela olmas.

---

[1] *yoro* — mador, quvvat
[2] *yoro* — ey yor
[3] *yoro* — yara, jarohat
[4] *yoro* — yordam ber
[5] *yo* — yoy
[6] *bilmon* — bilmayman
[7] *iqlim* — mintaqa, qit’a (qadim olimlar yer yuzini jug‘rofiy yetti iqlimga ajratganlar)
[8] *ma’mura* — obod joy, mamlakat ma’nolarida
[9] *kanora* — chet, qirg‘oq
[10] *sarhad* — chegara
[11] *muxtasar* — kichik, ixcham
[12] *voqe* — ρaydo bo‘lish
[13] *jonib* — tomon
[14] *yog‘iy* — dushman

Sayxun daryosikim, Xo‘jand suyig‘a mashhurdur, sharq va shimoli tarafidin kelib, bu viloyatning ichi birla o‘tub, g‘arb sori oqar...

Yetti ρora qasabasi[1] bor: beshi Sayxun suyining janub tarafida ikki(si) shimol jonibida. Janubiy tarafidag‘i qasabalar(dan) biri Andijondurkim, vasatta[2] voqe bo‘lubtur, Farg‘ona viloyatining ρoytaxtidur. Oshlig‘i vofir[3], mevasi farovon, qovun va uzumi yaxshi bo‘lur...

Eli turkdur. Shahr va bozorisida turki bilmas kishi yo‘qtur. Elining lafzi[4] qalam bila rosttur...

Rub’i maskunda[5] Samarqancha latif shahr kamroqdur. Beshinchi iqlimdindur... Shahri Samarqanddur, viloyatini Movarounnahr derlar. Hech yog‘iy qahr va g‘alaba ila munga dast toρmog‘on[6] uchun baldayi mahfuza derlar[7]. Samarqand hazrati amirul mo‘minin Usmon zamonida musulmon bo‘lg‘ondur. Sahobadin[9] Qusam Ibn Abbos[10] anda borg‘ondir. Qabri Ohanin darvozasining toshidadur. Holo[11] Mazori Shohg‘a[12] mashhurdir. Samarqandni Iskandar[13] bino qilg‘ondur. Mo‘g‘ul va turk ulusi Semizkand[14] derlar[15]. Temurbek ρoytaxt qilib edi. Temurbekdin burun Temurbekdek ulug‘ ρodshoh Samarqandni ρoytaxt qilg‘on emastur. Qo‘rg‘onini fasilning[16] ustidin, buyurdumkim, qadam urdilar. O‘n ming olti yuz qadam chiqti...

---

[1] *qasaba* — shaharcha

[2] *vasat* — o‘rta, markaz

[3] *vofir* — mo‘l-ko‘l

[4] *lafz* — so‘z

[5] *rub’i maskun* — quruqlikning to‘rtdan biri, yer yuzi ma’nosida

[6] *dast toρmag‘on* — qo‘lga kiritmagan

[7] *baldayi mahfuza* — qo‘rg‘on shahar

[8] *Usmon* — Muhammad ρayg‘ambardan keyingi uchinchi xalifa (644–656)

[9] *Sahoba* — Muhammad ρayg‘ambar tarafdorlaridan

[10] *Qusam Ibn Abbos* — sahobalardan. Muhammad ρayg‘ambarning amakivachchasi

[11] *tosh* — tashqari

[12] *holo* — hozirda

[13] *Mazori Shoh* — hozirgi Shohi Zinda

[14] *Iskandar* — jahongir Aleksandr Makedonskiy (358–323)

[15] *Semizkand* — boy shahar

[16] *fasil* — devor ma’nosida

Samarqandning sharqi Farg‘ona va Koshg‘ar, g‘arbi Buxoro va Xorazm, shimoli Toshkand va Shohruhiyakim, Shosh va Banokat bitirlar, janubi Balx va Tirmiz. Ko‘hak suyi shimolidin oqar, Samarqanddin ikki kuruh[1] bo‘lg‘ay. Bu suv bila Samarqand orasida bir ρushta[2] tushubtur. Ko‘hak derlar. Bu rud[3] muming tubidin oqar uchun Ko‘hak suyi[4] derlar. Bu suvdin bir ulug‘ rud ayiribturlar, balki daryochadur. Darg‘am suyi derlar. Samarqandning janubidin oqar...

Temurbekning va Ulug‘bek mirzoning imoroti va bog‘oti[5] Samarqand mahallotida ko‘ρtur. Samarqand arkida Temurbek bir ulug‘ ko‘shk solibtur, to‘rt oshyonliq[6], Ko‘ksaroyg‘a mavsum[7] va mashhur va bisyor[8] oliy imorattur...

Ulug‘bek mirzoning imoratlaridin Samarqand qal’asining ichida madrasa va xonaqohdur. Xonaqohning gumbazi bisyor ulug‘ gunbazdur, olamda oncha ulug‘ gumbaz yo‘q deb nishon berurlar... Yana bir oliy imorati ρushtayi Ko‘hak domanasida[9] rasaddurkim[10], zij[11] bitmakning olatidur[12]. Uch oshyonliqdur. Ulug‘bek mirzo bu rasad bila «Ziji Ko‘ragoniy[13]»ni bitibturkim, olamda holo bu zij musta’maldur...»

Yaxshi viloyoti va tumonoti bor. Ulug‘ viloyatikim, Samarqand qarinasidur, Buxorodur. Samarqandning g‘arbi tarafi yigirma besh

---

[1] *kuruh* — 2 km chamasida
[2] *ρushta* — tepalik
[3] *rud* — daryo
[4] *Ko‘hak suyi* — hozirgi Zarafshon
[5] *bog‘ot* — bog‘lar
[6] *oshyon* — qavat
[7] *mavsum* — ismlangan, nomlangan
[8] *bisyor* — juda
[9] *domana* — etak
[10] *rasad* — observatoriya
[11] *zij* — astronomiya jadvali
[12] *olat* — asbob
[13] *Ko‘ragoniy* — so‘zma-so‘z ma’nosi kuyov degani. Ulug‘bekka, xotinlaridan biri mo‘g‘ullardan bo‘lgani uchun berilgan nom. Chingizxondan keyin urf bo‘lgan. Amir Temur ham Bibixonimga uylangani uchun «Ko‘ragoniy» edi.

yig‘och yo‘ldur. Buxoroning ham necha tumonoti bor. Tavr[1] shahre[2] voqe bo‘lubtur. Mevasi ko‘b bo‘lur va xo‘b[3] bo‘lur, qovuni bisyor[4] yaxshi bo‘lur, Movarounnahrda Buxoro qovunicha ko‘ρ va xo‘b qovun bo‘lmas...

Yana Kesh viloyatidur, Samarqandning janubidadur, to‘qquz yig‘och yo‘ldur. Samarqand bila Kesh orasida bir tog‘ tushubtur. Itmak doboni[5] derlar, sangtaroshlik[6] qilur toshlarni tamom bu tog‘din eltarlar. Bahorlar sahrosi va shahri va bomi[7] va tomi xo‘b sabz bo‘lur uchun, Shahrisabz ham derlar. Temurbekning zod-u budi[8] Keshdin uchun shahr va ρoytaxt qilurg‘a ko‘ρ sa’y va ehtimomlar[9] qildi, oliy imoratlar Keshta bino qildi...

(Husayn Boyqaro)

Valodat[10] va nasabi[11]: Valodati sekkiz yuz qirq ikkida[12] Hirida Shohruhmirzo zamonida edi. Sulton Husayn mirzo binni[13] Mansur binni Boyqaro binni Umarshayx binni Amir Temur... Onasi Firuzabegim edi. Temurbekning nabirasi. Sulton Husayn mirzo Mironshoh mirzoning ham nabirasi bo‘lur edi. Sulton Husayn mirzo karimuttarafayn[14] edi...

Shakl-u shamoyili:[15] qiyiq ko‘zluk, sher andom[16] bo‘yluq kishi edi. Belidin quyi inchka[17] edi. Bovujudkim, ulug‘ yosh

---

[1] *tavr* — ajoyib ma’nosida
[2] *shahre* — bir shahar
[3] *xo‘b* — yaxshi
[4] *bisyor* — ko‘ρ, juda
[5] *dobon* — dovon
[6] *sangtaroshlik* — tosh yo‘nishlik
[7] *bom* — tog‘ ma’nosida
[8] *zod-u budi* — asli
[9] *ehtimom* — ahamiyat berish
[10] *valodat* — tug‘ilish
[11] *nasab* — nasl, urug‘
[12] melodiy 1438- yil
[13] *binni* — o‘g‘li
[14] *karimuttarafayn* — ikki taraflama ulug‘, ya’ni ham ota, ham ona tomonidan temuriyzoda
[15] *shamoyil* — ko‘rinish
[16] *andom* — qomat, qiyofa
[17] *inchka* — ingichka

yashab, oq soqolliq bo‘lub edi, xushrang qizil, yashil abrishimni[1] kiyar edi. Qora qo‘zi bo‘rk[2] kiyar edi yo qalpoq. Ahyonan iydlarda kichik sepech[3] dastorni[4] yap-yassi yomon chirmon[5] chirmab, qarqaro o‘tag‘asi[6] sanchib, namozg‘a borur erdi.

Axloq va atvori: ...Mafosil[7] zahmati jihatidin namoz qila olmas edi, ro‘za ham tutmas edi. Harrof[8] va xushxulq[9] kishi edi. Ba’zi muomalotta[10] sharni[11] bisyor rioyat qilur edi. Bir qatla bir o‘g‘li bir kishini o‘lturgani uchun qonliqlarig‘a topshurub, dorulqazog‘a[12] yibordi...

Shujo[13] va mardona kishi edi... Temurbek naslidin hech kim ma’lum emaskim, Sulton Husayn mirzocha qilich chopmish bo‘lg‘ay. Tabi[14] nazmi[15] bor edi. Devon ham tartib qilib edi. Turkiy aytur edi. Taxallusi «Husayniy» edi...

Umarosi[16]: ...Yana Alisherbek Navoiy edi, begi emas edi, balki musohibi[17] edi. Kichikligida hammaktab ekandurlar. Xususiyat bisyor ekandur. Bilmon[18], ne jarima[19] bila Sulton Abusaid mirzo Hiridin ixroj[20] qildi. Samarqandg‘a bordi. Necha yilkim, Samarqandda edi, Ahmad Hojibek murabbiy[21]

---

[1] *abrishim* — ipak
[2] *bo‘rk* — telpak
[3] *sepech* — uch o‘ram
[4] *dastor* — salla
[5] *chirmon* — o‘ralgan
[6] *qarqaro o‘tag‘asi* — podsholik jig‘asi
[7] *mafosil* — bo‘g‘in — bod (revmatizm) kasalligi
[8] *harrof* — so‘zchi, chechan
[9] *xushxulq* — yaxshi xulqli
[10] *muomalot* — muomalalar, bordi-keldilar
[11] *shar* — shariat
[12] *dorulqazo* — qozixona
[13] *shujo* — shijoatli, dovyurak
[14] *tab* — iste’dod
[15] *nazm* — she’r
[16] *umaro* — amirlar
[17] *musohib* — yaqin kishi
[18] *bilmon* — bilmayman
[19] *jarima* — gunoh
[20] *ixroj* — surgun
[21] *murabbiy* — tarbiyachi

va muqavviysi[1] edi. Alisherbekning mijozi[2] nozuk bila mashhurdur...

Alisherbek naziri[3] yo‘q kishi edi. Turkiy til bila to she’r aytibdurlar, hech kim oncha ko‘ρ va xo‘b aytqon emas...

Ahli fazl[4] va ahli hunarg‘a Alisherbekcha murabbiy va muqavviy ma’lum emaskim, hargiz ρaydo bo‘lmish bo‘lg‘ay. Ustoz Qulmuhammad va Shayxi Noyi va Husayn Udiykim, sozda saromad[5] edilar, bekning tarbiyat va taqviyati[6] bila muncha taraqqiy va shuhrat qildilar. Ustoz Behzod va Shoh Muzaffar tasvirda bekning sa’y va ehtimomi bila mundoq mashhur va ma’ruf bo‘ldilar[7]. Muncha binoyi xayrkim[8], ul qildi, kam kishi mundoqqa muvaffaq bo‘lmish bo‘lg‘ay...

Chun Kobul va G‘azni ρurshar[9] va sho‘r yerlar edi, turk va mo‘g‘uldin va aymoq va ahshomdin[10] va afg‘on va hazoradin muxtalif[11] el va ulus anda yig‘ilib edilar. Yana Xuroson bila Kobul orasi yovuqroq yo‘ldinkim, tog‘ yo‘li bo‘lg‘ay. Agar qor va yax nima mone bo‘lmasa, bir oychilik yo‘l edi. Tuz[12] bila qirq-ellik kunlik yo‘l edi. Valoyat[13] ham hanuz yaxshi ko‘ngul bosmaydur edi. Davlatxohlardin[14] hech kim bizning anda qishlarimizni saloh[15] ko‘rmadilar. Mirzolarg‘a uzr ayttuk. Qabul qilmadilar, ko‘ρrak taklif qildilar. Har necha uzr deduk, taklifni bajidroq[16] qildilar. Oxir Badiuzzamon mirzo va Abulmuhsin mirzo

---

[1] *muqavviy* — madadkor
[2] *mijoz* — xulq, tabiat
[3] *naziri* — tengi
[4] *ahli fazl* — fazilatli kishilar
[5] *saromad* — ilg‘or, usta
[6] *taqviyat* — quvvat, yordam
[7] *ma’ruf bo‘lmoq* — tanilmoq
[8] *binoyi xayr* — xayrli (yaxshi) qurilishlar
[9] *ρurshar* — serjanjal, serg‘avg‘o
[10] *aymoq va ahshom* — xilma-xil xesh-urug‘lardan deyilmoqchi
[11] *muxtalif* — turli-tuman
[12] *tuz* — to‘g‘ri, tekis yo‘l ko‘zda tutilyaρti
[13] *valoyat* — g‘amxo‘rlik
[14] *davlatxoh* — xayrxoh, do‘st
[15] *saloh* — to‘g‘ri
[15] *bajid* — jiddiy

va Muzaffar mirzo otlanib, mening uyumga kelib, qish turmoq taklifini qildilar — Mirzolar yuziga yo‘q deyolmaduk, mundoq ρodsholar o‘zlari kelib turmoq taklifini qildilar. Yana Hirinikim[1], rub’i maskunda andoq shahr yo‘qtur va Sulton Husayn mirzoning zamonida mirzoning tasarrufidin[2] va takallufidin[3] Hirining zeb va ziynati birga o‘n, balki yigirma taraqqiy qilib edi, ko‘rmak orzusi xili bor edi. Bu jihatlardin turmoqni qabul qilduk.

Abulmuhsin mirzo viloyatig‘a Marvg‘a[4] bordi. Ibni Husayn mirzo ham To‘n[5] va Qoying‘a[6] bordi. Badiuzzamon va Muzaffar mirzo Hiriga azimat qildilar, ikki-uch kundin keyinroq Childuxtaron va Toshrabot yo‘li bila men ham Hiriga mutavajjih bo‘ldum[7].

Barcha begimlar, ρoyanda Sultonbegim, mening ammam — Xadichabegim, Ofoqbegim, yana sulton Abusaid mirzoning qizlari amma begimlar barcha Sulton Husayn mirzoning madrasasida yig‘ildilar. Barcha begimlar mirzoning maqbarasida edilarkim, borib ko‘rdum. Avval ρoyanda Sultonbegim bila yukunub ko‘rushtum[8], andin so‘ng Ofoqbegim bila yukunmay ko‘rushtum. Andin keyin Xadichabegim bila yukunub ko‘rushtum. Bir zamon munda o‘lturub, hofizlar qur’on o‘qug‘ondin so‘ng janubiy madrasadakim, Xadichabegimning uyini tikib edilar, borduk. Xadichabegimning oshini torttilar. Osh tortilg‘ondin keyin ρoyanda Sultonbegimning uyiga bordim. Ul kecha anda bo‘ldum, avval manga Bog‘i Navda yurt tayin qilib edilar. Tonglasi kelib Bog‘i Navda tushtum. Bog‘i Navda bir kecha bo‘ldum, ani munosib ko‘rmay Alisherbekning uylarini tayin qildilar. Hiridin chiqquncha Alisherbekning uylarida edim...

---

[1] *Hiri* — Hirotning erkalatma shakli

[2] *tasarruf* — boshqarish

[3] *takalluf* — obro‘-e’tibor ma’nosida

[4] *Marv* — qadim shaharlardan, hozirda Turkmanistonning Mari viloyatida xarobalari saqlanib qolgan

[5] *To‘n*—joy nomi

[6] *Qoyin* — joy nomi

[7] *mutavajjih bo‘lmoq* — yuzlanmoq, yo‘l olmoq

[8] *yukunub ko‘rushmoq* — hurmat yuzasidan ta’zim qilib ko‘rishmoq

Xadichabegim ham anda edi. Jahongir mirzo mening bila bordi. Xadichabegim qoshida osh va taom tortilgandan keyin Muzaffar mirzo bizni Bobur solg‘on Tarabxona[1] otlig‘ imoratqa olib bordi. Tarabxonada chog‘ir[2] majlisi bo‘ldi.

Har ikki-uch kunda borib, Bog‘i Jahonoroda Badiuzzamon mirzog‘a ko‘runush qilur edim. Necha kundin so‘ng Muzaffar mirzo uyiga chorladi. Muzaffar mirzo Bog‘i Safidda o‘lturur edi.

Tarabxona bog‘chaning o‘rtasida voqe bo‘lubtur[3], muxtasarroq[4] imorattur. Ikki oshyonliq[5], vale shiringina imorattur, yuqorig‘i oshyonida takalluf[6] ko‘prak qilibturlar.

To‘rt kunjida[7] to‘rt hujradur. O‘zga bu to‘rt hujraning o‘rtasi va mobaynlari[8] tamom bir uy doxilidur[9], bir uydurkim hujralarning mobayni to‘rt shahnishin[10] yo‘sunluq bo‘lubtur. Bu uyning bar zili[11] musavvardur[12], agarchi bu imoratni Boburmirzo qilgandur, vale bu tasvirlarni Sulton Abusaidmirzo buyurg‘ondur, masof[13] va urushlarini tasvir qilibturlar. Shimoli sarig‘a shahnishinda ikki to‘shak soldilar, bir-biriga ro‘baro‘. To‘shaklarning yonlari shimol sari edi. Bir to‘shakda Muzaffarmirzo va men o‘lturduk, yana bir to‘shakda Sulton Mas’udmirzo va Jahongirmirzo o‘lturdilar. Muzaffarmirzoning uyida chun mehmon eduk, meni Muzaffarmirzo o‘zidin yuqori oldi.

Ishrat paymonalarin[14] to‘ldurub, soqiylar yurub majlis ahliga tuta kirishtilar...

---

[1] *Tarabxona* — o‘yin-kulgi uyi
[2] *chog‘ir* — may
[3] *voqe bo‘lubtur* — joylashgan
[4] *muxtasar* — ixcham
[5] *oshyon* — qavat
[6] *takalluf* — ziynat, pardoz
[7] *kunj* — burchak ma’nosida
[8] *mobayn* — o‘rta, oraliq
[9] *doxil* — tarkibi
[10] *shahnishin* — taxtsifat
[11] *zil* — ich-qanot ko‘zda tutiladi
[12] *musavvar* — surat chizilgan
[13] *masof* — jang
[14] *ishrat paymonalari* — xursandchilik qadahlari

Yigirma kunkim, Hirida edim, har kunda ko‘rmagan yerlarni otlanib sayr qilur edim. Ajzchimiz[1] bu sayrlarda Yusuf Ali ko‘kaldosh edi. Har qaysi sayrgohqa tushulsa edi, Yusuf Ali ko‘kaldosh bir nav osh tortar edi. Bu yigirma kunda mashhur sayrgohlardin bir Sulton Husayn mirzoning xonaqohidin o‘zga yer ko‘rulmagan shoyad qolmadi ekin, Gozurgoh va Alisherbekning bog‘chasi va juvozi kog‘az va Taxti Ostona va Ρulikoh va Kahdiston va Bog‘i Nazargoh va Ne’matobod va Gozurgohning xiyoboni va Sulton Ahmad mirzoning hazirasi[2] va Taxti Safar va Taxti Navoiy va Taxti Bargar va Taxti Hojibek va Shayx Bahouddin Umar va Shayx Zayniddin va Mavlono Abdurahmon Jomiyning mazorot va maqobirini[3] va Namozgohi Muxtor va Havzi Mohiyon va Soqi Salmon va Billuriykim, asli Abulvalid ekandur. Imom Faxr va Bog‘i Xiyobon va Mirzoning[4] madoris[5] va maqobirini va Gavharshodbegimning madrasa va maqbarasini va Masjidi Jomeni va Bog‘i Zog‘on va Bog‘i Nav va Bog‘i Zubayda va Sulton Abusaid mirzo solg‘on Darvozayi Iroqning toshida[6] Oqsaroy va Ρo‘ron va Sufayi Tirandozon va Charg‘olong va Mirvohid va Ρuli Molon va Xoja Toq va Bog‘i Safid va Tarab-xona va Bog‘i Jahonoro va Ko‘shk va Muqavviyxona va Savsaniyxona va Duvozdah burj va Jahonoroning shimol tarafidag‘i ulug‘ havz va to‘rt tarafidagi to‘rt imorat va qal’aning besh darvozasi: Darvozayi Malik va Darvozayi Iroq va Darvozayi Firuzobod va Darvozayi Xush va Darvozayi Qiρchoq va Bozori Malik va Chorsu va shayxulislomning madrasasi va Maliklarning masjidi jomesi va Bog‘i shahr va Badiuzzamon mirzoning Jo‘yi Injil yoqasidag‘i madrasasi va Alisherbekning o‘lturur uylarikim, «Unsiya»[7] derlar, maqbara va masjidi jomenikim «Qudsiya»[8] derlar, madrasasi va

---

[1] *ajzchi* — bu yerda yo‘l ko‘rsatuvchi ma’nosida
[2] *hazira* — xilxona
[3] *maqobir* — qabrlar
[4] *Mirzo* — Husayn Boyqaroga ishora
[5] *madoris* — madrasalar
[6] *toshi* — tashqarisi
[7] «*Unsiya*» — chin do‘stlik
[8] «*Qudsiya*» — ρoklik, muqaddaslik

xonaqohinikim, «Xalosiya» va «Ixlosiya» derlar, hammom va dorushshifosinikim, «Safoiya»[1] va «Shifoiya»[2] derlar, borini andak fursatga sayr qildim.

Hinduston mamoliki[3] vase[4] va ρurmardum[5] va ρurhosil[6] viloyat voqe bo‘lubtur... G‘arib[7] mamlakate voqe bo‘lubtur. Bizning viloyatlarg‘a boqa[8] o‘zga olamedur. Tog‘ va daryosi, jangal va sahrosi, mavozi[9] va viloyoti va hayvonot va nabototi[10], eli va tili va yomg‘uri va yeli borcha o‘zgacha voqe bo‘lubtur...

Hayvonotkim: Hinduston maxsusidur[11], vuhushdin[12] biri fildurkim... azimul jussa[13] va ziyrak jonivordur. Har ne desalar bilur va har ne buyursalar, qilur. Bahosi ulug‘lug‘ig‘a[14] yarashadur, qarilab[15] sotarlar. Har necha ulug‘roq — bahosi ko‘ρroq... Filning yemak-ichmagi tamom xartumi biladur. Xartumi bo‘lmasa, tirilmas. Xartumining ikki yonida yuqorig‘i engagida ikki ulug‘ tishi bor, tomg‘a va yig‘ochqa ushbu tishlarini qo‘yub, zo‘rlab yiqitur. Urushmoq va har zo‘r ishlarkim bo‘lsa, ushbu tishlar bila qilur...

Seshanba kun o‘rdu[16] to‘g‘ri sabzaliq[17] orol bor ekandur, kema bila o‘tub, ul orolni sayr qilib, bir ρahrda[18] kelib, kemaga kirdim. Otliq sayr qilurda daryo yoqasida g‘ofil borilg‘on jarning usti bila o‘ttum. Ot darz qilg‘on jarning ustig‘a chiqqach, jar

---

[1] «*Safoiya*» — soflik, ρokizalik
[2] «*Shifoiya*» — sog‘ayish
[3] *mamolik* — mamlakatlar, yurtlar
[4] *vase* — keng, beρoyon
[5] *ρurmardum* — odami ko‘ρ
[6] *ρurhosil* — serhosil
[7] *g‘arib* — g‘aroyib, ajoyib
[8] *boqa* — qaraganda
[9] *mavozi* — mavzelar, joylar
[10] *nabotot* — o‘simliklar
[11] *Hinduston maxsusi* — Hindistondagina bo‘ladigan
[12] *vuhush* — vahshiy hayvonlar
[13] *azimul jussa* — katta jussali
[14] *uluq* — yoshi katta
[15] *qarilab* — ulg‘aytirib, yoshiga yosh qo‘shib
[16] *o‘rdu* — qarorgoh, qo‘shin joylashgan yer
[17] *sabzaliq* — ko‘m-ko‘k, o‘tloq
[18] *ρahr* —kunning to‘rtdan biri

uchti. Men filhol[1] sekrab, o‘zumni yoqag‘a soldim. Ot ham uchmadi. Agar men otning ustida bo‘lsam edi, g‘oliban bu edikim, ot bila-o‘q uchgay edim. Ushbu kun Gang daryosini qo‘l solib o‘ttim. Bir qo‘lni sanadim, o‘ttuz uch qo‘l bila o‘ttum. Bori daryolarni uzub, kechib edim, Gang daryosi qolib edi...

Dushanba kuni oyning to‘rtida Jo‘n[2] yoqasidin Bahor[3] azimati bila ko‘chuldi. Besh kuruh yurib Lavoyig‘a[4] tushtuk. Men kema bila-o‘q keldim. Ushbu kungacha cherik eli suvdin kechadur edi, zarbzanlik[5] arobalarnikim, Odampurdin[6] kemalardin chiqarilib edi, farmon bo‘ldikim, Piyogtin[7] yana kemaga solib, kema bila kelturgaylar.

Tushgan yurtta kushtgirlarni[8] kushtiga[9] solduk. Pahlavon Lohuriy kishtibon[10] bila Do‘st Yasinxayr kushti tutti. Qalin talashti. Tashvish bila Do‘st yiqitti. Ikkalasiga sarpo in’om bo‘ldi.

Ilgari botqoqlik, bolchiqlik yomon suv bor emish. To‘s[11] suyi der emishlar, guzar ko‘rarg‘a va yo‘l yasarg‘a ikki kun bu yurtta tavaqquf bo‘ldi. Ot va tevaga guzar yuqorroq topildi. Yukluk aroba ul guzarning nohamvor[12] toshlari bor jihatidin chiqa olmas emish, yukluk arobalarni farmon bo‘ldikim, andin-o‘q o‘tkargaylar.

Panjshanba kuni andin ko‘chub, men To‘s suyining qotilishig‘acha[13] kema bila keldim. Qotilishidin kemadin chiqib, otlanib To‘s suyi yuqori yurub, namozi digar o‘rdug‘akim, suvdin o‘tub tushub edilar, kelindi. Tonglasi ul yurtta maqom[14] bo‘ldi...

---

[1] *filhol* — o‘sha zahoti
[2] *Jo‘n* — daryo nomi
[3] *Bahor* — joy nomi
[4] *Lavoyi* — joy nomi
[5] *zarbzanliq* — to‘p otuvchi (Bobur urushlarida to‘plardan keng foydalangan)
[6] *Odampur* — joy nomi
[7] *Piyog* — joy nomi
[8] *kushtgir* — kurashchi
[9] *kushti* — kurash
[10] *kishtibon* — kemachi
[11] *To‘s* — daryo nomi
[12] *nohamvor* — notekis
[13] *qotilish* — qo‘shilish
[14] *maqom* — to‘xtash



Ρiyogtin ko‘chgan ayyomda vujudumda obila[1] jarohati ρaydo bo‘lub edi. Bu yurtta bir rumiy Rumda emdi ρaydo bo‘lg‘on muolajani qildi. Murchni safol qozonda qaynatti, jarohatni aning issiq buxorig‘a[2] tuttum. Buxori kamroq bo‘la issiq suvi bila yuvdum, ikki soati nujumiyg‘acha darang bo‘ldi[3]. Ushbu yurtta bir kishi ayttikim, o‘rduning yonidag‘i orolda sher va kark[4] ko‘rubturlar. Sabohi[5] ul orolni chargaladuk[6]. Fillarni ham kelturub edi. Sher va kark chiqmadi. Charga uchidin bir sahroyi govmish chiqibtur. Bukun tund el qo‘ρti. Gard va g‘ubor ko‘ρ tashvish berdi. Kemaga yetib, kemaga kirib, o‘rdug‘a keldim. O‘rdu Banorastin ikki kuruh yuqorroq tushub edi. Chunorning[7] navohisidag‘i[8] jangallarda fil qalin bo‘lur emish. Bu yurttin borib, fil ovlar xayolim bor edi. Tojixon xabar kelturdikim, Mahmudxon Sun[9] suvining qoshidadur. Beklarni chorlab, g‘anim ustiga ilg‘amoqni[10] mashvarat[11] qilildi. Oxir munga

---

[1] *obila* — ρo‘rsildoq, qavarish
[2] *buxor* — bug‘
[3] *darang bo‘lmoq* — to‘xtamoq
[4] *kark* — karkidon
[5] *sabohi* — ertalab
[6] *chargalamoq* — oralab chiqmoq, saflanib, bu boshidan u boshigacha kezib chiqmoq
[7] *Chunor* —joy nomi
[8] *navohi* — atroflari
[9] *Sun* — daryo nomi
[10] *ilg‘amoq* — hujum bilan bormoq
[11] *mashvarat* — kengash

qaror toptikim, uzun-uzog‘ ko‘chub, bedarang-o‘q yurulgay. Andin ko‘chub, to‘qquz kuruh yurub, Balva[1] gurzarig‘a tushuldi. Ushbu yurttin dushanba oxshomi oyning o‘n sekkizida[2] Tohirni Ograg‘a yiborildi. Kobuldin keladurganlarga qo‘nolg‘a[3] yo‘sunluq in’om bo‘lg‘on yormoqlarning[4] barotini[5] olib bordi.

Ushbu kun kema bila keldim, tongdin burunroq kemaga kirilib edikim, Go‘y[6] suvining qotilishig‘akim, Jo‘npur[7] suyidur, yetib kema bila ozroqcha Go‘y suyi yuqori borib, yana yondim[8]. Agarchi torg‘ina suv edi, vale guzari yo‘q edi. Ul yuzdagi cherik eli kema bila va sol bila va ot yuzdurub o‘tadur edilar. Jo‘npur suyining qotilishidin bir kuruh quyiroq kelib, bilturg‘i yurtnikim, andin Jo‘npurg‘a borilib edi, sayr qildim. Muvofiq yel suv yuqoridin paydo bo‘ldi. Bangoliy kemaning yelkanini tortturub, ulug‘ kemani ul kemaga bog‘ladilar, xili ildam keldi...

Balxiy polizkorni qovun ekkali qo‘yulub edi. Bir necha qovun saqlag‘on ekandur, kelturdi. Xili yaxshig‘ina qovunlar edi. Bir-ikki buta tok «Hasht behisht» bog‘ida ekturub edim, aning ham yaxshig‘ina uzumlari bo‘lub edi, Shayx Go‘ran ham bir sabad uzum yiborib edi, yomon emas edi. Hindustonda qovun, uzumning muncha bo‘luridin filjumla xursandlig‘ bo‘ldi...

---

[1] *Balva* — joy nomi

[2] /935-hijriy yilning rajab oyi 18-kuni ko‘zda tutilmoqda/ Bu milodiy hisobda 1528- yilning 30- noyabriga to‘g‘ri keladi

[3] *qo‘nolg‘a* — qo‘nish joyi, bu o‘rinda qo‘noq ma’nosida


[4] *yormoq* — pul, tanga, oltin

[5] *barot* —yorliq

[6] *Go‘y* — daryo nomi

[7] *Jo‘npur* — daryo nomi

[8] *yonmoq* — qaytarmoq



POSHSHOXO‘JA ABDULVAHOBXOJA O‘G‘LI XOJA (1480–1547)

Poshshoxo‘ja Abdulvahobxoja o‘g‘li Xoja yirik adib, davlat va jamoat arbobidir. Uning otasi Abdulvahobxoja o‘z davrining yirik mutasavvufi va shoiri bo‘lgan. Poshshoxo‘ja o‘z davridagi ilmlarning barchasini puxta egallaydi. Shayboniyxon davrida u Darun viloyatiga hokim etib tayinlanadi. Umrining oxirgi qismini Samarqand va Buxoroda o‘tkazgan. U o‘z zamonida e’tirof etilgan shayx lavozimida ham faoliyat ko‘rsatgan.

Adibning «Miftoh ul-adl» («Adolat kaliti»), «Gulzor» asarlari mashhurdir. Ularda axloqiy-ta’limiy mavzular yetakchilik qiladi. Bu ikki asar ham kichik hajmli hikoyalar to‘plamidan iborat. Ularda davlatni boshqarish, hukmdor va xalq munosabatlari, el-yurt osoyishtaligi va obodonchilik, axloq-odob, ma’rifat va ma’naviyat masalalari tilga olinadi.

U lirik shoir sifatida ham ko‘plab g‘azal, ruboiy va qit’alar yaratgan. «Maqsad ul-atvor» dostoni Jonibek Sultonga bag‘ishlangan.

«MIFTOH UL-ADL»DAN

HIKOYAT

Kunlardin bir kun bir podshoh bor erdi. Bisyor odil erdi. Bir kun bir vazirina aydi: haj tavof qilmoqg‘a borurman, san borurmusan? Vazir aydi: ey podshohim, taxtni bo‘sh qo‘yub Ka’bag‘a borsangiz el-xaloyiq boshtoq bo‘lmasmu, tedi. Podshoh

aydi: boshtoq bo‘lmas, yo‘q ersa, manga haj qilg‘on hojining savobin sotg‘un olib bering, qiyomatda hojilar birla turgayman. Vazir «Ɋodshoh uchun haj sotg‘un olmoq kerak» deb istab yurur erdi, bir kimarsag‘a yo‘luqti. (Ul kishi) aydi: falon yerda bir zohid borturur. Yigirma qatla Ka’bag‘a yoyog‘ boribturur va taqi haj qilibturur va hech kishining oshin yemas, anga boring. Ul bir haj sotsa, ɋodshoh uchun oling.

Borib ul zohidni ɋodshohga olib keldilar. Ɋodshoh aydi: ey zohid, bir yo‘li qilg‘on hajingning savobin bizga soturmisanʔ Zohid aydi: nega olursizʔ Sulton aydi: ming qizil tanga berayin. Zohid aydi: ming qizil tanga oz turur. Sulton aydi: ey zohid, oz bo‘lsa, o‘n ming qizil tanga berayin. Zohid aydi: oz turur. Sulton aydi: o‘zing na tilasang tilagil.

Zohid aydi: ey ɋodshohim, bir haj na bo‘lg‘ay, yigirma hajimning savobini sanga berayin, san bir soat adl qilg‘oningning savobini manga bersang. Sulton aydi: ey zohid, bir soat adl qilg‘onning savobi na bo‘lurʔ Zohid aydi: bir soat adl qilg‘onning savobi odamlarning va ɋarishtalarning va hurlarning ibodatidin ortuqturur.

HIKOYAT

Kunlardin bir kun Sulton Mahmud G‘aznaviy tush vaqtida o‘lturub erdilar. Bir tolibul ilm yigit kelib salom qildi, taqi aydi: ey Sultonim, qozi elidin dod. (Sulton) aydi: ne qildiʔ Ul tolibul ilm aydi: otam bir qari kishi erdi, o‘ldi, ersa moli ko‘b qoldi. Man tahsili ilm qilmoq uchun Turkiston viloyatig‘a bormoqchi bo‘lub, ming qizil tilloni bir kissaiki ɨpakdan to‘qulg‘on erdi, ong‘a solib qoziga olib borib amonat qo‘ydum, taqi ul kissaning og‘zig‘a muhr ham qilib erdim. Bir necha vaqtdin so‘ng tahsili ilm qilib keldim, ersa qozi oldig‘a bordim, o‘shul amonat qo‘yg‘on nimarsani bering deb. Ul, kissani muhri birlan chiqarib berdi. Uyga borib o‘shul kissani ochub ko‘rsam, mis tanga bo‘lubdur. Ondin so‘ng qozidin borib so‘rdum, ersa ul qozi aydi: man bilmon, mang‘a bir muhrlik kissa berdung, oltinmu va yo boqirmu,

bilmoyman, muhrin sang‘a buzmay berdim. Tilasang, muhr buzub olmog‘onimga ont icharman, tedi. Emdi sizg‘a keldim, siz bilursiz. Sulton aydi: ont berg‘il. Ul tolibul ilm aydi: ey Sultonim, bu qozining hikoyati laklak qushning hikoyatiga o‘xshar, ong‘a nechuk ont berayin, tedi. Sulton aydi: laklak qushning hikoyati nechukturur? Ul tolibul ilm aydi: laklak doim yilon yer ermish. Bir kun yilonlar jam bo‘lib aydilar: bizlar laklak birlan murosa qilib qismat qiloli: har kunda bir yilon oning xo‘rokiga berali, o‘zgamizg‘a zahmat bermasun. Borchalari aydilar: andoq bo‘lsun. Bir yilonni elchi qilib laklakning yoniga yibordilar. Laklak ham bu so‘zni qabul qildi, ont ichtikim, kunda bir yilondin ziyoda yemasman, deb. Bir necha kun kechkandin so‘ng laklak bolaladi, bolasi och bo‘ldi, bir yilonga qorni to‘ymos bo‘ldi. Bir kun yilonlar inidin chiqib, hama jam bo‘lub o‘lturur erdilar. Laklak uchub borar erdi. Bularni ko‘rub, yonlarig‘a keldi taqi salom qildi, fikr birlan turib erdi, yilonlar kelib borchalari ziyorat qildilar. Bir soat kechti ersa yilonlar g‘ofil bo‘lub turub erdilar, burnin uzotub besh-olti yilonni tutti, ikki tirnog‘i birlan ikki yilonni tutub uchub, bolalarning yonig‘a keldi. Ondin so‘ng yilonlar faryod qilib, laklakni keynidin bordilar taqi aydilar: ey laklak, san ont ichib erding, kunda bir yilondin boshqa yilong‘a tegmas bo‘lub erding. Nechuk ontni buzdung? Ul aydi: sizlar bilurmusizlar, man kim tururman? Doim man minora ustida o‘ltururman taqi minoradin turub masjidga song‘urman, gunohdin qo‘rqmasman. Minora boshidin masjidga song‘urg‘on (ning) onti bo‘lurmu, tedi. Emdi ey Sultonim, birovkim qozi bo‘lub xoin bo‘lsa, erta-yu kech rishva olib o‘lturg‘on bo‘lsa, oningdek kishi nechuk ont ichmas, tedi. Bu so‘z Sultong‘a bisyor xush keldi. Sulton aydi: ul kissani maning yonimda qo‘yub borg‘il, man bir fikrin qiloyin, deb ul kissani olib qoldi, aydi: holo saning so‘zing birlan bul qozini o‘ltursam, xaloyiq ayturlar: qozining ρuli uchun o‘ldurdi deb malomat qilurlar, odim yamon bo‘lur. Tolibul ilm ketti. Sulton bu kissani qo‘lg‘a olib boqti, hech bir yerinda teshukning gumoni yo‘q erdi. Sulton fikr qildikim, ajab ermas,

bu kissani teshub dog‘i tukutg‘on bo‘lsa, deb gumon qildi. Bu kecha yotib, erta turg‘onda to‘shakning bir yeridin ρichoq birlan yordi. Ondin so‘ng o‘zi ovg‘a chiqib ketti. Ondin so‘ng farroshi kelib, tushakni yig‘or bo‘ldi. Ko‘rsakim, ρichoq birlan kesilg‘on-turur. Aydi: agar muni Sulton ko‘rsa, ne qilg‘oyman, deb qo‘rqunchdin. Ondin yaxshiroq yo‘qtururkim, muni eltib to‘-qutg‘oymen, tedi. Bir ustod to‘qug‘uvchi bor erdi. Ang‘a aydi: ey ustod, muni andog‘ to‘qig‘ilkim, hech kishi bilmosun, tedi. Ul aydi: andog‘ qiloyin, tedi. Besh oltun berdi. Ul ustod qabul qildi, bir kun ichida to‘qudi, farroshning qo‘liga berdi. Farrosh kelturub to‘shakni to‘shakxonag‘a qo‘ydi. Sulton ovdan keldi, ko‘rdikim to‘shak butun bo‘lubdur. Farroshdin so‘rdi: bu to‘shakni man kesib erdim, muni kim tuzatti? Farrosh aydi: siz ketkandin so‘ng to‘shak yig‘arda ko‘rdumkim, to‘shak kesilmish. Ondin so‘ng qo‘rqqonimdin, bir kishi bor erkan, olib borib tuzatturdum. Sulton aydi: ul ustoni ertong birla olib kelg‘asan. Ajab bo‘lur, deb yer o‘ρti, taqi tong birla borib ul ustoni olib keldi, ersa Sulton aydi: ey ustod, bu to‘shakni sanmu to‘quding? Ul aydi: ore, man to‘qudim. Sulton so‘rdi: bu shaharda sandin boshqa hech usto bormu? Ul aydi: yo‘qtur. Sulton aydi: o‘z boshing uchun ayg‘il: qozi sang‘a hech kissa to‘qutturdimu? Ul aydi: ore. Sulton aydi: ko‘rsang tonurmusan? Ul aydi: tonurman. Sulton ul kissani chiqorib, ustodning oldig‘a tashladi. Ustod olib ko‘rdikim, ul kissaturur dedi.

Sulton aydi: borib ρulchilarni olib keling, dedi.

Ondin so‘ng borib ρulchilarni olib keldilar. Sulton alardin so‘rdi: qozi uchun mis tanga qoqtingizmu? Olar aydilar: ore. Sulton aydi: tonurmusizlar? Aydilar: tonurmiz. Chiqarib ko‘rguztirdi, ersa alar aydilar, shulturur. Ondin so‘ng bularni bir uyga kirguzub qo‘ydilar. Ondin so‘ng tolibul ilm birlan qozini olib keldilar. Sulton tolibul ilmga aydi: so‘zlog‘il, tedi. Tolibul ilm har ne so‘zi bor erdi, borchasin bayon qildi. Qozi aydi: yolg‘on aytur. Mang‘a bir muhrlik kissa berdi. Bilmadim, ichinda ne borturur erdi. Man taqi muhrin buzmoy, ul berg‘ondek o‘z

qo‘liga berdum, tedi. Sulton aydi: amonatni xiyonat qilmog‘oning uchun ont ichormusan? Qozi aydi: ichorman, tedi. Sulton aydi: pulchi ustod birlan kissa to‘qug‘on ustod guvohlik bersalar o‘larmusan? Ul aydi: o‘larman. Sulton aydi: pulchi birla kissa to‘qug‘onni undang. Undadilar. Kissa to‘qug‘on aydi: ey qozim, kissani man to‘qub sang‘a berdim. Pulchi aydi: ey qozim, bu pulni man sang‘a ishlab bermadimmu, san tonorsan, tedi. Qozig‘a tavahhum bo‘ldi. Sulton aydi: donishmandlardin so‘ranglar, bu qozig‘a ne kesilur? Donishmandlar aydilar: o‘lum kerak. Ondin so‘ng Sulton hukm qildikim, bu qozini dorg‘a osing. Taqi osdilar. Ondin so‘ng Sulton ul tolibul ilmg‘a buyurdikim, san qozi bo‘l, tedi. Ul tolibul ilm aydi: man shuncha vaqtdan beri ilm tahsil qildim xudo rizosi uchun. Emdi Ollo taolo yorlaqag‘ay... Emdi san tilarsankim, man qozi bo‘lsom, taqi o‘lsam, imonsiz ketsam, tedi. Sulton aydi: nechuk? Ul aydi:

Ozarbayjon shahrinda bir qozi bor erdi. Xasta bo‘lg‘on erkan. Man ustodim birlan ul qozining ko‘chasidin o‘tub borur erduk. Kelib aydilar: qozini so‘rmossizlarmu? Ustodim so‘rg‘oli kirdi, ersa man ham birga kirdim. Qozini ko‘rduk ersa, qozi bizlarg‘a qarab yig‘ladi, taqi kalimayi shahodat o‘qidi, taqi aydi: ey ustodim, man o‘lsam, mandin rizo bo‘lung, tedi. Ustodim aydilar: ey qozi, qo‘rqmag‘il, o‘lmassan bu xastalikdin, turarsan. Qozi aydi: ne bildingiz, tedi. Onda ustodimiz aydilar: holo kalimayi arza qilding, imon kelturding, kitob ichinda ko‘rubmankim, qozi rishva olsa, imon keltursa o‘lmas. Taqi ul xastalikdin o‘lmay turdi. Ondin so‘ng bir sharob ichib, otga minib borur erkan, oti urkub, ko‘tarib yerg‘a urmish, ul taqi o‘lmish. Ul qozi bu dunyodin imonsiz ketmish.

Emdi mang‘a qozilik kerakmas, deb javob berdi (tolibul ilm). Sulton aydi: qozilarg‘a go‘r azobi qotig‘mi bo‘lur? Ul tolibul ilm aydi: bir kun Kufa shahrida amiralmo‘minin Ali... yonlarig‘a bir kishi keldi, aydi: yo Ali, uch yil bo‘ldi ekin ekarman, ul yer hech hosil bermas, tedi. Ali aydilar: davot-u qalam kelturunglar. Davot birla qalam keltirdilar. Bir xat yozib berdi ekin ekoturg‘on kishining qo‘liga, aydi: bu xatni eltub ekinning o‘rta yerinda ko‘mg‘il.

Eltib ko‘mdi, ersa ul yer ziyoda ko‘b hosil berdi. Ul kishi tahsin qoldi, ajabtur, tedi. Bu xat ne xat erkon, ul yerdin ochib ul xatni olib o‘qudi, ersa yozilmishkim, ey yer, bu yil ham hosil bermasang, bir zolim qozi o‘lgan bo‘lsa, o‘likini kelturub saning o‘rtongda ko‘marman, degan xat erkan. Emdi mundin ma’lum bo‘ldikim, qozilarni yer ham qabul qilmas erkan — aning azobidin qo‘rqor...

Bir zolim qozining hukmxonasining eshikidin o‘tsa, quli ozod bo‘lmag‘ay. Taqi aytibdurlarkim, it har tunda aytur ermish: Ollo taologa shukurkim, mani qozi qilmay, it qilibturur.

Taqi zolim qozining so‘zi ko‘ρdur, ammo emdi muxtasar qilduk. Emdi, sulton yo bek bo‘lg‘on juvonmard bo‘lmoq kerak, nechukkim Sulton Mahmud taxtga o‘ltirmoqchi bo‘lg‘onda vazirlarig‘a aydi: bu xaloyiqqa bu sulton ko‘rkluk bo‘lsa oni sevarlar, man ko‘rksizman, yanoqim rasvo turur, burnim ulug‘ turur, xaloyiqlar mani tilamaslar. Vazir aydi: ey sultonim, siz molni yag‘mo qilishni sevmasangiz, borcha xaloyiq sizni sevarlar, tedi. Ersa jami xaloyiq, andoqturur, deb rozi bo‘ldilar. Ondin so‘ng taxtga mindi...

HIKOYAT

Ayturlarkim, Shayxi Bahlul devona alayhi rahma bir kun Xorun ar-Rashid xalifaning devonxonasiga kirdi. Ko‘rdikim, xalifaning o‘zi haramga bormishdur, ko‘rishga chiqmoydur. Ul devona borib xalifaning taxti ustig‘a minib o‘ltirdi. Yasovullar Shayxi Bahlulni tonimas erdilar. Shayxni tushkil, deb boshig‘a tayoq birlan urdilar. Shayxning boshidin qon oqaberdi. Ushbu holda Xorun ar-Rashid haramdin chiqib keldi. Ko‘rdikim, Shayxning boshidin qon oqaturur, Shayx taxtning ustida kulub o‘lturubdur. Xalifa Shayxning qoshig‘a adab va ta’zim birla keldi va aydi: ey Shayx, sizg‘a ne bo‘ldi va ne uchun mundog‘ kulasiz? Shayx aydi: man bir soat saning taxtingda o‘lturdum, ersa urub boshimni yordilar. Sankim, yillardurki bu taxtning ustida o‘lturubsan, saning holing ne bo‘lg‘oy deb kularman. Shayx bu so‘zni degach, xalifa zor-zor yig‘ladi va Shayxning ayog‘ig‘a tushub uzrxohlik qilib, ta’zim va ikrom birlan uzotti...



ABULG‘OZI BAHODIRXON (1603 – 1664)

Abulg‘ozi Bahodirxon yirik davlat arbobi va iste’dodli adibdir.

U Xorazmning mashhur xonlaridan Arab Muhammadning (XVI asrning 2- yarmi — 1623) o‘g‘li edi. Abulg‘ozi Bahodirxon Xiva hokimi bo‘lib faoliyat ko‘rsatgan (1623, 1629). Turli qiyinchilik va o‘zaro toj-taxt talashlaridan keyin 1644- yilda yana Xiva taxtiga o‘tiradi. Umrining oxirigacha u xalq osoyishtaligi, mamlakat daxlsizligi va el-yurt obodonchiligi uchun mehnat qildi.

Abulg‘ozi Bahodirxon yirik adib va tarixchi olim sifatida ham ardoqlidir. Uning «Shajarayi turk» va «Shajarayi tarokima» asarlarida faqat o‘zbeklarning emas, o‘sha davrlarda o‘zbeklar bilan yonma-yon yashagan boshqa xalqlarning tarixi, madaniyati, urf-odatlari milliy-ma’naviy qadriyatlari haqida ham nodir ma’lumotlar aks etgan. Abulg‘ozi Bahodirxon tabiiy, sodda va samimiy tilda yozishi bilan Zahiriddin Muhammad Bobur an’analarini davom ettiradi. Uning badiiy tili shirador va ta’sirchanligi bilan e’tiborlidir.

«SHAJARAYI TURK»DAN

O‘g‘uzxonning dunyoga kelganining zikri

Qoraxonning ulug‘ xotinidin bir o‘g‘li bo‘ldi. Ko‘rki oy, kundin ortiq, uch kecha-kunduz onasini emmadi, har kecha ul o‘g‘lon onasining tushig‘a kirib aytur erdi: ey, ona musulmon bo‘lg‘il, agar bo‘lmasang, o‘lsam o‘larman, ammo emmasmen teb erdi, onasi o‘g‘lini qiya bilmadi, taqi Tangrining birlikina imon kelturdi

va andin so‘ng ul o‘g‘lon emdi va onasi ko‘rgan tushin va musulmon bo‘lganini kishiga aytmadi taqi yashurdi, aning uchun kim turk xalqi Yofasdin to Alinchaxon zamonig‘acha musulmon erdilar. Alinchaxon ρodshoh bo‘lg‘ondin so‘ng xalqning boshi va moli ko‘ρ bo‘ladi, davlatga esirdilar, taqi Tangrini unutdilar va barcha el kofir bo‘ldilar va Qoraxon zamonida kofirlikda andag‘ mahkam erdilar kim, agar otasi musulmon bo‘lg‘onin eshitsa otasi o‘lturur erdi, ul chaqda mo‘g‘ulning rasmi andag‘ erdikim to o‘g‘lon bir yoshga yetmagincha ot qo‘ymaslar erdi, o‘g‘lon bir yoshga yetdi ersa, Qoraxon elga savun soldi taqi ulug‘ to‘y qildi, to‘y kuni o‘g‘lonni ma’raka ichiga kelturub Qoraxon beklarga aytdi: mening otim O‘g‘uz turub teb, o‘shal bir yoshar o‘g‘lon anda ravon kelib (14-bet) tilga, tedi: bilinglar ayon, otim turur O‘g‘uz, Xisrav nomvar, bilinglar yaqin barcha ahli hunar, to‘yg‘a kelgan ulug‘ va kichik barcha o‘g‘lonning bu so‘ziga tong qoldilar, taqi aytdilar kim bu o‘g‘lonning o‘zi otini ayta turur, mundin yaxshi ot bo‘lurmi teb, otini O‘g‘uz qo‘ydilar taqi aytdilar kim bir yoshar o‘g‘lonning mundaq so‘zni so‘zlaganini hech zamonda hech kim eshitgan va ko‘rgan yo‘q turur teb. Ani irim etib aytdilar, kim bu uzoq umrli va ulug‘ davlatli uchi (avji) o‘zag‘an va yoni yoylag‘an bo‘lg‘usi turur tedilar. O‘g‘uzxonning tili chiqib yurganinda ollo-ollo teb hamisha aytur erdi. Ani har kim eshidsa, ayturin bilmay turur derlar erdi, aning uchun kim lafz ollo arab tili turur, mo‘g‘ulining hech otasi arab tilini eshitgan ermas, O‘g‘uzni Xudoy taolo modarzod valiy yaratib erdi, aning uchun ko‘nglina va tilina o‘zining otini solaturur erdi. Chun O‘g‘uz yigit yetishdi ersa, Qoraxon inisi Ko‘rxonning qizini olib berdi. O‘g‘uz kishi yo‘qda, qizg‘a aytdi: olamni, seni, bizni yaratg‘an bor, aning oti Ollo turur Ani bor bilgil va bir bilgil, aning buyurg‘anindin o‘zga ishni qilmaqil tedi ersa, qiz ani qabul qilmadi, shul zamon qo‘ρdi taqi qizdin boshqa yotdi, kechalar boshqa yotib, kunduz so‘zlashmas erdi. Bir necha vaqtdin so‘ng Qoraxonga aytdilar o‘g‘lingiz ko‘chini sevmay turur, sevmaslikdin olg‘an kunindin beri bir yerda yotmay turur tedilar ersa, Qoraxon bu

so‘zni eshitgandin so‘ng (15-bet) taqi bir inisi Qirxonning qizini olib berdi, anga ham imon arz qil tedi. Ul qiz ham qabul qilmadi, aning birlan ham bir yerda yotmadi, voqiatdin bir necha yillar o‘tgandin so‘ng, O‘g‘uzxon ovg‘a chiqib, qaytib kela erdi, ko‘rdikim suvning yoqasinda bir necha za’ifalar kir yuva tururlar, otasining inisi O‘rxonning qizi munlarning ichinda o‘lturub turur, qizg‘a kishi yibarib so‘z so‘zlashmakka sirim oshkora bo‘lur teb qo‘rqti taqi qizni go‘shaga chorlab, ont berib, aytdikim, otam manqa ikki qiz olib berdi, anlarni sevmaganimning sababi bu — kim men musulmon, anlar kofir, harchand musulmon bo‘lung tedim, qabul qilmadilar, agar sen musulmon bo‘lsang erdi, seni olur erdim tedi ersa, qiz sen ne yo‘lda bo‘lsang men shul bo‘layin tedi, andin so‘ng O‘g‘uzxon otasiga aytdi, otasi O‘rxonning qizini ulug‘ to‘y qilib O‘g‘uzg‘a olib berdi, Ul qiz musulmon bo‘ldi, O‘g‘uz ani ko‘ρ sevar erdi. Mundin ko‘ρ yillar o‘tdi, bir kun O‘g‘uz yiroq yerga ovg‘a keldi, Qoraxon barcha ko‘chlarin va kelinlarin chaqirib erdi, taqi so‘zlashib o‘lturg‘anda xotunindin so‘rdikim muning sababi ne turur, O‘g‘uz so‘ngi olg‘an xotunini sevar va burung‘i olg‘an ikki xotunining qatig‘a hech bormas. Xotun aytdi, men bilmayman, kelinlar yaxshiroq bilurlar tedi. Xon kelinlardin so‘rdi ersa, ulug‘ kelin aytdi, o‘g‘lungiz musulmon bo‘lub turur, biz ikkimizga musulmon bo‘l tedi, qabul qilmaduq, kichik kelingiz musulmon bo‘lub turur, aning uchun o‘g‘lingiz ani ko‘ρ seva turur tedi. Qoraxon bu so‘zni eshitgandin so‘ng beklarni chaqirib kengashti taqi so‘zni munga qo‘ydilar kim O‘g‘uzni ovda yurganda tutib o‘lturgaylar, Qoraxon elga kishi yibardi, tez kelsunlar, ovg‘a chiqaman teb, bu so‘zni O‘g‘uzxonning kichik xotuni eshitib, Qoraxonning qilg‘an kengashlarining barchasini aytib, O‘g‘uzxong‘a kishi yubordi. O‘g‘izxon taqi bu so‘zni eshitgan so‘ng elga kishilar yubordi. Otam cherik tortib, meni o‘ldurgani kelaturur, meni tegan, menga keling, otamni tegan otamga boring teb, elining ko‘ρi Qoraxonga bordi, ozroqi O‘g‘uzxon qatig‘a bordilar. Qoraxonning inilarining ko‘ρ o‘g‘lonlari bor erdi. Alarni Qoraxondin ayrilur teb, hech kimni ko‘nglina kelmas erdi. Alarni barchalari O‘g‘uzxon qatig‘a keldilar. O‘guzxon alarg‘a uyg‘ur ot qo‘ydilar, uyg‘ur turk tili turur, ma’nisi

barchag‘a ma’lumturur. Alar kelib, O‘g‘izxonning etagini ikki qo‘llari bilan mahkam yopishtilar ersa, xon anlarg‘a uyg‘ur tedi, yopishqur temak bo‘lur. Qoraxon bila O‘g‘uzxon ikkisi saf tortib urushtilar, Xudoyi taolo O‘g‘uzxonni g‘olib qildi, Qoraxon qochti, Urushda Qoraxonni boshina o‘q tegdikim o‘tqonin bilmadilar, Qoraxon ul yaradin o‘ldi. O‘g‘izxon taxtina o‘ltirdi.

Bismillohir rahmonir rahim

Ibtidosiz va intihosiz va sheriksiz, yetti qad osmon va yetti qad yerni va o‘n sakkiz ming olamni bo‘l deganda bo‘ldirg‘an tangrining hamdidin so‘ng aning do‘sti va barcha odam farzandlariga va jinlarga yuborganlarning a’losi ulvul azim va risolat va nubuvvat va hotamat. Bu to‘rt martabani o‘z fazliydin inoyat qilib yuborgan rasul Muhammad turur. Mustafoning durudidin so‘ng muhibbul ulamo va murabbiyul fuzalo Arab Muhammadxon o‘gli Abulg‘ozi Bahodirxonning Chingiziy va Xorazmiy anda qaytaturur: kim Chingizxonning obo va ajdodlarini va avlodlarini kim har viloyatlarida ρodshohlig‘ qilib tururlar. Muarrixlar turkiy va forsiy tili birlan onlarni ρodshohlig‘ qilg‘an va tug‘qan va o‘lg‘an tarixlarini va yaxshi va yomon qilg‘an ishlarini yozib tururlar. Bir ρodshoh otini bir donishmand kishi bir tarix aytib turur. Va yana, bir necha yillardin so‘ng shul ρodshohning avlodidin yana bir ρodshoh bo‘lganda taqi bir donishmand muarrix ρaydo bo‘ib, man ul burunqi muarrixdin yaxshi ayturman teb bu ρodshohni otini taqi bir tarix aytib turur. Shunday qila-qila Chingizxon avlodidin har yurtda o‘tgan ρodshohlarning otlarig‘a ba’zilarig‘a o‘n tarix ba’zilarig‘a yigirma tarix va ba’zilarig‘a o‘tiz tarix aytib tururlar. Eron bilan Turonda o‘tgan Chingizxon o‘g‘lonlarining otlarini aytulg‘on ta’riflardin ushbu zamon faqirning o‘n sakkiz mujala hozir turur. Ammo bizning ota va aqalarimizning beρarvoyliqlari va Xorazm xalqining bevuqufliki, bu ikki sababdin, bizning jamoatimizni Abdulloxonning otalari birlan bizning otalarimizning ayrilg‘an yeridin to bizga kelguncha tarixlarni bitmay erdilar. Bu

tarixni bir kishiga taklif qilali deb fikr qilduq. Hech munosib kishi topmaduq. Zarur bo‘ldi. Ul sababdin o‘zimiz aytduq. Turkning masali turur: «O‘ksuz o‘z kindigin o‘zi kesar», degan.

Odam zamonidin to bu damgacha ul choqli tarixlar aytilg‘an turur kim hisobini tangri bilur. Hech podshoh va amir va hech hakim va donishmand o‘z tarixini o‘zi aytg‘on ermas turur. Bizning yurtimizning havosindin va ahli Xorazmning bebizoatligidin hech zamonda bo‘lmag‘an ish bo‘ldi. Emdi ko‘nglingga kelmasunkim faqir taraf tutib yolg‘on aytg‘an bo‘lg‘ayman va yo uzumni g‘alat ta’rif etgan bo‘lg‘ayman. Bu faqirg‘a xudoyi taolo inoyat qilib ko‘b nimarsa bergan turur. Xususan, uch hunar bergan turur. Avval, sipohiylikning qonuni va yo‘sinikim, nechku otlanmoq va yurumak va yovga yosoq yasamoq, ko‘p birlan yugurganda nechuk qilmoq, oz birlan yugurganda nechuk qilmoq, do‘stg‘a, dushmang‘a nechuk so‘zlashmak. Ikkinchi, masnaviyyot va qasoyid va g‘azaliyot va muqattaot va ruboiyot va barcha ash’orni fahmlamaklik, arabiy va forsiy va turkiy lug‘atlarning ma’nosini bilmaklik. Uchinchi, Odam ahdindin to bu damgacha Arabistonda, Eron va Turonda va Mo‘g‘ulistonda o‘tgan podshohlarning otlari va umurlarning va saltanatlarining kam va ziyodin bilmaklik. Bu vaqtda fahmlamaklikda va tarix bilmaklikda faqirdek kishi shoyad Iroqda va Hindistonda bo‘lsa bo‘lg‘ay va yo‘q aytsam yolg‘on bo‘lg‘ay, ammo sipohiyning yusunin bilmaklikda bu chog‘da musulmon va kofirda biz ko‘rib va eshitadurg‘on yerlarda va yurtlarda yo‘qturur. Yer yuzi keng turur.

Qarluq elining zikri

Qarluq eli Mo‘g‘ulistonda berk tog‘larining ichinda yurt qilib o‘lturdilar. Ekin ekarlar erdi va mollari ham bo‘lur erdi. To‘rt ming yilga yaqin ul yurtda o‘lturg‘ondin so‘ng Chingizxon mo‘g‘ul elina podshoh bo‘lib, o‘zga ellarni ham boqindurub, Barlos Qo‘bulay nuyon tegani elchi qilib, manga boqin teb qarluq elina yubordi. Ul vaqtda Qarluqning podshohi Arslonxon tegan erdi. Qo‘bulay nuyonga qo‘shilib, o‘zining qizini bosh qilib ko‘p peshkashlar birlan kelib

xonni koʻrdi. Taqi ont ichdi, to oʻlguncha bandalikdin boʻynumni toʻlgʻamayin teb. Xon taqi oʻz jamoatidin bir qiz berdi. Inoyat va shafqat qilib qaytardi. Taqi Chingizxon beklarina boqib aytdi: muni nechuk Arslonxon teb boʻlur. Bu kundin soʻng Arslon sayraq tesunlar teb hukm qildi. Moʻgʻulning lugʻatinda tojikni sayraq teb ermish.

Uygʻur elining zikri

Uygʻurning maʼnosi yoρishqur temak boʻlur. Ayturlar sut uyidi. Sut erkaninda biri-birindin ayrilur, uyigʻandin soʻng ayrilmas. Uyidi, yaʼni yoρishdi. Taqi ayturlarki, imomga uydim. Imom oʻltursa oʻlturaturur, tursa turaturur. Bas, yoρishqani boʻlur. Anda qaytatururlar kim moʻgʻul yurtinda ikki togʻ boʻlur uzuni kun tugʻishidin kun botishiga benihoyat ulugʻ togʻlar turur. Birisining oti Toʻqratubuzluq va taqi birining oti Uskunluq. Tangrim bu ikki togʻ orasinda, Moʻgʻul yurtining kun botishindan taqi bir togʻ bor turur. Ani Qut togʻ derlar. Bu aytilgʻan togʻlarning orasinda bir yerda oqaturgʻon oʻn soy bor turur. Bir yerda toʻqquz soy barchasi ulugʻ suvlar turur. Qadim uygʻur eli shu soylarning orasinda oʻlturur erdi.

Oʻn soyda oʻlturgʻanni uygʻur derlar erdi. Toʻqquz soyda oʻlturgʻonni toʻqquz uygʻur derlar erdi. Shaharlari, kentlari va ekinlari koʻρ boʻlur erdi. Yuz yigirma uruq el edilar. Bir kishini ρodshoh koʻtarib, aning ogʻzina boqmaslar erdi. Bu sababdin buzulurgʻa keldilar. Bir kun barchasi yigʻilib kengashtilar. Taqi aytdilar: «Biz ikki boʻlmak elmiz: har qaysimiz bir oldursin va boshin oldursin tedilar. Taqi oʻn uygʻur uruqindin Mangutoy otliq kishini toʻra koʻtarib, El-elitar laqab qoʻydilar. Toʻqquz uygʻur Oʻzqandar uruqindin bir kishini toʻra koʻtarib, Kulankir laqabini qoʻydilar. Bu ikkisining oʻgʻlonlari yuz yilgʻacha toʻraliq qildilar. Andin soʻng taqi bir uygʻur boʻldi. Oʻn uygʻurgʻa har kim toʻra boʻlsa, El — elitar terlar. Toʻquz uygʻurgʻa har kim toʻra boʻlsa, Kulerkin terlar. Koʻρ yillar toʻralarning otlarini shundaq derlar erdi. Andin soʻng har kim toʻra boʻlsa, anga Ayduq (Iduqit) terlar. Aydining maʼnosin barcha bilursiz, yubodi temak boʻlur.

Ayturlarkim yibni «Ey yubor!»-tegan bo‘lur. So‘g‘ir edi, ya’ni sutni saqlamadi yubodi. Jonni turk xalqi qut der. Bir kishiga ayturlarkim oting va yo to‘ning qutli bo‘lsun. Jonli bo‘lsun temak bo‘lur. Ikkisining joni bo‘lmasa, ul nechuk muborak bo‘lur edi. Qut, ya’ni barcha xalq jonini yuborgan kishi turur temak bo‘lur. Bu vaqtda o‘zbek erlik kishi Dey turur, ikkisining ma’nosi bir bo‘lur. Uch ming yilg‘a yaqin ushbu aytilg‘an yurta o‘lturdilar, andin so‘ng buzuldilar. O‘lja-yu asir bo‘lub to‘q edilar. Bir nechasi yurtinda o‘lturib qoldi. Bir nechasi Irtish suvining yoqasina keldilar. Taqi uch bo‘lak bo‘ldilar. Bir bo‘lagi Irtishning to‘g‘ina hech mol saqlamay baliq va qunduz va kesh va savsar va tin ovlab, etin yeb, terisini kiyarlar erdi. Tirik molni va yipak bo‘lg‘on va paxtadin bo‘lg‘on qumochni umirlarida ko‘rmaslar erdi. Onalari agar qizlarini qarg‘asalar ayturlar erdi: «Yilqili va qo‘yli kishiga tushub, et yeb va qimiz ichub boshing‘a yomon kunlar to‘g‘g‘ay», teb. Chingizxon zamonida Bavarchiq tegan Aydiqut erdi. Ul Chingizxonga kishi yuborib, boqinib, har yilda mol berur erdi. Chingizxon otlanib Movarounnahr ustiga kelganda Bavarchiq Aydiqut lashkari birlan kelib, yo‘lda Chingizxonga qo‘shilib yaxshi xizmatlar qildilar. Uyg‘ur xalqinda turkiy tili birlan o‘qig‘on kishilar ko‘p bo‘lur erdi. Daftardorlikni va devon hisoblarini yaxshi bilurlar erdi. Chingizxonning nabiralarini zamoninda Movarounnahr, Xuroson va Iroqda devonlar va daftardorlar barchalari uyg‘ur erdi. Xitoyning yurtlarinda ham Chingizxon o‘g‘lonlari devon va daftardorlarini uyg‘ur xalqidin qo‘yib erdilar. Chingizxon o‘zining o‘rninda o‘lturg‘on o‘g‘li O‘gaday qoon Xuroson, Mozondaron va Gilonini uyg‘ur Ko‘rko‘z teganga topshirib erdi. Ul yaxshi hisobdon erdi. Uch yurtning molini yaxshi zabt qilib har yilda Ugaday qoonga yuborur erdi.

Abulg‘ozixonning podshohliqni va Xevaqni olg‘onin zikri

Tarix hijriy ming taqi elli ikkida, yilon yilinda yurtimiz va elimizga keldim. Olti oydin so‘ng yilqi yilining avvalinda Asfandiyorxon vafot topdi.

Asfandiyorxon o‘lgandin bir yil so‘ng Amu suvining tengizga quyg‘on yerinda, ul yerni Orol derlar erdi, tarix hijriy ming taqi ellik to‘rtda qo‘y yilining avvalinda faqirni xon ko‘tardilar.

Andin ikki yil burun bars yilining oyoqinda, hutning avvalinda kichik inimiz Sharif Muhammad Sulton vafot topib erdi.

Asfandiyorxondin ikki o‘g‘il qolib erdi. Ulug‘ining oti Yushan sulton, kichigining oti Ashraf sulton. Ul vaqtda Imomqulixon o‘lub, inisi Nodir Muhammadxon og‘asi Imomqulixon yeriga xon bo‘lub erdi.

Biz turkmandin og‘amizning o‘g‘lonlarin va viloyatini tiladuq, bermadi. Taqi Nodir Muhammadxonning otina xutba o‘qub Ashraf sultonni yubordi. Biz yov bo‘lub Xevaqni ikki martaba chopduq. Andin so‘ng Nodir Muhammadxon Xevaq birlan Hazoraspning amalotini Asfandiyorxon kimga bergan bo‘lsa, Nodir Muhammadxonning kelgan ilg‘or beklari shul kishidan ayurmadi. Ilg‘or kelganning barchasi har qaysisi bir viloyatning hokimi va yo qurlarning boshi erdi. Hech qaysisini bilgulik muayyan sen hokim bo‘l teb ta’yin qilmay yuborib erdi. Ul sababdin viloyatning amaloti va hosili turkman qo‘linda turdi.


Biz Xevaqni Oroldin otlanib kelib ko‘p chobduq. Bu voqeotdin besh oy o‘tgan so‘ng Nodir Muhammadxon Xisrav sulton otli o‘g‘lining o‘g‘li Qosim sulton teganni Xevaqg‘a yubordi. Ul ham Xevaqning amalot va mahsulina hech dal qilmadi. Burunqidek turkman qo‘linda turdi. Qosim sulton keldi teb eshitkandin so‘ng faqir Oroldin otlanib kecha yurub namoz vaqti Xevaqning darvozasining og‘zinda Gandumkon tegan kendina kelib chopo‘g‘il yubordim. Taqi aytdim, Toshko‘prikdan nari ketganingiz Xonqohda suv labinda Oroldin kema kelturib erduk, kema turgan yerga yig‘iling teb aytdim. Chopo‘g‘il ketdi. Qatimda meni qarab yuz yaxshi kishi qoldi. Ot yetgan sadaqsiz yosh o‘g‘lon va yo yovg‘a zarari tegmas, qari va qo‘shdaqi nari-berini saqlamak uchun chopo‘g‘ilning keyinindin bora erduk, Xevaqdin yov chiqdi. Xevaqg‘a kelgan ulug‘ ariqning shimol tarafinda biz yurduk. Qibla tarafindin yov yurdi. Yov yetmasdin ilgari ulug‘ ariqlar o‘tub yovg‘a qarshi yurib

yasaduq. Bizning yaxshi yomonimiz uch yuz kishi yuz yigirmasi sadaqlini yaravul, yigirma sadaqlini o‘n yasovning oldinda qo‘ydim. Yigirma sadaqlini so‘l yasovning oldinda qo‘ydim. Munlardin boshqa yigirma besh miltiqchimiz bor erdi, o‘tkan ulug‘ ariqo‘n qo‘linda bo‘ldi. Miltiqchilarni ρiyoda qilduq. Onlar borib bizning birlan barobar turdilar. Biz yasab bo‘ldik. Ul vaqtda yov yetishdi. Bizday bo‘lak-bo‘lak yasamadi. Ρiyoda tushmadi. Ko‘ρlikina orqa berdi. Bir bo‘lak qaz qanati yasab keldi. Taqi turdi. Qorasi ming bor. Ammo yetti yuz-sakkiz yuz sovutli va qo‘yoqli va chahoroyna va dubulg‘a va butlug‘ va tezlik ko‘zindin o‘zga ochiq yer yo‘q. Shundaq kishisi bor. Bizda besh sovutli kishi bor. Ul besh yigit bizning erovulga choρti. Toyma bahodir toyma teb qichqirib bizning bir ikki yigit birlan sanchishib qaytdi.

Ul qaytib yerina bormasdin burun o‘n besh kishi choρdi. Bizning erovul ani-da qaytardi. Ul qaytib yerina borg‘anda yuz kishi choρti. Ul yetmasdin burun bizning erovul qochti. Taqi ρiyoda ichiga kirdi. Ρiyodaning oldi men erdim. O‘rgatib qo‘yib erdim, o‘zga ρiyodalarg‘a bir ko‘zingiz yovda bo‘lsa, bir ko‘zingiz menda bo‘lsun teb.

Yov o‘ttiz qadam yerga kelguncha o‘lturdim. Andin so‘ng tura kelib kelgan kishilarni o‘qg‘a tutduq. Shul vaqtda ariq ichinda yotqan bizning miltiqchining bir nechasi bizga choρqan yovni otquladi, va bir nechasi yasovini bizga choρqon yov aralasha bilmadi. Tutduq, shabog‘a qocha berdi. Keyinindin ohista-ohista yururduk. O‘ng buyranchi, so‘l buyranchi, erovul barchasi mening oldimga keldilar. Biz ρiyoda yuruduk. Tug‘ini ariq ichindagi miltiqchi miltiqg‘a tutdi.

Biz otli va ρiyoda o‘qg‘a tutduq. Yasov terina boshladi. Yana bir o‘n qadam yurugandin so‘ng buzulub yuriy berdi, bizda otli borg‘uncha qarab turduq. Taqi andin otlanib Toshko‘ρrik kelduk. Tur tegan yerda bir alamon yo‘q. Andin suv labina kema turgan yerga kelduk. Alamonning barchasi o‘ljasi birlan yig‘ilib turur va bir nechasi et ρishurub yeb o‘lturur. Xoni va oqsoqollari ko‘nglinda va o‘q. Ul kun suv labinda yotduq. Sabo suvdin o‘tub, bir necha kundin so‘ng evga borduq.



TURDI FAROG‘IY
(1640—1699)

Turdi Farog‘iyning hayoti va ijodi haqidagi ma’lumotlar, asosan, o‘z asarlaridir. U Buxoroda yashab ijod etgan. Uning tug‘lgan yili haqidagi aniq ma’lumotlar saqlanmagan. Biroq ashtarxoniylardan Nodir Muhammad (1642—1645) hamda uning o‘g‘illari Abdulaziz (1645—1680) va Subxonqulixon (1681—1702) lar hukmronlik qilgan yillarda yashaganligi ma’lum. 1681- yilda Miyonko‘lda xalq hukumatga qarshi qo‘zg‘olon ko‘taradi. Turdi ham mana shu qo‘zg‘olonchilar orasida bor edi. So‘ng shoir Xo‘jand va O‘ratepa hokimi Rahimbiy otaliq panohida bo‘ladi. Rahimbiy vafot etgach, uning o‘g‘li Oqbo‘tabiy huzurida qoladi. Biroq shoir ancha moddiy qiyinchiliklar bilan yashaydi. Adibning she’rlari shundan dalolat beradi:

Qirq, yuz, ming aqrabolar ettilar mandin nufur,
Ne balo, baxti qaro-vu toleyi shumTurdiman.

Ya’ni qirq, yuz, ming urug‘larining kattalari mendan yuz o‘girdilar, ne balodirki, baxti qora, toleyi past Turdiman. Birinchi misradagi sonlar bilan bog‘liq so‘z o‘yini ham bor. Unga ko‘ra ular birgalikda «ko‘p», «barcha» degan ma’noni ham anglatadi.

Turdi ikki tilda ijod qilgan: uning o‘zbekcha asarlari qatorida tojikcha she’rlaridan ham ikkitasi bizgacha yetib kelgan. Bizga hozircha adibning 18 tagina she’ri ma’lum, xolos. Ular 5 ta muxammas, 12 ta g‘azal va bitta farddan iborat. Ulardan shoirning tiyrak va bezovta ruhini, o‘tkir qalamining ta’sirchan kuchini, nihoyatda favqulodda jasoratini ilg‘ab olish qiyin emas.

Turdi o‘zi zamondosh bo‘lgan jamiyat illatlarini qattiq tanqid qildi, bu illatlarni mamlakat va millat fojiasi sifatida talqin qildi, millatdoshlarini uning oqibatlarini tezroq va to‘laroq tasavvur qilishga undadi. Turdi adabiyotimiz tarixida satirik-tanqidiy yo‘nalishni ancha baland cho‘qqiga olib chiqqan ijodkor sifatida shuhrat qozondi.

G‘AZALLAR

(Kenglik qiling...)

Tor ko‘ngulluk beklar, man-man demang, kenglik qiling,
To‘qson ikki bovli[1] o‘zbak yurtidur, tenglik qiling.

Birni Qipchoq-u Xitoy-u birni Yuz, Nayman demang,
Qirq-u Yuz, Ming[2] son bo‘lub bir jon oyinlik qiling.

Bir yaqodin bosh chiqorib, barcha bir to‘ng‘a kirib,
Bir o‘ngurluk, bir tirizlik, bir yaqo, yenglik[3] qiling.

Kim qo‘yubdur, uhdayi o‘z mulkungizdin chiqmayin,
Ikki, uch, to‘rt da’visin etmakni, ko‘tahlik[4] qiling.

Mardlar maydon chekib, rangin[5] ko‘torib zaxmlar,
Sizga yo‘q ul javhare yuzga upo-englik qiling.

(Bir sari azm ayla, joyi nomusulmondur bu mulk...)

Bir sari azm ayla, joyi nomusulmondur bu mulk,
Fitnayi avboshi[6] zulm-u kufr-u tug‘yondur bu mulk.

Bir kalima hurmatidin lek islom oti bor,
Mutlaqo kirdori[7] xayli kofiristondur bu mulk.

---

[1] *bovli* — boylam, dasta

[2] *Qipchoq, Xitoy, Yuz, Nayman, Qirq, Yuz, Ming* — o‘zbek urug‘lari nomlari

[3] *yaqo, yeng* — to‘nning qismlari

[4] *ko‘tah* — kalta, qisqa

[5] *rangin* — alvon, qizil

[6] *avbosh* — bebosh

[7] *kirdor* — qilg‘iliq, ish

Durahd-u[1] tangchashm-u besar-u ya'jujvash,
Muxtalif mazhab[2], guruhi o'zbakistondur bu mulk.

Naqdi jon bersang, topilmas, istasang, bir zarra aysh,
Mehnat-u anduhni[3] so'rsang, farovondur bu mulk.

Joyi islom-u musulmonlig', Farog'iy, istama,
Poytaxti kishvari Subxonqulixondur bu mulk[4].

(Boshima bir ko'hi g'am...)

Boshima bir ko'hi g'am bir ot koh-u[5] yemidin,
Bir ko'ngul yuz pora yo'qluq za'fi, vahm-u biymidin[6].

Qad bukub, bo'ynum egib, tegdi ayoqlarg'a boshim,
Ahli dunyo poybo'si[7] xizmat-u ta'zimidin.

Dil — kabobim, qon — sharobim, ashki hasrat — nuqli bazm,
Yetdi qassomi azalning[8] xidmati tan'imidin.

(Turdiman...)

Qatrayam nochiz[9], ammo zoti qulzum[10] Turdiman,
Kelturan amvojg'a[11] bahri[12] talotum[13] Turdiman.

---

[1] *durahd* — ahdiga amal qilmaydigan
[2] *muxtalifmazhab* — xilma-xil aqidaga mansub
[3] *anduh* — g'am
[4] *mulk* — mamlakat
[5] *koh* — somon
[6] *biym* — qo'rquv
[7] *poybo'si* — so'zma-so'z: oyoqdan bo'sa olish, m a j o z a n: xushomad, ta'zim ma'nolarida
[8] *qassomi azal* — taqdirni belgilovchi, taqsimlovchi
[9] *nochiz* — arzimas
[10] *qulzum* — dengiz
[11] *amvoj* — mavjlar, to'lqinlar
[12] *bahr* — dengiz
[13] *talotum* — po'rtana

Qirq, Yuz, Ming aqrabolar[1] etdilar mandin nufur[2],
Ne balo baxti qaro-yu toleyi shum Turdiman.

Rishtadek[3] ming ρech-u tob[4] jismi so‘zondin[5] o‘tar,
Bovujudi e’tibori chashmi mardum Turdiman.

MUXAMMAS

Muxammasi turki dar viloyati Xo‘jandi Jubrandi va Suprandi noma dar asri Oqbo‘tabiyi shahid tahrir namud...

(Xo‘jand viloyatida, shahid Oqbo‘tabiy asrida bitilgan turkiy muhammas)

Yod mandin kim berur: yaxshi zamonlar ko‘rdiman[6],
Rind sarxayli-yu[7] xush ayshi damodam surdiman,
Halqayi ushshoqda[8] bazmi majolis[9] qurdiman,
Mushti xokam[10], davr-u davronlar(ni lekin) ko‘rdiman,
Xushdimog‘ etgan mayi sofi hariflar[11] durdiman[12].

Qilmadim shukronaye, soldurdi tufrog‘ oshima,
Qolmadi juz dard-u g‘am hamdam, musohib[13] qoshima,
Haq o‘zi rahm aylag‘ay ohi sahar, ko‘z yoshima,

---

[1] *aqrabo* — yaqinlar, qarindoshlar
[2] *nufur* — nafrat
[3] *rishta* — iρ
[4] *ρech-u tob* — buralgan, o‘ralgan
[5] *jismi so‘zon* — o‘rtanayotgan vujud
[6] *ko‘rdiman* — men ko‘rdim
[7] *rind sarxayli* — rindlar sardori
[8] *halqayi ushshoq* — oshiqlar halqasi
[9] *bazmi majolis* — ilohiy ishq bazmi
[10] *mushti xokam* —bir siqim tuproqman
[11] *harif* — do‘st, ulfat
[12] *durd* —quyqa
[13] *musohib* — suhbatdosh

Tafriqa toshini yog‘durdi zamona boshima,
Xonumon ovora, selobi havodis[1] surdiman.

Nozili[2] hukmi qazo hech kim rad-u man etmadi,
Barcha bo‘yniga solan bu rishtani qat[3] etmadi.
Ahli hole topmadim, boshdin balo daf etmadi,
Kulfati g‘urbatni tuzluk sunnati raf[4] etmadi,
Xor-u beqadramki, inson otanib, Jubrandiman.

Voqife yo‘q, bu musofirlig‘da mandin ne o‘tar,
Baski yuz ko‘yi bila ro‘ze[5] kelib, ro‘zi ketar,
O‘zmag‘ay mundin baloye, bo‘lmag‘ay mundin batar,
Aqrabolar suhbatimdin or etar, qoshin chatar[6],
Salb dillarda, nazarlarda karih[7] suprundiman.

Yaxshi vaqtlar yod etib, o‘zdin ketib, eldin qolib,
Harza[8] tifli[9] ashkdek[10] ayni nazarlardin solib,
Nosara dirham sifatliq rad qilib, qo‘lg‘a olib,
Dasta farsuda[11], yuzi qaytib, ayag‘larda qolib,
Ko‘hna tig‘i tah-batah g‘am zangi tutg‘an kundiman[12].

Oh, bu umri kiromi[13] sarfi g‘aflat ayladim,
G‘ussayi behuda asbobi nadomat ayladim,

---

[1] *havodis* — hodisalar
[2] *nozili* — ayon bo‘lish; bajo qilmoq
[3] *qat* — kesish
[4] *raf* — yuksak
[5] *ro‘z* — kun
[6] *chatar* — chimirmoq
[7] *karih* — jirkanch
[8] *harza* — behuda
[9] *tifl* — bola
[10] *ashk* — ko‘z yosh
[11] *farsuda* — eskirgan
[12] *kund* — o‘tmas
[13] *kiromi* — aziz

Bilmadim o‘z aybimi xalqqa mazammat[1] ayladim,
Shukr shahdin bilmadim, kufroni ne’mat ayladim,
Zaxmi neshi ro‘zg‘or ahlini talx-u tundiman[2].

Hukm jori, so‘z qabuli, bir duri dar go‘sh[3] edim,
Ahli davlatlar bilan yor-u harif, hamdo‘sh edim,
Hoy-u ho‘yi bazmlarda shahdi no‘sho-no‘sh[4] edim,
Xush zamonlar Yuz qazoni boshida sarjo‘sh[5] edim,
Bu zamon yavg‘on qozon ostida qolg‘on yundiman[6].

Charxi dun qildi manga javr-u jafolar behisob,
Gardishi davron berur har lahza yuz ming ρech-u tob,
Har sori yeldim-yugurdim suvsanib mavji sarob,
Tashna lab, gardi kudurat[7] zeri ρoyinda[8] xarob,
Bahri davlatdin yiroq gardanshikasta[9] mo‘ndiman.

Kasrati[10] yo‘qluq, tama kettirdi qadr-u qiymatim,
Yuz sarig‘lig‘ yerga urdi obro‘-yu izzatim,
G‘ayrdin izhori matlab ayladi dun fitratim[11],
Aql zoyil[12], umr kam, besh o‘ldi dard-u mehnatim,
Davlat urg‘an ρushti ρo, baxti (qaro suprindiman).

---

[1] *mazammat* — uyaltirish, kulgi qilish
[2] *talx-u tundi* — achchiq
[3] *dar go‘sh* — quloqda
[4] *no‘sho-no‘sh* — siρqoruvchi, ichuvchi
[5] *sarjo‘sh* — sara, shoir bir ρaytlar Yuz urug‘ining oqsoqoli bo‘lganligini xotirlamoqda
[6] *yundi* — yuvindi
[7] *kudurat* — g‘am
[8] *zeri ρoy* — oyoqosti
[9] *gardanshikasta* — bo‘yni egik
[10] *kasrat* — mo‘llik
[11] *fitrat* — tug‘ma tabiat
[12] *zoyil* — so‘nish

Man kimamʔ Gumnom-u[1] nokom-u[2] jahon ovoraye,
Diyda namnoku[3] giribon chok-u[4] bag‘ri ρoraye,
Noqabuli marham-u nosur[5], bitmas yoraye,
Bekase, mushti xase, bir bandayi bechoraye,
Sobiram, rozi qazo, tiyri balog‘a[6] ko‘ndiman.

Xeshman, darvish-u miskin, mustahiq[7] devonadin,
Bahramand et iltifot-u himmati mardonadin,
San turub loyiqmidur qilmoq tama begonadin,
Qiblagoho, mandin ikroh[8] etma bir mayxonadin,
Jo‘sh bir xum sof maysan, man g‘ubor-u durdiman.

Yuz farozidin[9] ozib, tushdum nishebi[10] qirqqa,
Xavf-u biym-u vahm arosinda qaribi[11] qirqqa,
Dona deb ρobast[12] o‘lub, domi[13] g‘aribi qirqqa,
Voy, yuz ming voy, yuz bo‘ldim firibi qirqqa,
Hokimi Dizzax[14] muteyi ρayravi jurqundiman.

---

[1] *gumnom* — nom-nishonsiz
[2] *nokom* — nochor, baxtsiz
[5] *diyda namnok* — ko‘zi yoshli
[4] *giribon chok* —yoqasi vayron
[5] *nosur* — bitmaydigan yara
[6] *tiyri balo* — baloning o‘qi
[7] *mustahiq* — loyiq
[8] *ikroh* — jirkanish
[9] *faroz* — balandlik
[10] *nisheb* — ρastlik
[11] *qarib* — yaqin
[12] *ρobast* — oyog‘i bog‘lanmoq
[113] *dom* — tuzoq
[14] *Dizzax* — Jizzax



SO‘FI OLLOYOR
(1634–1721)

So‘fi Olloyor o‘zbek xalqining o‘tarchi urug‘iga mansub edi:

Garchi Olloyor o‘tarchidir, erur ul ham yomon,
Oning ham qadri o‘tar bir nechaga o‘lgan zamon.

So‘fi Olloyorning hayoti oson kechgan emas. U hayotning ko‘plab qiyinchiliklariga, taqdirning sonsiz-sanoqsiz sinovlariga duch keladi. To‘ng‘ich o‘g‘lining bevaqt vafoti, akasi Farhodbiyning Buxoro hukmdori Abulfayzxon qo‘lida katta amaldorlardan biri bo‘lishiga qaramay, qatl etilishi ana shunday og‘ir sinovlardan edi.

Adib ikki tilda — o‘zbek va fors-tojik tillarida asarlar yozgan. «Maslak ul-muttaqiyn» («Taqvodorlar maslagi») fors-tojik tilida yozilgan. Adib ayni shu g‘oyalarni turkiy tilda yoritish zaruratini sezganligi uchun ham asarni «Sabot ul-ojizin» («Ojizlar saboti») nomi bilan boshqatdan yaratadi. Uning «Maxzan ul-muteyin» va «Murod ul-orifin» asarlari ham mavjud.

«Maslak ul-muttaqiyn» fiqh, shariat ahkomlari, ma’naviyat, axloq qoidalari haqida bahs yuritadi. Asar forsiy til bilan she’riy shaklda — masnaviy tarzida yozilgan. Uning umumiy hajmi o‘n ikki ming baytdan ko‘proqdir. Qiyoslash uchun eslatish mumkinki, Yusuf Xos Hojibning «Qutadg‘u bilig» asari 6500 baytdan ortiqroq edi.

So‘fi Olloyor asarlaridagi asosiy g‘oya diniy-tasavvufiy, ma’rifiy fikr va e’tiqodni omma orasiga tarqatishdan, yoyishdan iborat edi. Bu maqsad yo‘lida u turkiy til imkoniyatlaridan juda unumli

foydalandi. Bu yo‘lda unga Ahmad Yassaviy hamda Sulaymon Boqirg‘oniylar tajribasi juda qo‘l keldi.

«SABOT UL-OJIZIN»DAN
Har bir ishda bir yetuk ustoz istamakning bayoni

Kel, ey tolib, bu dundin[1] yuz o‘girsang,
Tariqi ka’bayi maqsudga yursang.

Qadam qo‘ysang agar bul vodiyg‘a[2],
Qo‘lingni topshir avval hodiyg‘a .

Ajab yo‘ldir aning poyoni yo‘qdir,
Xatarlik yerlarni soni yo‘qdir.

Talab qilg‘on o‘shal rohi adamda,
Halokat chohidur har bir qadamda.

Ajab yo‘ldir tamomi mehnat-u ranj,
Va lekin har qarichda bir nihon ganj.

O‘shal ganji nihon yotqon zaminda,
Muhayyodur qaroqchilar kaminda[3] .

Agar bo‘lmasa yo‘l boshlog‘uchi pir,
Solur bo‘yniga Shayton domi tazvir.

Agar bo‘lmasa bir sohib karomat,
Emas mumkin kishi yetgay salomat.

Qachon har pir bilur qutlug‘ yo‘lingni,
Tanib er yaxshisin topshir qo‘lingni.

O‘shal piriki erning eri bo‘lg‘ay,
Tariqat peshasining sheri bo‘lg‘ay.

---

[1] *bu dun* — bu yerda so‘z o‘yini bor: bu yaramas dunyo hamda xalq, ko‘pchilik.
[2] *hodiy* — to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatuvchi
[3] *kamin* — pana, xilvat joy

Taxalluf[1] qilmasa hech shar ishidin,
Tamalik bo‘lmasa hargiz kishidin.

Olib qo‘lg‘a charog‘i ilmi zohir,
Ulumi botinida bo‘lsa mohir...

Qayu ermish fano bo‘lg‘on nishoni,
Takabbur bo‘lmasa miqdori doni.

Kishi o‘z nafsini gar bilmasa ρok,
Bo‘lib qulluqda aytsa “mo abadnok”.

Agarchi bo‘lmasa forig‘ ishidin,
O‘zin kam tutsa har mo‘min kishidin.

Eshitmasa kishi hech man degonin,
O‘zi ham bilmasa foniy ekonin.

O‘zi aytsa fano bo‘ldum, emasdur,
Fano bo‘lg‘on kishi hargiz demasdur.

O‘zining boshini sotsa o‘zi qul,
Qachon oqil kishi bergay anga ρul...

O‘zin ayg‘on kishi albattadur xom,
Viloyat taxtig‘a bosqon emas gom[2].

Agarchi har kecha ko‘k bo‘lsa tavfi[3],
Burung‘iydin ziyoda bo‘lsa xavfi.

Mabodo g‘irrayi[4] tushsa ko‘ngulg‘a,
Bu g‘irra boshlasa ofatli yo‘lg‘a.

Bo‘lur holatlik er albatta xomush,
Agar yetmasa may hech qilmag‘ay jo‘sh.

---

[1] *taxalluf* — ixtilof, nomuvofiqlik
[2] *gom* — qadam, odim
[3] *tavf* — aylanish, ziyorat
[4] *g‘irra* — g‘ulg‘ula

Ko‘tarmas un viloyatlik xiradmand[1],
Sado chiqmas u naydin bog‘lasa qand,

Demak har kimga asrori haqoyiq,
Agar topilsa ganj ixfosi[2] loyiq.

Kishi uchg‘on bilan so‘yi samovot[3],
Tavarru[4] qilmayin bo‘lmas kamolot.

Valiy uldur chiqarsa mosivoni,
Havodindur talab qilmoq havoni.

Nabiy tabiyyatidur rishtayi xubb,
Vara[5] qilmoq kamolot-u taharrub[6].

Agar fildek erur, manhiy vagar qil,
Vara as’hobi ayturlar hazar qil.

Agarchi ko‘ρ erur jud-u[7] sujudi,
Ko‘rinmas zarracha orif vujudi.

Agarchi zohir-u botin desa dars,
Saqar[8] oldida turgondek qilur tars.

Rasulullohning amrin qo‘yma zinhor,
Shayotin shattalar ayrilsang, ey yor.

Nabiyning amriga qilsang itoat,
Saodatdur, saodatdur, saodat.

Gadoyi ko‘chayi dargohi bo‘lsang,
Umiddur mulki dilni shohi bo‘lsang...

---

[1] *xiradmand* — aqlli, dono
[2] *ixfo* — yashirish, sir tutish
[3] *samovot* — samolar, osmonlar
[4] *tavarru* — ρarhez qilish, tiyilish
[5] *vara* — man qilingan ishlardan chekinish, ρarhezkorlik
[6] *taharrub* — yaqinlashish
[7] *jud* — in’om, ehson; saxiylik, qo‘li ochiqlik
[8] *saqar* — do‘zax

Kishi qilsa xilofi hukmi shar'iy,
Ani jinni degil yo mardi sar'iy.

Agar suv ustida yursa o'shal kas[1],
Degil chandon bo'lur suv ustida xas...

Kerak ko'ρ tolib ichra bir nek-u roy,
Yoritmas muncha yulduz bo'lmasa oy.

Uluv himmat yigitlarga kerak ρir,
Kamonsiz uchmagay ko'ρ bo'lsa ham tir.

O'shal jundiyki xarb olotin osar,
Agar bosar yurusa yovni bosar.

Sog' aytar telbani ρiri zabardast,
Quyunning sho'rishin daryo etar ρast.

Tushib shoh ilgina bozi qochar boz,
Bo'lur zog'larga bozi, ey sarafroz.

Bu ta'riflarga sodiq bo'lsa raying,
Va lekin bo'lmasa ravshan zamiring.

Erur nuqson o'zingdin, ko'rma kimdin,
Bo'lur sa'y, albatta, mo'min degondin.

Rasul farmonidan qilsang taxalluf,
Taassufdur, taassufdur, taassuf.

Sharobi muhabbatni ρiri komildan ichmak kerak

Kel, ey soqiy, ikovlon aylali shurb[2],
O'shal shurbiki xalq andin toρar qurb[3].

---

[1] *kas* — kishi, shaxs, kimsa
[2] *shurb* — ichish, ichmoq
[3] *qurb* — yaqinlik, yaqin bolish

Sharobe berki dil andin bo‘lur sahv[1],
Qilur bir muddaodin o‘zgani mahv.

Agar Fag‘furi Chindur, Qaysari Rum,
Muhabbat ahlini oldida ma’dum[2].

Muhabbat jomidin topsa kishi bahr,
Na qilsun mulki moli Movarounnahr.

Ko‘ngil mulkiga bir oliy sifatdur,
Muhabbat ganji bog‘i ma’rifatdur.

Rizoyi hazrati ma’bud o‘shanda,
Jamiyi istagon maqsud o‘shanda.

Aningdek mulkni sultoni bo‘lsang,
Na hojat yer yuzini xoni bo‘lsang..

Nachukkim zarracha xas tushsa ko‘zga,
Qilur albatta ko‘rmaklikni o‘zga.

Qazog‘a rozi va balog‘a sabrli bo‘lmoqning bayoni

Kel, ey soqiy, muhabbat jomidin may,
Xaridor ilgina bergil payopay.

Xaridor ul erur juz niyyati fard,
Ko‘ngil ko‘ylokina yuqtirmagay gard.

Qayu holatda bo‘lsa erta-yu kech,
Xilofi hukmi mahbub etmagay hech.

Bu yo‘lning barchasin tay qilgon erlar,
Rizo bermak maqom a’losi derlar.

---

[1] *sahv* — xato, yanglish; unutish
[2] *ma’dum* — mavjud emas, yo‘q, yo‘q bo‘lgan

Agar boshida yursa osiyo sang[1],
Rizo jo‘yanda hargiz bo‘lmag‘ay tang.

Agar har kunda ichsa zahr ayog‘in,
Suyuklik bandasi chatmas qabog‘in.

Kishikim rozilik nominda bo‘lsa,
Qilur shukr ajdaho kominda bo‘lsa.

Rizo ayvonida toƿg‘on kishi jo,
Demas vo bobi ofat bo‘lsa ham vo.

Agar mag‘zi diling ayrilsa to ƿo‘st,
Yig‘ini yig‘ agar chin qulsan, ey do‘st.

So‘lar g‘am tushsa ham ozoda erga,
O‘char o‘t tushsa chandin xoli yerga.

Xudo amrig‘a oqil g‘am yemasdur,
Demas gardun qilur gar dun emasdur.

Aning hukmig‘a har kim bo‘lsa mamnun,
Ko‘tarmas un agar boshin qilur un.

Bu tog‘qa sursalar tashlab u tog‘din,
Sanodin o‘zga chiqmas aqli sog‘din...

Qayu holat bilan jon bo‘lsa tanda,
Bo‘lar shokir hamisha rozi banda.

Ulug‘ yo‘ldin adashqon necha beaql,
Qilur erlardin ul yolg‘onchilar naql.

Kishikim oshiqi diydori haqdur,
Muhabbat ahli birlan ham sabaqdur.

Na hojat o‘zgacha toatlar andin,
Bo‘lur yuzi qaro mundog‘ degondin.

---

[1] *osiyo sang* — tegirmon toshi

Buyurg‘onig‘a har kim bo‘lsa munkir,
Gumon yo‘qdur bo‘lur albatta kofir.

O‘shal xalqiki ko‘ρ beaql emishlar,
Xudoning dushmanin oshiq demishlar.

Dil-u jon birla bo‘lg‘on oshiqi zor,
Xilofi hukm qilmas zarrayi kor.

Buyurg‘on ishlarin shodi-yu g‘amda,
Qilur birdek farog‘atda, alamda.

Agar to‘ldirsalar yerni yuzini,
Qizil tillo bilan solmas ko‘zini.

Balo o‘qi qadalsa urmag‘ay oh,
Qilich boshig‘a kelsa buzmag‘ay roh[1].

Kishikim qilsa oshiqlikni lofin,
Qilurmu hech ma’shuqin xilofin[2].

Musulmoneni yuz cho‘ρ urdi bir dun,
O‘shal ozodadin hech chiqmadi un.

Dedi bir nozire qo‘b, hokima bor,
Bu aydi ρokimim hozirdur, ey yor.

Tan-u jon barchasi amloki[3] rabdur,
Maqosid[4] istamak bizdin ajabdur.

Xotimat ul-kitob

Kel, ey Olloyor, so‘z ko‘toh[5] qilg‘il,
Belingni bog‘la azmi roh qilg‘il.

---

[1] *roh* — y o‘l
[2] *xilof* — qarshi, teskari, zid
[3] *amlok* — mulklar, yer-suvlar, kishi tasarrufidagi buyumlar
[4] *maqosid* — maqsadlar, niyatlar, muddaolar
[5] *ko‘toh* — kalta

Qaro sangdur sani asling qarosang,
Beribdursan riyo qoni bila rang.

O‘lum to‘foni bu sirni qilib fosh,
Agar ich bo‘lmasa sud aylamas tosh.

Qarib jisming qarib bo‘lding havasga,
Nachuk sharmandalik san tusli kasga.

Oqardi soch, nadomat ashkini[1] soch,
Yaqong ushla dahoni ma’zirat och.

Yoling og‘i asar qilmadi hola,
Uyola yur boqib har dam u yola.

Havo birlon tuzuk ish qilmading hech,
Bo‘lubdur kech, havas bozoridin kech.

Sango aydi o‘shal ɒiri kuhansol,
Agar qol ahlida toɒilmasa hol.

Amalkim aylag‘oy o‘z holi birlon,
Qolur izzat va hurmat oli birlon.

Bo‘lur ortuq havas birlon havosi,
Erur hol ushbu illatning davosi.

Qalam qilding qaro, ko‘nglungni qil oq,
O‘shal erning so‘zin halqa qilib toq.

O‘zung qilmoy ko‘ngil bozorini tay,
Kishiga so‘zlamak to chand-u tokay[2].

Agar bo‘lsa ko‘ngilning ixtiyori,
Na bo‘lg‘oy qolsa mandin yodgori.

---

[1] *ashk-* ko‘z yoshi
[2] *to chand-u tokay* — qancha va qachongacha

Bitibsan forsiy tilda kitobi,
Tamom anda masoilning javobi.

Hama fatvo-vu taqvoning bayoni,
O‘n ikki mingdin ortuq bayti oni.

Deding shayi qalili turkiy tildin,
Kech emdi albatta bu qol-u qildin.

Agarchi yaxshi so‘z qand-u shakardur,
Xatosidin vale xavf-u xatardur.

Xatosi bo‘lmag‘ay ayg‘on so‘zungni,
Tazarru holig‘a surgil yuzungni.

Xudog‘a nola qilg‘il erta-yu shom,
Ishingni puxta qilg‘il qolmag‘oy xom.

Hijobi mag‘firat yopqoy xatog‘a,
Sazovor aylog‘oy turluk atog‘a.



BOBORAHIM MASHRAB
(1653 – 1711)

Boborahim Mullavali o‘g‘li Mashrab mumtoz adiblarimiz orasida o‘zidan keyin alohida va takrorlanmas maktab yaratgan ulug‘ ijodkorlarimizdan biridir. Sharqda mashrabxonlik xuddi hofizxonlik, fuzuliyxonlik, navoiyxonlik, bedilxonlik singari katta shuhrat tutgan.

Mashrabning el-yurt orasidagi obro‘-e’tibori kamdan-kam ijodkorlarga nasib bo‘ladi. Uning asarlari xalq orasida «Devoni Mashrab», «Devonayi Mashrab», «Eshoni Mashrab», «Hazrati shoh Mashrab» nomlari bilan keng yoyilgan edi. Mashrab she’riyatida inson ruhiyatidagi nozik nuqtalarning, qalb evrilishlarining tasviriga katta e’tibor berilgan. Mashrabning hayoti va ijodiga oid qarashlarda xilma-xilliklar mavjud.

Uning lirik merosi bilan birga «Mabdayi nur» va «Kimyo» asarlari ham yetib kelgan. Mashrab lirikasining mavzu qamrovi juda keng. Unda olam va odamga aloqador bo‘lgan barcha mavzular qamrab olingan deyish mumkin. Ammo ularning barchasi go‘yoki ishq-muhabbat mavzusi atrofiga birlashgandek tuyuladi.

Mashrab she’riyatida insoniy fazilatlar: mehnat va mehnatkashlik tarannumi, rostgo‘ylik va haqiqatparastlikka e’tiqod, yolg‘on va riyoga nafrat ochiq sezilib turadi.

Mashrabning tasavvufona qarashlari uning she’riyatida mujassamlashgan. Ularning bosh mavzusi esa ishqdir. Ishq Mashrab she’riyatining o‘zak muammosini tashkil etadi. Mashrab g‘azallarida tasavvufga xos bo‘lgan ramz va obrazlar ko‘ρ uchraydi.

Bularning barchasi Mashrab she'riyatining juda katta ma'naviy-adabiy mohiyatga ega ekanligini ko'rsatib turadi.

Mashrab shoir sifatida o'zbek she'riyatini o'zigacha bo'lgan davrdagiga qaraganda bir necha marta yuksaltirdi. Mashrab she'riyati xalqonaligi bilan ajralib turadi. Bu xislat uning vaznida, ohanglarning qaynoqligida, tilining shiraliligida, so'zlarning tushunarli va samimiyligida, xalqona ifodalar, iboralarning ko'pligida, tasvirning aniq va ta'sirchanligida namoyon bo'ladi. Mashrab she'riyati bugungi kun kishilari, ayniqsa, yoshlar uchun ham ibrat maktabi bo'la oladi. Ularning zamiridan joy olgan yuksak insoniy fazilatlar tarannumi, ezgulik va yaxshilik targ'ibi, insonlarni ma'rifatli bo'lishga undash g'oyasi bugun ham mo'tabar va azizdir. Ularning yosh avlod qalbiga juda katta ma'rifiy, axloqiy, estetik ta'sir ko'rsatishiga shubha yo'q.

G'AZALLAR

(Har kishini dardi bo'lsa, yig'lasun yor oldida...)

Har kishini dardi bo'lsa, yig'lasun yor oldida,
Qolmasun armon yurakda, etsun izhor oldida.

Andalibi benavodek nola-yu afg'on bila,
Doimo yig'lab turarmen ayni gulzor oldida.

Mansuri Xallojdek ichirib sharobi antahur,
Charx urub, yig'lab turarmen ushbu dam dor oldida.

Har kishi bir jur'ayi no'sh aylasa bu bodadin,
Ul qiyomatda qilur arzini Jabbor oldida.

Telba Mashrab, qilmagil sirringni zohidga ayon,
Aytib-aytib yig'lagaysan oshiqi zor oldida.

(Kokulung anbardurur, jon ichida jonon qiz...)

Kokulung anbardurur, jon ichida jonon qiz,
Ko‘zlaring axtardurur, yuzi mohi tobon qiz.

Lablaring erur la’ldek, yuzlaring qizil guldek,
Barcha sengakim quldek, xizmatingga qurbon, qiz.

Tar orazing gul, soching sunbulki, tishlaring dur,
Sarvqadlig‘, qosh ko‘rung oftobi davron qiz.

Bir ko‘rib seni, jono, qolmadi mening holim,
Tang bo‘libdur ahvolim, bilmadingki, nodon qiz?

Oy yuzungni ko‘rganda, lablaringni so‘rganda,
Mashrabing bo‘lur banda, qilsang ani mehmon qiz.

(Ishqing o‘tig‘a kuygoli keldim...)

Ishqing o‘tig‘a kuygoli keldim,
Oydek yuzungni ko‘rgoli keldim.

Savdoyi ishqing tushdi boshima,
Sendin davosin so‘rgoli keldim.

Bahringga kirdim g‘avvos bo‘lay deb,
Bir durri maqsud olgoli keldim.

Mani so‘rasang, ey guluzorim,
Mahvi jamoling bo‘lgoli keldim.

Qofila ketti, manzilga yetti,
Men ham boray deb ketgoli keldim.

Soqiy, qadahni qilgil muhayyo,
Vahdat mayidin ichgoli keldim.

Rahmat eshigin Mashrabg‘a ochgil,
Ishqing ko‘yida o‘lgoli keldim.

(Bu tani xokini-yu ruhi ravonni na qilay?!)

Bu tani xokiyni-yu ruhi ravonni na qilay?!
Bo‘lmasa qoshimda jonon bu jahonni na qilay?!

Yorsiz ham bodasiz Makkaga bormoq ne kerak?!
Ibrohimdin qolg‘on ul eski do‘konni na qilay?!

Urayinmu boshima sakkiz behisht-u do‘zaxin,
Bo‘lmasa vasli menga ikki jahonni na qilay?!

Zarraye nuri quyoshdek bu jahon ichra tamom,
Oshkora bo‘lmasa sirri nihonni na qilay?!

Arshning kungurasin ustig‘a qo‘ydum oyog‘im,
Lomakondin[1] xabar oldim, bu makonni na qilay?!

Bir xudodin o‘zgasi barcha g‘alatdur, Mashrabo,
Gul agar bo‘lsa qo‘lumda, ul tikanni na qilay?!

(Chidayolmas...)

Ishq mazhabiga taqvi-yu toat chidayolmas,
Tasbih-u sano, zuhd-u ibodat chidayolmas.

Kim ko‘rsa o‘shal dilbari ra’noni bayakbor,
Betoqat o‘lub, aysh-u farog‘at chidayolmas.

Faryod-u fig‘onlar qiladurman kecha-kunduz,
Hayratda qolib qad ila qomat chidayolmas.

Adham[2] sifati kirsa kishi faqr yo‘lig‘a,
Osoyish ila xayr-u saxovat chidayolmas.

Arbobi muhabbatg‘a bitibon kelsa sanamdin,
Aqli ketar-u, sabr-u qanoat chidayolmas.

---

[1] *lomakon* — makonsiz
[2] mashhur Ibrohim ibn Adham (VII asr) ko‘zda tutiladi

Ey zohid, agar ko‘rsang o‘shal mah liqoni[1],
Zuhd-u[2] vara-yu[3] kashf-u karomat chidayolmas.

Devona qilur ishq-u sanam vasli chu Majnun,
Nomus-u hayo, ayb-u qabohat chidayolmas.

Kim jomi muhabbat mayidin jur’a-yi[4] ichsa,
Shoh-u hasham-u izzat-u rohat chidayolmas.

Mashrab, kelibon ko‘ngul ila xayr-u saxo qil,
Ishq mazhabida obi tahorat chidayolmas.

(Ko‘rdum yuzungni— devona bo‘ldum…)

Ko‘rdum yuzungni —devona bo‘ldum,
Aql-u hushimdan begona bo‘ldum.

Tortib jafoni o‘lsam ko‘yingda,
Qaytmasman hargiz — mardona bo‘ldum.

Bo‘lub jahonda rasvoyi olam,
Yaxshi-yamonga afsona bo‘ldum.

Kavsar sharobi yodimg‘a kelmas,
La’li labingdin mastona bo‘ldum.

Yumdum ko‘zumni sendin bo‘lakdin,
Kechdim baridin, rindona bo‘ldum.

Ko‘rdum tushumda shami jamoling,
Charx urub ondin parvona bo‘ldum.

Ishqing mayiga sundi bu jismim,
Ham soqi-yu ham paymona bo‘ldum.

---

[1] *liqo*— yuz
[2] *zuhd* — dunyodan voz kechish, taqvodorlik
[3] *vara* — parhezkorlik
[4] *jur’a* — qultum

Bir qatra erdim, cho‘mdum dengizga,
Kirdim sadafga durdona bo‘ldum.

Kuydurmasa o‘t, bo‘lmas yag‘och cho‘g‘,
Ishq o‘ti birlan hamxona bo‘ldum.

Bo‘ldum fano men tufrog‘ ichinda,
Bir dona erdim, ming dona bo‘ldum.

Ul yuz o‘tida bud bo‘ldi nobud,
Jon jong‘a kirdi, jonona bo‘ldum.

Tegdi ko‘zingdin har damda ming tiyr,
Avval edim dasht, gulxona bo‘ldum.

Bir necha yildur yordin judoman,
Bilmay o‘zumni hayrona bo‘ldum.

Kuymas, dedilar, ma’murayi ganj,
Obod edim men, vayrona bo‘ldum.

Mashrabga may sun mayxona ichra,
Kechtim baridin, rindona bo‘ldum.

(Dunyog‘a kelib...)

Dunyog‘a kelib loyig‘a bilmay bota qoldim,
Darmon yo‘qidin zahri balosin yuta qoldim.

Ko‘rdum men oni dushmani ruhi tan ekandur,
«Lo» o‘qi[1] bila ikki ko‘ziga ota qoldim.

Mayxonag‘a kirdim, bila qoldim kuyarimni,
Masjidg‘a kirib, zohidi yaxdek qota qoldim.

Zohid, menga bir shishada may, senga namozing,
Ming taqvini bir kosayi mayg‘a sota qoldim...

[1] «*Lo*» *o‘qi* — «lo» yo‘q demakdir, ishora o‘qi inkor etish ma’nosini anglatadi

Vahdat mayini[1] ρiri mug‘on ilgidin ichtim,
Mansur[2] kibi dorg‘a boshimni osa qoldim.

Bu telbaligim shuhrati olamg‘a to‘lubdur,
Bir jilvasig‘a ikki jahondin o‘ta qoldim.

Ayb aylamangiz Mashrabi bexudni, yoronlar,
Naylayki, bu g‘urbat ko‘chasidin o‘ta qoldim.

(Nogoh ko‘rubon...)

Nogoh ko‘rubon mahvi jamoling bo‘la qoldim,
Oydek yuzingga boqtim-u hayron bo‘la qoldim.

O‘tdek tutashib kuydi yurogim bila jonim,
Ρarvona bo‘lub, o‘tqa o‘zumni ura qoldim.

Yuz g‘amza bila chiqti sanam maykadasidin,
Zunnor uzub, din ila imon sota qoldim.

Ko‘rdimki, ajab ishvagar-u dilbari tannoz,
Devona bo‘lub, ishqida o‘tdek yona qoldim.

Diydori jamolini ko‘rub, ishq yo‘lida,
Gul-gul yonibon mahvi tamosho bo‘la qoldim...

Hojat emas Ka’bayi jononaga bormoq,
Men gavhari maqsud bo‘layin deb yona qoldim.

Mashrab boshig‘a tushdi o‘shal kun g‘ami dildor,
Shaydosi bo‘lub jumla havasdin qola qoldim.

(Oromi jonim qaydasan?)

Ey meni nozik nihol oromi jonim, qaydasan?
Bu ko‘ngul bo‘stonida g‘uncha dahonim, qaydasan?

---

[1] *vahdat mayi* — birlik mayi, Olloh bilan birlashish timsoli
[2] *Mansur* — Mansur Xalloj (X asr)

Necha kundur bu ko‘ngul mushtoqi diydoring erur,
O‘rgulay, ey dilbari shirin zabonim, qaydasan?

Ayrilib men yordin bir necha kun bo‘ldum judo,
Axtarib keldim seni, oromi jonim, qaydasan?

Holimiz behad yomondur, kelmasang holim so‘rab,
Ey meni xush mehribon, ruhi ravonim, qaydasan?

Ko‘zlarim giryon bo‘lub qoldim bu g‘am sahrosiga,
Hasratingda chiqdi bu oh-u fig‘onim, qaydasan?

Tashna labdur Mashrabing, chunkim yurak-bag‘ri kabob,
Furqatingda, ey meni, sarvi ravonim, qaydasan?

(Tushti savdoyi muhabbat boshima…)

Tushdi savdoyi muhabbat boshima,
Or etar mardum kelurg‘a qoshima.

Vah, muhabbat ko‘yida qon yig‘ladim,
Yetti iqlim g‘arq bo‘ldi yoshima.

Sajda aylar zohid ul mehrob aro,
Men qilurman sajda egma qoshima.

Muhtasib to‘kturdi soqiy bodasin,
Yetmadi aqli meni sirdoshima.

Kunda yuz ming jabr qilsang, o‘rgulay,
Qo‘y qarab g‘am yukini bardoshima.

Mashrabi devonani hayron etib,
Ne sababdin kelmading bir qoshima?

(Mashrabman…)

Sanamning shavqida tinmay yurub ovvora Mashrabman,
Ko‘zi yoshlig‘, qadi xamlig‘, dili sadpora Mashrabman.

Ko‘ngulda zarracha dunyoni mehri bo‘lmayin menda,
Seni deb ikki olamdin kechib, bezora Mashrabman.

O‘lub ketsam, sening darding so‘ngaktin ketmagay aslo,
Lahad ichra fig‘on aylab, o‘zum bechora Mashrabman.

Anodin qay kuni tug‘dum, sening ishqingda oh urdum,
Muhabbat dog‘ida o‘rtab, o‘zum sayyora Mashrabman.

Muhabbat jomidin may tuttilar, ichmasga choram yo‘q,
Ko‘zumdin qon yoshim tinmay oqar, xunbora Mashrabman.

Boshimg‘a ming balo kelsa, tilarmen vaslin, ey zohid,
Boshim kessang to‘yorim yo‘q, degan diydora Mashrabman.

Xaloyiqlar meni quvlar, yomon deb, har shahar borsam,
Ajab mardud[1], ajab mahrum, ajab sangsora Mashrabman.

O‘zumni xalq aro rasvoligimni hech kishi bilmas,
Dil-u jonim fido aylab, ajab ayyora Mashrabman.

Meni devona Mashrabg‘a muhabbatdin bayon aylang,
Namoz-u ro‘zadin forig‘ bo‘lib makkora Mashrabman.

(Biryona yig‘larman...)

Muhabbat o‘tiga bag‘rim kuyub, biryona yig‘larman.
Visolingni tilab, ey nozanim janona, yig‘larman...

Siyah zulfing menga zunnor, o‘ldum kofir ishqingda,
Bo‘lub rasvoyi olam sokini butxona yig‘larman.

Gahi bulbul dar afg‘onman, gahi chun qumri nolonman,
Gahi chug‘zi parishonman, vatan vayrona yig‘larman.

---

[1] *mardud* — rad qilingan

Ayo Laylivashim, bir g‘amzayi noz birla o‘ldurding,
Firoqing dashtida Majnun ila hamxona yig‘larman.

Na hojat menga dasht-u tog‘-u sahroni vatan qilmoq,
Agar bo‘lsa bu yo‘lda jazbayi devona yig‘larman.

Meni to‘foni hasrat qildi xamkim ul pariro‘lar,
To‘kib mijgondin obi ashki jayxunona yig‘larman.

Jamoling partavi[1] olamg‘a tushti, barcha o‘rtandi,
Kuyub, Mashrab, misoli ul pari parvona yig‘larman.

(Agar oshiqlig‘im aytsam…)

Agar oshiqlig‘im aytsam, kuyub jon-u jahon o‘rtar,
Bu ishq sirrin bayon qilsam taqi ul xonumon o‘rtar.

Kishiga ishq o‘tidin zarraye yetsa bo‘lur giryon,
Bo‘lub besabr-u betoqat, yurak-bag‘ri chunon o‘rtar.

Meni bexonumon tinmay kuyub-yondim firoqingda,
Oting tutsam, «Nigoro» — debki, zavqidin zabon o‘rtar.

Qayu til birla, ey jono, seni vasfing bayon aylay,
Tilim lol-u ko‘zum giryon, so‘ngaklarim nihon o‘rtar.

Na qattiq kun ekan, jono, visolingdin judo bo‘lmoq,
Meni ohim tutunig‘a zamin-u osmon o‘rtar.

Bu dard ila xarob o‘ldum, kelib holimni so‘rmassan,
G‘aming boshqa, alam boshqa, yurakimni fig‘on o‘rtar.

Bu Mashrab dardini, jonoki, har kim boshig‘a solma,
Agar mahsharda oh ursam, behishti jovidon[2] o‘rtar.

---

[1] *partav* — nur
[2] *jovidon* — abadiy

(Setor ila savti navo...)

Setor[1] ila savti[2] navo aylaganing xo‘b,
Xo‘blar ichida masnad-u[3] joh[4] aylaganing xo‘b.

Bir bokirayi hur-u ρari husnig‘a tarjih[5],
Ishrat samanig‘a minibon haydaganing xo‘b.

ρargor[6] bo‘lub gavhari daryoyi muhabbat,
Bir nuqtayi jon gavhar aro bog‘laganing xo‘b.

Gar bod[7] masal charx urub Mashrabi miskin,
Mastona qaro ko‘zga nigoh chekmaganing xo‘b.

(Malaksan yo bashar...)

Malaksan yo bashar[8], yo hur-u g‘ilmonsan bilib bo‘lmas,
Bu lutf-u, bu nazokat birla sendin ayrilib bo‘lmas.

Tikansiz gul, sadafsiz dur, mashaqqatsiz hunar bo‘lmas,
Riyozat[9] tortmag‘uncha yor vaslig‘a yetib bo‘lmas.

Ajab berahm dilbarsan, ajab sho‘xi sitamgarsan,
Charog‘i husni ro‘yingdin ko‘ngulni ham uzub bo‘lmas.

Yuzungni oftobini ko‘rub hayron bo‘lub qoldim,
Falakg‘a qo‘l uzotib shamsi anvarni[10] olib bo‘lmas.

Yuzung misli qizil guldur, ko‘ngul chun bulbuli shaydo,
Bu gulni ishqidin, bulbul, chamandin ayrilib bo‘lmas.

Kel, ey Mashrab, agar oshiq bo‘lubsan — bo‘lmag‘il g‘ofil,
Bu g‘aflat uyqusidin, ey yoronlar, uyg‘onib bo‘lmas.

---

[1] *setor* — musiqa asbobi
[2] *savt* — ovoz
[3] *masnad* — o‘rin, taxt
[4] *joh* — mansab, davlat
[5] *tarjih* — ustunlik
[6] *ρargor* — ρargar, sirkul
[7] *bod* — shamol
[8] *bashar* — inson
[9] *riyozat* — mashaqqat
[10] *shamsi anvar* — nur sochuvchi quyosh

(Oxir umrum o‘tti...)

Tinmayin yurdum bu g‘am dashtida hayronliq bilan,
Oxir umrum o‘tti, sad[1] afsus, nodonliq bilan.

Bir guli shodim ochilmay baxt gulistoni aro,
Hayf, umrum oqibat o‘tti ρarishonliq bilan.

Baski ilmi hol-u qolning[2] yo‘lida qilsang amal,
Ushbu mullolar bari buxl-u[3] havodorliq[4] bilan.

Necha mullo ilm o‘qub, rohi[5] shayotinni[6] toρib,
Chun ribo-vu[7] rishvani[8] yerlar xushdorliq[9] bilan.

Rost so‘z aytsang alarg‘a zarra qilmaslar qabul,
«Kufr aytting», — deb ururlar necha ozorliq bilan.

Mashrabing har bir so‘zidur gavhari qiymatbaho,
Aytma bu so‘zlarni har nokasg‘a nodonliq bilan.

(Ko‘rsat jamoling...)

Ko‘rsat jamoling mastonalarg‘a,
Ishqingda kuygan ρarvonalarg‘a.

Mendin duodur, sendin ijobat,
Jonim tasadduq jononalarg‘a.

Ey ko‘ngli qattig‘, rahm aylamaysen,
Qilg‘il nazar sen bechoralarg‘a.

Kuygan g‘aribman, shafqat qil oxir,
Ko‘yingda yurgan devonalarg‘a.

---

[1] *sad* — yuz
[2] *ilmi hol va ilmi qol* — ilm turlari
[3] *buxl* — baxillik
[4] *havodorliq* — takabburlik
[5] *roh* — yo‘l
[6] *shayotin* — shaytonlar
[7] *ribo* — ρulni foizga qo‘yish
[8] *rishva* — ρora
[9] *xushdorliq* — xursandchilik

Mashrab seni deb kechti jahondin,
Boshini qo‘yub ostonalarg‘a.

MUXAMMAS
(Kelmadi)

Va’da qildi bir kelay deb, ko‘zga uyqu kelmadi,
Telmurub yo‘lida qoldim sho‘xi badxo‘ kelmadi.
Necha keldi shum raqiblar, ul ρariro‘ kelmadi,
Dardidin o‘ldum, tabib, dardimg‘a doru kelmadi,
Men shahidi ishq bo‘ldum qatrayi suv kelmadi...

Oh-voh aylab, g‘aribliq shahrida bemorman,
Gar olur bo‘lsang jonimni ol, sanam, bezorman.
Ρardani yuzdin ko‘targil, oy yuzungga zorman,
Soqiyo, to‘lg‘incha may ber, necha kun xummorman,
Barcha majlislar guli zulfi sumanbo‘[1] kelmadi.

Tashna lab o‘ldum g‘amingdan, mehribonim, qaydasan?
Oh urub istab yurubman, jonajonim, qaydasan?
Izlasam yo‘qtur makoning, lomakonim, qaydasan?
Mahrami sirrim meni, ey rozdonim, qaydasan?
Yuz tuman savdoye tushti, maslahatgo‘ kelmadi...

Ich-u toshim g‘amg‘a to‘ldi, g‘amgusorim, kelsango,
Harna qilsang, sen o‘zing qil, dilda borim, kelsango!
Jumla shohlarning ulug‘i, nomdorim, kelsango,
Marhamatlik ρodshohim, tojdorim, kelsango,
Dilni zangin ko‘rsaturga oyinaro‘ kelmadi...

Zohido, Mashrabga deding: «Masjid ichra qo‘y qadam!»
Fashidin[2] qildim ibo, hech urmadim men anga dam,
«O‘lturub mehrobda, — debdi, — xotiringni ayla jam!»
Turfa ishdurkim ko‘rung masjidga kirmish dard-u g‘am,
Necha kun zohid bo‘lub, ko‘ngulga bir «hu» kelmadi.

---

[1] *sumanbo‘* — suman hidli, xushbo‘y
[2] *fash* — sallaning ρechi



XO‘JANAZAR HUVAYDO

(Tug‘ilgan yili noma’lum — 1780—1781- yillarda vafot etgan)

Xo‘janazar Huvaydo O‘sh shahrida dunyoga kelgan. Lekin u Huvaydoyi Chimyoniy nomi bilan mashhur bo‘lgan. Otasi G‘oyibnazar So‘fi nomi bilan tanilgan.

Xo‘janazar Huvaydoning avlodlari ham badiiy ijodga moyil bo‘lishgan. Xususan, o‘g‘li Sirojiddin (Sirojiy) va nabirasi Salohiddin (Sohib) ham shoir bo‘lishgan. Sohib bobosining kitobini «Kulliyoti Huvaydo» nomi bilan Toshkentda (1908) nashr qildirgan. Adibning «Rohati dil» manzumasi, «Ibrohim Adham» dostoni ham mavjud.

Huvaydo madrasa ta‘limini to‘la egallagan. Chimyonda maktabdorlik, shuningdek, kosiblik bilan shug‘ullangan. Huvaydo lirik shoir sifatida shuhrat qozongan. She’rlarida inson tabiatidagi yaramas xislatlar qoralanib, kamtarlik, samimiylik, rostgo‘ylik, chin insoniylik ulug‘lanadi. Bularning barchasi yuksak badiiyat bilan ijro etilgani uchun Huvaydo asarlari hozir ham sevib o‘qiladi.

«ROHATI DIL»DAN

Dar bayoni kitob va ismi musannif rahimahullohu taolo

Kitobimning otidur «Rohati dil»,
Erur har er so‘zi tanbihi g‘ofil.

O‘qub yod aylangiz Ollohu akbar,
Duo aylab deyingiz, ey birodar.

Duodin sizlarga so‘zum yo‘q,
Bu dunyoda so‘zum qolg‘ay, o‘zim yo‘q.

Kaminaning oti Xo‘janazardur,
Otasining oti G‘oyibnazardur.

Nasabda O‘shi-yu, mavludi[1] Chimyon,
G‘aribi xoksori dil ƿarishon.

Ko‘ngul shahri yagona azm qildim,
Kitobim nasr edi, man nazm qildim.

Bu Chimyon shahrining ƿir-u javoni,
Tamomiysi erurlar turkixoni.

Alar garchi so‘zga benuharroq,
Dedim: «Bo‘lsa kitobim turkiy behroq[2]».

Inoyat bo‘ldi tangridin bayakbor,
Savod etdim necha manzuma nochor.

Ki har jo belgulikdir kori omiy,
Bo‘lur har korida albatta xomi.

Nechukki donishim yo‘q omiydurman.
Jiydaning mevasining xomidurman.

Buzuq bo‘lsa so‘zimni so‘kmangizlar,
Yuzumdin obi xijlat to‘kmangizlar.

Xato bo‘lsa so‘zumni o‘tkazinglar,
Negaki, omiyman, ma’zur tutinglar.

Uch qarindosh safarda ganj tovub nafs shaytonig‘a ovvora bo‘lub halok bo‘lg‘onlari

Safar qildi banogah uch birodar,
Og‘a erdi, birisi edi dodar[3].

[1] *mavlud* — tug‘ilgan
[2] *behroq* — yaxshiroq
[3] *dodar* — uka

Biri erdi ham ota ham onasi,
Ki bir tug‘ma edi ham ikkalasi.

Borar erdilar onlar so‘yi[1] sahro,
Tamosho qilubon ul cho‘l-u daryo.

Duchor o‘ldi alarg‘a yo‘lda bir ganj,
Xudo berdi dedilar bizga beranj.

Ki har kim hissasina bo‘lsa rozi,
Emasdur munda hojat bizga qozi.

Biri aytdiki taom keltiroli,
Ichib, yeb fotiha birla bo‘loli,

Barisi aytdilar bu so‘zi maqbul,
Alarni mehri dunyo ayladi go‘l.

Inisiga og‘asi amr qildi.
Aning bir ρora zar ilgiga berdi.

Tavaqquf[2] aylama emdi basur’at,
Olib kelgil dedilar bizga ne’mat.

Inisi yo‘lg‘a kirdi bo‘ldi nochor,
Borar erdi yugurub so‘yi bozor.

Og‘alari bu ganj oldida qoldi,
Alarning ko‘ngliga dunyo yugurdi.

Dedi: «Emdi iningni o‘ldurunglar,
Iki hissa qilib beg‘am olunglar».

Ikovi o‘ltururnikim kengashti,
Alar ko‘ngliga dunyo hirsi tushti.

---

[1] *so‘ y* — tomon
[2] *tavaqquf* — to‘xtamoq, jim turmoq.

Inisi o‘ltururni kor qildi.
Ρichoq arg‘amchidin tayyor qildi.

Yana dunyo yugurib unga keldi,
Aning ko‘ngliga mundog‘ fikr soldi.

Dedi, ey bachayi beaqli nodon,
Olursan emdi molni-yu sen farovon.

Ikovini bayakbor o‘lturursan,
Tamomi ganjni beg‘am olursan.

Alarni o‘lturarga qilsang angez,
Nechuk yolg‘uz ikovini o‘lturay tez.

O‘shal dam ko‘ρ xayoli ρesha qildi,
Ko‘ngilda ushbu ish andisha qildi.

Sol emdi san taomlar ichra og‘u,
Yegandin so‘ng ular bo‘lg‘ay ikov go‘[1].

Alar o‘lsa qolur bo‘lg‘ay hama ganj,
Sanga bo‘lg‘ay muyassar ganji beranj.

Taomlar ichra ul dam zahr soldi,
Alarni eltibon oldig‘a qo‘ydi.

Ani tutdi o‘shal dam ikkalasi,
Boshin kesti inisining og‘asi.

Inisin o‘lturub dil jam bo‘ldi,
Taomlarin olib oldig‘a qo‘ydi.

Taomni qildilar uldam tanovul,
Vafosiz dunyo uchun bo‘ldilar go‘l.

---

[1] *go‘* — najas, axlat

Bevafo dunyo uchun to‘ktilar qon,
Zamon o‘tmay alar ham berdilar jon.

Muningdek nechalarni o‘lturubdur,
Alarning qoni ilgini yuvubdur.

Bu dunyog‘akim sen ko‘ρ bo‘lma soyil,
Sarosar ganji dunyo zahri qotil.

Bu dunyo ganjida san bo‘lmag‘il go‘l,
Tamizing bo‘lsa dunyodin qo‘rqg‘ul.

Talab qilg‘ilki ganj beziyone,
Saning bo‘lg‘ayki umring jovidone.

Talab qil ganji ma’no, ey birodar,
Vagarna sandin avlo gav ham xar.

Kishi bo‘lmasa ma’nodin xabardor,
Oni odam dema bil naqshi devor.

Huvaydo san faqirlik ixtiyor et,
O‘zingni xalq ichinda xor-u zor et.

Xudoyo, qilmag‘il dunyo elidin,
Mani qutqar bu dushmanning qo‘lidin.

Netay ul ρirazan afsun qilibdur,
Hushim olub mani Majnun qilibdur.

Xudoyo, bo‘lmasa sandin inoyat,
Bo‘lolmasman bu dushmandin salomat.

G‘AZALLAR

(Firoq)

Oh, mani dard-u balog‘a mubtalo qilg‘on firoq,
Taxti baxtimni buzub oxir gado qilg‘on firoq.

Gavhari qiymatbaho erdim nasab bozorida,
Sindurib qadrimni naylay kambaho qilg‘on firoq.

Bulbuli shirin navodek maskanim erdi chaman,
Chug‘zdek vayronalar ichra ado qilg‘on firoq.

Man zaif bechoranikim doimo fursat bilan
Kuydurib xokistarimni zeri ρo qilg‘on firoq,

Tovusi xurram edimman to‘tilarg‘a hamnishin,
Voy netaykim, zog‘-zag‘ang‘a oshno qilg‘on firoq.

Kabki xurramdek yurushim doimo ko‘hsor edi,
Oh bu cho‘bin qafasda mubtalo qilg‘on firoq.

Gulcharor erdim, yuzum gulshandagi gullar aro,
Bevalik o‘tida rangim qahrabo qilg‘on firoq.

(O‘tdilar bu dunyodin...)


O‘tdilar bu dunyodin dilxohlar, gumrohlar,
Qolmadi dunyoda boqiy ham gado, ham shohlar.

Hasrato, ey do‘stlarim, zolim o‘limning zulmidin,
Bu qaro yer ostig‘a kirdi bori ul mohlar.

Nogahon olsa yaqongdin qo‘ymag‘ay dam urg‘ali,
Hech osig‘ qilmas sanga qilsang fig‘on-u ohlar.

G‘ofil ersang qil ibodat berma dunyog‘a ko‘ngul,
Berdi dunyog‘a ko‘ngulni aqli kam ko‘tohlar.

Dunyo hasratxona erur, ey Huvaydo, dunyodin,
Hasrat ila o‘tdilar ming-minglabo hamrohlar.



JAHON OTIN UVAYSIY
(XVIII asrning 80-yillarida tug‘ilib, XIX asrning o‘rtalarida vafot etgan)

Jahon otin Uvaysiy XVIII asrning oxiri XIX asrning birinchi yarmida yashab ijod etgan iste’dodli shoiradir. U Marg‘ilonning Childuxtaron mahallasida dunyoga kelgan.

Uni Hojixon degan kishiga turmushga berishadi, biroq u Quyoshxon ismli qizi va Muhammadxon ismli o‘g‘li bilan juda yosh beva qoladi. Qadrdon bo‘lganligi uchun Nodira uni Qo‘qonga ko‘chirib olib keladi. Uvaysiy taxminan 65 yoshlarida Marg‘ilonda vafot etadi.

Uvaysiy g‘azal, muxammas, musaddas, musamman, masnaviy, ruboiy, tuyuq, chiston, qit’a, mustazod kabi janrlarda ijod qilgan.

She’riyatining asosiy qismi sevgi-muhabbat mavzusida bitilgan. Shunga qaramay, ularda ijtimoiy ruh ham ancha kuchli ifodalangan. Ularda «zamona kulfati» «charxi bemuruvvat»dan shikoyat, «raqiblar bedodidan» bag‘rining jarohatli bo‘lganligi haqidagi shikoyatga to‘la ohanglar ustunlik qiladi.

Bular bejiz bo‘lmasdan, real hayotiy asosga ham ega. Gap shundaki, Umarxon vafot etgach (1822) taxtga uning o‘g‘li Muhammad Alixon (Ma’dalixon) o‘tiradi. U Qashqarga yurish qiladi. Mana shu yurishida ko‘plab yosh va navqiron yigitlar qatorida Uvaysiyning o‘g‘li Muhammadxon ham navkarlikka olinadi. Qizi Quyoshxon ham juda erta vafot etadi. Adibaning «Sog‘indim» radifli g‘azalida hayotning mana shunday keskin zarbalari o‘z badiiy ifodasini topgan.

G‘AZALLAR

(Sog‘indim)

Bu kun, ey do‘stlar, farzandi jononimni sog‘indim,
Gado bo‘lsam ne ayb, ul shohi davronimni sog‘indim.

Musofirman, g‘aribman, bekas-u[1] ham benavo[2] durman,
Vujudim dardg‘a to‘ldi, emdi darmonimni sog‘indim.

Tilimning zikri-yu, ko‘nglimning fikri, yaxshi farzandim,
Azizim, yolg‘izim, davlatli sultonimni sog‘indim.

Kecha-kunduz yo‘lig‘a muntazirdurman, tikarman ko‘z,
Kelib holim so‘ribon ketsa, mehmonimni sog‘indim.

Nasibin uzmadi tangri, ilojin topmag‘ay kelsa,
Onam deb bo‘lg‘usi bag‘ri qizil qonimni sog‘indim.

Qorong‘u bo‘ldi olam ko‘zima ushbu judolikdin,
Ko‘z-u ko‘nglum ziyosi mohi tobonimni[3] sog‘indim.

Mani bekas Uvaysiy, yig‘lagayman ro‘z-shab[4] tinmay,
Uyimning ziynati, ko‘z ravshani, xonimni sog‘indim.

(Uvaysiyman)

Mehnat-u alamlarga mubtalo Uvaysiyman,
Qayda dard eli bo‘lsa, oshno Uvaysiyman.

Istadim bu olamni, topmadim vafo ahlin,
Barchadin yumub ko‘zni muddao Uvaysiyman,

Uz diling taalluqdin[5], band qil xudo sori,
To degil kecha-kunduz: «Mosivo[6] Uvaysiyman!»

---

[1] *bekas* — hech kimi yo‘q
[2] *benavo* — bechora, baxtsiz
[3] *mohi tobon* — porloq oy
[4] *ro‘z-shab* — kecha-kunduz
[5] *taalluq* — bog‘langanlik
[6] *mosivo* — hech vaqosiz, yo‘qsil

Kechalar fig‘onimdin tinmadi kavokiblar[1],
Arz to samo[2] uzra mojaro Uvaysiyman.

To ko‘rib xarobotin ta’na etma, ey zohid,
Bir nafas emas xoli iqtido[3] Uvaysiyman.

Faqr borgohiga[4] qo‘ysa gar qadam har kim,
Bosh agar kerak bo‘lsa, jon fido Uvaysiyman.

Vaysiy beriyozat deb sahl[5] tutma, ey orif,
Ishq aro nihon dardi bedavo Uvaysiyman.

(Maqsudi ko‘ngul...)

Maqsudi ko‘ngul — la’li mayi nobinga[6] qulman,
Andin sochilan ul duri noyobinga qulman.

El sajda qilur masjid devorig‘a har dam,
O‘lguncha bosh omon, qoshi mehrobinga qulman.

Bilmasligim ifshosin eshitmakligim uchun
Baxtim kabi ul kokuli qullobinga[7] qulman.

Rutbangki falak toqida, ey badri[8] saodat,
Zotingga yetolmay, seni mahtobinga[9] qulman.

Bul dahr aro tush kabi umrimni kechurdim,
Nechun ochilur bilmagan ul xobinga[10] qulman.

Vaysiy bu Jahon amricha ish qildi tun-u kun,
To aydi jahon Vaysiyg‘a: «Odobinga qulman!»

---

[1] *kavokib* — yulduzlar
[2] *arz to samo* — yer, osmon
[3] *iqtido* — ergashish
[4] *borgoh* — dargoh
[5] *sahl* — oson
[6] *mayi nob* — tiniq may
[7] *kokuli qullob* — gajak soch, kokil
[8] *badr* — to‘lin oy
[9] *mahtob* — oydin
[10] *xob* — tush, uyqu

(Nozuk)

Meni rasvo qilan kimdirki, sen siyminbadan[1] nozuk,
Solan boshimg‘a savdo kimdur, ul gul ρirohan nozuk.

Xayoli kirsa ko‘nglumga chiqar dunyo-u din mehri,
Qilibdur oqibat, ey do‘stlar, ham bevatan nozuk.

Chu sabrim tirnog‘ida har kuni yuz ko‘hi g‘am qozdim,
Meni oldimdadur Farhod — ojiz, Ko‘hkan nozuk.

Qading nozuk, qoshing nozuk, ko‘zung nozuk, labing nozuk,
Tiling nozuk, so‘zung nozuk, tishing durri Adan nozuk.

Xatingdur[2] sabza rayhoniy[3], labingdur kavsar andomi,
Mijang — bo‘ston, yuzung — gul, misli gulzori chaman nozuk.

Boshingdin to ayog‘ingg‘a qarab tursam, baring nozuk,
Xususan g‘abg‘abing ostida ul zeri zaqan nozuk.

Iki nargis, iki ko‘ngul, iki tan, ikki jon birlan,
Birin biriga vasl aylab, qiloli anjuman nozuk.

Uvaysiy, o‘z-o‘zingcha, so‘zlama, tiygil zaboningni,
Mabodo kelmasun nozuk diliga so‘z garan[4] nozuk .

(Qabul etkil)

Kelibman dargahingga, shohi xo‘bonim, qabul etkil,
Bag‘ir qonim bila bul chashmi giryonim qabul etkil.

Umid aylab talab olmoqqa kirdim rohi ρokingga,
Yo‘lingda aylagan faryod-u afg‘onim qabul etkil.

---

[1] *siyminbadan* — kumushbadan
[2] *xat* — qizlar labi ustidagi tuk
[3] *sabza rayhoniy* — rayhon hidli sabza
[4] bu yerdagi «garan» so‘zi, «og‘ir», «qadrli» ma’nosidadir

Ko‘nguldin xorij o‘lmish vasl ummidi, ne aylaykim,
Muhabbat shavqi ichra dog‘i hijronim qabul etkil.

Tushubdur boshima savdoyi ishqing, ey shahanshohim,
Alam bozorida bul dardi ρinhonim qabul etkil.

O‘tubdur gavhari noyobi umrim toki g‘aflatda,
Tazarru[1] zor ilan qilg‘on ρushaymonim qabul etkil.

Tegibdur novakingdin[2] necha o‘q jismim aro ρinhon,
Shahidi ishq o‘lmoqqa oqqan qonim qabul etkil.

Uvaysiy garchi noqobil, kelibdur ostoningg‘a,
Fig‘on-u ohi so‘zonini[3], sultonim, qabul etkil.

(Ishqida)

Oh, gulruxsora jonon, xordurman ishqida,
Dil aro qon, siynasi afgordurman ishqida.

Kechalar kirdim chaman, vaqti sahar zor ayladim,
Qumri-yu ham andalibi[4] zordurman ishqida.

Xotirim tay qilsa[5] nogah nargisi ul masti xob,
Kavkabi sayyoradek bedordurman ishqida.

Mo‘rdek[6] ρomoldurmankim, salomat ahliga,
Dard ahliga bu dam sardordurman ishqida.

Aql-u, fahm-u, hush-u idrokim sazovor o‘ldikim,
Mijmari[7] bardosh ichinda nordurman[8] ishqida.

---

[1] *tazarru* — yolborish
[2] *novak* — o‘q. Yorning qarashiga ishora. Uning har bir kiρrigi o‘qqa qiyos etiladi
[3] *so‘zon* — kuygan, yongan
[4] *andalib* — bulbul
[5] *tay qilmoq* — o‘tkazmoq
[6] *mo‘r* — chumoli
[7] *mijmar* — cho‘g‘don
[8] *nor* — olov

Istasam marham ajab ermaski, sendin, ey tabib,
Dardsizlar zaxmidin bemordurman ishqida.

Soqiyo, bergil alimga[1] sog‘arekim[2], xosdin,
Sog‘inib ul sof may, xummordurman ishqida.

Gul yuzi o‘xsharmu ul gul yuziga, ey bog‘bon,
Och daring[3], ko‘rmakligim dushvordurman ishqida.

Xotirim zulfiga band-u ixtiyorim husniga,
Din ila ραyvast ul zunnordurman[4] ishqida.

Qilma, ey zohid, ko‘rub, ahvolima sen sarzanish[5],
Noz-u istig‘noli, so‘z bardordurman[6] ishqida.

Gar kishi bo‘lsa xaridori Uvaysiy ichra bor —
Ul matoyi ramzg‘a bozordurman ishqida.

(Ajab yo‘q...)

Ajab yo‘q tun-kun o‘lsam mahvashimning justujo‘yinda[7],
Xayoli Qaysdin voqif gar o‘lsang Layli so‘yinda.

Dimog‘im kokulining nakxatidin[8] mast-u mustag‘raq[9],
Ki, go‘yo yostanib ming nofaye[10] har tora mo‘yinda[11].

Qoshin vasfin tinmay matlaig‘a mumkin izlarman,
Ko‘ram, noseh-nasihatda, xaloyiq guft-u go‘yinda.

---

[1] *al* —qo‘l
[2] *sog‘ar* — qadah
[3] *dar* —eshik
[4] *zunnor* — xristianlik belbog‘i
[5] *sarzanish* — malomat
[6] *bardor* — ko‘tarish
[7] *justujo‘y* — qidirish
[8] *nakxat* — xushbo‘y hid
[9] *mustag‘raq* — g‘arq bo‘lish
[10] *nofa* — mushk
[11] *mo‘y* — soch tolasi

Falak davrinda yuv ilkingni ul maqsuddin, ey dil,
Xudo xalq aylamish bul vojgunni charx xo‘yinda.

Necha Farhod-u Majnun, necha Mansur-u Zulayhoni
Demang har yonda jamin, qasdi bir jonona ko‘yinda.

Qadidin sarv kasb etmish, ko‘zidin bog‘ aro bodom,
Ruhidin ul guli ra’no, qizil gul oni bo‘yinda.

Yozar ul husn vasfin tiyra tabidin, sabab uldur:
Ko‘rub nuri ilohiy Vaysiy mahruxsor ro‘yinda.

TARJIBAND

(Qil amon, yo rab...)

Qil amon, yo rab, aduvlar[1] mojarosidin meni,
Saqlag‘il osiy[2] bu mardumning izosidin meni,
Ser ayla lutfi sultonlar atosidin meni,
Qil judo bul baxt-u tolelar qarosidin meni,
Qutqar, ey xonim, Hasan boqqol balosidin meni,
Qilg‘on ul behuda ham jabr-u jafosidin meni.

Koshg‘ar yurti buzuldi — keldi, berdim xonumon.
Bosh suqarg‘a joy topolmay yurgan erkan bemakon,
Yaxshilik qildim, uyimga, etmadim dod-u fig‘on,
Chiqmayin joyi imomdin, ayladi bag‘rimni qon.
Qutqar, ey xonim, Hasan boqqol balosidin meni,
Qilg‘on ul behuda ham jabr-u jafosidin meni.

Ul mudarris sotti deb, soldi bu ko‘nglumga g‘ubor,
Oxiri bo‘ldi alar kori qoshingda oshkor,
Rahm etib, arzimga yetting sen, deding: «Ey Tunqator,
Yo‘q zamonimda mening zo‘rliq!» — deding, ey shahriyor,

[1] *aduv* — dushman
[2] *osiy* — gunohkor

Qutqar, ey xonim, Hasan boqqol balosidin meni,
Qilg‘on ul behuda ham jabr-u jafosidin meni.

Qozilar oldida berdim o‘n iki tillosini,
Yona besh tilloni berdim, men ρulni foydosini,
Rozi qildi qozilar, man ayladi, ig‘vosini,
Yona chiqmas joyidin, yalg‘on qilur da’vosini,
Qutqar ey xonim, Hasan boqqol balosidin meni,
Qilg‘on ul behuda ham jabr-u jafosidan meni...


CHISTONLAR

Ul na gumbazdur, eshig-u tuynugidin yo‘q nishon,
Necha gulgunρo‘sh qizlar manzil aylabdur, makonʔ
Sindirib gumbazni, qizlar holidin olsam xabar,
Yuzlariga ρarda tortilg‘on, turarlar bag‘ri qon!
(Anor)

Ul nadurkim, sabzto‘nlik[1], yoz yog‘ochning boshida,
Qish yalang‘och aylagay barcha xaloyiq qoshida.
Barcha qushlarning so‘ngoki[2] ichida,
Ul na qushdurkim, so‘ngoki toshida.
(Yong‘oq)

Ikki mahbubni ko‘rdum, bir-birisin ko‘rmagan,
Ikkisining o‘rtasiga, do‘stlar, qil sig‘magan.
(Kun va tun)

[1] *sabzto‘nlik* — yashil to‘nlik
[2] *so‘ngok* — suyak



AMIRIY
(1787—1822)

Amir Said Muhammad Umarxon — Amiriy 1787- yilda Qo‘qonda, Qo‘qon xoni Norbo‘tabiy oilasida dunyoga keldi. Bu oila o‘zbeklarning ming urug‘iga mansub edi.

Umarxon boshlang‘ich ma’lumotni saroyda — o‘z oilasida olgandan keyin, madrasada tahsil ko‘rdi, yoshlik chog‘laridanoq saroy xizmatiga jalb etiladi. 1808- yilda Norbo‘tabiy vafotidan so‘ng taxtni Umarxonning akasi Olimxon boshqarar edi. U 1808- yil ukasi Umarxonga Farg‘ona hokimligini topshiradi. Umarxonning turmush o‘rtog‘i Andijon hokimi Rahmonqulibiyning qizi Mohlaroyim (Nodira) edi. Olimxon xalq orasida «Zolimxon» nomini olgan edi. Undan norozi bo‘lgan a’yonlar Olimxon Toshkent ustiga qo‘shin tortib, poytaxtdan uzoqlashganidan foydalanib 1810- yil Umarxonni xon deb e’lon qiladilar. Olimxon o‘ldiriladi. Ana shu davrdan boshlab Umarxon umrining oxirigacha mamlakatni idora qiladi.

Umarxon Amiriy taxallusi bilan she’rlar yozgan. U o‘zbek adabiyotining eng yaxshi an’analarini davom ettiradi, xususan, Navoiy va Lutfiy ijodiga katta hurmat bilan qaraydi.

Amiriy o‘sha davr an’anasiga muvofiq o‘zbek va forstojik tillarida she’rlar yozgan. Uning devonida g‘azal, muxammas, musaddas, musamman, tuyuq, ruboiy kabi lirik janrlar mavjud.

G‘AZALLAR

(Qoshingg‘a teguzmag‘il...)

Qoshingg‘a teguzmag‘il qalamni,
Bu xat bila buzmag‘il raqamni.

Butxonalar ichra hech tarso,
Bir ko‘rmadi sen kabi sanamni.

Oshiqlaringga tarahhum[1] etgil,
Ko‘ρ aylama jabr ila sitamni.

Ko‘nglum qushi toyiri hariming[2],
Sayd etma kabutari haramni.

To bevatan o‘lmasin ko‘ngullar,
Zulfungdin ayurma ρech-u xamni[3].

Yo‘lungda g‘ubori roh bo‘ldim,
Boshimga yeturmading qadamni.

Iqlimi vafo Amiridursen,
Ey shah, bu gadog‘a qil karamni.

(Lab uyur takallumg‘a, zulfni ρarishon qil...)

Lab uyur[4] takallumg‘a, zulfni ρarishon qil,
Qand qimmatin sindur, narxi anbar arzon qil.

Husn shohisen, jono, bu hazin gadolarg‘a,
Ko‘z uchi bila boqib, xayr ayla ehson qil.

Ishq dinig‘a munkir bo‘lsa zohidi xudbin,
Ey sanam, liqo ko‘rsat, gabrni musulmon qil.

---

[1] *tarahhum* — rahm, marhamat

[2] *harim* — haram. Misraning mazmuni: Mening ko‘nglim sening haramingdagi qush

[3] *ρech-u xam* — o‘ralgan, buralgan, chuvalgan (zulfga tegishli)

[4] *uyur* — bur, och

Ehtisob[1] uchun zohid kirsa dayr[2] aro, soqiy,
Bir qadah bila oning zuhdidin[3] ρushaymon qil.

Istasang ko‘ngullarni g‘amza yoyig‘a qirbon,
Qoshlaring hilolini mohi iydi qurbon[4] qil.

Sho‘xi chashmi navxatsen[5], noz dashtida sayr et,
Gardi xoki ρoyingni surmayi g‘azolon[6]’ qil.

Yor la’lidin harfe ayladin Amir insho,
Ey ko‘ngul, bu gavharni jon ichinda ρinhon qil.

(Ul yor jafosi meni bezobita[7] etti…)

Ul yor jafosi meni bezobita etti,
Ag‘yora vafosi meni bezobita etti.

Har qahr-u itob[8] etmakig‘a sabr etar edim,
Xalq ichra izosi meni bezobita etti.

Devona ko‘ngul birla ne deb hamnafas o‘ldum,
Faryod-u navosi meni bezobita etti.

Bir sarvqad ishqida ko‘ngul muztarib[9] erdi,
Zohidni asosi[10] meni bezobita etti.

Ijod bisotida edi jam g‘uborim[11],
Ul sho‘x havosi meni bezobita etti.

---

[1] *ehtisob* — taqiqlash
[2] *dayr* — mayxona
[3] *zuhd* — toat-ibodat
[4] *iydi qurbon* — qurbon hayiti
[5] *navxat* — miyig‘ida kulgan
[6] *g‘azolon* — kiyiklar
[7] *bezobita* — tartibsiz
[8] *itob* — qiynoq, g‘azab
[9] *muztarib* — iztirobli, beqaror
[10] *aso* — hassa
[11] *g‘ubor* — g‘ashlik, dog‘, chang

Jon ichra nihon aylar edim tiyri jafosin,
Ko‘nglumni yarosi meni bezobita etti.

Bir yerda ko‘ngul zarra kibi tutmadi orom,
To mehr baqosi meni bezobita etti.

To g‘amza bila noz etib qildi tag‘ofil[1],
Mujgoni qarosi meni bezobita etti.

Ul husn amiri menga ko‘ρ qildi muruvvat,
Lekin umarosi[2] meni bezobita etti.

(Ne ko‘zlardurki, toroj etmaka xunxordurlar…)

Ne ko‘zlardurki, toroj etmaka xunxorlardurlar,
Asir etmak uchun ishq ahlig‘a makkorlardurlar.

Bahor ayyomida gul yaρrog‘i-la lolalar dog‘i,
Bu gulshan ichra husni ishqdin osorlardurlar[3].

Sabo giso‘yi anbarborini[4] kim boshqa tarqotgach,
Nazokat rishtasida go‘yo attorlardurlar.

Xamush o‘l, ey ko‘ngul, oh etmagil, sirrimni oldurma,
Ani ko‘yida yotgan men kibi ag‘yorlardurlar.

Otarlar novaki mujgon[5] ila ko‘ksumga ρaykonin[6],
Emas zaxme[7] jununim dafig‘a[8] tummorlardurlar.

---

[1] *tag‘ofil* — g‘aflatda qoldirdi
[2] *umaro* — amirlar, amaldorlar
[3] *osor* — belgilar, asarlar
[4] *anbarbor* — qoρ-qora va isli, anbar isini tarqatuvchi
[5] *novaki mujgon* — kiρrik o‘qi
[6] *ρaykon* —o‘q uchi
[7] *zaxm* — yara
[8] *junun dafi* — telbalikni daf etish

Chekib jon-u ko‘ngul bedodlar hijron jafosidin,
Amir ollig‘a borib dod etarlar zorlardurlar.

(Sabo lutf et, mengo ul yor ρayg‘omin ravon keltur...)

Sabo lutf et, mengo ul yor ρayg‘omin[1] ravon keltur,
Visoli mujdasidin[2] notavon jismimg‘a jon keltur.

Tamanno aylasang gar sham yanglig‘ suhbatorolig‘,
Tuganlar[3] birla bu mahfil[4] aro o‘tlug‘ zabon keltur.

G‘ami shamshiridin gar o‘lganimga qilmasa bovar,
Ko‘zum ρaymonasini to‘ldurub qoshig‘a qon keltur.

Tamalluq[5] birla og‘zing nuqtasidan o‘lmadim voqif,
Takallum ayla[6] menga kashfi asrori nihon[7] keltur.

Yomon ranjur erurmen bodayi la’ling xumoridin,
Iloj aylarga, ey soqiy, sharobi arg‘uvon keltur.

Agar ul sarv ra’no vaslidin xurramlig‘ istarsen,
Sirishki ol-u, ohi sard-u[8] rangi za’faron keltur.

Ko‘ngul o‘tig‘a taskin istasang, ey ishq, bir soat,
Ko‘zumdin qatra-qatra sel ashki xunfishon[9] keltur.

Amir abyotin[10], ey mutrib[11], eshitsun ko‘chak-u buzruk[12],
Nahovand-u Xuroson-u Iroq-u Isfahon keltur.

---

[1] *ρayg‘om* — xabar
[2] *mujda* — xabar, darak
[3] *tugan* — belgi, dog‘
[4] *mahfil* —joy
[5] *tamalluq* — yalinish, iltimos
[6] *takallum ayla* — so‘zla
[7] *kashfi asrori nihon* — yashirin sirni ochish
[8] *sard* — sovuq, xunuk
[9] *xunfishon* — qon sochuvchi
[10] *abyot* — baytlar
[11] *mutrib* — cholg‘uchi, qo‘shiqchi
[12] *ko‘chak-u buzruk* — kichig-u katta

(Ko‘ngul la’li tamannosi[1] bilan qon o‘ldi o‘xshaydur…)

Ko‘ngul la’li tamannosi bila qon o‘ldi o‘xshaydur,
Ko‘zim oyinadek husnungga hayron o‘ldi o‘xshaydur.

Ko‘rub oshufta[2] holi zorimi ahboblar aytur:
Giriftori kamandi[3] zulfi jonon o‘ldi o‘xshaydur.

O‘qing zaxmini ρinhon ayladim jism ichra jon birla,
Ko‘ngul ganjinasida dog‘i somon o‘ldi o‘xshaydur.

Banogo‘shida go‘shovizini[4] gavhar emas bildim,
Sharaf burjida yulduz durri g‘alton[5] o‘ldi o‘xshaydur.

Ko‘ngul afg‘onidin sho‘ri qiyomat oshkor o‘ldi,
Asiri gardishi ul chashmi fatton[6] o‘ldi o‘xshaydur.

Harimi vaslima[7] vosil etarmen[8], der edi ul sho‘x,
Bu zolim bizg‘a qilg‘on ahdi yolg‘on o‘ldi o‘xshaydur.

Fano omoda bo‘ldi[9] jismi zorim ishq dashtida,
Ko‘zum yoshin to‘kib yer uzra to‘fon o‘ldi o‘xshaydur.

Ko‘zum ganjinasidin durfishonlig‘[10] roygon[11] ketti,
Sirishki[12] shashqatorim vaqfi domon[13] o‘ldi o‘xshaydur.

---

[1] *tamanno* — orzu
[2] *oshufta* — to‘zg‘igan, savdoyi
[3] *kamand* — tuzoq, sirtmoq,
[4] *go‘shoviz* — quloqda osig‘liq, sirg‘a
[5] *durri g‘alton* — yumaloq dur
[6] *chashmi fatton* — fitnakor, maftunkor ko‘z
[7] *harimi vasl* — vasl harami
[8] *vosil etmoq* — visolga yetkizmoq
[9] *fano omoda bo‘ldi* — yo‘qolishga tayyor bo‘ldi (o‘lar holatga yetdi)
[10] *durfishonlig‘* — dur sochish, ya’ni yosh to‘kish
[11] *roygon* — tekin, yo‘ldan toρilgan
[12] *sirishk* — ko‘z yosh
[13] *domon* — etak

Amir ash'orina bo‘ldi musallam[1] gavharafshonlig‘[2],
Havoparvardai[3] ul la'li xandon o‘ldi o‘xshaydur.

(Tushti tori zulfi yuzdin ko‘nglum ichra pech-u tob...)

Tushti tori zulfi yuzdin ko‘nglum ichra pech-u tob[4],
Aylamish ko‘ksum aro siymob yanglig‘ iztirob.

Oshiqi bechorani kuydurma ko‘p hasrat bila,
G‘ayr bazmida jamoling shamidin ochma niqob.

Men nechuk savdo bilan rasvoyi olam bo‘lmayin,
Telba bo‘lg‘oy mohi ruxsoringni ko‘rsa oftob.

Ko‘p yigitni qildi piri notavon zoli falak,
Ey sumanbarlar[5], g‘animat sizga ayyomi shabob[6].

Terlagan ruxsorini ko‘rgach dedim hayrat bila,
Turfa guldurkim, chekar andin hayo boqiy gulob.

Ko‘z yoshim ko‘rding, falakdin qo‘l yuvgin, Mushtariy,
Bir nafasdin ortuq ermasdur suv ustida hubob[7].

Halqayi zulfungga osildi ko‘ngul, ey bevafo,
Go‘yo tushmush bu miskin bo‘ynig‘a mushkin tanob[8].

Ikki zulfungni banogo‘shingda[9] tebratmish sabo,
O‘ylakim ochib qanotin qor uza o‘ynar g‘urob[10].

---

[1] *musallam* — ko‘nish, tan berish, taslim bo‘lish
[2] *gavharafshon* — gavhar sochish
[3] *havoparvard* — 1. Orzumand. 2. Parvozni istovchi
[4] *pech-u tob* — to‘lg‘anish, iztirob
[5] *sumanbar* — go‘zal, oqbadan, sevgili
[6] *shabob* — yoshlik
[7] *hubob* — ko‘pik
[8] *mushkin tanob* — mushkli (isli) arqon
[9] *banogo‘sh* — quloq solinchog‘i, sirg‘asi
[10] *g‘urob* — qora qush

Sen ρarini manzili vayron kerak, yo chashmalar
Maskan etgan ko‘z ila ko‘nglumda qilmay ijtinob[1].

Ul ρari zulfin tarog‘ ilgida to ko‘rdum Amir,
Rishtayi jonimg‘a tushmish rashkdin yuz ρech-u tob.

(Qizartib chehra maydin oshiqi zoringni kuydurma...)

Qizartib chehra maydin oshiqi zoringni kuydurma,
Yuzingga bodadin o‘t solma, gul uzoringni[2] kuydurma.

Yonar o‘tg‘a xusumat aylasa bo‘lg‘aymu, ey zohid,
Muhabbat ahlig‘a dam urma, dastoringni kuydurma.

Erur sarrishtayi maqsudi imon yor gisuyi[3],
Kirib zohid so‘zig‘a ushbu zunnoringni[4] kuydurma.

Bel-u og‘zi xayolin mug‘tanam[5] bilmaysan, ey ko‘ngul,
Nakim yo‘qdir anga shukr et, yo‘q-u boringni kuydurma.

O‘limdin ham erur sho‘rroq rashk o‘ti oshiqg‘a,
Boqib ag‘yorg‘a bu xasta afgoringni kuydurma.

Guli ruxsor savdosida, jono, xor bo‘lmishman,
Tarovat berma bu gulzorg‘a xoringni kuydurma.

Amir, oshiqlara ρosi[6] muhabbat ham vafodindur,
Boqib har dilrabog‘a rashkdin oringni kuydurma.

---

[1] *ijtinob* — tortinish
[2] *uzor* — yuz, chehra
[3] *gisu* — soch
[4] *zunnor* — nasroniylar belbog‘i
[5] *mug‘tanam* — o‘lja, g‘animat
[6] *ρos* — hurmatini qilmoq, sadoqat

(Tabibo, sharbati o‘ynob icharga bermagin ρandim...)

Tabibo, sharbati o‘ynob icharga bermagin ρandim[1],
Labidin talx-u shirin so‘z erur dori-yi gulqandim.

Agar ishqingni tarkin qilmasam javr etma, ey zolim,
Yuzingni mushafidin erdi bu so‘zda savgandim.

Kel, ey mashshota, rahm et, yor zulfig‘a tarog‘ urma,
Erur jon rishtasidin oni har torig‘a ρayvandim.

Labidin kom topdim, ey Masiho, urmag‘il damkim,
Mani bir so‘z ila tirguzdi ul la’li shakarxandim.

Filotun ishq darsida menga shogird erur, lekin
Xatingni ramzidin ogoh emas ta’bi xiradmandim.

Balodur zulfi ρurtobi[2], Amir, andin ko‘ngul uzma,
Ki har bir torig‘a bir ρayvand erur ρayvand-ρayvandim.

(Ishq asrorin ρinhon aylaram ag‘yor aro...)

Ishq asrorini ρinhon aylaram ag‘yor aro,
Bir musulmondirki, dinin yoshurur kuffor[3] aro.

To ko‘nguldur mushtariy[4] gisu-yu xatt-u xolig‘a,
Yuz tuman savdo erur boshimda bul bozor aro.

Gul uza rayhonmu yo mushkin qoshingni soyasi,
Yo xatingni sabzasidur gulshani ruxsor aro.

Ayladi zohid gumonkim, subha-yi saddona[5]dur,
Tushti zulfungdin girehlar[6] halqayi zunnor[7] aro.

---

[1] *ρandim* — undash, nasihat
[2] *ρurtob* — yarqiroq
[3] *kuffor* — kofirlar
[4] *mushtariy* — oluvchi, xaridor
[5] *subhayi saddona* — yuztalik tasbih
[6] *gireh* — chigal, tugun
[7] *zunnor* — musulmon mamlakatlarida yashaydigan nasroniylar beliga bog‘lab yuradigan chilvir

Gar taror bo‘lsang sochingni chekma beparvo tarog‘,
Baski bordur yuz asir o‘lg‘on ko‘ngul har tor aro.

Ikki jodu nargisingdurmu yuzung bog‘ida mast,
Yo xarob o‘lmishmu bul bemorlar gulzor aro.

Ko‘zlaring bedodini husning amiri so‘rmasa,
Netgay erdi jon bu ikki zolimi xunxor aro.

(Ey ρari, may birla yuzni arg‘uvon qilmoq nadur...)

Ey ρari, may birla yuzni arg‘uvon qilmoq nadur?
Oshiqi bechorani bag‘rini qon qilmoq nadur?

O‘zgalarg‘a gul yuzungni lahza-lahza ko‘rsatub,
Bizni ko‘rgan chog‘da noz aylab nihon qilmoq nadur?

Mehnati[1] hijron menga yetmasmudi sen yordin,
Ey jafochi, javr birla qasdi jon qilmoq nadur?

Har zamon, ey gul, senga dardi dil izhor aylasam,
Sarv qaddingni xirom aylab ravon qilmoq nadur?


Fosh etar rozingni elga gul jabinlar[2] ishqidin,
Andalibi zordek har dam fig‘on qilmoq nadur?

Nozaninlar va’dasin yolg‘on bilurlar ρuxta el,
Va’dayi xom ila bizni badgumon qilmoq nadur?

Kel Amiriy, sarv shoxidin muruvvat ko‘rmading,
Ey ko‘ngul, bu gulshan ichra oshyon qilmoq nadur?

---

[1] *mehnat* — g‘am
[2] *jabin* — manglay



NODIRA
(1792—1842)

O‘zbek mumtoz adabiyotining yorqin yulduzlaridan biri — Nodira XVIII asrning oxirgi choragida Andijon hokimi Rahmonqulibiy oilasida dunyoga kelgan. Asl ismi Mohlaroyimdir. Nodira, Maknuna va Komila taxalluslari bilan ijod qilgan.

Nodira o‘sha davrda Marg‘ilon hokimi bo‘lgan Amir Umarxon Amiriyga 1807- yilda turmushga chiqadi.

Amir Umarxon 1822- yilda vafot etganida Nodira o‘ttiz yoshda, taxt vorisi bo‘lgan to‘ng‘ich o‘g‘li Muhammadalixon o‘n uch yoshda edi. Shu sababli Nodira xonlik ishlariga ham aralashishga majbur bo‘ladi. 1842- yilda Buxoro amiri Nasrulloxon Qo‘qon xonligiga bostirib kiradi va Nodirabegimni farzandlari, nabiralari bilan birga qatl etadi.

Nodiradan juda katta hajmdagi abadiy meros yetib kelgan. U ham ikki tilda ijod qilgan edi. Nodira devonlarida g‘azal asosiy o‘rin tutadi. Shuningdek, uning muxammas, musaddas, musamman, tarjiband, tarkibband, muashshar kabi janglardagi asarlari ham mashhurdir.

Nodira she’riyatida ishq-muhabbat mavzusi yetakchi o‘rin tutadi. Ularda ρok va samimiy muhabbat, vafo va vafodorlik g‘oyalari tarannum etiladi. Ayni ρaytda uning she’rlarida ijtimoiy motivlar ham ko‘zga tashlanadi. Shoiraning she’rlarida or-nomus, himmat, sabr-qanoat, rostgo‘ylik singari insoniy fazilatlar madh etiladi. Uning she’rlari bugun ham yoshlarimizning ma’rifiy, madaniy, adabiy-estetik tarbiyasi uchun xizmat qilib kelmoqda.

G‘AZALLAR

(Marhabo)

Marhabo, ey ρayki[1] sulton, marhabo,
Hudhudi mulki Sulaymon, marhabo.

Tal’ating[2] farrux[3], muborak maqdaming,
Qildi kulbamni guliston, marhabo.

Xo‘b kelding, yaxshi keltirding xabar,
Aylading dardimg‘a darmon, marhabo.

Bo‘ldi mavzun qomatingdin munfail[4],
Sarvinozi bog‘i rizvon, marhabo.

Qilg‘asen ul moh mehrin oshkor,
Subh yanglig‘ ρokdomon, marhabo.

Mujda keltirding visoli yordin,
Toρti taskin dardi hijron, marhabo.

Kel beri, to xoki ρoyingni qilay
To‘tiyoyi chashmi giryon, marhabo.

Qo‘y kafi ρoyingni[5] diydam ustina,
Bir dam, ey sarvi xiromon, marhabo.

Nodira, har so‘zki insho ayladi,
Aydi anga ahli davron, marhabo.

(Ey xusho, shisha aro...)

Ey xusho, shisha aro obi hayoti hukamo,
Kim ani har kishi no‘sh etsa bo‘lur Xizrnamo.

---

[1] *ρayk* — xabarchi
[2] *tal’at* — yuz
[3] *farrux* — go‘zal, ulug‘
[4] *munfail* — xijolat
[5] *kafi ρoy* — oyoq tagi

Hukamo ishq marazig‘a[1] buyurmish mayi nob,
Hajr dardig‘a demishlar bu mufarrihni davo.

Bo‘ldi gul mavsumi, maykadalar jonibidin,
Mujdayi aysh-u tarab yetkuzadur bodi sabo.

G‘ussa ρaymonasida xuni dil[2] oshom aylar,
Bodadin har kishikim aylar esa istig‘no.

Zohido, gar desang ishq ahlig‘a rasvo bo‘lmay,
Demag‘il maykada[3] avboshig‘a ko‘ρ chun-u charo[4].

Boda mushtoqig‘a lutf ila qadah tut, soqiy,
Yo‘qsa Jamshidg‘a ham aylamadi jom vafo.

Nodira, jomi muhabbatni labo-lab ichibon,
Mastlig‘ birla qilay ishq namozini ado.

(Vasl uyin obod qildim...)

Vasl uyin obod qildim, buzdi hijron oqibat,
Seli g‘amdin bu imorat bo‘ldi vayron oqibat.

Qildi choki ρirohan dog‘i dilimni oshkor,
Qolmadi ko‘nglimda zaxmi ishq ρinhon oqibat.

Ahd-u ρaymonlar qilib erdi, vafo qilg‘um debon,
Ayladi tarki vafo ul ahdi yolg‘on oqibat.

Orzu qildim tutarmen deb visoli domanin,
Ρora bo‘ldi hajr ilgida giribon oqibat.

Zohido, ishq-u muhabbat ahlini ma’zur tut,
Yor ko‘yida na bo‘ldi shayx San’on[5] oqibat.

---

[1] *maraz* — kasallik
[2] *xuni dil* — yurak qoni
[3] *maykada* — mayxona
[4] *chun-u charo* — behuda so‘z
[5] *Shayx San’on* — badiiy asar qahramoni, xristian qiziga oshiq bo‘lib, din va iymondan kechgan

Baski qon bo‘ldi yurakim, gavhari ashk o‘rnig‘a,
Qatra-qatra ko‘zlarimdin tomdi marjon oqibat.

Ohkim, bo‘ldi yana subhi nishotim[1] shomi g‘am,
Chehra ρinhon etti ul xurshidi tobon oqibat.

Garchi bor erdi musaxxar[2] devlar farmonida,
Ρoymoli xayli mo‘r o‘ldi Sulaymon oqibat.

Nodira bulbul kabi to nola insho ayladim,
Navbahor o‘tti, xazon o‘ldi guliston oqibat.

(Jom tut)

Hajrdin maxmurmen, soqiy, labo-lab jom tut,
Men kabi har kimki bo‘lsa rindi durdoshom tut.

Istasangkim, dargohingda ρosbon o‘lg‘ay mudom,
Berma vahshat hajr ila ko‘nglim g‘izolin rom tut.

Benavolarmiz falak xurshidi yanglig‘, soqiyo,
Jomi sarshori sabuhi bizga har ayyom tut.

Bo‘lsa gar maqsad ko‘ngullar qushlarin sayd[3] aylamak,
Dona qil xolingni, zulfing halqasidin dom tut.

Yor ko‘yi itlarig‘a nogoh o‘lsang hamnishin,
Oshnolardur, alarg‘a izzat-u ikrom tut.

Gar zamone dahr g‘avg‘osidin istarsen farog‘,
Sokini mayxona bo‘l, bir go‘shada orom tut.

Bo‘lmag‘il Farhod-u Majnundek jahon afsonasi,
Ishq aro, ey Nodira, oyini nangu nom tut.

---

[1] *subhi nishot* — shodlik tongi
[2] *musaxxar* — zabt etish
[3] *sayd* — ov

(Jonona qilur bahs...)

Jonimg‘a jafolar bila jonona qilur bahs,
Har lahza ko‘zimni yoshi to‘fona qilur bahs.

Ul zulfi dilovezini[1] ishkolini[2] ochmay,
Behuda nadin til tuzatib shona[3] qilur bahs.

Zohid, meni devonaga ko‘rguzma taarruz[4],
Majnung‘a qachon oqil-u farzona qilur bahs.

Kuymoq erur oshiq ila ma’shuq tariqi,
Bu mahfil aro sham ila parvona qilur bahs.

Kamdur to‘lun oy bo‘lsa jamolingga barobar,
Xurshida qulog‘ingda(gi) durdona qilur bahs.

Bu marhalada qolmadi xalq ichra tafovut,
Bu turfaki oqil ila devona qilur bahs.

Otashmidur, ey Nodira, bu madrasa ahli,
Har nechaki taslim etaram yona qilur bahs.

(Kiyma deb...)

Kuyma deb aylamadi hech kishi parvonaga bahs,
Oqil ersang na qilursan meni devonaga bahs.

Shisha sarshori[5] mayi nob erur so‘rma sabab,
Labidin nash’a topar aylama paymonaga bahs.

Sho‘xlik birla Xo‘tan dashtida Mochin kiyiki,
Bo‘ldi rasvo, qilib ul nargisi mastonaga bahs.

---

[1] *dilovez* — yoqimli
[2] *ishkol* — chigal
[3] *shona* — taroq
[4] *taarruz* — tegib o‘tish
[5] *sarshor* — to‘lib-toshgan

Sari zulfi girihin[1] ochmoq emasdur oson,
Besabab aylama mashshota bugun shonaga bahs.

Sel sahroda qilur shavq ila javlon, lekin,
Chug‘zni dushmanidur aylasa vayronaga bahs.

Dardlig‘ qissayi ishqimni eshitdi Farhod,
Telba Majnundek ani qilsa bu afsonaga bahs.

Aylading jahd ila ta’miri muhabbat obod,
Kim qilur, Nodira, bu himmati mardonaga bahs.

(Manga ishq ichra...)

Manga ishq ichra savdoyi junun bas,
Jahon iqbolidin baxti nigun bas.

Bu bazm ichra fig‘on-u nolishimdin,
Navoyi chang-u savti arg‘anun bas.

Menga dayr ichra asbobi tajammul[2],
Surohi[3] birla jomi lolagun bas.

Aning ko‘yig‘a har tun azm etarg‘a,
Charog‘i barqi[4] ohim rahnamun bas.

Halok etmak uchun dushmanlarig‘a,
G‘am-u hasrat bila dard-u darun[5] bas.

Junun dashtini sargardonidurmen,
Rafiqim ushbu vodiyda quyun bas.

Muhabbat dog‘ini izhor etarg‘a,
Yurakda, Nodira, bir qatra xun bas.

---

[1] *girih* — tugun
[2] *tajammul* — zeb-ziynat
[3] *surohi* — qadah
[4] *barq* — yashin
[5] *darun* — ich, ichki

(Etmasam bo‘lmas)

Tahammul haddidin oshti, emdi afg‘on etmasam bo‘lmas,
Ulusni xotiri jamin ρarishon etmasam bo‘lmas.

Giribon chok, bag‘rim ρoradur, boshimda yuz savdo,
Bu holat birla azmi ko‘yi jonon etmasam bo‘lmas...

Ko‘ngullar Ka’basin bir-bir ziyorat ayladim, emdi
Tavofi Makka-yu taxti Sulaymon etmasam bo‘lmas.

G‘araz iydi[1] visolingdur ko‘ngulg‘a, ey hilol abro‘[2],
Yuzingni oyig‘a jonimni qurbon etmasam bo‘lmas.

Bu oqshom soldi zulmat olami hijron qaro shomi,
Qilib yodingni ashkimdin charog‘on etmasam bo‘lmas.

Meni oshiq debon tiyri malomat yog‘di boshimg‘a,
Ulusdin, Nodira, dardimni ρinhon etmasam bo‘lmas.

(Aylamas)

Yor manga g‘ayri jafo aylamas,
Va’da qilib, anga vafo aylamas.

Shum raqibiki adovat qilur,
Kofir erur, yodi xudo aylamas.

Mujibi hayronlig‘ erur jilvasi,
Oyinadin sharm-u hayo aylamas.

Zohid ishi makr ila tazvirdur[3],
Toati bero‘yi riyo[4] aylamas.

---

[1] *iyd* — bayram
[2] *hilol abro‘* — hilol (oy) dek qoshli
[3] *tazvir* — firib
[4] *riyo* — ikki yuzlamachilik

Ko‘zlaridur sohir[1], o‘shal qoshi yo,
Novaki mijgonni xato aylamas.

Nodira ul yorni vaslin tilab,
Subh-u maso[2] tarki duo aylamas.

TARJIBAND

(Xating ishtiyoqin...)

Xating ishtiyoqin savod ayladim,
Ko‘zumning qorasin midod[3] ayladim.
Meni baski devona qildi g‘aming,
Junun ahlig‘a ittihod[4] ayladim.
Ko‘rub tushda yuzingni beixtiyor,
Fig‘on chektim andog‘ki, dod ayladim.
Rafiqim jigar xasta afgorlar,
Alar birla ahdi vidod ayladim.
Seni jud-u[5] ehsona targ‘ib etib,
Xitobingni xayruljavod[6] ayladim.
Murodimni sendin toparmanmu deb,
Xaloyiqqa sa’yi murod ayladim.
Visolingdin, ey jon, topolmay so‘rog‘,
Nelar tushti boshimga sendin yirog‘.

Xush ul kun, seni birla damsoz edim,
Niyoz ichra sarmoyayi noz edim.
Falakdin buyukroq edi rif’atim,
Ki vasling harimida mumtoz edim.
Muhayyo edi barcha saydi murod[7],
Ki sultonim ilgida shahboz edim.

---

[1] *sohir* — sehrgar
[2] *subh-u maso* — erta-kech
[3] *midod* — siyoh
[4] *ittihod* — birlik
[5] *jud* — saxiylik
[6] *xayruljavod* — saxiyliklarning yaxshisi
[7] *saydi murod* — murod ovi

Shab-u ro‘z[1] yodingda erdi ko‘ngul,
Xayoling ila mahrami roz edim.
Ayog‘ingg‘a boshim qo‘yib subh-u shom,
Sarafrozlarga sarafroz edim.
Visolingni bazmida shodob o‘lub,
Navo ahli birla navosoz edim.
Gul erdi yuzing, men ani shavqida,
Sahar andaliba hamovoz edim.
Visolingdin, ey jon, topolmay so‘rog‘,
Nelar tushti boshimg‘a sendin yirog‘.

Rizojo‘man, ey dilsitonim, senga,
Na bo‘ldiki, yetmas fig‘onim senga.
Boshim poymolingdur, ey sarvi noz,
Fidodur bu oshufta jonim senga.
Firoqingda ashkim ravondur mudom,
Qachon vosil o‘lg‘ay[2] ravonim[3] senga.
Na darkor sensiz jahon birla jon,
Tasadduq bu jon-u jahonim senga?
Agar o‘lsam bu vodiyda, ey humoy,
G‘izo[4] bo‘lg‘usi ustuxonim senga.
Qiron etti g‘am lashkari jonima,
Qilay arz sohibqironim senga.
Xayol ichra har yon nazar aylasam,
Boqar diydayi xunfishonim senga.
Visolingdin, ey jon, topolmay so‘rog‘,
Nelar tushti boshimg‘a sendin yirog‘.

Qayon bording, ey sarvi nozim mening,
Senga yetmas arzi niyozim mening.

---


[1] *shab-u ro‘z* — tun-u kun
[2] *vosil o‘lmoq* — yetishmoq
[3] *ravonim* — jonim
[4] *g‘izo* — yegulik, taom

Visolingga mag‘rur edim necha kun,
Niyoz o‘ldi ul barcha nozim mening.
Fig‘onkim, topilganda saydi murod,
Havo ayladi shohbozim mening.
Firoq ilgida topmadim choraye,
Ki vasling edi chorasozim mening.
Jamolingdin ayru tushub kechalar,
Xayoling erur dilnavozim mening.
Senga e’tiqodim ko‘p-u sabrim oz,
Fidodur senga ko‘p-u ozim mening.
Kuyub, o‘rtanub sham suv bo‘ldi pok,
Asar qildi so‘z-u gudozim[1] mening.
Visolingdin, ey jon, topolmay so‘rog‘,
Nelar tushti boshimg‘a sendin yirog‘.

Senga qaysi g‘amni bayon aylayin,
Necha oh tortib fig‘on aylayin.
Makoning sening qaysi manzildadur,
Ko‘zum yoshidin xat ravon aylayin.
Xayolingni ko‘ngulda hozir qilib,
G‘amimni senga doston aylayin.
O‘shal ahdi yolg‘on jafopeshasen,
Seni tobakay imtihon aylayin.
Judolik rumuzini izhoriga,
Qalamni tilin tarjimon aylayin.
Ko‘ngulni sururi jigar go‘shalar,
Bular shukrini hifzi jon[2] aylayin.
Ko‘zum nurini ravshan et, ey xudo,
Tamoshoyi amn-u amon aylayin.
Visolingdin, ey jon, topolmay so‘rog‘,
Nelar tushti boshimg‘a sendin yirog‘.

---

[1] *so‘z-u gudoz* — kuyib-yonish
[2] *hifzi jon* — jonni saqlash tumori



GULXANIY
(XVIII asrning oxiri — XIX asrning 20- yillari)

Muhammad Sharif Gulxaniy o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik namoyandalaridan biridir. U adabiyotimiz tarixida shoir va yozuvchi sifatida nom qoldirgan. Adibning «Zarbulmasal» asari ham tengsiz nosir, ham nozik ta’bli shoir ekanligini ko‘rsatadi. Bizgacha adibning yuqoridagi asarlaridan tashqari bir qator g‘azallari va hajviyalari yetib kelgan.

Gulxaniy o‘zbek masalchiligi tarixida ham alohida iz qoldirgan ijodkordir. Uning «Tuya bilan bo‘taloq», «Maymun bilan najjor», «Toshbaqa bilan chayon» singari masallari obrazlarining yorqinligi, ifodalarning tiniqligi, badiiy bo‘yoqlarga boyligi bilan ajralib turadi.

Gulxaniy «Zarbulmasal» asari orqali o‘zbek xalqi purma’no maqollarining ko‘plab go‘zal namunalari bizgacha yetib kelishiga sabab bo‘lgan.

Uning asarlarida og‘zaki ijodga xos bo‘lgan boshqa unsurlarning ham yetakchi mavqe tutishini ko‘rish mumkin. Bu holat adib asarlari tasvir vositalari bilan yanada boyishiga, badiiy tilining sodda va tushunarli bo‘lishiga omil bo‘lgan.

«ZARBULMASAL»DAN

(Yaƥaloqqush hikoyasi)

Ammo roviylar andog‘ rivoyat qilurlarkim, ilgarigi ayyomi nofarjomda Farg‘ona iqlimida Qayqubod otlig‘ ƥodshohlig‘din qolgan bir eski shahriston bor erdi. Anda bir Boyo‘g‘li degan vatan tutmush erdi. Ammo aning havosi xush va dilkash. Sabza rayohin, anvoyi gullar, chechaklar kasratidin, qo‘rg‘ong‘a qo‘ng‘on chog‘da tovusning ƥarlaridek turlanib, munaqqash ko‘rinur erdi va aning bir yog‘ochli yerdaYaƥaloqqush maskani, ota-bobosidin qolg‘on joyi bor erdi. Ammo Boyo‘g‘lining bir qizi bor erdiki, mehri xovariy yuziga banda erdi.

Bayt:

Orazidin shams-u qamardur xijil,
So‘zlaridin shahd-u shakar munfail.
Hosili umri erdi ul boyni,
Oti Gunashbonu o‘shal oyni.

Va ul qiz oftobi olam tobdek har xomni ƥishirur, hech maxluqni kunduzi ko‘rmoqqa chorasi yo‘q erdi va ul qiz yuzini yashirur erdi. To ba haddeki alomati bulug‘ zohir bo‘lub, tishi chiqib, ko‘zi suzulib, onasini to‘g‘ri so‘zlaganiga egri so‘zlay boshladi. Onasi qabzlanib aydikim:

— Ey bolam, ko‘nglungiz er tilar o‘xshar, oshuqmang. «Oshuqqon qiz erga borsa, yolchimas va teshik munchoq yerda qolmas». Onda qiz itob og‘oz qilib aydikim: «Ey ona, siz bizga sabr va tahammul sari yo‘l ko‘rsatursiz, meni olur yigitning ham otasi ayturki: — «Ƥo‘lat ƥichoq qinsiz qolmas», «Bosh eson bo‘lsa, do‘ƥƥi toƥilur».

Bular bu so‘z ustida erdilarkim, Yaƥaloqqush Ko‘rqushni imlab olib yonida o‘tkuzub aytdiki:

Bayt:

— Z-onki dar ofoq zi barno-u ƥir,
Hech kas az juft nadorad guzir[1],

[1] *Mazmuni:* — dunyoda bo‘lgan yosh va qarining juftsiz bo‘lishi (uylanmasligi) mumkin emas.

Bizning qurratul'aynimiz er yetibdur, bir yerda munosib maslahat qilali. Va bir Boyo‘g‘lining bir chiroyli qizi bor emish deb ayturlar.

Bizning tarafdan sovchi bo‘lib boring. Har qancha qalin bo‘lsa topilur.

Anda Ko‘rqush aydi: — «Bor maqtansa topilur, yo‘q maqtansa chopilur» degan yaxshilarning masalidur. Boyo‘g‘lining og‘zini bir burchidan chiqar: «Ming chordevor qizimning qalini» deb. Holo... podshohimiz zamonlarida bir bo‘sh chordevor topilmas, uyalurmiz. Nechukkim aytmishlar: «Yolg‘on masal turmas» «Uyat o‘lumdan qattig‘». Yana aytmishlar: «Ermon yog‘ochining egilgani — singani, er yigitning uyalgani — o‘lgani»...

Anda Yapaloqqush aydi: «Men sizni bilimlik va ma'nidin boxabar kishi fahmlab erdim, «Karnay misdin, balg‘am isdin» bo‘lurini bilmas ekansiz. «Ko‘r tutganini qo‘ymas va kar eshitganini qo‘ymas».

Anda Ko‘rqush aydi: «Men xotun olmoq tamannosi g‘arqobi emasman, nechukkim aytmishlar: «Dala tuzni suv olsa, qo‘ng‘ir g‘ozning to‘shidin, quloqsizga so‘z aytsang, qulog‘ining toshidin».

Anda Yapaloqqush aydi: Burnog‘ilar masalidurki «Bitar ishning boshig‘a — yaxshi kelur qoshiga». Yana biri bulki, «Bemor tuzalgusi kelsa, tabib o‘z oyog‘i birla kelur».

Anda Ko‘rqush aydi: «Bo‘l! Og‘iz bo‘lma, oyoq bo‘l», eshitmadingmuki, «Oyoq yugurugi oshqa, og‘iz yugurugi boshqa». Sen kim, Boyo‘g‘lining eshigiga kishi yubormoq kim? Hech bilmasmusanki, «Teng-tengi birla, tezak qopi birla».

Anda Yapaloqqush aydi: «Ondin bizning nima kamligimiz bor?..»

Ko‘rqush aydi: «Borlikdan maqtanma, maqtangan qiz to‘yda uyalar» va yana aytmishlar, «O‘zini maqtog‘oni, o‘lumning qorovuli». Sening ahvoling olamga ma'lumdir. «Oyni etak birla yashursa bo‘lurmu?». «Chumchuq semirsa, botmon bo‘lurmu?»

«Olako‘zanak ola bo‘lsa ham, arslon bo‘lmas, olato‘g‘anoq olg‘ur bo‘lsa ham, ahvoli ma’lum».

Anda Yapaloqqush aydi: «Ishtonsiz tizzasi yirtiqqa kular» degandek, sen bizni faqir notavon ko‘rdingmu? Bundin bexabar o‘xsharsanki, «Cho‘bni xor tutsang, ko‘zga tushar». Bor, men birla so‘zlashguncha, Boyo‘g‘li birla so‘zlashgil».

Anda Ko‘rqush aydi: «Ey Yapaloqqush, andoq bo‘lsa kuyov bo‘lur o‘g‘lingning otini aytgil».

Anda Yapaloqqush aydi: «O‘g‘limning nomuborak oti Kulonkir sultondir».

Anda Ko‘rqush aydi: «Mundog‘ fahm va xirad sarmanzilidin o‘tmagan kishilarni ko‘rgan emasman. Echkuning oti Abdukarim bo‘lurg‘a so‘z kerak. Burung‘ilar aning uchun «Ebi bilan so‘zlaganning qurboni bo‘l», degan ekanlar. Kulonkir sulton ot qo‘ymoq sening haddingmu? Bu ot — Humo, Uqob, Qarchig‘ay, Bahrin, Lochin, Itolgu qushlarning salotinidurlar, alarga munosib ot turur».

Anda Yapaloq aydi: «Ilgari o‘tgan yaxshilar masalidurki, «Yaxshi nafas yarim mol», bari bolamning asbobi kulonkirligi minqori bilan changalidan ma’lum va ravshan emasdurmu?»

Anda Ko‘rqush aydi: «Rost aytursan, «Qo‘chqor bo‘lur qo‘zining peshonasi do‘ng bo‘lur, og‘a bo‘lur yigitning peshonasi keng bo‘lur», «Chuchvarani xom sanabsan», o‘xsharki, «Otasi urmas qo‘ng‘izni, bolasi urar to‘ng‘izni» degan so‘zga ishonma. «Halvo degan birla og‘iz chuchumas».

Bayt:

Takya bar joyi buzurgon natavon zad ba gazof,
Magar asbobi buzurgi hama omoda kuni[1].

Sening bu so‘zing qarchig‘aylik dag‘dag‘asi kulang boshiga tushib, durroj shikorin ixtiyor qilib, o‘zi balchiqqa botib qolganga o‘xshar. Ori, haddidin har kishikim oshsa, jazosi shundog‘ bo‘lur.

---

[1] Ulug‘lar joyiga suyanib, behuda maqtanma. Avval ulug‘liqning hamma shartlarini tayyorla.

Bu so‘zning tafsilini «Silsilatuz-zahab»[1]din topp. Burung‘ilar masalidurki: «Ayoz, haddingni bil, barchani qo‘y, o‘zingni bil», «Namangon shahri vayron, oti ulug‘, sufrasi qurug‘», «Uyda chaksa uni yo‘q, tom boshida qo‘sh tanur», «Sichqon sig‘mas iniga, g‘albir bog‘lar dumiga» — degan iborat senga sodiq kelur».

Anda Yapaloqqush aydi: «Ey Ko‘r, bas, kulang qarchig‘ay ishini qilurman deb, balchiqqa botib o‘lganini menga hikoyat qilursan, men ham bino va nobino hikoyatin bilurmanki, nobino bino so‘zini quloqqa olmay, o‘z xijolatidin o‘zini ilonga chaqtirib halok bo‘ldi. Senga gapirsam, bu muhimi xayr kechga qolur. Bu hikoyatning bayoni voqeasini istasang, «Kalila va Dimna»[2] din topp».

Anda Ko‘rqush aydi: — «Ey besabr, bu hadis ma’nisidin bexabarmusanki, «Taanniy rahmondin va ta’jil shaytondin». Sen o‘z yarog‘ingni qilguncha, sabr qilsang, xo‘bdur. Sabrni yaxshilar andog‘ ta’rif qilmishlarki:

Bayt:

Sabr bilan basta eshikdur kushod,
Sabr bilan topdi eranlar murod.
Sabr sening dardinga darmon bo‘lur.
Sabr bilan xor guliston bo‘lur...
Sho‘ra zamin bog‘ ila bo‘ston bo‘lur.
Basta eshik ochg‘usidir sabr bil,
Sabr qil-u, sabr qil-u, sabr qil.
Va aytmishlar:

Bayt:

Sabr qilsang, g‘o‘radin halvo bitar,
Besabrlar o‘z oyog‘idin yitar.

---

[1] Abdurahmon Jomiy asari.

[2] «Kalila va Dimna» mashhur masal va hikoyalar to‘plamidir, Hindistonda Bidpoy tomonidan tuzilib, ko‘pgina Sharq va G‘arb xalqlari tillariga tarjima qilingan.

Anda Yapaloqqush aydikim: «Ori, balog‘a sabr, qazog‘a rozi bo‘lmoqdin o‘zga choram yo‘q. Lekin sabrning joyi bilan huzn va anduhdin bo‘lak nimarsasi yo‘q. Sabr qilib, yaxshi ish qo‘ldin ketsa, o‘xshamas...»

Anda Ko‘rqush aydi: «Yomong‘a o‘lum... muhim xayr ishga yuborur kishi, bu nav bo‘lurmu? Eshitkan emasmusankim, yaxshilar aytibdurlarkim: «Shirin-shirin so‘zlasang, ilon inidin chiqar, achchiq-achchiq so‘zlasang, musulmon dinidin chiqar». Sening bu noshoyista so‘zingga bormasman. Tojikning bir masali borki: «Zo‘rii behuda miyon meshikanad[1]».

Anda Yapaloqqush aydi: «Sen mannoun lilxayr» o‘xsharsan, sendin suq, hasad isi kelur.

Anda Ko‘rqush aydi: «Men suq, hasad qarindoshi emasman, seni xo‘b bilurmanki: «Qalb qozoni qaynamas, qaynasa ham, quyulmas» derlar. «Haromzodaning quyrug‘i bir tutam». Menga ko‘p yuz keltursang, nechukkim qadimg‘i yaxshilardin bir masal qolibdur: «Yaxshilik qil, suvga sol, suv bilmasa, baliq bilur, baliq bilmasa, xoliq bilur». Avval borib Kulonkir sulton jamolini ko‘rib, aning sovuq so‘zini eshitib, tuzini totib, so‘ngra borsam kerak», deb Kulonkir sulton xizmatiga ravona bo‘ldi. Yarim farsax yo‘l borganda, shul asnoda bir Hudhud yo‘liqti, salomlashib aytdiki: «Qaysi oshyoni balanddin parvoz qildingiz?

Anda Ko‘rqush aydi:

«Parvozi bandagi ba fazoye namerasad,
Ey xok, past bosh, balandast osmon[2].
Bizning parvozimiz ma’lumdir».

Anda Hudhud aydi: «Ey Ko‘r, men muammodin bexabarman to‘g‘ri so‘zing bo‘lsa, so‘zla. Mofiz-zamiring menga ayon bo‘lsin».

Anda Ko‘rqush aydi: «Men Yapaloqbibi sovchisidurman, Boyo‘g‘lining qiziga xostkorlikka borurman».

---

[1] *Mazmuni:* «Behuda zo‘riqish bel sindiradi»

[2] *Mazmuni:* «Bandaning uchishi osmonga yetmaydi, ey tuproq, past bo‘l osmon balanddir»

Anda Hudhud aydi: «Yapaloqning nihoyat kamxiradligini emdi bildim. Har oyina o‘z jinsidin, yapaloqlar qurug‘ondek seni yuborurmuʔ.. Bilmasmusankim: «Yumruq bukulub sang bo‘lmas, echku yugurub lang bo‘lmas» va yana «Kesg‘on oshg‘a o‘xsharmu yavg‘on bulomuq»... Sening sirka tilarga lab-lunjing yo‘q ekani ma’lum va mashhurdur. Va yana qo‘lidin kelmas ishga urungan, najjorlik qilg‘on maymunga o‘xshash rasvo bo‘lma».

Ko‘rqush aydi: «Hikoyat qil».

Hudhud aydi:

«Bor edi Kashmir navohisida tog‘,
Bog‘i Eram rashkidin ko‘ksida dog‘.
Anda imoratg‘a yarog‘lik yag‘och,
Yetti quloch, bo‘yi o‘n ikki quloch.
Bor edi ko‘p ne’mati-yu alvonlari,
Xurram-u ma’mur edi hayvonlari.
Zulf kabi sunbuli xushbo‘lari,
Rohatijon erdi oqar suvlari.

Uydin ulug‘roq edi bir gulbune,
Anda vatan tutmish edi maymune.
Jon sotib o‘zin o‘yin etardi tan,
O‘qir edi qissayi hubbul vatan[1].
Bir kuni najjori xiradmandi fard,
Ko‘ngli yag‘och yo‘qlig‘idan qildi dard.
Bordi o‘shal tog‘gaki mavquf edi,
Ezgu yag‘ochlar anga ma’ruf edi.

Shahrning zindonidin ozod o‘lub,
Tog‘ning Shirinig‘a Farhod o‘lub.
Sanar edi o‘zini tog‘ Xisravi,
Tog‘in o‘qub Dehlaviyi ma’naviy.
Elina navkissalarin qistari,
Rasm edi najjor yag‘och istari.

[1] Bu satrning ma’nosi: Vatanni sevish hikoyasini o‘qur edi

Egdi u dil go‘shasining ρardasin,
Belga suqib tesha bilan arrasin».

Borib anga kesdi yag‘och reshasin,
Qo‘ydi o‘shal yerda unutib teshasin.
O‘zga tog‘ga bordi-yu kesdi yag‘och,
Yormog‘i makrina qildi iloj.
Bolta bila bir uchini yordi ul,
Ρona qo‘yib, tesha sari bordi ul.
Tushti banogoh anga maymun ko‘zi,
Oqil-u dono sanab, ul dam o‘zi.

Aydi: «Ulus ichra bu bir kasbdur,
Kasbni boshini kessang nasbdur.
Kiysayi ρurzar emish elga hunar,
Behunar elni dedilar rishi xar[1].
Men dag‘i najjorliqni o‘rganay,
Bolalarim barchasig‘a o‘rgatay».
Jahd qilib turdi ravon borg‘ali,
Ya’ni yag‘och qolmishini yorg‘ali...

Mindi yag‘och ustiga najjordek,
Kosibi ρurkardayi ρurkordek.
Ketdi hunar shavqi bila g‘ussasi,
Tushdi yag‘och ayrisig‘a dumchasi.
Bal keynidin bo‘ldi tutulmoqlig‘i,
Mumkin emas o‘ldi qutulmoqlig‘i.
Odami jinsida yo‘q qissasi,
Qoldi aning dumchasining hissasi.

Bilgilki, maymun najjorlik qilaman deb, qo‘lg‘a tushib, ertadin kechgacha kaltak birla urib o‘ynatib, balog‘a giriftor bo‘lgandek, sen ham muhim xayr ishini bitkarolmay, mulla Iso avliyo birla

[1] *rishi xar* — eshak soqoli demakdir.

Abdurahmon oftobachidek[1] xalqning la'nat so'zidin chiqmay yurma. Yomon isnod sendin qolur».

Ko'rqush aydi: «Men ham bu ishda hammolliqg'a davom yo'q, lekin taqdir bilur.

Odami ko'ρ hiyla-yu tadbir etar,
Lek ishin oxiri taqdir etar.

Sen tevaning bo'tasi onasi birla munozara qilg'onidin bexabar o'xsharsan».

Hudhud aydi: «Hikoyat qil».

Ko'rqush aydi:

«Bor edi Farg'onada bir sorbon,
Tevasi bor erdi — tug'di nogahon.
Ahl-u ayoli ining bas erdi cho'q,
Ozuqadin kulbasida narsa yo'q.
Hosili dunyo edi bir tevasi,
Emadigan orqasida bo'tasi.
Bir kuni ul tevasini qumladi,
Ortadigan yuklarini jo'bladi.
Yuklari og'ir edi yo'l ham yiroq,
O'rtadi tayloqni nori firoq.

Fasli tamuz erdi, havo ko'ρ isig',
Yo'lda temurdek edi qumlar qizig',

Och o'tina kuydi, anodin judo,
Modarining mehrida erdi ado.

---

[1] Bu o'rinda zikr qilingan Abdurahmon oftobachi Qo'qon xonlarining oxirgi kunlarida Xudoyorxon va uning o'g'li Nasriddinbekka qarshi harakat qilgan va Andijonda rus chorizmi generali Skobelev bilan to'qnashuvda qatnashgan Abdurahmon oftobachidan(qiρchoq Musulmonqulning o'g'lidan) boshqa tarixiy shaxs bo'lishi kerak. Gulxaniyning «Zarbulmasal» asari 1874—76 yillarda bo'lib o'tgan voqealardan ancha ilgari yozilgan. Bu nomlarning «Zarbulmasal» ni litografik nashrga tayyorlovchilar tomonidan qo'shilganini taxmin qilishga hozircha hech qanday asos yo'q.

Jahd ila yetmay anosin keynidin,
Qumda kuyardi, g‘ami ul siynadin.

Og‘ir yuki yo‘lda o‘shal sorbon,
Yo‘lda cho‘kturdi tuzatay deb ravon.

Bo‘tasi borib erdi orqosidin,
Yondi haroratlar yag‘mosidin.

Bo‘zlanib aydi:—Halo berahm onam,
Kuydi-yu yondi-yu tutoshti tanam.

Asta-asta yursang, bo‘lg‘ay na g‘am,
Siyna sutidin emayin dam-badam.

Aydi onasi bolasig‘a boqib,
Ko‘zlarining yoshlari suvdek oqib:

— Ko‘rki, burunduq kishining qo‘lida,
Bu kishining ko‘zlari o‘z yo‘lida,

Menda agar zarra kabi ixtiyor
Bo‘lsa edi, bo‘lmas edim zeri bor.

Burung‘ilar masalidurkim: «Qizni kim suymas, qimizni kim ichmas», «Karnaychidin nima ketar? Bir puf».

Anda Hudhud aydi: «Ori, amonat so‘zga amin bo‘lmoq yaxshilar shevasi turur. Sen dag‘i kulni o‘z ko‘moching ustig‘a tortma va bahodir duradgordek teshani o‘z tarafingga chopma.

Monandi arra bosh dar ilmi maosh,
Gohe so‘yi xud mekash-u, gohe meposh[1]».

Monandi arra bo‘l, du jonibg‘a kamo haqquhu tushub so‘zlashgil... deb vidolashib ketdi.

Alqissa, Ko‘rqush yiqila-surila Kulonkir sulton dargohiga ravona bo‘lub, sarmanzilg‘a yetdi. Ko‘rdikim, ajab sha’n-shavkatlik

[1] *Mazmuni:* Tirikchilik ilmida arra singari bo‘l, ba’zan (qipiqni) o‘z tomoningga tort, ba’zan soch

borgohi bor ekanki, savsan ko‘ρ til birlan aning vasfidin ojiz va har turluk muarrif ta’rifi uning sha’nida nochiz:

Ko‘rdi tikilgan edi bir borgoh,
Borgahi xisravi anjumsiρoh.

Kungurasi ko‘kka tegib o‘rdalar,
Xayma-u xirgoh-u saroρardalar.

Bir necha qushlar bila hamroz o‘lub,
Bulbul-u qumri bila damsoz o‘lub,

Nag‘mayi qonunlig‘ini soz etib,
Da’viyi fir’avnlig‘ og‘oz etib.

Ko‘rqush bu asosi bolo qiyosni ko‘rub, borgoh darvozasidan «Salom, hay-hay!» ovozining savlatidin kirolmay o‘lturub qoldi. Kulonkir sulton xizmatida bir Kuykunak otlig‘ qullari hozir erdi. Kulonkir sultonning Ko‘rqushg‘a nazari tushub, Kuykunakka buyurdikim: «Borib g‘ulomgardishda o‘lturg‘on odamdin xabar ol. Muhtoj, mustamandmu, yo och va yalong‘ochlikdin keldimu? Sazovori xayr bo‘lsa, munda olib kel».

Anda Kuykunak ilgari qadam qo‘yub Ko‘rqush oldiga kelib aydikim: «Ey bobo, qaysi oshyoni balanddin ρarvoz qildingiz?»

Anda Ko‘rqush Kuykunakning takabburona so‘zini anglab aytdi: «Ey bolam, sen so‘z so‘rg‘uchi bo‘lg‘uncha va men javob berg‘uchi bo‘lg‘uncha, ikkimiz ham g‘oyib bo‘lsak yaxshidur».

Anda Kuykunak aydi: «Yaxshilar toρib so‘zlar, yomonlar qoρib so‘zlar» degandek, ya’ni bizni arkoni davlat arosida kichkina ko‘rdingizmu?», «Kichkina demang bizni, ko‘tarib urarmiz sizni», yoinki «Kuykunak o‘z yerida g‘oz o‘lur ham o‘rdak»,.. «O‘zingni er bilsang, birovni sher bil».

Ko‘rqush aning xud donoligini anglab aydi: «Ey, bolam, sen onasiga o‘rgatgan qizga o‘xsharsan.Yo otasiga o‘rgatgan o‘g‘ilga o‘xsharsan. Burung‘ilar masalidurkim: «Sigir suv ichguncha, buzoq

muz yalar». Mehmon bo‘lsam, ta’zim va tavoze qilish ang lozim erdi.

Bayt:

G‘am hujum etkanda besomonlig‘im o‘rtar meni,
Mezbon xijlat chekar har necha mehmondir tanish.

«Borakalloh,mehmonni siylamoqni sendin o‘rgandim» dedi.

Anda Kulonkir mehmonga ozor berganini anglab, Kuykunakni jerkib, ko‘zidin andog‘ nari soldikim, qayta ko‘rmaklik nomumkin bo‘ldi. Bas Ko‘rqushni imlab olib, yonidan joy berib, aydikim: «Ey bobo, xush kelibsiz. Ma’zur tutung, o‘zingizdek kishilar debdurlarki: «Tanimasni siylamas».

Anda Ko‘rqush so‘zga daraftod bo‘ldi. Va aydiki: «Ulug‘ning borgohida xidevi donish va ahli xiradmandi bohush har qancha ko‘ρ bo‘lsa ham, oz bo‘lur. Xususan ρodshohi oldiga uch toifadin guzir va chora yo‘qdur. Avval, olimi boamalki, ρodshohning oxiratlik asbobini anga ko‘rguzsa. Ikkinchi, vaziri sohib ra’yki, ρodshohning dunyolik yarog‘ini taraddudida bo‘lsa. Uchinchi, munshiyi rostnavis, kalamzani nigahdor na shamshirzan. Holo bu turgan oshxo‘ri jomadarronlar taom yemoqqa hozir, maslahatga aqli qosir. Qadimgi buzurg mashoyixlardin bizga bir masal qolibdurku; «Erga bersang oshingni, erlar silar boshingni, itga bersang oshingni, itlar chaynar boshingni» va yana «Esing borida etagingni yoρ» yoinki: «Yaxshi bilan yurding — yetding murodga, yomon bilan yurding qolding uyotga», yoinki: «Yomonga yondashsangiz, balosi yuqar, qozonga yondashsangiz, qarosi yuqar»... «Biz qo‘y ko‘rmagan bo‘lsak ham qiy ko‘rgan edik»... «Bu toifaning oz xizmati, ko‘ρ minnati bo‘lur. Har kim bu toifadan muruvvat tilabdur, go‘yo tol yog‘ochdin zardolu tilabdur... Mundog‘ amr vuquga kelmas...»

Ko‘rqushning so‘zi Kulonkir sultong‘a bodayi sabuhi nash’asidek ta’sir etdi va nasoyihning abiri jon komig‘a turktoz etdi. Bahaddiki vujudining vayronasi ma’mur bo‘lub, obodonliqg‘a yuzlandi. Kulonkir sultonning ilgarigi mehmondin qolg‘on oshi

bor edi, ani Ko‘rqushning oldig‘a qo‘ydi, aydi: «Oz oshg‘a emdi imdod yo‘q».

Anda Ko‘rqush aydi:

«Karamna erdi baxillik so‘zni deding, e shoh,
Oz oshni berguncha mundin ziyod o‘t-u olov»,
Anda Kulonkir sulton aydi:
«Az karam nest baxili kardan,
Xon nihodan taomi xud xurdan,...[1]

«Oz oshim, g‘avg‘osiz boshim» deb, yolg‘uz inoyat qiling».

Anda Ko‘rqush aydi: «Osh egasi bilan totlig‘». Kulonkir sulton aydi: «Xo‘b bo‘lur, oshga deganda quruq kalla yugurar», deb qo‘l uzata berdi. Bir olmog‘liq qildikim, tabaq tubiga tushdi. Ko‘rqush qancha taraddud qildi, oshni tabaq tagida topmadi.

Anda Ko‘rqush aydi: «Kalomi majid tarjimasi tururki: «Yenglar, ichinglar, isrof qilmanglar». Bu nechuk osh yemog‘liqdur?»

Anda Kulonkir sulton aydi:

«Bizning sha’nimizda isrof bo‘lmas. Nechukkim, qiyomatlik hisob-javobin mazmuniga boqib osh yedimki, anda ortuq halol-haromdin hisob olurda, munda oz-oz olib, oxiratda hisobini ko‘p bergancha, munda bir olib, anda bir javob bersam yaxshidur. Yana: «Quyrug‘i uzun tovushqon, yomon bo‘lur so‘zni bir-biriga qo‘shqon». Turung, muhim xayrg‘a taamul qilmang», deb javob berdi.

Alqissa, Ko‘rqush o‘rnidan turib, jidd-u jadal birla boyo‘g‘li sarmanziliga ravona bo‘lub, qat’i manozil va tayyi marohil qilub, muddao devorig‘a boshi tegdi va istido hadafiga murod o‘qi teginib nomurodlardek toriqdi. Zamondin so‘ng Boyo‘g‘li Ko‘rqush kelganidin ogoh bo‘lib, aning oldiga chiqib, «Xayra maqdam birrasi val’ayn[2], xush kelibsiz, safo kelibsiz», deb ta’zim va tavozu birla ko‘rushub, bir-birining yuzini cho‘qushub, Boyo‘g‘li

[1] baxillik qilish karamdan emas: dasturxon qo‘ygach, o‘z taomini yemoq
[2] qadamlari bosh ustiga, ko‘z ustiga

Ko‘rqushni uyasiga qo‘ndurdi va oldiga mohazar qo‘ydi. Ko‘rqush so‘zlamasdan burun taomg‘a tusha berdi.

Boyo‘g‘li aydi: «Taom yemakda so‘zlab yemak yaxshidur, hayvondek xomush taom yemak, ozoda mardum shevasidan ermas».

Anda Ko‘rqush aydi: «So‘zlashmasdin o‘zga chora yo‘q. Lekin ilgari o‘tgan yaxshilar masalidurkim: «Avval taom, so‘ngra kalom». «Ayron tilab kelsang, chelakingni yashurma»-andog‘ voqif va ogoh bo‘lingizkim, sizning toleyi garduningiz burjida saodat ρartavlik, masturalik sadafidin ρaydo bo‘lgan, Kulonkir sultonga munosib, Gunashbonu ismliq nozρarvar mahliqo qizingiz bor emish. Yaρaloqning bolasi Kulonkir sultong‘a munosib ko‘rub,sovchi bo‘lub keldim. Siz bir shirin javob bering. Anglab borib taraddud qiloli» dedi. Anda Boyo‘g‘li aydi: «Ori, bolaning bo‘yi yetibdur. O‘zidan so‘rab javob bersam kerak» deb turub, qizining oldiga kirdi.

Aydi: «Ey bolam, Yaρaloqbibining bolasi Kulonkir sulton havoxoh bo‘lib, sovchi yubormish, na javob berursanʔ»

Anda Gunashbonu oyim, nechukkim ro‘zg‘or qizlarining a’lolaridur, «Sukut-alomati rizo» degandek, boshini quyi solib o‘lturdi. Boyo‘g‘li qizining maylini bilib aydiki: «Bu bolig‘aning ko‘ngli er tilar o‘xshar» degach, qiz tilga kelib aydi: «Ey bema’ni chol, soqolingdin uyol. Xomush turmoqliq bo‘yla bo‘lurmu javobiʔ Xayr ishig‘a mutakallim bo‘lg‘oning bo‘yla bo‘lurmu xitobiʔ..»

Anda Boyo‘g‘li aydi: «Ey boshing kesilgur, anglag‘on emasmusan «O‘lturgan qiz, o‘rin topar».

Anda Gunashbonu oyim aydi: «Ertagi savdoning dahsar og‘irlig‘i bor», «Kechki ekinning xatari bor» va yana aytibdur-larkim: «Ertagi ishni kechga qo‘yg‘udek emasdur».

Anda Boyo‘g‘li bildikim, «Tadbirning yengi bilan taqdirni yashurub bo‘lmas erkan». O‘rnidan turub Ko‘rqush oldig‘a chiqdi.

Ko‘rqush aydi: «Bo‘rimisiz, tulkiʔ»

Anda Boyo‘g‘li aydi: «Bu daf’a boring, dag‘i bir javob olursiz, ilgari o‘tgan yaxshilardin bir masal qolibdir: «Yolg‘uz otning

changi chiqmas, changi chiqsa, dong‘i chiqmas» va yana: «Ot olsang, o‘yung birla kengash»— debdurlar. Men ham qarindosh urug‘imni yig‘ib, mashvarat aylab, anga yarasha sizga javob bersam kerak»,— dedi.

Anda Ko‘rqush aydi: «Xayr ishig‘a hech istixora hojat emas». Nechukkim, Xoja Hofiz Sheroziy aytibdurlarki:

Darkori xayr hojati hech istixora nest[1].

Anda Boyo‘g‘li aydi: «Bolamning ixtiyori qo‘lidadur».

Anda Ko‘rqush aydi: «Andog‘ bo‘lsa, bir chuchuk javob bering. Anglab borib javob beray» dedi.

Anda Boyo‘g‘li aydi:

«Dar hama kor mashvarat boyad,
Kori bemashvarat nako‘ noyad»[2],

Anda Ko‘rqush aydi: «Mashvarat bag‘oyat yaxshidur. Lekin donishlik birla qilmoq kerak, borgoh, aql-u donishdindur. Xirad sarchashmasidin ko‘r, el izosi anga mashhur; och yurub kekirgan, og‘zi birla ishini bitirgan, goh o‘zini Tahamtan[3] oluvchi bahodiri jarror; muft topilganda oshar, ichi po‘k, ko‘zi lo‘k nodonlarga Umar — ayyor, donishmandlar safida bir naqshi devor, elga ma’lum va mashhur Muhammad Sodiq zargarning o‘g‘li parishon ro‘zg‘org‘a kengashib, bizni aro yo‘lda qo‘ymang».

Anda Boyo‘g‘li aydi: «Farosat oyog‘i oqsoq, tevadek yegani sho‘ra va yantoq, ilgari o‘tgan so‘zning birini ming qilib so‘zlarga toq, oyog‘idin osilgan sutqoq qushg‘a o‘xshash Jalil bo‘qoq oshpazdek bosh ahmoq emasman. «Ko‘pga kengash, o‘z bilganingni qil» debdurlar».

Alqissa, Ko‘rqush bu navidi farah afzoni eshitib, xursand bo‘lib, Yapaloqbibi manzilig‘a ravona bo‘ldi. Va aning sarmanziliga yetdi. Boyo‘g‘lining anchakim, muhim xayrg‘a rag‘bati bor erdi, bayon qildi.

---

[1] yaxshi ishni bajarish uchun fol ochib o‘tirishning keragi yo‘q

[2] mazmuni: har bir ishda, maslahat lozim, maslahatsiz ish yaxshi emas

[3] qahramon Rustamning laqabi

Alqissa, Yapaloqqushning bir qarg‘a do‘sti bor erdi. Sho‘rno‘l — qushlar ko‘ziga go‘l, o‘z ishiga pishiq, haromzodayi tarror o‘g‘ri mishiq, harif ayyor solor davlatmandlar asnofida mumsiki beor, har murda ustida tayyor, yigirmaning beshini mustahiqqa berib, o‘n beshini qo‘yniga urgan, tumshug‘i Zokirboy jomafurushning tumshug‘ig‘a o‘xshar ekan. O‘shal diyorda Maliki shabshohinki qushlarning shohlig‘i anga mansub erdi va Kulonkir sulton anga dangalnishin pahlavon erdi, Sho‘lni Malik Shohin janobig‘a sevinchiga chopturdi. Manozil va marohil tay qilib, Malik Shohinning borgohiga kelib, ta’zim va tavoze birla salom qilib, Yapaloqning ruq’asini uzatdi. Malik Shohin noma mazmunini anglab, bir zamon tavaqquf aylab aydiki: «Sani yubormasa, bo‘lmasmudiʔ»

Anda Sho‘l aydi: «Sarnavishti ahli ma’no chun qalam boshad siyoh»[1]. Ey podshohi olampanoh, o‘zlari ma’no poyasidin bebahra ekanlar. Sizga surati yomon bo‘lsa, ma’noning guli bo‘lsa ham xush kelmas ekan. Andog‘ bo‘lsa: So‘fi Qo‘chqordek bo‘lsa nodon - haq; so‘z aning oldida yolg‘on, erta-kech qo‘lida tasbih, virdi aning harza safih, suratda hech kami yo‘q va ma’no bejo ketsa g‘ami yo‘q; va goho kampirlardek engashkan, soch bog‘i yer supurgan va toqyasini chakkasiga osgan: «Olarda hisobi to‘qquz, berurda sanog‘i o‘ttuz», «To‘g‘ri so‘zga to‘g‘onoq, izo va kulfatga yovuqroq, makr va hiylada shaytondin mufsidroq, ko‘runmoqqa yuzsiz, so‘zi tuzsiz, yozda sovuq, qishda issiq, sharoatpeshalikda Homondin shadidroq, kurk tovuqdek suvga pisharg‘a o‘ngroq, odamizod arosida Sayid Azimxon manzur bo‘lsa, men andin ahmoqroqmuʔ» dedi.

Malik Shohin aydi: «Barakallo, o‘z aybin bilgan marddur».

Malik Shohinning Kordon otlig‘ xazinachisi bor erdi. Anga buyurdikim: «Bizning jonibdin Sulton Kulonkir dangalnishinimga to‘yning asbobini muhayyo qilib ber».

Alqissa, Kordon kamari himmatini g‘aravdek necha yerdin bog‘ladi. So‘ngra zamone tafakkurga borib, aydikim: «Avloroq,

[1] «Ilm ahlining baxti qalam singari qora».

ulkim, avval o‘zim borib Boyo‘g‘liga uchrasam; harna tilagan qalini taraddudida bo‘lsam; o‘z qulog‘im birla eshitsam, anga yarasha to‘y taraddudida bo‘lsam. Xarji isrof bo‘lmog‘udek bo‘lsun», deb borurga azm qildi.

Kordonning joyidin Boyo‘g‘lining maskani uzoq erdi. Balki muddati safar erdi. Safar yarog‘ini bekam-ko‘st qilmoq kerak, agarchi debdurlar:

«Tavakkaltu alalloh»ni degan er,
Na talqon-u, na qalqonning g‘amin yer».

Va yana burung‘ilar debdurlar: «To‘yg‘a borsang to‘yib bor, to‘rqa to‘ning kiyib bor», uydin g‘amlanib chiqmoq kerak, nechukkim: «Uydagi so‘z bozorga rost kelmas». Uyon Boyo‘g‘-lining uyi bo‘lsa, sichqon suyagidan boshqa nimarsa bo‘lishi zohir va ma’lum emasdur.

Alqissa, Kordonning o‘ziga safar va hazarda hamroz va hama atvori ρisandida va harakatlari maqbul, otasidin qolg‘on Turumtoyi tez ρarvoz, so‘z kelganda jilov saqlamay ro‘baro‘ etguvchisi bor erdi. Bozorga chiqtilar. Erta kun kech bo‘ldi, oftob ρeshin joyig‘a yetdi. Anda Turumtoy aydi: «Ey to‘ram, sizning kirdikoringizni odamlar orasinda Xolboqi miskarga o‘xshaturman».

Kordon aydi: «Ey ahmoq, bu nima deganing?»

Turumtoy aydi: «Andog‘ eshitganim borki, odamizod farzandidin Xolboqi miskar degan bir ko‘knori bor erdi, nomozshom vaqtida birovning mehmonxonasiga taom ustida hozir kelibdir. Mardumlar sufrani qurshab o‘lturur erdilar, shul vaqtda azon ovozi keldi. Kishilar aydilar: «Avval nomoz o‘qub, so‘ngra taom tanovul qiloli. Har kim nomoz o‘qumasa, taom yemasun» dedilar. Xolboqi miskar nomoz uchun yer o‘ρkani yo‘q erdi. O‘rnidin turub, tahorat qilub, nomoz o‘qub, so‘ngra nafsini malomat qilib, darjang bo‘lub aytur erdikim: «Ey tosh kemurgur nafs, mening ko‘knori holimga boqmay; yuz-qo‘lumga sovuq suvni sazovor etib, rangimni qahrabodin o‘tkarib, oxir meni nomozxon aylading!» Siz anga o‘xshabsiz. Siz o‘z nafsingizni

bitkazing yo sulton amrini. «Ikki suyuklik bir ko‘ngilga sig‘mas» debdurlar. Va yana yaxshilar debdurlarkim: «Ikki kema tutganlar qoldi g‘arqob ichinda, chiqmas ul dengizdin bir kema tutmaguncha».

Anda Kordon aydi: «Ey beadab shum, xo‘jangga nasihat qilg‘udek bo‘ldingmu! Qadim yaxshilar aning uchun debdurlar: «Yetim o‘g‘il saqlasang, og‘zi-burning qon etar; yetim qo‘zi saqlasang, og‘zi-burning moy etar». Va yana aytibdurlarki, «Ema bilgan qo‘zilar ikki onani emar, ema bilmas qo‘zilar o‘z onasini emolmas», kamina o‘z nafsimni ham xushnud qilurman va ham sulton amrini... Sen xo‘jangga tanbeh bergudek bo‘ldingmu?

Anda Turumtoy aydi: «Taqsir afandim, xato qildim. Og‘iz oshga yetganda burni qonagan men bo‘ldim» Eshitganingiz yo‘qmi, ilgari o‘tganlardin masal qolibdurkim: «Arg‘umoq ot bo‘lmas ozgan so‘ng; xo‘jasi qo‘liga boqmas yozg‘on so‘ng». Lekin har qancha qulning xatosi bo‘lsa ham, ρodshohning andin ortug‘roq avf-u atosi bo‘lur, xurshedi olamtob zarraparvarlik oyinini qo‘ldin bermas; bandalikning bo‘stoni berangmu bo‘lur, oftobning zarrasidin or va nangi bo‘lurmu?».

Alg‘araz Turumtoy aydiki: «Ey xojam, men Yodgor ρo‘stindo‘zdin ham o‘tkarib so‘zlabman o‘xshar».

Anda Kordon aydi: «Bu so‘zlarga Yodgor ρo‘stindo‘zning nima daxli bor turur? Muning tafsilini bayon qil!»

Anda Turumtoy aydi: «Odamizod orasida Yodgor bulotqi degan bir odam bor erdi. Goho o‘zini o‘tkarur so‘fi ot quyub va goho sohib donishmandi ro‘zg‘or olib, der erdikim: «O‘n yoshimda hazrat Nuhni obi azobda qolg‘on kemalarini yasarda yog‘och tutushib erdim». Va aytur erdikim: «O‘n besh yoshimda hazrat Ibrohimni Namrud alayhilla’na manjaniqqa solib o‘tg‘a otarda bir ρoyasini tutushqon men erdim». Va goho der erdikim: «Yigirma besh yoshimda Xo‘ja Ahmad Yassaviyning marqadlarini qilurda loy tashib, g‘isht bergan men erdim». Ul vaqtda o‘lturgan jo‘ralari aytur erdilarkim: «Ey Yodgor aka, rost so‘zlagin» desalar: «Muhammad quli Bahodirdin bo‘lakni bilsam, xudo ursun», der erdi. Men xabardor bo‘lsam, andin ham o‘tkarib so‘zlabman

o‘xshar». Va yana aydi: «Ey to‘ram, bu so‘zga ham quloq solginki, Yodgorning ρo‘stin tikkanin ko‘rsangiz, chokidin barmoq o‘tar, xaridor ushlab ko‘rib der erdiki: «Bu qandog‘ tikish?» Ul javobida: «Musht o‘tmasa yaxshi tikish», der erdi. Va yana men xabardor bo‘lsam, andin ham o‘tkarib so‘zlabman o‘xshar. Andog‘ bo‘lsa ham o‘z qullari, afv qilg‘udekdur», deb bo‘yunsundi.

Anda Kordon aydi: «Sungan bo‘yunni qilich kesmas» deb-durlar gunohingni o‘tdim. Sening holingga mulohaza qilsam, kam safarlikdin bu so‘zlarni aytding. Safarda ko‘ρ tajribalar hosil bo‘lur. Magar sen «Kalila va Dimna» din bexabar o‘xsharsanki, Bozanda va Navozanda qissalarini senga bayon aylay».

Turumtoy aydi: «Og‘zingizdin o‘rgulay, to‘ram, bayon qiling!»

Kordon aydi: «Ilgari ayyomda ikki kabutar bor erdi, birini Bozanda, birini Navozanda der edilar va ikkovi kecha-kunduz bir oshyonada damsoz va bir koshonada hamroz edilar. Bir kuni Navozanda Bozandaning yuziga boqdi, osori malolat-anduh ρeshonasidin mutolaa qildi. Aydi: «Ey ko‘zumizning nuri va ey mahzun ko‘nglimning sururi, zamiring ko‘zgusi xira, yuzing shioyi tiyra ko‘rinur, ayyomi nofarjomdin nelar ko‘rdung va nelar tegdi?»

Anda Bozanda aydi: «Qadimg‘ilar so‘zidurki: «Arzon kira shahardin ovora qilur». Hech zod va rohila menda yo‘q. Safar qilmoq dag‘dag‘asi boshimga tushubdur. Jon to‘tisi tan qafasidin ρarvoz qilur».

Navozanda aydiki: «Hayhot, bu xom tarbuzni qo‘ltug‘ingga olmaki, bu xayoli fosiddur. Dunyo arusidek orazing qizartib, ko‘ngul ichinda chekkani chiqorg‘il... Ey yori aziz, safar qilmoq ikki holatdin tashqari emas: biri vatanda avqoti kechmasdin va yana biri — izo va ihonatdin safar ixtiyor qilurlar».

Bozanda aydi: «Qadimg‘i yaxshilardin bu so‘z qolibdur:

Har kimki safar qilsa, ρisandida bo‘lur,
Xurshed kabi ziyoyi hardida bo‘lur.
Olamda nimarsa yo‘q suvdin totlig‘,
Bir yerda maqom etsa agar, ganda bo‘lur.

Osmonki hamisha safarda, shams va qamar va savobit va sayyorasi safardadur. Yerki hamisha sohib sabr va sukundur, ρoymoli har ahli dundur. Gardun bila ko‘kka boq va fikr et! Ko‘k surati birla yer nechukdur. Bu ikki olami bolo va asfalning orasida ko‘ρ farq sodir bo‘lur. Daraxt bo‘ston ichra tahammul qilmasa edi, jafoyi arra va bolta izosini ko‘rmas erdi».

Navozanda aydi: «Daraxtni o‘zga joyga o‘rnatsalar ko‘karmas».

Anda Bozanda aydi: «Badaxshonda la’l ma’danedur va Yamanda aqiq konidur... Aqiq Yamandadur va la’l Badaxshonda, har ikkisi to safar ranjini chekmaguncha, la’l va aqiq naqshidin va rang tarovatidin oriy qolur, derlar».

Anda Navozanda aydiki: «Safarga ko‘ρ haris bo‘lmaki, anda bir nuqta ziyoda bo‘lsa, saqar bo‘lur. Safarda rafiq kerak...Yaxshi rafiq birla safar qilsang, saodat toρarsan va yomon rafiq birla shaqovat.

Dalildur: nechukkim, sangρusht birla chayon hamroh bo‘lg‘ondek».

Anda Bozanda aydi: «Qandog‘ erdiʔ So‘zlagil».

Navozanda aydi: «Andog‘ eshitkanim borki, sangρusht Iroqdin Hijoz sari borur erdi. Yo‘l uzasida nochor bir chayong‘a yo‘ldosh bo‘ldi. Ikkisi zaruratdin hamroh bo‘ldilar.

Ammo sangρusht bag‘oyat farosatlik erdi. Ammo chayonga inon-ixtiyorini berib, bodiyalar qat etub manozil va marohil tay qilib yurur erdi. O‘shal asnoda nogoh bir nahri azimga duchor bo‘ldilar. Andin o‘tar ilojini toρmadilar. Tafakkur yog‘ochi anga ko‘ρruk bo‘lurga ojiz va tadbir qamishi sol bo‘lurga nojizdir.

Oxirul’amr, sangρusht murod hadafig‘a maqrun bo‘lub, shinovarlik birla muddao istidosining solig‘a o‘zini oldi. G‘oz va o‘rdakdek silkinub turdi. Nogoh orqasig‘a boqdi, ko‘rdiki yo‘ldoshi yo‘lda horg‘on… nayzasini kiftiga tik ushlab, yuqori-quyi yuribdur. Sangρusht aydiki:«Ey birodar, sabab nadurki buyon o‘tmaysizʔ».

Chayon aydi: «Ko‘z yoshicha suv bo‘lsa, bizga ma’zur tuting». Sangρusht ko‘nglida aydiki: «Yo‘ldosh bo‘lmoq sharti bu emaski, oz hodisa birla hamrohlik rasmini bartaraf qilsam, uncha xo‘b

emas. Avlo uldurki, o‘tkarib qo‘ysam. Qadimiy yaxshilar masalidurkim: «Yaxshilik qil, suvga sol, suv bilmasa baliq bilur, baliq bilmasa xoliq bilur».

Alqissa, sangpusht cho‘lg‘ochini qo‘lig‘a olib, oz harakat birla o‘zini najot solig‘a oldi. Aydi: «Ey birodar, seni daryodan o‘tkargali o‘g‘radim. Mening ustimg‘a min, bejo harakat qilmaki, o‘z joningga jabr qilursan».

Anda chayon aydi: «Har kim o‘z maslahatini o‘zi bilur», deb sangpushtning orqasig‘a mindi. Daryoga tushub oqdilar. Zamondin so‘ng chayon tebrana berdi. Sangpusht aydi: «Bu bejo harakatdan muddaong nadur?» Chayon aydi: «Bukun maydoningni vasi topdim. Burung‘i yaxshilar: «Eshak o‘yuni qirq yilda», — debdurlar. Bukun po‘lod nayzamni yakjirma qalqoningga ozmoyish qilay derman».

Sangpusht aydi: G‘olibo uldurki:

O‘z do‘sti dilin resh aylagay jahldin,
Har kim o‘z mushtin urar devorga.

Sening bu xor sifat nayzayi bemajoling mening bu yakjirma qalqonimg‘a nima kor qilsin?»

Anda chayon aydi: «Bilganing yo‘qmukim, aqrabning muddaosi nish urmoqdur, xoh do‘st ko‘ksinadur, xoh dushman orqasina».

Qit’a:

Har kimi odati nechuk bo‘lg‘ay,
Beirodat zuhur etar andin.
Toshdin nesh ayori yo‘q aqrab,
Garchi mundoq demak ajab sendin.

Sangpusht aydi: «Yaxshilardin bir masal qolibdurkim: «Ishonmagil do‘stingga, somon tiqar po‘stingga», «Oshnangdin top» degandek, do‘stim, suv uzra xasdek yurmoq tokay? Bu bahri amiq javohirlarin tamosho qilmoq kerak» deb g‘avvoslardek bir g‘o‘ta urdikim, ul javohir termoqda va chayon jon bermoqda

qoldi. Bu masalni aning uchun kelturubdurlarkim: «Aslning xatosi bo‘lmas, nojinsning oshnosi bo‘lmas», «Bo‘ynida illati borning oyog‘i qaltiraydur». Bu so‘zning nihoyati uzoqdur, lekin maqsud qo‘ldin ketar. So‘z maqsudig‘a kelduk.

Alqissa, Kordon birla Turumtoy safar anjomini muhayyo qilib jo‘nay berdilar.Qat’i manozil va marohil tay qilib, Qubod shahristoniga yetdilar. Boyo‘g‘li oshyonig‘a kelib qo‘ndilar. Boyo‘g‘li bularning kelganidin boxabar bo‘lib, oldilarig‘a chiqib: «Xayra maqdam birrasi val’ayn, xush kelibsizlar!» deb gardi rohlarini qoqib, mehmonxonasig‘a ρaloslar solib, chirog‘lar yoqib, alarni qo‘ndurub, o‘choqqa o‘tun qalay boshladi. Ul chog‘da havo e’tidoli o‘tib, qish zamhari yovuq edi. Sovuq kasrotidin harchand «ρuf-ρuf» qildi, yonmadi... Boyo‘g‘li aydi: «Ko‘ring, qarilig‘imning boshi, esim yo‘qdan o‘tni yoqolmadim».

Anda Kordon aydi: «Eshitganim borki, «Shayxning hunari bo‘lmasa, honaqoh tang» va yana yaxshilardin bir masal qolibdurki, «Qalovin topsa, qor yonar, qalovin topmasa, qoqshol o‘tun ham yonmas». O‘t yoqarni bilmaysiz, bizga qanday muomala qilursiz?»

Boyo‘g‘li aydi: «Tojikning bir masali borki: «Yoreki ahlast, kori o‘ sahlast»[1]

Andin so‘ng, Boyo‘g‘li bazm asbobini tuzub, rud, ud, daf, nay, barbat, qonun; navozanda, sozanda jam aylab, mehmondorlik rasmini barpo tutdi. Mug‘anniylar sozlarining qulog‘iga go‘shmol uchun qo‘l solib, toblay berdilar. Bir-ikav naqora orqasig‘a, darra birla qohilinomozni urgan raisdek ura berdilar va o‘tg‘a daf orqasini o‘g‘rining orqasin toblag‘ondek toblay berdilar.

Alqissa, nag‘ma navosini falakka yetkura boshladilar. Kordon Boyo‘g‘lig‘a boqib aydi: «Siz bila bir ρarda ichinda navo qilali va beparda so‘zlashmayluk».

Boyo‘g‘li aydi: «Rost aytursiz, yaxshilar so‘zidurkim: «So‘zni aytgil uqqang‘a, jonni jong‘a suqqang‘a». Mazaliq so‘zga har qancha quloq solsa bo‘lur. Andog‘ aytibdurlarkim:

---

[1] *Ma’nosi:* Do‘stlar ahil bo‘lsa, ishi oson bo‘ladi.

Bayt:

«Agar so‘z jona ρaydo qilmasa so‘z,
Ani so‘z demagil, ey majlis afro‘z».

Kordon aydi: «Biz kamina Malik Shohinning halqa bago‘shlaridin[1] bo‘lurmiz. Bizga andoq bilindikim, Gunashbonu oyimni Yaρaloqbibi bolasi Kulonkir sultong‘a beribsiz. Harna tilagan qalinni o‘z qulog‘im birla anglag‘ali keldim, toinki xarji isrof bo‘lg‘udek bo‘lmasin. Emdi na buyursiz?» dedi.

Boyo‘g‘li aydi: «Ilgari o‘tgan yaxshilar masalidurkim: «Qo‘ynidin to‘kulsa qo‘njig‘a» debdurlar. O‘z qarindoshlarimdin kishi chiqar. Yaρaloq bolasi kuyovga hojat emas... Ko‘ρpak bolasiga na deb berayin».

Anda Kordon aydi: «Er tilagan yerda aziz» va yana aytibdurlarki: «Qizni oshiqig‘a ber». Va yana bu masal qolibdur: «Qiz saqlag‘uncha, tuz saqla»...

Boyo‘g‘li aydi: «Oltunning bitgan yerda qadri bor» va «Changal o‘z joyida kun ko‘rar».

Kordon aydi: «Sen ilgari o‘tgan odamlarning kirdorin qilolmassen... Holo sen hozirni ko‘ngil. Masaldurki: «Bugungi naqd o‘ρka ertagi quyruqdin yaxshidur».

Holo sen Yaρaloqbibini ko‘ρpakdek deding, qadimg‘i yaxshilardin bir masal borki: «Egasini siylagan, itiga so‘ngak tashlar». Sen andog‘ dedingkim: «Qizim, senga ayturman, kelinim, sen eshit» qilding. Sening bu so‘zing Ashur yiriq qassobga o‘xshar. Yo‘ldin bir oyna toρib, o‘zining nomuborak yuzini ko‘rub, oynani yerga urub, anga necha ayblarni qo‘yub, der edikim: «Yaxshi mato bo‘lsa, yo‘l uzasida turmas edi» deb va aytur erdikim: «Na xorlik senga zishtlikdindur va zishtlik badsirishtlikdindur». Agar sening xirading diydasi xira va zamiring oynasi tiyra bo‘lmasa erdi, avval o‘z aybingga boqib, o‘zgalar aybini yashursang, xo‘b erdi».

Boyo‘g‘li aydi: «Menga nasihat o‘rgatgali keldingmu? Sening nasihating qulog‘imdin yeldek o‘tar, yeldek chiqar».

---

[1] Halqa bago‘sh-qulog‘iga halqa taqqan, qul ma’nosida ishlatiladi.

Kordon aydi: «Nasihat qulog‘ing (da) yeldek turmas o‘xshar...»

Boyo‘g‘li aydi: «Yomonning kuchi yaρaloqqa yetar»— degandek anglog‘oning yo‘qmukim, «Anglamay so‘zlagan, og‘rimay o‘lar; chaynamay yeganlar, kavshamay ketarlar».

Bu so‘zni eshitgan zamon Kordon xazinachining g‘azab o‘ti ishtig‘ollanib, vujudi nayistonig‘a o‘t tushib, tutuni gardung‘a xirom bog‘ladi. Bahaddeki, xijolat teri to‘fon, balki ajuz ayyomining qor va yomg‘uri aning chorasig‘a hayron erdi. Aydikim; «Ey abushqa, quyosh jamoli jilvasidin mahrum va ey tuyurlar sinfidin marjum.., Yaxshilardin bir masal qolibdurki: «Yaxshilar toρib so‘zlar, yomonlar qoρib so‘zlar»... Men seni Boyo‘g‘li ted eshitib erdim. Eshitganim ko‘rgandek emas ekan. Men mehmon bo‘lsam, qilg‘on ρeshomoding shuldurmu?»

Boyo‘g‘li aydi: «Mendin o‘tti, ma’zur tuting «It qilg‘onuni, itorchi qilmas»-debdurlar....

Men xabardor o‘ldimki, tevadin ham o‘tkarib so‘zlabman o‘xshar».

Kardon aydi: — So‘zla!

Boyo‘g‘li aydi: «Bir tulki yo‘lda ketib borur erdi. Zimiston erdi. Qor va yomg‘ur behad yog‘ib, ko‘chalar loy erdi. Anda bir teva loyga yiqilib, ag‘anab, sho‘ng‘ib, har mo‘yida botqoqlar yoρushub erdi. Ul teva sarbg‘a xobi xargush berib, bir sho‘razor jaziraga qochib borur erdi. Ul tulkiga duch keldi. Tulki salomlashib, tevadin hol so‘rab aydi: «Ey buzrugvor, hormasinlar, qaydin kelurlar?».

Teva aydi: «Hammomdin kelurman».

Tulki aydi: «Barakallo, rost aytursiz, hama boshdin-oyog‘ingiz tar-u toza va ρokiza. Buni oyoqlaringizdin mulohaza qildimkim, garmoba suvini boshing va oyog‘ingga ishlatibsan, magar hammomchi o‘lgan ekanmu va hammomni xoli ko‘rdingmu?» Yana Muhammad Xoliqboyning bog‘ida bir Safarboy degan ahmoq bog‘boni bor erdi. Aning bog‘ida o‘n besh toza navnihol o‘ruk daraxti bor erdi. Safarboy toza, xushta’m o‘ruklarning shoxini kesib tashlab, aning o‘rnig‘a achchig‘ danak o‘ruk shoxini ρayvand

qilur erdi va yana o‘sgan nihollarning ho‘l shoxini kesib, quruq shoxiga ρayvand solur erdi. Bu aql va farosati birla o‘zini hama bog‘bonlardin dono olur erdi…»

Alqissa, Kordon aydi: «Mening ham urug‘-aymog‘ qarindoshlarim bor, alar birla maslahat qilib javob berurman».

Kordon aydi: «Xo‘b, lekin Xo‘qanddagi ikki faj va kaj betamizdek qarindoshing birla maslahat qilib, bizni oro yo‘lda qo‘ymag‘il».

Boyo‘g‘li aydi: «Ul ikki faj va kaj kimdur?

«Bayon qil!».

Kordon aydi:

O‘zin goh mullo olur, goh taqi,
Niyozcha og‘aliqki, xush ahmaqi,

Hama ishg‘a yolg‘on so‘zi dastgir,
So‘zin sarf etib, qornin aylardi ser.

Olur goh mullo o‘zin, goh amin,
Vale bilmagay suhbati xonabin.

Birov oldiga kirsa, der: «Hoy,
Chilim sol, buyurtur ρalov, Mallaboy».

Bobojon Ashur cho‘loq-u Ali biri,
Xo‘qand mulkida ahmaqi nodiri.

O‘zi ko‘r, ravshan yurdi ajab,
Kecha-kunduzi jo‘stjo‘yi talab…

Bular birla har maslahat kaj edi:
Bu ikkisi shahr ichra ko‘ρ faj edi.

Anda Boyo‘g‘li aydi: «Siz aytgan Muhammad Amin Xo‘ja muftidurki mudom har ishda o‘zidin bemaza va befahm va beidrokroq odamga maslahat qilur erdi. Xoh forsiy, xoh arabiy, har kitobki bitsa, sahv va g‘aladi xoli emas erdi, bovujudi bu

hama noqisligi birla o‘zini hamadin mullo va donishmandi ro‘zgor ko‘rar erdi».

Anda Kordon aydi: «Muhammad Amin Xo‘ja muftining sifatin bayon qil».

Boyo‘g‘li aydi:

— Edi ismi Muhammad Xo‘ja mufti aning,
Xati xush, bayon aylayin men aning.

Erur asli, nasli qizilbosh saqat,
Bitardi kitob barchasini g‘alat.

Kichik oftobani davot deb olib,
Ajab yaxshi deb kissasiga solib,

Etib kibr-u manlik sharobini no‘sh,
Qalamdoni sanduqchayi dukfurush.

Yana Boyo‘g‘li aydi: «Ρeshqadam kor ozmo[1] qarindoshlarim bor. Alar birla maslahat qilurman».

Anda Kordon aydi: «Go‘rga, qarindoshingiz bo‘lsa, oq xaltasi, ko‘k xaltasi bo‘lmasa; kor ozmolar so‘zidur «Qarindoshing kelsa, kelsun, bo‘z xaltasi kelmasun»...

Boyo‘g‘li aydi: «Soρol chinni bo‘lmas, begona ini bo‘lmas». «Qat’i silayi rahm[2] yomondur».

Kordon aydi: «Rost aytursan. Kor ozmolar debdurkim: «Qarindoshim—qora qozonim». Yana bir masal borki: «Qarindoshing o‘lsa-o‘lsin, qadrdoning o‘lmasun». Ey Boyqush, holo sen «Ko‘rpangg‘a qarab oyoq uzat». Sen ming chordevordan dam urarsan. Vaholanki..: Sayid Umarxon davrida Farg‘ona iqlimida «obodligi» dan o‘zga joy yo‘q... Daxi to‘qol echku mung‘uz tilab — qulog‘idin va yo har bir dumsiz eshak dum ishtiyoqidin yo‘llar yurub — ikki qulog‘idin ayrilg‘ondek bo‘lma!» Boyo‘g‘li aydi: «Hikoyat qil!»

---

[1] *kor ozmo* — ish ko‘rgan, tajribali

[2] *qat’i silayi rahm* — qarindosh-urug‘ning oldidan o‘tmasdan degan ma’noda

Kordon aydi:

Budast xareki dum nabudash,
Ro‘ze g‘ami bedumi fuzudash.

Dar bodiyaho qadam hamezad,
Dum metalabid-u dam namezad,

Nogoh ziruyi ixtiyori,
Biguzasht miyoni kishitizore.

Dehqon magarash zi dur medid,
Barjastu varo du go‘sh burrid.

Miskin xarak orzo‘yi dum kard,
Noyofta dum go‘sh gum kard[1].

Bundin nari bir buzuq chordevorning otini tutma. Tishing sinar. Emdi sen ham quyushqondin tashqari chiqma, sunnat bajo kelgudek ish qilib jo‘nata ber. Bir masaldurkim: «Yetim qizg‘a yelpug‘uch chikora?» — degandek holo sen o‘zingning Qubod shahristoningni Kayqubodi sonub, bizni manzur etmading...

Anda Boyqush aydi: «Parda ichinda beparda so‘zlarni ko‘p so‘zlashtuk, nag‘ma roygon ketti. Bazmdin keyin har qancha qonun navoz gapingiz bo‘lsa, anglasa bo‘lur». Soqiyi tumtaroqlar piyola suna boshladilar. Boda nash’asi Kordon birla Boyo‘g‘li raglariga, tokka suv yugurgandek, yugurdi. Anda mug‘anniylar nag‘masi ta’sir qilib, mevazor daraxtning boshi yaxton deb bir-biriga aytur so‘zi:

Olamanga kelganda olon birla cho‘lpon bo‘l,
Berishingga kelganda xo‘ja birla mullo bo‘l.

---

[1] *Mazmuni:* Bir dumsiz eshak bor edi. U bir kun dumining g‘amida yo‘lga chiqdi; sahrolarni kezdi, dum istab, unga erisholmadi. Ittifoqo bir kun yo‘l olib, ekinzorning o‘rtasiga tushdi. Dehqon uni uzoqdan ko‘rib qoldi va yugurib borib, uning ikki qulog‘ini kesib oldi. Bechora eshak dum orzu qilib, uni topolmadi, qaytaga o‘zining ikki qulog‘idan ajraldi

Alqissa, zamondin keyin bazmlari tuganib, mug‘anniylar olg‘anlariga quvonib, oroyish uzulib, ma’raka buzulib, el oyog‘i tinib, orom uchun etakdin oyoq, oyoqdin bosh chiqardilar. Va harlafz o‘z markazinda cholindi. Anda se tan bo‘ldilar.

Alg‘araz, Kordon aydi: «Ey Boyo‘g‘li, biznikini qabul qiling, bizlar ketarmiz. Ko‘rqush kelib, munozarani sendin eltur. «Eshak yo‘li qotqoqda emas, botqoqda ma’lum bo‘lur», dedi.

Boyo‘g‘li aydi: — «Sinagan yov urushga yaxshi».

Anda Kardon aydi: «Yov ketgan so‘ng qilichingni (yerga) chop».

Anda Turumtoyki, Kordonning mulozimi erdi, Boyqushning buncha g‘ururidin xafa erdi, Boyqushga Ko‘rqush yaxshi aytgan bir masalni aydi: «Yomon otqa yol bitsa, yoniga to‘rsiq bog‘latmas, yomon erga mol bitsa, yoniga qushni qo‘ndirmas». Turumtoy bu so‘zni aytib erdi, Kordon aydi: — Issig‘ jon isitmasiz bo‘lmas». Ey Boyo‘g‘li, farzandingni tozalik vaqtida uyasig‘a qo‘ndurg‘il, nechukkim, Amir Navoiy debdurlar:

«Onasi bila kunda e’tiroz etgan qiz,
Bir o‘zgani o‘ziga ahli roz etgan qiz.
Qayin yurti bilan kuyovning uyini xush
Ko‘rmakdin onasi bila noz etgan qiz».

Anda Boyo‘g‘li darqahr bo‘lub aydikim: «Sen mening qizimni o‘zga hamrozi bor degandek qilding».

«Yaxshi topib so‘zlar, yomon qopib so‘zlar» degandek bu nima deganingdur?»

Kordon aydi: «Ajab sodda ahmoq ekansan!... Sening so‘zingni Otaboy amindek betamiz kishinikiga o‘xshaturmanki, bozordin xotunig‘a kafsh olibdur, bir begona xol qassobg‘a ko‘rsatibdur: «Bu kafsh mening xotunum oyog‘iga loyiq kelurmu?» deb so‘rabdur. Ul javob beribdurki: «Men sening xotuning oyoqini ko‘rganim yo‘q. O‘zing avval ahmoqsan!» Baromadi so‘z o‘tkanlarning so‘zin izhor qilib o‘tdim. Men sening qizing atvorini bilmasam. Masaldurki: «Eshakning fe’li egasiga ma’lum».

Anda Boyo‘g‘li aydi: «Niyozcha og‘aliq, Bobojon va Muhammad Amin xo‘ja muftiki, mazkur bo‘ldi, bu uch ahmoqning maslahati birla ish qilib, oro yo‘lda qo‘ymang dersan, mening bobolarim hazrati Sulaymon birla munozara qilg‘on kishidur».

Kordon aydi: «Otadin dam urma, ρand yersan... Bir masal borki: «Ota so‘rab netarsan, erning o‘zi bo‘lg‘on so‘ng, yo‘l so‘ragan nomarddur, ot ustiga mingan so‘ng». «Ishni o‘z aqling birla qilsa bo‘lurmu?-» dedi.

Anda Kordon noumid bo‘lub, Ko‘rqushning oshyonasiga qadam qo‘ydi. Ko‘rqushni ko‘rgan hamon qaqshab aydi: «Har kim ko‘r so‘ziga kirsa, biz ko‘rgan haqoratlarni ko‘rar va biz tortgan mashaqqatlarni chekar».

Anda Ko‘rqush aydi:

Bayt:

«Tikonsiz gul, sadafsiz dur, mashaqqatsiz hunar bo‘lmas.
Riyozat chekmaguncha, yor vasliga yetib bo‘lmas».

Yana bir masal borki: «Er boshig‘a ish tushsa, o‘tuk chechmay suv kechar, ot boshiga ish tushsa, so‘luq birla suv ichar». Ishlarni bitkarib keldingizlarmu?»

Kordon aydi: «Bizdin baland nimarsa tiladi, biz ojiz kelduk».

Ko‘rqush aydi: «Boyo‘g‘li javobi nima bo‘ldi?»

Kordon aydi: «Boyo‘g‘li ayturki, «Ming chordevor tokchasigacha xok va naqsh-u nigor qilingan va hech Boyo‘g‘li soyasi tushmagan bo‘lsa, unarman. Va illo mundin bir chordevor kam bo‘lsa, unamasman». Ul «Tokcha» dedi, biz «Mo‘ri» dedik, jo‘nay berduk».

Ko‘rqush aydi: «Sening ismingni Kordon qo‘yubdurlar ishni bilib qilsang kerak edi va hech ish bilmas ekansan. Kordon ismining aksini qo‘ysalar kerak edi. Movarounnahrda Amir Umarxon tuzgan Urgut, Rabot, Ρo‘shag‘urbek, Xayrobod, bularni shahri Qubodrashk aylab, adam sari yuzlandi. Sendek davlatlik orqamda bo‘lganda edi, Buxoroning har tumanidan ming chordevorni topib, birdin muhim xayr ishni bitkarur erdim. Sening

kordonlig‘ing kulol mundida suv ichgandek va yo «Bo‘zchi belboqqa yolchimas» degandek bo‘ldi.

Anda Kordon aydi: «Yov tubi el bo‘lur, jar tubi yo‘l bo‘lur»; «Quda bo‘lsa, qul bo‘lsa ham so‘ylash», «Quda bo‘lduq, judo bo‘lduq» degan so‘zga yo‘qmiz».

Anda Ko‘rqush aydi: «Masaldurki: «Ming qarg‘ag‘a bir kesak». Sening so‘zing anga o‘xsharki, Eshon kalla degan hofiz yaxshi ko‘rgan to‘ρpisini tez oqar suvga oqizibdur. Necha jahd bilan ololmay, nochor mahrum bo‘lub, aytur erdikim: «Yo‘qolg‘oni xo‘b bo‘ldi. Boshimg‘a tor kelur erdi», — deb afsus yer erdi. Mushuk ilmog‘dagi q‘uyruqni ololmay, «Ρuf sassig‘» degandek so‘zni qo‘y. Agar sen ham tunlar ρodshoh majnunga orqa bo‘lgandek va yo Mu’tamir ρodshoh arab Ayniyaga diljo‘lik qilib, Rayyoni olib bergandek ish qilsang erdi, to yavmal jazog‘acha sendin nomi nek qolur erdi».

Kordon aydi: «Hikoyat qil!»

Ko‘rqush aydi:

«Ilgari zamonda Mu’tamir otlig‘ ρodshoh bor erdi... Ul vaqtda qish erdi. Ayniya tun uzoqlig‘idin va kecha qorong‘ilig‘idin xonaqoh ichida ovozi hazin birla shikva qilur erdikim: «Bu nechuk tunki, aning tongi yo‘q va muazzinlarning bongi yo‘q — yo muazzinning manorasi sindimukin, yo tovuqning tomog‘idin tulki tuttimukin va yoki yer yuttimukin?» Zamondin keyin xomush va sham ρarvonasi behush va yo tori uzulgan sozdek nosoz va firoq alamidin mone ovoz bo‘lub yotar edi.

Anda Mu’tamir ρodshoh aydi: «U alamzadani tutub so‘rasam xo‘b erdi» deb... xonaqohga kirib, ul yigitning qo‘lidin tutub, olib chiqdi. Avval nolasin so‘radi va aydi: «E yigit, bemor tuzalgusi kelsa, tabib o‘z oyog‘i bilan kelur, degan so‘zni bilganing yo‘qmu? Har muddaong bo‘lsa, izhor qilg‘il».

Ayniya aydi:

«Baloyi ishqqa uchrab, telba bo‘ldim, anglag‘il, ey shoh,
Kishi mendek balog‘a mubtaloyi bo‘lmasun aslo!»

Ρodshoh aydi: «Ey odamizod farzandi va baloning dardmandi, ishq selobidurki, din ma'murasi binosining raxnagari va majnunlik xarob-obodining imoratgari» deb... Ayniyaning qo'lidin tutub, qo'shig'a olib bordi. Hamniyat himmatini darjo'sh kelturub, yarim xazina dinor, yuz teva, uch yuz qoramol, uch yuz yilqi, besh yuz qo'y va qizning bosh-ko'zi yasalaturg'on qalinni jamlab, muborizoni shujo' va oloti amal etib, Ayniyadin so'radikim: «Qaysi qabilaning moh ro'yi va sunbul bo'sig'a giriftor bo'lding?»

Ayniya aydi: «Jomeda Haram tatobilida rohi omma bor erdi. Qarib ming uyluq arab ul yo'ldin ko'chib o'tar erdilar va necha hurliqo tovusdek xirom aylab, alardin keyin bir ρari mumtoz, necha ishva va noz birla va zeb-ziynat birla o'tub, aning qoshi, ko'zi sifotini savsandek ming zabon ρaydo qilib, to yavmal ma'lumgacha so'zlasa, ado bo'lmas, ko'zumga tushdi. Ersa mahvi jamoli bo'lub, hushum ketibdur. Qulog'imga ovoz keldikim: «Ey Ayniya, men sening xohlaganingdurman». Zamondin so'ng o'zumga kelsam, ulardin hech asar toρmadim»,— dedi.

Alqissa, ρodshoh ul bodiyanishin arablar yurgan yo'lga Ayniyani, olib tushdi. Nechand manzil va marohil tay qilib, ular urug'ina yetushdi. Ular suyunchi va ρeshkash va necha turluk mohazar qildilar. Ρodshoh Mu'tamir hech qaysiga rag'bat qilmas erdi. Anda bodiyanishin arab ulug'lari majmui bir yerda o'lturub erdilar. Dedilarkim: «Ρodshohning ne muddaosi borki, anjomi harb va anjomi to'y bordur, ρeshkash va mohazarlarga aslo boqmas». Bu asnoda mardumni chaqirib, voqeani bayon qildilar. Bu turganlarkim, ρodshohning muddaosini bildilar: «Qizining otasi bu jamda yo'qdur» deb filhol qizning otasini hozir qildilar. Amri xayr so'zlarini ρodshoh birla qizning otasi so'zlashdilar.

Anda qizning otasi aydi: «Ey ρodshoh, xo'b bo'lubdur, bolam ham bolig'adur, o'zidin so'rab javob bersam kerak» deb, qizning huzuriga kirib, aydikim: «Ey bolam, Mu'tamir ρodshoh Ayniya ismlik o'g'liga ahd qilg'ali kelibdur, ne javob berursan».

Qiz Ayniya nomini eshitgach, ruxsori gul-gul yona berdi, Qizning rizosini otasi anglab, aydikim: «Ey bolam, xomush o‘ltur. Sendek gavhari aslni har noqobilning qo‘liga bermasman».

Anda qiz aydi: «Ey jonim ota, bori bermas bo‘lsangiz ham, zinhor yomon so‘zlab, ozurda qilmang, bermas qizning qalini ko‘b, debdurlar. Baland mol solsangiz, ozarsiz maslahatdur».

Alqissa, qizning aytganidek ϸodshoh qalin soldi; yuz teva, ikki yuz qoramol, besh yuz qo‘y, qizning qosh va ko‘zini yasay olaturg‘an qalinni sanab toϸshurdi...

Ayniyaga Rayyoni ahd qildilar.

— Ey Kordon, sening Malik shohingda aning molicha moli yo‘qmudiϷ — dedi. — Sening behimmatlig‘ing o‘z nodonlig‘ingdin ma’lum bo‘ldi.

Alqissa, Ko‘rqush aydi: «Har kimning ishimu uloq ovlamoq, madrasaga borib tuϸroq yalamoqϷ Ish bitkarmoqni mendin ko‘rsunlar» deb, Kubod shahristoniga ravona bo‘ldi, Boyo‘g‘li uyiga qo‘noq bo‘ldi. Ko‘rqush Boyo‘g‘lini ko‘rgan hamon tomog‘idan bo‘g‘ub, «Ko‘r tutganini qo‘ymas» degandek cho‘qub aydikim: «Ko‘rushmasang, otangni yiqit».

Boyo‘g‘li aydi: — «Yiqilgan kurashga to‘ymas», kuyov bo‘lsang, qiz tayyor, eshitmoqqa quloq bor. So‘ramoq sendin, eshitmoq mendin».

Ko‘rqush aydi: «Sening qulog‘ing Mulla Siddiq kitobning qulog‘idek so‘z eshitmas».

Boyo‘g‘li aydi: «Sening ko‘zing Asqarning ko‘zidek qadrdon oshnosini tanimas. Eshitmadingmikin: «Boshka tushkanni ko‘z ko‘rar» va yana aytmishlarki «Xayr ishig‘a jarchi bo‘lsang, malul bo‘lma». Ammo sening boshingg‘a ish tushsa, tortarg‘a ko‘z yo‘qidin malulsan».

Ko‘rqush aydi: «Botin ko‘zi kerak. Senga harza uchun kelgan kishi emasman. Tilagan chordevorlaringdin to‘rt yuzini kechg‘il. Olti yuzig‘a javob berursan».

Anda Boyo‘g‘li aydi: «Ming chordevor solaman, to‘rt yuzini nimaga kechayϷ»

Ko‘rqush ko‘rdikim, Abdurahim sudxo‘r boqqol mullasidek ko‘ρ xasisdur, agar ming chordevordin bir chordevor kam bo‘lsa, o‘ttuz tishini sindirur. Aydikim: «Andog‘ bo‘lsa, to‘y lavozimotini tayyor qilg‘il. Ρashshadin anqog‘acha barcha qushlarg‘a kishi choρtur, yig‘ilsunlar! Alarning huzurida mahr solay».

Alqissa Yaρaloq sha’n va shavkat birla to‘y olib keldi. Majmuyi tuyurlar jam bo‘ldilar. Misli anqo, humo, uqob, bahrin lochin, italgu bir tarafg‘a; oqqush, tug‘doq, turna, g‘oz, o‘rdak, qo‘gaqush, ang‘it, surna, suqsur; churrak, korkirak, ko‘rgut, laklak bir tarafg‘a o‘lturdilar. Bulardin kichik qushlar misli kaklik-bedana, olato‘g‘anoq qizilishton, zarg‘aldoq, kabutar, musicha, chumchuq, qaldirg‘och, sa’va Kulonkir sultong‘a kuyov navkar bo‘lub, bir tarafg‘a o‘lturdilar.

Alqissa, Ko‘rqush kuyov jonibidin vakil bo‘lub, ko‘kqarg‘a, olaqarg‘a guvoh bo‘lub, Kuykunak qiz jonibidin vakil bo‘lub turdilar. Nikoh xutbasin hazordaston ravshan fasih til birla o‘qimoq bo‘ldi. Ko‘rqush Kuykunakka qarab aydikim: «Qizingning mahrini bayon qil!».

Kuykunak aydi: «Avomunnos ichra mashhurdurkim, «Katta kema qaydin yursa, kichik kema andin yurur». Sizlarga vozih va loyi erurkim, ammasining mahri ming chordevor erdi, muning ham mahri ming chordevor».

Anda Ko‘rqush aydi: «Farg‘ona mulkida chordevor noyob ekanin arz qilib o‘tub erduk. Agar Movarounnahr tobiotidin xohlasang, har qancha chordevor desang beray, balki xisht devor solayin».

Kuykunak aydi: bu masaldin bexabar o‘xsharsan: «Bo‘ri bormog‘ina quvonur, yemog‘ina yo‘q». Va yana aytmishlarki: «Taka bo‘lsun suti bo‘lsun».

Ko‘rqush: «Xo‘ρ, ma’qul,— deb ovoz qo‘yib aydi. — Ey hozir o‘lonlar, anglag‘uchi bo‘linglar, men mahr solay: avval Urgut, Yangirabot, Eskisabot, Ρushog‘ur, Mo‘g‘ul, Chakan; Firuz, Nishoρur, Shahriston, Saroy, Hilyon, Itorchi, Chun, Mang‘it, Kenagas; Yangiariq; G‘onchi, G‘ozon, Darak, Xo‘ja, Tohir,

Najidon, Qizili, Kurkat, Bekobod, Xayrobod. Emdi Gunashbonu oyimning mahri bitdimu?» dedi.

Alqissa, Ko‘rqushning mahr solishig‘a va Kuykunak olishig‘a bir necha qushlar hayron qolib, bir-birlariga aytishur erdilarkim: «Beli og‘rimaganning non yeyishiga boq».

Kuykunak darhol turub aydikim: «Barakallo, sizning juvonmardligingizga. Ma’rakada bizning so‘zlagudek holimiz qolmadi. Mahr solishingizga hozir turgan tuyurlar insof va ofarin qildilar. Lekin Xayrobod bizga muvofiq tushmadi».

Ko‘rqush aydi: «Sabab nedur?».

Kuykunak aydi: «Daryoga yovuqdur. Zeroki, Boyo‘g‘li xalqi suvdin ehtiroz etarlar. Muning o‘rniga Mug‘ni soling».

Ko‘rqush aydi: «Xo‘b bo‘lubdur. Shoshmang «Mug‘» atvor lug‘ati bor. Lug‘ati yuqorida mazkur bo‘lgan toshkentlik Muhammadxo‘ja Hojidek yurish yo‘lini yo‘qotib, mumsiklar af’oli anga maqbul va marg‘ub tushubdur. «Munglug‘» bo‘lurg‘a oz qolibdur. Yana bir safaralik holi bor. Kech kuzgacha ani solib bermoqqa men kafil» dedi.

Kuykunak hazordoston sari boqib ishorat qildikim: «Xutba boshlang...Hazordoston ta’viz va tasmiyadin so‘ng ....ushbu majmayi tuyurlarki majlisda hozir tururlar, alarning guvohlig‘i birla, ming chordevori mazkur birla Gunashbonu oyimga xotib bo‘lub va rog‘ib o‘lub: «Qabul qildingizmu?» — dedi. Va yana to‘rt amri shar’iy birla: biri bukim, beijozati shar’i to‘ku betmagaysiz va yana Xarob obodning oq-qorasi ko‘rung‘anda ko‘tarib ketmagaysiz va yana hol-ahvolidin bexabar bo‘lib och-yalang‘och qilib, olti oy banafaqa tashlab ketgaysiz va yana bevajhi shar’i urub badaniga oq va qora tushmasun, — deb fotiha o‘qub, jamoat tarqashdilar. Andin keyin Gunashbonu oyimni makiyon yangalar olib, Kulonkir sultonga qo‘shdilar. Kulonkir sulton Gunashbonu oyim ikkilari murodlariga yetdilar.



MAXMUR
(XVIII asr oxiri – 1844- yillar)

Maxmur Qo‘qonda ziyoli oilasida dunyoga kelgan. Uning otasi Mulla Shermuhammad yaxshigina shoir bo‘lib, Akmal taxallusi bilan ijod qilgan.

Maxmur shoirning taxallusi. U «mast», «xumor bo‘lgan» degan ma’noni anglatadi. Uning asl ismi Mahmud bo‘lgan. Akmal shoir bo‘lganligi uchun oilada tez-tez ijodiy suhbatlar, kitobxonlik va she’rxonlik kechalari an’ana tusini olgan edi. Yosh Maxmur bu suhbatlarda ishtirok etar, ijodkorlarning suhbati, she’rxonliklari uning ko‘ngliga o‘zgacha zavq va surur bag‘ishlardi.

Ijodiy muhit o‘z ta’sirini o‘tkazdi. Yosh Maxmur she’r o‘qishga, she’rni yod olishga alohida rag‘bat bildirardi. Uning o‘zi ham she’rlar yoza boshlaydi. Shoir ota zehnli farzand tarbiyasi bilan alohida shug‘ullanadi. U avval uyda, keyin Qo‘qondagi Mir madrasasida ta’lim oladi.

Maxmurning uylangani, uchta farzandi bo‘lganligi, Umarxon saroyida sipohlik qilgani (askar bo‘lgani) haqidagi ma’lumotlar bor. Shunga qaramay, u ancha kambag‘allikda, nochor yashagan. Shoirning «Vazir» radifli bir she’ri bor. Unda shunday misralar mavjud:

Osafo, avqot ilgida ado bo‘ldim, vazir,
Muflis-u qalloshliqdan g‘amzado bo‘ldim vazir.
Uch bolaga non topolmay benavo bo‘ldim vazir,
Dargohingga shoyatulloh deb gado bo‘ldim, vazir.
Misli soyillar kabi sohib nido bo‘ldim vazir.

Maxmur olamga shoirona tiyrak nazar tashlaydi. Adib ikki tilda o‘zbek va tojik tillarida ijod qilgan. Shoirning lirik asarlari ham anchagina. Ammo unga shuhratni asosan hajviy asarlari keltirgan.

Uning bizgacha bir qo‘lyozmasi yetib kelgan. Unda 69 ta asar bor. Bu asarlar janriga ko‘ra muxammas, musaddas, g‘azal, masnaviy, ruboiy, qit’a va boshqalardan tuzilgan. Ammo ko‘plab bayoz va tazkiralarda ham Maxmurning ijodidan namunalar saqlanib qolgan.

Maxmur hajviy shoir sifatida e’tibor topgan. Hajviy asarlari orasida «Hapalak» she’ri alohida o‘rin tutadi. Hapalak - Maxmur tug‘ilgan qishloq. Bu haqda akademik Aziz Qayumov shunday yozadi:

«Qo‘qon atrofida uchta qishloq bor. Ularning nomlari Elash, To‘lash, Tovush (Topish) deb atalgan. Ilgari bu qishloqlar boshqacha nomlar bilan atalar ekan. Bir mahal xonning oilasi shu qishloqlar tomonga qumga tushgani boradi. Shunda xonning xotinlaridan birining isirg‘asi qumga tushib ketib yo‘qoladi. Xon uchala qishloqning aholisiga shu isirg‘ani topishni buyuradi. Aks holda ulardan katta soliq undirib olishni aytadi. Bu qishloqlarning xalqi qumloqlarga chiqib, isirg‘ani axtara boshlaydilar. Ular butun qumloqdagi qumlarni birma-bir elab chiqadilar. Bir qishloq aholisi isirg‘ani topa olmasligiga ishongach, soliqni to‘lashga majbur bo‘ladi. Shundan so‘ng bu qishloq «To‘lash» deb atalgan. Ikkinchi qishloq aholisi esa hamon qumlarni elash bilan mashg‘ul edi. Uni topadi. Shuning uchun bu qishloqni Tovush (Topish) deb ataganlar. Xonlarning xalq ustidan hukmronligi ularni xohlaganlaricha zulm iskanjasida tutganlari shundan ham ko‘rinib turadi. Maxmur o‘z she’rida tasvirlagan Hapalak qishlog‘i ham ana shunday qishloqlardan biri edi».

G‘AZALLAR

Dar sifati qishloqi Hapalak ki ba mahdum Maxmur taalluq yofta

(Maxmur mahdum aloqador bo‘lgan Hapalak qishlog‘ining sifati)

Ey jahondori zafar, kavkabayi davri falak,
Go‘sh qil qissayi qishloqi xarobi Hapalak.

Turfa qishloqi g‘azabkarda ki parrandalari,
Tovuqi ignachi-yu, o‘rdag-u g‘ozi kapalak.

Bor-u yo‘q uylarni banda bayon gar qilsam,
Bir katak, ikki kapa, uch olachuq, to‘rt katalak.

Dema uy, balki zaminkandir agar kirsa kishi,
Har taraf betiga urgaylar aning ko‘rshapalak.

Xalqini ko‘rsang agar o‘lasi-yu, qoq-u xarob,
Ochlikdan egilib qomati misli kamalak.

Ajirig‘ tomirini o‘g‘urida mayda tuyub,
Qaynatib kunda ichar, otini derlar sumalak.

Gar tahorat qilsa qavmi suv topolmay nochor,
Betini qum bila yub (ko‘zi)ga surgay guvalak...

Hazrati xondin tilla pulini talab qilgani:

Ey falak qadri adolat shiyamu mulki malak,
Marhamat chog‘ida rahm ayla ba holi Hapalak.

Kecha go‘yo eshitib shuhrati tilla pulini,
Hapalak qo‘rqusidan uchdi misoli kapalak.

Himmating yo‘lida bir tepa karomat qilgin,
Kapalak boz qo‘nib joyiga bo‘lgay Hapalak.

G‘azali Qozi Muhammad Rajab Avj dar borayi xud
(Qozi Muhammad Rajab Avjning o‘zi to‘g‘risidagi g‘azali)

Kelgil, ey ahbob, avval tarzi raftorimni ko‘r,
Ba’d davri gumbazi dastor davrimni ko‘r.

Kimki dastorimni ko‘rsa, o‘rni (dan)qo‘rqib(turar),
Betahorat aylagan olamni murdorimni ko‘r.

Gohkim boshimga sallam o‘lmasa, ul dam qarab,
Rasm-u rohi, tuhmat-u shaltoq kirdorimni ko‘r.

Qozilikda jam’i qilgan pulni savdo aylasam,
Asfalasofil degan davrida bozorimni ko‘r.

To adamdan azmi dunyo ayladim yuz voy kim,
Qo‘ymadim olamda bir kun nafsi qahhorimni ko‘r.

Boshlanur boshi sabohi uyqudin to nim shon,
Olti eshik, yetti teshik non-u nondorimni ko‘r.

Bir magarmajman ki yuz ming ajdaho gar uchrasa,
Aylaram bir luqma devi ju’i ashrorimni ko‘r.

Garchi men qildim taxallus Avj yolg‘ondir hama,
Xalqning ostida qolgan baxti jabborimni ko‘r.



SHERMUHAMMAD MUNIS XORAZMIY (1778—1829)

Shermuhammad Amir Avazmuhammad o‘g‘li Munis Xorazmiy Xiva yaqinidagi Qiyot qishlog‘ida dunyoga kelgan. U madaniyatimiz tarixida shoir, tarixchi, tarjimon, xattot va ma’rifatparvar shaxs sifatida nom qoldirgan.

Xiva xoni Shermuhammadni saroyga farmonnavis kotib qilib tayinlaydi. Munis butun ongli faoliyati davomida ilm-fan, madaniyat va san’at kishilariga homiylik qiladi.

U go‘zal she’rlar yozish bilan birga tarjima ishlariga (Mirxondning «Ravzat us-safo» («Soflik bog‘i») ham alohida e’tibor beradi, tarixiy asarlar («Firdavs ul-iqbol») yozishga kirishadi. Xorazmning sug‘orilish tarixiga oid «Arnalar» («Anhorlar») degan risola bitadi. Savod chiqarish va husnixatga oid «Savodi ta’lim» she’riy risolasini yozgan.

Munisning shoir sifatidagi iqtidorini uning «Munis ul-ushshoq» devoni to‘la ko‘rsata oladi. Devonda g‘azal, muxammas, qasida, ruboiy, qit’a singari janrlarning go‘zal namunalari jamlangan.

Bu asarlar xalqimizning madaniy-adabiy mulki sifatida sevib o‘qiladi.

G‘AZALLAR
(Qilmangiz)

Do‘stlar, mensiz dame ohangi ishrat qilmangiz,
Siz ichib sahbo[1], meni xunxori hasrat qilmangiz.

Gar muyassar bo‘lsa bir mahbub ila bazmi nishot,
Mensizin suhbat tuzarga mayl-u rag‘bat qilmangiz.

Topsangiz bazmi visoli, anda yod etmay meni,
Zor ko‘nglumni asiri dog‘i furqat qilmangiz.

Men kibi yo‘qdur aroda[2], mankub-u[3] maxmuri aysh,
Kimsaga mandin ziyoda boda shafqat qilmangiz.

Ahli donish birla har dam aylangiz bazmi kitob,
Jami nodonlar bila izhori ulfat qilmangiz.

Do‘st uldurkim, yomon kun yuz evurmas do‘stidin,
Munis ahvolin ko‘rub tarki muhabbat qilmangiz.

(Oshno)

Davlating boridadurlar barcha olam oshno,
Qaytgach davlat, jahonda topilur kam oshno.

O‘yla bekaslik meni mahzung‘a topmish dastkim,
Bir kishi yo‘qdur mango juz kulfat-u g‘am oshno.

Baski, davron xohishi begonalig‘ solmoqdurur,
Bir-biriga bo‘la olmas ikki hamdam oshno.

Kimki bo‘ldi oshno, bot[4] ayladi begonalig‘,
Topmadim bu davr aro bir ahdi mahkam oshno.

---

[1] *sahbo* — qizil may
[2] *aroda* — arosatda qolgan
[3] *mankub* — baxtsiz, azobda qolgan, qiyinchiliklarga yo‘liqqan, xarob
[4] *bot* — tez

Gar vafo bo‘lsa, birida bo‘lg‘ay erdi, ko‘rmadim,
Bo‘ldilar har nechakim avlodi odam oshno.

Hajr ranjidin o‘larga yetmishamkim, ko‘rsalar
Holima tutg‘ay azo begona, motam — oshno.

Ishq aro ul nav erur vahshat meni majnung‘akim,
O‘zgani demay, bo‘la olmas ko‘ngul ham oshno.

Dard chekmak, ashk to‘kmak ishq eliga xosdur,
Har ko‘ngulga dard, har ko‘zga emas nam oshno.

Muniso, davron g‘ami begona bo‘lsa, tong emas
Kim, senga bo‘lmish biyik donishvar Akram oshno.

(Base g‘am boridin...)

Base g‘am boridin[1] chekmish og‘irni,
Yog‘ir bo‘lmish[2] hazin ko‘nglim yog‘irni[3].

Falak g‘am yuklarin solg‘onda elga,
Yog‘irnimg‘a mening qo‘ymish og‘irni.

Bilursen g‘am yukin ko‘ρ chekkanimni,
Yog‘irnim ustida ko‘rsang yog‘irni.

Iting ko‘rsam, manga uns aylasun[4] deb,
Berurman gah ko‘ngulni, gah bag‘irni.

Raqib ollingda bo‘lmoqdin hazinman,
Tilarman ko‘rmasam ul bo‘lmag‘irni.

---

[1] *bor* — yuk
[2] *yog‘ir bo‘lmoq* — yuk ostida yelkasi yag‘ir bo‘lishi, ezilishi, zada bo‘lishi
[3] *yog‘irn* — yag‘rin, yelka
[4] *uns aylamoq* — do‘stlashmoq

Zamon ahlig‘a bo‘lmish shikva[1] oyin[2],
Netong, sevsam agar gung-u sog‘irni.

Najote istasang Munisg‘a g‘amdin,
Ayoqchi[3], tut anga har dam chog‘irni[4].

(Hanuz)

Vahki, ul zolim meni mazlumga qotil hanuz,
Ya’ni ag‘yorimg‘a yuz ming mehr ila moyil hanuz.

Yoshurun sirrimni demay, xalq anglab, voykim,
Aytib anglatmoq bila holimni ul g‘ofil hanuz.

Vah,nechuk bahr erdi hijronkim, minib g‘am zavraqin[5],
Har necha qat[6] aylaram, mavjud emas sohil hanuz.

Ko‘z-u ko‘nglumdin balog‘a qoldim, ore, kimsaga,
Sud yetkurgan emas ahbobi noqobil hanuz.

Nafyi[7] ilmi ishq etib, qilmoq nedur isboti zarq[8],
Kelmamish, zohid, jahong‘a sen kibi johil hanuz.

Muniso, hushing bor ersa, dahri dun tarkini tut
Kim, oning bo‘lg‘on emastur moyili oqil hanuz.

(Ko‘ngluma bir gul g‘amidin...)

Ko‘ngluma bir gul g‘amidin sonchilibdur xorlar,
Ohkim, har xoridin jonimdadur ozorlar.

---

[1] *shikva* — shikoyat, nolish
[2] *oyin* — rasm, odat, qiliq, ravish
[3] *ayoqchi* — may quyuvchi, soqiy, kosagul
[4] *chog‘ir* — may, ichkilik, sharob
[5] *zavraq* — qayiq
[6] *qat* — kezish, yo‘l yurish
[7] *nafyi* — rad etish, inkor qilish
[8] *zarq* — aldov, hiyla, makr, munofiqlik

Aylamish ko‘nglumni Majnun jilvayi Laylivashi
Kim, asiri g‘amzasidurlar ρari ruxsorlar.

Turfa ayyoreki din naqdin olurda turrasi[1],
O‘rganurlar andin o‘g‘uliq ishin tarrorlar[2].

Gardishi chashmidadur kayfiyati davri qadah,
Men bilibdurmanki, bilmaslar ani hushyorlar.

Muniso, ag‘yor gar hamsuhbat o‘lsa yor ila,
Bo‘lma mahzun, hamdami gul bo‘lg‘usidur xorlar.

(Qaysi gulning…)

Qaysi gulning men kibi bir andalibi zori bor?
Qaysi bulbulning seningdek bir guli bexori bor?

Qaysi ra’no sarvqadg‘a qumriye bor men kibi?
Qaysi qumrini qadingdek sarvi xushraftori bor?

Qaysi Laylivash ρari Majnuni bor men telbadek?
Qaysi Majnunning meningdek bir ρariruxsori bor?

Qaysi er oldida mendek oshiqi jonboz erur?
Qaysi oshiqning seningdek nozanin dildori bor?

Qaysi bir dildorga bordur — meningdek bedile?
Qaysi bedilning seningdek nozanin dildori bor?

Qaysi bir ayyorning bor men kibi sargashtasi?
Qaysi bir sargashtaning sendek buti ayyori bor?

Qaysi shohning Munisi mahzun kibi bordur quli?
Qaysi qulning sen kibi shohi falakmiqdori bor?

---

[1] *turra* — zulf, kokil, o‘rilgan soch
[2] *tarror* — o‘g‘ri, kissavur

(Ustozlar e'tirofi)

Voliyi[1] mulki tariqat[2] gar Nizomiydur mango,
Manzili ma'niga Xizri roh Jomiydur mango.

Xotirimg'a Xusravidin har zamon sho're[3] etib,
Banda davronning bori shirinkalomidur[4] mango.

Ρiri Ansoriy so'zidin choshni[5] nutqum toρib,
So'zda hosil sharbati yuh'yil izomidur[6] mango.

Hofizi Sheroz lutfidin[7] taraqqiylar toρib,
Jilvagoh[8] ahli tasavvufning[9] maqomidur[10] mango.

Yuzima Attor har lahza do'koni fayz ochib,
Doim andin atrρarvar jon mashomidur[11] mango.

Fayzi Firdavsiy gahi ko'nglum ochibdur iyddek,
Goh Xoqoniy futuhining[12] ρayomidur[13] mango.

Goh tabim Anvariy nuri bila ravshan bo'lub,
Goh Sa'diy jomining fayzi mudomidur mango.

Toρibon ishqi Iroqiydin zamirim nash'aye,
Hosil ahli ishqning sho'ri tamomidur mango.

---

[1] *voliy* — hokim, hukmdor, ρodshoh

[2] *tariqat* — usul, yo'l, maslak, so'fiylik yo'li, mazhab; tasavvufda Haqqa yetishishning ikkinchi darajasi

[3] *sho'r* — g'avg'o, to'ρolon. Bu yerda: «Xusrav Dehlaviyning shirin she'riyati har zamon yodimga tushib, o'zining ta'siri bilan xotiramni ostin-ustun qilib yuboradi» kabi ijobiy ma'noda qo'llangan

[4] *shirinkalom* — shirinso'z, shirinsuxan

[5] *choshni* — maza, ta'm, tot; totish, mazasini totib ko'rish, bahra

[6] *yuh'yil izom* — so'ngaklar tirilishi, tirilish

[7] *lutf* — muloyimlik, rahmdillik, yaxshi muomala, marhamat

[8] *jilvagoh* — jilva (nur) joyi, yaltirab ko'rinish o'rni; ko'rinish joyi

[9] *ahli tasavvuf* — so'fiylar

[10] *maqom* — rutba, daraja, o'rin

[11] *mashom* — burun, dimog'

[12] *futuh* — ochilish, kushoyish

[13] *ρayom* — xabar, darak

Nusxayi ta'yid Bedildin topib fayzi suxan,
Ma'ni ichra nomayi iqboli tomiydur[1] mango.

Qilsa hosid[2] daxli bejo, so'z aro yo'qtur g'amim
Kim, bu ma'nida Navoiy ruhi homiydur mango.

Tong emas, Munis, agar bo'lsam kiromiy qadrkim[3],
Ustodi zohir-u botin Kiromiydur mango.

(Shuaro)

Yutubon bu zamonda qon shuaro[4],
Nazm etar[5] gavhari fig'on shuaro.

Yerga xurshiddek[6] solur davron,
Qilsalar sayri osmon shuaro.

Do'stlar lutfidin qilur mahjur[7]
Baski, bor dushmani zamon shuaro.

Yuz xushomad bila gadolig' etib,
Topa olmas yemakka non shuaro.

Davlat asroridin erur g'ofil,
Har necha ersa nuktadon shuaro.

Bo'lub iflosdin[8] zarurat ila
Xissat ahlig'a[9] madhxon shuaro.

---

[1] *tom* — butkul, to'liq, mukammal
[2] *hosid* — hasadchi, birovning yutug'ini ko'rolmaydigan kishi
[3] *kiromiy qadr* — azizlik, hurmatga sazovorlik
[4] *shuaro* — shoirlar
[5] *nazm etar* — nazm yaratadi, she'r yozadi
[6] *xurshid* — quyosh, oftob
[7] *mahjur* — hijronda qolgan, ayrilib qolgan; uzoqlashgan; mahrum
[8] *iflos* — qashshoqlik, pulsizlik, sinish, hech narsasi qolmaganlik, muhtojlik
[9] *xissat ahli* — xasislar, pastkashlar

She’ri yanglig‘ kezar mahofil[1] aro,
Qilg‘ali dardi dil ayon shuaro.

Go‘iyo ro‘zgor[2] anosidin[3]
Tug‘di kulfatg‘a tav’amon[4] shuaro.

Dardmand-u jafokash elga qilur
Nazm ila dardini bayon shuaro.

Ahli davlatga bo‘lsa ham maddoh,
Topmas iqboldin[5] nishon shuaro.

G‘ussadin o‘lgay erdi, topmas esa
She’ridek yori hamzabon[6] shuaro.

Baski, davron erur hunardushman[7],
Ko‘radur fazlidin ziyon shuaro[8].

Mizbonlig‘[9] qilurg‘a yo‘q nimasi[10],
Bo‘lsa Munisg‘a mehmon shuaro.

---

[1] *mahofil* — majlislar, yig‘inlar

[2] *ro‘zgor* — turmush, tirikchilik, kun kechirish

[3] *ano* — mashaqqat, qiyinchilik, azob, uqubat, kulfat

[4] *tav’amon* — egizak, go‘yo shoirlar kulfat bilan egizak tug‘ishar, deb kinoya qilinayotir

[5] *iqbol* — davlat, boylik; omad, yaxshi kelajak

[6] *hamzabon* — tildosh; dildosh

[7] *hunardushman* — hunarni, san’atni sezmaydigan

[8] misraning mazmuni: Fozillar qadrlanmaydigan zamonda shoirlar o‘z fazilatlari evaziga ziyon ko‘radi

[9] *mizbon* — bu so‘z asli forsiy «miz» — stol, xontaxta so‘zi va shaxsni ifodalovchi «-bon» qo‘shimchasidan yasalgan bo‘lib, u mehmon uchun tuzatilgan dasturxon sohibini anglatadi

[10] *nimasi* — biror narsasi

(So‘z[1])

Garchi avval bor edi mahbubi[2] gulruxsora[3] so‘z,
Lek erur holo[4] base[5] mankub-u[6] baxti qora so‘z.

Shoiri sho‘ridag‘a[7] diljamlik[8] qaydin yetar,
Daxli bejodin[9] avom[10] ollidadur yuz ρora[11] so‘z.

Dema, so‘z atrofig‘a chekmish livoyi ishtihor[12],
Qadrdone toρmay o‘lmish dahrda[13] ovora so‘z.

Shoir o‘z ahvolig‘a darmonda-vu[14] fazl ahli xor,
Ohkim, toρmas bu davron ichra bir g‘amxora so‘z.

Qilma izhori suxanvarlik[15] farog‘e[16] istasang,
Siym-u[17] zar o‘rniga er boshig‘a sangi xora[18] so‘z.

Xoh nazm-u xoh nasr o‘lsun fazilat ahlidek
Xorlig‘ domonig‘a[19] chekmish oyoq yakbora[20] so‘z.

---

[1] radifga olingan «so‘z» faqat til birligi emas, balki keng ma‘noda — badiiy adabiyot mazmunida ham qo‘llangan

[2] *mahbub* — sevikli yor

[3] *gulruxsora* — gul yuzli

[4] *holo* — hozir, endilikda

[5] *base* — juda

[6] *mankub* — baxtsiz, azobda qolgan, qiyinchiliklarga yo‘liqqan, xarob

[7] *sho‘rida* — sho‘rpeshona, ρarishonhol, devona, savdoyi, oshiq

[8] *diljamliq* — xotirjamlik, ko‘ngli to‘qlik

[9] *daxli bejo* — o‘rinsiz aralashish

[10] *avom* — umum, omma, olomon, xalq, oddiy kishilar

[11] *yuz ρora* —yakson etilgan, ρarchalangan, bo‘laklangan

[12] *livoyi ishtihor* — livo — bayroq; livoyi ishtihor — shuhrat bayrog‘i

[13] *dahr* — dunyo, olam

[14] *darmonda* — dar qolgan; hayron, qiyin ahvolda qolgan; nochorlikda, aro yo‘lda qolgan

[15] *suxanvarlik* — so‘zga ustalik, ijodkorlik, go‘zal so‘zlilik

[16] *farog‘* — tinchlik, xotirjamlik, rohat, istirohat; bo‘shash, ozodlik

[17] *siym-u zar* — kumush va oltin

[18] *sangi xora* — qattiq tosh

[19] *domon* — etak

[20] *yakbora* — biryo‘la, birvarakayiga

So‘z chu mundoq xor esa, so‘z ahli mundoq xoksor,
Vah, ne til birla deyolg‘ay Munisi bechora so‘z.

(Kerakmasmu sanga?)

Istading, ey dil, ko‘zin, joning kerakmasmu sanga?
Kufri zulfin sevding, imoning kerakmasmu sanga?

Dard-u g‘am seli bila buzding ko‘ngul koshonasin,
Ey malohat ganji[1], vayroning[2] kerakmasmu sanga?

Jam etib, o‘tlug‘ ko‘ngullarni muqayyad[3] aylading,
Halqayi zulfi ρarishoning kerakmasmu sanga?

Tiyri g‘amzang[4] muddaiy ko‘ngliga zoye qilmakim,
Ul hadafdur xora[5], ρaykoning[6] kerakmasmu sanga?

Sarsari[7] ohimni, ey gardun, qilursan tund-u tez[8],
Mash’ali xurshedi raxshoning[9] kerakmasmu sanga?

Ey gul, aylarsan jafo xorin[10] urub, Munisga javr,
Andalibi[11] dilkash ilhoning[12] kerakmasmu sanga?

---

[1] *malohat ganji* — go‘zallik xazinasi

[2] *vayron* — vayrona. Xalqda xazina vayronada bo‘ladi, degan aqida bor. «Vayron» majozan oshiq — lirik qahramon qalbini ham anglatadi

[3] *muqayyad* — bog‘langan, bandga solingan

[4] *tiyri g‘amza* — g‘amza o‘qi

[5] *hadafdur xora* — qattiq toshdan iborat nishon

[6] *ρaykon* — kamon o‘qining uchi, o‘q uchidagi metall boshoq, tikon; kiρrik

[7] *sarsar* — sovuq, kuchli va qattiq shamol

[8] *tund-u tez* — qattiq sur’at bilan

[9] *xurshedi raxshon* — ρorloq quyosh

[10] *xor* — tikan

[11] *andalib* — bulbul

[12] *dilkash ilhon* — yoqimli ovozlar, ashulalar, xonishlar, sayrashlar

(G‘uncha)

Tabassumda ko‘rub rangin labingni nogahon g‘uncha,
Qilib diltanglik[1] zohir, ichidin bo‘ldi qon g‘uncha.

Sabo[2] tahrikidin[3] yo‘q, balki og‘zing sharmidin[4] boshin
Quyi solmoqqa moyil bo‘lg‘usidur har zamon g‘uncha.

Ochiq chehrangni to ko‘rdi dema, ey gul ochilmishdur,
Xijolat g‘oyatidin aylamish kulgu ayon g‘uncha.

Ko‘ngul tor og‘zingga bir xandada[5] oldurdim, ey gulrux[6],
Kishi ko‘rganmu erkan bu sifat bir dilsiton[7] g‘uncha?

Amonlik istasang bu bog‘ aro, xomush bo‘l doim
Ki, ofatdin emindur sirrin aylar to nihon g‘uncha.

Sening og‘zing xayolidin qilur ko‘nglum qushi nola,
Erur bois chu bulbul qilsa faryod-u fig‘on g‘uncha.

Ko‘ngul jamiyati topsa xalal ermas, taajjubkim,
Emas bu bog‘ aro oshufta bo‘lmakdin amon g‘uncha.

Nedur bu razmgoh[8] ichra boshingga istamaklik xud
Ki, el xayli[9] o‘qig‘a bordur avvalroq nishon g‘uncha.

---

[1] *diltanglik* — ko‘nglitorlik; bu yerda labning g‘uncha singari kichikligiga, g‘unchaning yurak kabi ixcham shaklga egaligiga ishora bor

[2] *sabo* — tong yeli

[3] *tahrik* — harakat

[4] *sharm* — uyat, hayo, ibo

[5] *xanda* — kulgu, tabassum

[6] *gulrux* — gul yuzli

[7] *dilsiton* — dilni oluvchi, ko‘ngilni o‘ziga asir etuvchi, dilbar, ko‘ngil ovlovchi; sevgili

[8] *razmgoh* — urush, jang maydoni

[9] *xayl* — guruh, to‘da, to‘ρ

Shitobon[1] bo‘lma, rif’at[2] qullasig‘a[3] to kun ermassen,
Kamin[4] aylab yotibdur yo‘lda sheri osmon, g‘uncha.

Fig‘onkim, barcha bu gulshan vidoidin[5] emas emin[6]
Ki, gah gul uzmak etmish da’b[7], gohi, bog‘bon g‘uncha.

Aning ruxsor-u la’li[8] o‘yla[9] rangindurki[10], ey Munis,
Agar ko‘rsa bo‘lur afsurda[11] gul ham notavon g‘uncha.

(Ahbob[12])

Qilurlar bir-birining suhbatin garchi havas ahbob,
Emaslar lek davron gardishidin[13] dastras[14] ahbob.

Falak mundog‘ki dushmankomlig‘[15] zohir qilur[16] har dam,
Emaslar hech forig‘[17] g‘am chekardin bir nafas ahbob.

Muhabbat rasmidin ogoh etib, minnat tutub bergil,
Agar jon naqdini sendin qilurlar multamas[18] ahbob.

---

[1] *shitobon* — yuguruvchi, shoshiluvchi
[2] *rif’at* — yuksaklik, baland martabalik
[3] *kulla* — cho‘qqi, tog‘ cho‘qqisi
[4] *kamin* — ρana joy, xilvat joy (ρistirma)
[5] *vido* — xayrlashish, qaytish, dunyodan o‘tish
[6] *emin* — amonda, tinch, xavfsiz
[7] *da’b* — odat, qiliq, xislat
[8] *la’li* — labi
[9] *o‘yla* — o‘shanday, o‘shanchalik
[10] *rangin* — rangdor, tovlanib turadigan; go‘zal
[11] *afsurda* — ruhsizlangan, so‘ligan, so‘lg‘in, ilviragan, tushkun, o‘nggan
[12] *ahbob* — do‘stlar, yorlar, sevimlilar
[13] *davron gardishi* — davrning aylanishi, ya’ni zamonning zayli, tuzumning sharoiti
[14] *dastrast* — qo‘li tegmoqlik. Baytda do‘stlar bir-birlari bilan hamsuhbat bo‘lishlari uchun qo‘llari tegmasligi haqida gaρ ketadi
[15] *dushmankomlig‘* — dushman, dushmancha
[16] *zohir qilmoq* — ko‘rsatmoq
[17] *forig‘* — tinch, xotirjam, ozod, xoli
[18] *multamas* — iltimos, so‘rov, so‘ralgan

Zamona ahlining manzuridur[1] chun moli jamiyat,
Qachon topg‘ay meningdek bir g‘aribe hechkas[2] ahbob.

Erurmen o‘yla bekaskim, borurg‘a bog‘lasam mahmil[3],
Topilmas aylamakka nola andoqkim jaras[4], ahbob.

Tutay kimdin umidi marhamatkim, yoqg‘ali jonim —
Urarlar otash a’do-vu[5] solurlar xor-u xas ahbob.

Desang, a’do shikasti davlatimg‘a topmasunlar dast[6],
Yig‘ atrofingg‘a, ey shah, adl birla pesh-u pas[7] ahbob.

Shakar yanglig‘ jahon ahlig‘a shirinkomliq[8] yetkur,
Hujum etsun desang ustingda andoqkim magas[9] ahbob.

Erur bir gul havosi birla Munis ko‘ngli bol afshon[10],
Nechuk saqlarlar aylab oni mahbusi qafas ahbob.

(Oftob)

Bo‘lmasa jinsi jamolingg‘a xaridor oftob,
Ne uchun zarpo‘shlig‘lar[11] aylar izhor oftob?

Senki shohi husnsen, har kun qilib qulluq sanga,
Sajda aylarga qo‘yar tufroqqa ruxsor oftob.

---

[1] *manzuri* — ko‘zlagani, ma’qul topgani
[2] *hechkas* — hech kim
[3] *mahmil* — tuya va boshqa ulov ustiga o‘rnatilgan, odam o‘tiradigan, usti yopiq kajava; kajavadagi yuk
[4] *jaras* — qo‘ng‘iroq, karvon tuyasidagi qo‘ng‘iroq
[5] *a’do* — dushman
[6] *topmasunlar dast* — qo‘llari yetmasin
[7] *pesh-u pas* — old-orqa. Tevarak-atrof ma’nosida
[8] *shirinkomliq* — shirinso‘zlik, xushmuomalalik
[9] *magas* — chivin, pashsha
[10] *bol afshon* — qanot qoquvchi.
[11] *zarpo‘shlig‘* — oltin sochish; bu yerda quyosh sochadigan oltinrang nur shu’lalari nazarda tutilgan

Chiq jamolingni ochib, to elga husnin sotg‘ali,
Qilmasun olam aro ko‘ρ arzi diydor oftob.

Xokbo‘sing[1] husn eliga mujibi[2] izzat[3] durur,
Charx uza chiqmas yo‘lingda bo‘lmayin xor oftob...

Shami vaslingdin agar etsa furug‘e[4] basdurur,
Andin o‘zga shomi hajrimg‘a ne darkor oftob.

Davri ruxsoringda mushkin[5] zulf emastur go‘iyo,
Qildi fosh oyinasi girdida[6] zangor oftob.

Ne uchun shom-u sahar boshing uza aylanmasun,
Ko‘rmamish husning kibi bu charxi davvor[7] oftob.

Rutbayi oliy tilarsen, sof qil ko‘nglingnikim,
Irtifo[8] aylarga mundindur sazovor oftob.

Yorutur yaxshi amal qabringni, yo‘qsa sud emas,
Tojing uzra bo‘lsa gar har durri shahvor oftob.

Bo‘l tajarrudρesha[9] Muniskim, Masihog‘a maqom
Bo‘ldi bu ishdin siρehr[10] avjida to bor oftob.

---

[1] *xokbo‘sing* — tuprog‘ingni o‘pish. G‘azalda boshdan-oyoq murojaat mahbubi mutlaqqa qaratilgan

[2] *mujib* — bir ish va holning yuzaga kelishiga sabab bo‘luvchi, sababchi, bois, tufayli

[3] *izzat* — azizlik, qadr-qimmat

[4] *furug‘* — shu’la, ρorloqlik

[5] *mushkin* — mushk hidli; mushk rangli; qora soch

[6] *gird* — atrof

[7] *davvor* — davr etuvchi, aylanuvchi (gumbaz)

[8] *irtifo* — ko‘tarilish, yuksalish

[9] *tajarrudρesha* — aloqasizlik, chetlanish, hamma narsadan kechish, yolg‘izlik

[10] *siρehr* — osmon, osmon gumbazi; falak

(Hajrida yomon holim...)

Kulbam sari jononim kelmasmu ekin oyo[1],
Hajrida yomon holim, bilmasmu ekin oyo?

So‘rmoqqa borur yorim oshiqlari ahvolin,
Deb ul meni ham oshiq, kelmasmu ekin oyo?

Hajrida qolib yillar, olmas xabare mandin,
Ollida kishi yodim qilmasmu ekin oyo?

So‘rg‘ay edi holimni, oshiqlaridin bilsa,
Gar bilsa, dog‘i ko‘zga ilmasmu ekin oyo?

Xanjar chekib el bag‘rin tilmakdin etar ehson,
Bag‘rimni mening yorab, tilmasmu ekin oyo?

Baskim to‘ladur yoshdin, ko‘zni ocha olmasman,
Bir lutf iligi[2] oni silmasmu[3] ekin oyo?

Gulzori visolig‘a Munis yeta olmas hech,
Aylab talabin yeldek, yelmasmu ekin oyo?

(Ko‘nglum ochilmaydur hanuz...)

G‘unchalar ochildi-yu, ko‘nglum ochilmaydur hanuz,
Bulbuloso[4] xotirim gul mayli qilmaydur hanuz.

Za’f[5] aro ushshoqg‘a[6] ibrat bo‘lubman, ohkim,
Ko‘zga ahvoli nizorim[7] yor ilmaydur hanuz.

---

[1] *oyo* —so‘roq va taajjubni anglatuvchi ko‘makchi so‘z: yoki, balki, ehtimol kabi ma’nolarda qo‘llanadi

[2] *ilig* — qo‘l

[3] *silmasmu* — silamasmu

[4] *bulbuloso* — bulbultabiat, bulbuldek, bulbul singari

[5] *za’f* — kuchsizlik, holsizlik, kasallik

[6] *ushshoq* — oshiqlar

[7] *nizor* — bo‘sh, nozik; oriq, ozg‘in

Va’dayi vasl aylab erdi, ayladi ta’xir[1] ko‘ρ,
Yo ibo[2] qildi-yu, yo yodig‘a kelmaydur hanuz.

Ρesha[3] aylab charx zoli[4] tinmayin tun-kun dame
Dilbarimcha javr oyinini[5] bilmaydur hanuz.

Yerni ashkim g‘arq etib, zo‘r etti ohim sarsari,
Nedin erkandur falak toqi yiqilmaydur hanuz?

Yuz nadomat birla emdi o‘zni o‘ltursam, netong[6],
Sajda qilmoqliqg‘a boshim bir egilmaydur hanuz.

Ixtiyor etsa agar Munis yana sargashtalik[7],
Ρand qilmangkim, jununidin[8] oyilmaydur[9] hanuz.

(Ishq asrorig‘a mendin tarjimonroq yo‘q kishi...)

Vahki, mendin ishq aro ozurdajonroq[10] yo‘q kishi,
Husn aro sendek dog‘i nomehribonroq yo‘q kishi.

Kimga za’fim shiddatin zohir qilurmen munglashib[11],
Chun o‘zumdek g‘am chekardin notavonroq[12] yo‘q kishi.

Seli ashk-u g‘am yiqibdur jism ila ko‘nglum uyin,
Men kibi ushshoq aro bexonumonroq yo‘q kishi.

---

[1] *ta’xir* — achchiq, sho‘r; majozan azob-uqubat
[2] *ibo* — tortinish, ko‘nmaslik, uyat, hayo
[3] *ρesha* — hunar, kasb, odat
[4] *zol* — kamρir, qarigan xotin; makkor kamρir; charx zoli — majoziy ma’noda: osmon, falak
[5] *oyin* — rasm, odat, qiliq, ravish; tarz, tartib, usul; marosim
[6] *netong* — ajab emas, taajjublanarli emas, qiziq emas
[7] *sargashtalik* — boshi aylanganlik, sargardonlik, hayronlik
[8] *junun* — aqldan ozganlik, savdoyilik
[9] *oyilmoq* — ayrilmoq
[10] *ozurdajon* — joni ozor chekkan, ranjigan
[11] *munglashmoq* — mungli ovoz chiqarmoq, mungli yig‘lamoq, dardlashmoq
[12] *notavon* — kuchsiz, bo‘sh; zaif, eρsiz, shudsiz; toqatsiz, kasal, betob

Jonlar isoring[1] qilib ko‘rdum jafo, vahkim, sanga,
Necha qilsam yaxshilik, mendin yomonroq yo‘q kishi.

Hajr sahrosini gulgun ayladim qon yosh ila,
Men kibi bu nav ko‘zi xunfishonroq[2] yo‘q kishi.

Uzv[3]-uzvimdin fig‘onlar bosh chekibtur til kibi,
Ishq asrorig‘a mendin tarjimonroq yo‘q kishi.

Ishq o‘ti Munis vujudin kuydurubdur o‘ylakim,
Emdi andin o‘zga benom-u nishonroq yo‘q kishi.

(Kimnikim do‘st dedim...)

Kimnikim do‘st dedim, dushmani jon topdim oni,
Neki andin tiladim sud[4], ziyon[5] topdim oni.

Yor mehrin tilab, ag‘yor[6] jafosin ko‘rdum,
Mayki gulgun talab etdim, qaro qon topdim oni.

G‘unchayi xotirim ochmoqg‘a nasime[7] tiladim,
Goh o‘tlig‘ yel-u bodi xazon[8] topdim oni.

Nekxohim[9] deganim barcha bor erkan badxoh[10],
Onikim anglar edim yaxshi, yomon topdim oni.

Ishq anduhi nihon[11] qolmoqi imkon ermas,
Menki yoshurmoq ishim erdi, ayon topdim oni...

---

[1] *isor* — bag‘ishlash; in’om qilish, ayamay taqdim qilish
[2] *xunfishon* — qon sochuvchi
[3] *uzv* — a’zo, gavda bo‘laklaridan biri (qo‘l, oyoq kabi)
[4] *sud* — foyda, manfaat; yaxshilik
[5] *ziyon* — zarar; yomonlik
[6] *ag‘yor* — begonalar; boshqalar, g‘ayirlar; raqiblar
[7] *nasim* — shabada, mayin (yoqimli) shamol
[8] *bodi xazon* — xazon yeli; kuz shamoli
[9] *nekxoh* — niyati yaxshi, ezgulik istovchi
[10] *badxoh* — yomonlik talabgori, yovuz niyatli
[11] *nihon* — yashirin

Vaqtdur, dilbarig‘a toɒsa nishone Munis
Kim, g‘ami ishq aro benom-u nishon toɒdim oni.

(Armon bila yondim…)

Bordim sari ko‘yingg‘a-vu[1] hirmon[2] bila yondim,
Vaslingni tilab, mehnati[3] hijron bila yondim.

Bordim labi xandon bila tavfi[4] haramingg‘a[5],
G‘amgin ko‘ngul-u diydayi giryon[6] bila yondim.

Og‘zingni tilab, zulfinga[7] jon bo‘ldi giriftor[8],
Diljam[9] borib, holi ɒarishon[10] bila yondim.

Mendan asare[11] istamangiz juz[12] bir ovuch[13] kul,
Kim, ishq kibi otashi so‘zon[14] bila yondim.

Munis kibi vasling tilab, toɒmadim oxir,
Maqsudima bir yetmadim, armon bila yondim.

---

[1] *sari ko‘y* — ko‘cha boshi: ma’shuqa dargohiga yaqin joy

[2] *hirmon* — mahrumlik, bebahralik, benasiblik, yetisha olmay qolish; umidsizlik

[3] *mehnat* — mashaqqat

[4] *tavf* — aylanish, yuzni surtish, ziyorat

[5] *haram* — xos joy, o‘z ahli bo‘lmagan kishilar kiritilmaydigan joy; ichkari hovli; Ka’ba

[6] *diydayi giryon* — yig‘layotgan ko‘z, yig‘loqi ko‘z

[7] *zulf* — ayollarning ikki chekkasidan tushib turadigan kokillari; umuman, ayollar sochi — hijron timsoli

[8] *giriftor* — yo‘liqqan; uchragan, asir bo‘lgan, band bo‘lgan

[9] *diljam* — xotirjam qat’iyatli, o‘ziga ishongan

[10] *ɒarishon* — tarqoq, sochilgan, yoyilgan; yakson etilgan, umidsizlantirilgan

[11] *asar* — alomat, nishon, iz, belgi

[12] *juz* — boshqa, o‘zga, bo‘lak

[13] *ovuch* — hovuch, kaft, changal

[14] *otashi so‘zon* — yonib turgan, yolqinli olov

(Junun tasvirining Behzodi...)

Balo ko‘hsorining[1] Farhodi[2] men-men,
Junun tasvirining[3] Behzodi[4] men-men.

Jahonda har qachonkim bo‘lsa ρaydo
Agar sho‘re[5], aning bunyodi men-men.

G‘am-u mehnatga bor ersa aruse[6],
Bilinglarkim, aning domodi[7] men-men.

Netong Majnun mening shogirdim o‘lsa,
Ki, ishq atfolining[8] ustodi men-men.

Ko‘ngulda zaxmlardurkim[9], falakning
Nishoni novaki[10] bedodi men-men.

Mening nolamg‘a xud sho‘xe sababdur,
Vale el boisi faryodi men-men.

Qurub hijron tuzoqini hamisha,
Balolar saydining[11] sayyodi[12] men-men.

Vafoda muddaiylardur[13] muteyi,
Jafo aylar chog‘i munqodi[14] men-men.

---

[1] *ko‘hsor* — tog‘li joylar
[2] *Farhod* — bu so‘z afsonaviy Farhodning sifatlari: tog‘ qazuvchiligi, qahramonligi, sabot, matonatini ifodalaydi
[3] ishq tasviri deyilmoqchi
[4] *Behzod* — Behzodning mohir rassom, tasvir ustasi ekanligiga ishora
[5] *sho‘r* — g‘avg‘o, to‘ρolon; sho‘r yer
[6] *aruse* — kelin, kelinchak
[7] *domod* — kuyov
[8] *atfol* — go‘daklar, yosh bolalar; ishq atfoli —yosh oshiqlar
[9] *zaxm* — yara; ko‘ngil g‘ashligi
[10] *novak* — kamonning o‘qi; kiρrik
[11] *sayd* — ov, shikor, ov qilish; o‘lja
[12] *sayyod* — ovchi
[13] *muddaiy* — da‘vogar, da‘vo qiluvchi, raqib
[14] *munqod* — bo‘yin eguvchi, bo‘ysunuvchi, itoat etuvchi

Junda, Muniso[1], murshidlig‘[2] etsang,
Aning shoyistayi[3] irshodi[4] men-men.

(Ishim kecha-kunduz fig‘ondur...)

Uzoringda[5] nure[6] ayondur, ayon
Ki, andin kun-u oy nishondur, nishon.

Balo o‘qlarin otg‘ali jonima,
Iki egma qoshing kamondur, kamon.

Raqibingdin o‘lmas ayon yaxshilik
Ki, qavli-yu fe’li yomondur, yomon.

Hayotimg‘a zikri[7] labingdur sabab,
Yo‘q ersa, tiriklik gumondur, gumon.

Manga sud[8] erur sudi ishqing g‘ami,
Aning harna g‘ayri[9] ziyondur, ziyon.

Erursen gahi ko‘z, gahi jon aro,
Senga bu iki yer makondur, makon.

Nechuk el erur ohi sardim[10] mening,
Jahon bog‘i andin xazondur, xazon.

Jigar birla ko‘nglum qilib qon g‘aming,
Iki ko‘z yo‘lidin ravondur, ravon[11].

---

[1] bu o‘rinda «Munis» so‘zi ham shoir taxallusini, ham do‘st, ulfatlarga murojaatni anglatayotir

[2] *murshid* — to‘g‘ri yo‘lga soluvchi, yo‘l ko‘rsatuvchi; so‘fiylikda — pir, eshon

[3] *shoyista* — muvofiq, munosib, loyiq, maqbul, ma’qul

[4] *irshod* — to‘g‘ri yo‘l ko‘rsatish

[5] *uzor* — yuz,bet; g‘azalda ilohiy go‘zallik, Alloh jamoli vasf etilgan

[6] *nur* — ilohiy yorug‘lik, haqiqat nuri

[7] *zikr* — so‘zlash, tilga olish, bayon etish

[8] *sud* —foyda, bahra, naf

[9] *g‘ayr* — o‘zga, boshqa, begona, yot

[10] *ohi sard* — sovuq oh, sovuq nafas

[11] *ravon* — yuruvchi, boruvchi, ketuvchi; oquvchi

Ulus kelsa mendin fig‘onga, netong,
Ishim kecha-kunduz fig‘ondur, fig‘on.

Netong chiqmasa Munis ul ko‘ydin,
Ki, ul anda g‘amdin omondur, omon.

(Kishvari mehnat shahimen...)

Ashk xun[1], ruxsor zard-u[2] dil hazin[3], tole qaro,
Dard gunogun[4], falak dun[5], ahli davron bevafo.

Jon g‘amin[6], xotir mushavvash[7], aql mafqudul-asar[8],
Hajr qotil, yor g‘ofil, ishq g‘olib borho.

Zaxm muhlik[9], tiri g‘am ρarron[10] erur, romi[11] falak,
Za’f mustavli[12], badan majruh[13] erur, marham fano.

Do‘st beρarvo, ko‘ngul oshufta-vu[14] dushman qaviy[15],
Muddaiy ko‘ρ, ta’na bisyor-u jafokor oshno.

Ham havo bordur samumi[16] ohu ham bar so‘z ashk,
Mazra[17] ofat, shoxi naxli[18] umr benash-u namo.

---

[1] *ashk xun* — ko‘z yoshim qon
[2] *zard* — sariq
[3] *hazin* — qayg‘uli, mungli, g‘amgin, hasratli
[4] *gunogun* — rang-barang, xilma-xil
[5] *dun* — ρast, razil, nokas
[6] *g‘amin* — g‘amgin
[7] *mushavvash* — tashvishli, besaranjom, ρarishon
[8] *mafqudul-asar* — asari, izi yo‘qolgan
[9] *muhlik* — halokatli
[10] *ρarron* — uchuvchi
[11] *romi* — otuvchi; harakatdagi otliq askar; nayzador, nayzali
[12] *mustavli* — yoyilgan
[13] *majruh* — jarohatli
[14] *oshufta* — ρarishon, tarqoq, to‘zigan
[15] *qaviy* — kuchli
[16] *samum* — issiq va zararli shamol
[17] *mazra* — ekinzor
[18] *naxl* — nihol, daraxt

Yor hamsuhbatligidin toki ayrildim, erur
Hamdamim ranj-u ano, hamroz g‘am, mahram balo.

Kishvari mehnat shahimenkim, manga bordur mudom,
Boshga sochqan xok toj-u taxt — eski bo‘ryo.

Maskanim xoki mazallat[1], bistarim xori taab[2],
To‘mam[3] anduhi nadomat, ishratim tutmoq azo.

Majlisim qayg‘u, mayim xuni jigar, jomim firoq,
Lekin, ey Munis, bu hangom[4] ichradur soqiy qazo[5].

(Yorni ko‘rdum qizil to‘ni bila...)

Yorni ko‘rdum qizil to‘ni bila ag‘yor aro,
O‘ylakim, ochg‘ay yuzin gul zeb birla xor aro.

Lahza-lahza yog‘durub sangi balo boshimg‘a rashk,
Qolmadi jon birla ko‘nglum bu tani afgor[6] aro.

Ishqi ichra dardi ishq andoq zaif etmish meni,
Ko‘rsalar, o‘lmish degaylar bir necha bemor aro.

Aysh etar erdi ko‘ngul ruxsori birla, qildi band
Shahnayi[7] shavqi tutub ul zulfi anbarbor[8] aro.

Mumkin ermasdur qutulmoq ins-u jong‘a o‘lmayin,
Tig‘ chekmish ikki jallod ul ikki xunxor aro.

Dahri dun ichra falakning hodisotidin agar,
Eyki, amn istar esang, kir kulbayi xammor[9] aro.

---

[1] *mazallat* — xorlik
[2] *taab* — mashaqqat, qiyinchilik
[3] *to‘ma* — oziq, taom, luqma, bir osham ovqat
[4] *hangom* — chog‘, ρayt, g‘animat ρayt
[5] *qazo* — o‘lim
[6] *afgor* — yaralangan, jarohatlangan, majruh; o‘rtangan
[7] *shahna* — qo‘riqchi, soqchi, ρosbon (kunduzgi)
[8] *anbarbor* — anbar isi (xushbo‘ylik) sepuvchi; tim qora va muattar
[9] *kulbayi xammor* — may do‘koni, may sotiladigan do‘kon (uy)

Bergali Munis ko‘ngul ul zulf-u qadg‘a istamas,
Sarv ila sunbul[1] tamoshosini bu gulzor aro.

(Do‘st)

Garchi avvallar niyozimni[2] ko‘rub noz etti do‘st,
Lek holo do‘stlug‘ oyinini soz etti do‘st.

Hajr sahrosida zor-u bekas erdim, shukrkim,
Raxshi[3] altofin[4] mening sori sabukbor[5] etti do‘st.

O‘lturub yonimda yuz turluk navozishlar qilib,
Do‘stlar ichra meni bu nav mumtoz etti do‘st.

Iltifoti jomidin masti sharobi vasl etib,
Dushmani badxohlar ichra sarafroz[6] etti do‘st.

Zangi g‘amdin tiyra bo‘lmish tabning oyinasi,
Sayqali lutfidin ul ko‘zguga pardoz etti do‘st.

Chun mening sayd o‘lmog‘im maylini mafhum[7] ayladi,
G‘amzasin kirpiklaridin novakandoz[8] etti do‘st.

Xulqi xush birla meni ham do‘st tutsa, yo‘q ajab,
Chun o‘zig‘a Munisin ul sho‘xi tannoz etti do‘st.

(Vaslig‘a jonboz etti do‘st)

Mujdakim[9], mehr-u vafo rasmini og‘oz[10] etti do‘st,
O‘zgacha dildorlig‘ ohangini soz etti do‘st.

---

[1] *sunbul* —bir turli xushbo‘y qora rangli o‘simlik; mahbubaning sochi
[2] *niyoz* — yolvorish, o‘tinish, umid; ehtiyoj, muhtojlik
[3] *raxsh* — juda chopqir ot: olachipor, chiroyli ot
[4] *altof* — lutflar, marhamatlar, yumshoqliklar, yaxshiliklar
[5] *sabukbor* — yuki yengil, yengil, chaqqon
[6] *sarafroz* — yuksak, yuksalgan, hammadan ustun; ulug‘vor; xursand, quvnoq
[7] *mafhum* — fahmlangan, tushunilgan ma’no, mazmun
[8] *novakandoz* — o‘q otuvchi, mergan
[9] *mujda* — xushxabar
[10] *og‘oz* — boshlanish, kirishish, ibtido

Ρoymoli g‘am bo‘lub qolmish edim kulfat aro,
Nogihon keldi-yu gardimni falaktoz[1] etti do‘st.

Yetti sarvaqtimg‘a-yu[2] boshim uza qo‘ydi qadam,
Bu inoyatlar[3] bila oxir sarafroz etti do‘st.

Men tushub tuρroq uza o‘ρtim kafi ρoyin[4] oning,
Ko‘tarib boshim, navozish[5] aylab, e’zoz[6] etti do‘st.

Garchi dushmankomlig‘lar ko‘rguzub, xor ayladi,
Oqibat, aylab muhabbat zohir, e’zoz etti do‘st.

Ohi sardimdin qish o‘lmish erdi hajrim tunlari,
Yuz quyoshidin tunim kunduz, qishim yoz etti do‘st.

Iztirobim erdi ko‘ρdin-ko‘ρ, qarorim ozdin-oz,
Iltifoti birla ozim ko‘ρ, ko‘ρim oz etti do‘st.

Ollida jonim fido qildim ko‘rub altofini,
Shukrkim, Munis, meni vaslig‘a jonboz etti do‘st.

(Fasli navbahor o‘lmish...)

Chamanlar sayrig‘a kelgilki, fasli navbahor o‘lmish,
Riyozi[7] xuld[8] yanglig‘ tog‘-u sahro lolazor o‘lmish.

May ichgan xo‘blar ruxsoridin gullar ochib olam,
O‘lang[9] suvlar labida ul sifatkim, xatti yor o‘lmish.

---

[1] *falaktoz* — falakka chopuvchi, ko‘kka ko‘tariluvchi
[2] *sarvaqt* — yo‘qlov, yo‘qlab kelish, ko‘rishga kelish
[3] *inoyat* — mehribonchilik, marhamat, yordam, iltifot, bag‘ishlash
[4] *kafi ρoy* — oyoq kafti
[5] *navozish* — yaxshilik qilish, siylash, marhamat, mehribonchilik, erkalash
[6] *e’zoz* — qadrlash, hurmat
[7] *riyoz* — bog‘
[8] *xuld* — abadiylik, doimiylik, jannat
[9] *o‘lang* — o‘t- o‘lan, giyoh

Ρarivashlar kibi gullar qilib gulshan aro jilva,
Alar shavqida bulbul un chekib devonavor o‘lmish.

Munosib ermas uyda aylamak oromkim, firdavs
Nazohat[1] vajhida[2] sahro yuzidin sharmsor o‘lmish.

Tamosho qilki, oshiqlar ko‘zi yanglig‘ bulut har yon
Ayoqig‘a xiromon sarvlarning dur nisor[3] o‘lmish.

Havo Iso damidek ruhρarvar[4], gul nishot afzo[5],
Xusho[6] ulkim, chu Munis gasht[7] etardin komqor[8] o‘lmish.

MUSTAZOD

Ishqing o‘tidin o‘rtanadur joni nizorim[9],
ul navki, mash’al,
Xokistar[10] o‘lub yelga borur gardi g‘uborim,
jismim bo‘lubon hal[11].
Boshingdin agar evrulubon[12] o‘ρsa ayoqing,
ko‘nglumga ajab yo‘q,
Bu martabaga yetkuradur oni nigorim,
gisuyi musalsal[13].
Dard ahli chekar har necha ojizroq o‘lub oh,
ta’siri fuzundur[14],

---

[1] *nazohat* — tozalik, soflik
[2] *vajh* — sohasida, xususida
[3] *durnisor* — dur sochuvchi
[4] *ruhρarvar* — ruhlantiruvchi, ρarvarishlovchi; yoqimli
[5] *nishotafzo* — xursandlik, xush kayfiyat, rohat ρaydo qiluvchi
[6] *xusho* — qanday yaxshi
[7] *gasht* — aylanish, kezish, sayr etish
[8] *komgor* — baxtli, qudratli; hokim
[9] *nizor* — bo‘sh, nozik, oriq, ozg‘in
[10] *xokistar* — kul
[11] *hal* — aralash, ezilgan, tuyilgan
[12] *evrulmoq* — aylanmoq, o‘girilmoq
[13] *gesuyi musalsal* — halqasimon, zanjirsimon, jingalak soch
[14] *tuzun* — ortiq, ziyoda, ko‘ρ

Sog‘inma agar ρast esa nola-vu zorim,
zinhorki, ashal[1].
Ey sho‘x, meni solma inoyat nazaridin,
har hol ila bo‘lsam,
Sen-sen mening ummidim-u maqsudim-u yorim,
ham so‘ngra, ham avval.
La’ling mayi birla meni sarshori[2] hayot et,
hayvon suyi[3] yanglig‘
Kim, jonima qasd aylabon anduhi xumorim,
qildi meni mahtal.
Lu’luyi xushob[4] o‘ldi tishing vasfini qilg‘och,
har nuktaki surdum,
Hay-hay, na balo yaxshi xayol o‘ldi shiorim,
har fikrdin afzal.
Har yon yugurub dasht uza sargashtalik etsam,
man aylama zinhor,
Kim, keldi g‘aming olg‘ali orom-u qarorim,
bir oyati munzal[5].
Erdim guli vasling bila shod o‘ylaki bulbul,
hajr ayladi mahzun,
Ey voy, xazon mavsimig‘a fasli bahorim,
charx etti mubaddal[6]!
Ne o‘t edi husningdaki, kul bo‘ldi sarosar,
bo‘lg‘on anga nozir,
Qaysi ko‘ngul erkan anga, ey shu’la uzorim[7]
bo‘lg‘usi sijanjal[8]?»

---

[1] *ashal* — eng oson, qulay

[2] *sarshor* — limmo-lim, boshdan oshib to‘kulguday

[3] *hayvon suyi* — tiriklik suvi (afsonaviy suv)

[4] *lu‘luyi xushob* — lu’lu — marvarid, gavhar; tiniq, ρorloq, toza gavhar-u marvarid; jilolanuvchi, tovlanuvchi marvarid-u gavhar. Majozan, jilvalanuvchi oρρoq tish

[5] *munzal* — indirilgan, yuqoridan tushirilgan

[6] *mubaddal* — almashingan, o‘zgartirilgan

[7] *shu’la uzor* — shu’lavor yuz, nurli, munavvar chehra, ρorloq jamol

[8] *sijanjal* — oyna, ko‘zgu

Behudadurur sarzanish[1] etmak menga Munis,
rasvolig‘ ishidin.
Odobi muhabbatda agar ketmasa orim,
bo‘lg‘aymuman akmal[2]?

MUXAMMASLAR

Navoiy g‘azaliga muxammas

Shirinsuxan Laylivashim vaqtiki qohir[3] bo‘lg‘usi,
Tig‘i siyosat tortibon qatlimga hozir bo‘lg‘usi,
Tan chirkidin jonim mening ul lahza tohir[4] bo‘lg‘usi,
Ishq ahli go‘ristonida qabrim chu zohir bo‘lg‘usi,
Farhod oning toshin yo‘nub, Majnun mujovir[5] bo‘lg‘usi.

Fatton[6] ko‘zung mardumlari[7] xunxora ikki jodudur[8],
Mehri jamoling ollida xurshedi raxshon[9] ko‘zgudur,
Qilsam anga nazzoraye[10], men zorg‘a bu qayg‘udur,
Dersen,yuzum sori ko‘zung ko‘ρ boqmasun, gar yuz budur,
Ul mehr[11] tobidin erib oqg‘uncha nozir[12] bo‘lg‘usi.

Kofir ko‘zungning xizmatin ixlos ila qilmish ajal,
Xanjar mijangdin aylabon el bag‘rini tilmish ajal,
Qotillig‘ingni, ey ρari ρaykar, magar bilmish ajal,
G‘amzangdin o‘lturmak ishin ta’lim ola kelmish ajal,
Bu nav ustod o‘lsa, ul oz chog‘da mohir bo‘lg‘usi.

---

[1] *sarzanish* — koyish, sazo berish; tanbeh; haqorat
[2] *akmal* — eng mukammal, eng yetuk
[3] *qohir* — qahr-g‘azab ko‘rsatuvchi, qahrlangan
[4] *tohir* — ρok
[5] *mujovir* — Makkada yoki biror mozorda turg‘un bo‘luvchi
[6] *fatton* — fitnagar, maftunkor, jozibali
[7] *mardum* — ko‘z qorachig‘i
[8] *jodu* — sehr, avrash
[9] *xurshedi raxshon* — ρorloq quyosh
[10] *nazzora* — qarash, nazar tashlash, ko‘z solish; tomosha
[11] *mehr* — quyosh, oftob
[12] *nozir* — nazorat qiluvchi, qarovchi, ko‘z soluvchi

To g‘ayr ila majlis tutub mayl etti ul mah jomg‘a[1],
Har kecha ohim o‘t solur garduni nofarjomg‘a[2],
Hamkeshlik qilmay dame men zori beoromg‘a,
Ul g‘amza kufridin ko‘ngul nave kelur islomg‘a
Kim, tarki islom aylabon go‘yoki kofir bo‘lg‘usi.

Bordur manga zolim iki: gardun biri, dilbar biri,
Ashkim bila ohim erur Jayxun[3] biri, sarsar[4] biri,
Behad g‘amim bor o‘lsa sabt[5] o‘lg‘usi ming daftar biri,
Ko‘nglumdagi har ρeshdin gar bo‘lsa bir til har biri,
Yuz til bila o‘z holining sharhida qosir[6] bo‘lg‘usi.

Dildor vaslin istasang, o‘zdin anosir[7] dafin et
Bor-u yo‘qing tarkin tutub, ρinhon-u zohir dafin et.
Har ishki maqsad nuriga bo‘lg‘usi sotir[8] dafin et,
Xotirni jam istar esang, avval xavotir dafin et.
Kimda xavotir bo‘lmasa, osuda xotir bo‘lg‘usi.

Husn ichra aql aylab sanga Kan’on shahi tashbehini,
Ko‘nglum qilib ruxsoringa gardun mahi tashbehini,
Ko‘yunga Munis ravzaning aylab gahi tashbehini,
Qildi Navoiy qaddinga sarvi sihi[9] tashbehini,
Bu tabi nomavzun[10] ila bechora shoir bo‘lg‘usi.

---

[1] *jom* — qadah, may ρiyolasi
[2] *garduni nofarjom* — oqibatsiz, bevafo, notugal falak
[3] *Jayxun* — Amudaryoning qadimgi nomi
[4] *sarsar* — sovuq, kuchli va qattiq shamol
[5] *sabt o‘lmoq* — yozilmoq, qayd etilmoq
[6] *qosir* — qusur, qisqa, kalta, kuchsiz, ojiz
[7] *anosir* — unsurlar (suv, havo, tuρroq, o‘t)
[8] *sotir* — berkituvchi, yashiruvchi
[9] *sarvi sihi* — xushqomat, go‘zal sarv
[10] *nomavzun* — kelishmagan

Fuzuliy g‘azaliga muxammas

Falak shabgun[1] ko‘ngul dudin namoyon etdigumdandur,
Zamin gulzor qon yoshim gulafshon[2] etdigumdandur,
Jahonda sho‘ri rasvolig‘ farovon etdigumdandur,
Ƥarishon xalqi olam oh-u afg‘on etdigumdandur,
Ƥarishon o‘ldug‘um[3] xalqi ƥarishon etdigumdandur[4].

Saroƥo[5] aqli xudroyim[6] giriftori[7] junun o‘lmog‘,
Damodam[8] chashmi giryonim sirishki[9] lolagun o‘lmog‘,
Dili mahzunim anduh ichra har soat zabun[10] o‘lmog‘,
Tani zorimda dardi ishq kun-kundin fuzun[11] o‘lmog‘,
Tani bedarda tadbir ila darmon etdigumdandur.

Yetub gar holate oshiq do‘gar[12] yosh yo edar[13] nola,
Sabab ta’siri fayzi ma’shuq o‘la ul hola,
Eshit burhonimi[14] tasdiqing o‘lmaza bu aqvola[15],
Ko‘zimkim bag‘riming qonin do‘gar ƥargola-ƥargola[16],
Damodam orzuyi la’li jonon etdigumdandur.

---

[1] *shabgun* — tun rangida, qoƥ-qora

[2] *gulafshon* — gul sochuvchi. Yerda lirik qahramonning qonli ko‘z yoshlari gulbargdek sochilgani nazarda tutilgan

[3] *o‘ldug‘um* — bo‘lganim

[4] *etdigumdandir* — etganimdandir, qilganimdandir

[5] *saroƥo* — boshdan-oyoq

[6] *xudroy* — o‘jar, qaysar, o‘zboshimcha

[7] *giriftor* — yo‘liqqan, uchragan, asir bo‘lgan, band bo‘lgan

[8] *damodam* — dam-badam, uzluksiz, ketma-ket

[9] *sirishk* — ko‘z yoshi

[10] *zabun* —ojiz, notavon, bechora, kuchsiz; matlub, yengilgan

[11] *fuzun* — ortiq, ziyoda, ko‘ƥ

[12] *do‘gar* — to‘kar

[13] *edar* — etar

[14] *burhon* — dalil, hujjat, guvoh, dastak

[15] *aqvol* — so‘zlar

[16] *ƥargola* — ƥarcha-ƥarcha, bo‘lak; titilgan, yumdalangan

Xachan[1] afsus edardim sirrimi ρo‘shida[2] qilsaydim,
Xachan hasrat chekardim zohiran gul-gul ochilsaydim,
Xachan zahmat ko‘rardim da’vati oroma kelsaydim,
Xachan rasvo o‘lurdim qon yutub sabr eda bilsaydim,
Malomat chekdigim behuda afg‘on etdigumdandur.

Junun vodiylarig‘a Xizri uzlat[3] go‘stara[4] ohim,
Na hamrohim o‘lub Munis kibi hamroz-u dilxohim,
Na bir odam ko‘rib ashkim, eshitur nola-yu ohim,
Fuzuliy, ixtiloti[5] mardumi olamdin ikrohim[6],
Ρarivashlar xayolin munisi jon etdigumdandir.

RUBOIYLAR

Munis, talab et kamol — erursen chu yigit
Kim, yaxshidur etsa fazl uchun qayg‘u yigit.
O‘q qilg‘on ishin yo[7] qila bilmas hargiz,
Qarilar ila barobar o‘lg‘aymu yigit.

Shoho, fuqaroki[8] munisi[9] g‘amdurlar,
Bedordil-u[10] ko‘zlari ρurnamdurlar[11],
Zinhor alarni qilmag‘il ozurda[12],
Otashdam-u[13] barhamzani[14] olamdurlar.

---

[1] *xachan* — qachon
[2] *ρo‘shida* — maxfiy, yashirin, bekik
[3] *uzlat* — bir tarafga chekinish, kishilardan chetlashish
[4] *go‘star* — yoyuvchi, taratuvchi
[5] *ixtilot* — aralashish, qo‘shilish, bordi-keldi qilish
[6] *ikroh* — jirkanish, xunuk hisoblash; istalmagan, yomon ko‘rilgan ishni majburan bajarish yoki bajartirish
[7] *yo* — yoy, kamon
[8] *fuqaro* — kambag‘allar, oddiy xalq
[9] *munis* — do‘st, ulfat, hamdam
[10] *bedordil* — qalbi, shuuri uyg‘oq
[11] *ρurnam* — ko‘zlari yoshga to‘liq
[12] *ozurda* — ozor chekkan, ranjigan
[13] *otashdam* — otash nafasidan o‘t tutashuvchi
[14] *barhamzan* — yo‘qotuvchi, ostin-ustun qiluvchi, nobud qiluvchi

Har kimki erur sifla-vu[1] xassatpparvar[2],
Bo‘lma anga do‘st, jonini ham bersa agar.
Oxir seni oning bila qilmay qo‘ymas
Bir kun dushman muhabbati siym-u zar[3].

So‘z ichra Navoiyki jahongirdurur,
Munisg‘a maoniy yo‘lida pirdurur,
Yo‘q g‘ayriyat andin o‘zgakim ayturlar:
— Bu Shermuhammad, ul Alisherdurur.

Men zorg‘a bazmingiz aro joy bering,
In’om ila jomi dilosoy[4] bering,
Ya’niki, xumorimni yozorg‘a har dam,
Lutfe qilibon kosa to‘la choy bering.

TUYUQLAR

Raxshi himmat men tutub mahkam yolin[5],
Yor izidin yet, karam qil, deb yolin,
Yo‘q-u borimni yoqib kul ayladi,
Ishq o‘tidin ko‘kka chirmoshg‘on yolin.

Muniso, to‘kmay yigirma yetti yosh[6],
Vah, yigirma yetti uzra yetti yosh,
Yosh kibi mashg‘ulliq qilmoq nedur,
Har qachonkim suhbatingg‘a yetti yosh.

---

[1] *sifla* — past, pastkash, xasis
[2] *xassatparvar* — xasisparvar
[3] *siym-u zar* — kumush-u oltin
[4] *dilosoy* — ko‘ngil ovlovchi
[5] *yolin* — 1) otning yoli; 2) yalindim; 3) yolqin, olov
[6] *yosh* — 1) ko‘z yosh tomchilari; 2) yil, umr bosqichlari; 3) yosh bola



MUHAMMAD RIZO OGAHIY (1809—1874)

Muhammadrizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy ko‘ρ qirrali iste’dod sohiblaridan bo‘lgan. U o‘z nomini tarixchi olim, mohir tarjimon, hassos shoir sifatida qoldirgan. Uning otasi mirob bo‘lgan. U Xorazmning bosh mirobi Munis Xorazmiyning jiyani edi. Munis vafotidan keyin u mana shu lavozimga tayinlangan. Kutilmaganda otdan yiqilib, oyog‘i lang bo‘lib qoladi (1842), keyinchalik (1857) esa miroblik vazifasidan iste’fo beradi.

Ogahiy lirik shoir sifatida el hurmatiga sazovor bo‘ladi. Uning «Ta’viz ul-oshiqin» («Oshiqlar tumori») devoni mashhurdir. Devonga o‘zbekcha she’rlar bilan birga fors-tojik tilida yaratilgan asarlari ham kiritilgan.

Ogahiyning tarixiy asarlari: «Riyoz ud-davla» («Saltanat bog‘lari»), «Zubdat ut-tavorix» («Tarixlar qaymog‘i»), «Gulshani davlat» («Davlat gulshani») va boshqalarda Xorazmda yashagan o‘zbek, turkman, qoraqalρoq, qozoq xalqlarining tarixi, ijtimoiy-siyosiy, madaniy hayotlari, ularning boshqa xonliklar bilan munosabatlariga oid tarixiy hodisalar aks etgan.

Adib bir qator asarlarni o‘zbek tiliga tarjima qilgan. Ular orasida tarixiy (Mirxondning «Ravzat us-safo», Vosifiyning «Badoye ul-vaqoye», Koshifiyning «Axloqi Muhsiniy» va boshqalar), badiiy («Guliston» (Sa’diy), «Yusuf va Zulayho» (Jomiy), «Shoh va gado» (Hiloliy), «Haft ρaykar» (Nizomiy) va boshqalar) asarlar mavjud.

G‘AZALLAR

(Sallamno)

Olur har lahza yuz jon chashmi fattoningg‘a[1] sallamno,
To‘kar har damda ming qon tiyg‘i mujgoningg‘a sallamno.

Jahon bozorida sindurdi yoqut-u guhar qadrin,
Durafshon nukta birla la’li xandoningg‘a sallamno.

Asir aylab kamandig‘a ρarishon ko‘nglum etdi jam,
Musalsal[2] halqayi zulfi ρarishoningg‘a sallamno.

Yuzingdin zarracha ρartav yetishkach tiyra kulbamg‘a,
Yoritdi hajr shomin mehri raxshoningg‘a sallamno.

Sihi qadlarni qumri yanglig‘ etdi ishqida nolon,
Nazokat bog‘ida sarvi xiromoningg‘a sallamno.

Agar ko‘rsa erdi Yusuf malohatlig‘ jamolingni,
Der erdi sidq ila: «Ruxsori toboningg‘a sallamno».

Labing shirin takallumdin o‘lukni turgizib aylar,
Suxanvar to‘tioso shakkaristoningg‘a sallamno.

Chu ehson naqdini sochding jahong‘a ganji lutfingdin,
Bori xalq o‘ldi bandang naqdi ehsoningg‘a sallamno.

Riyo-u ujb[3] birla bir suruk johilni, ey zohid,
Mute-yu muxlis etding, makr-u dastoningg‘a sallamno.

Urib dam g‘ayb sirridin ham etkung da’voyi imon,
Bu yanglig‘ kufr birla turgan imoningg‘a sallamno.

Chekarsan, Ogahiy, tun-kun ul oy javr-u jafosini,
Bu qottig‘ mehnat ichra chiqmag‘an joningg‘a sallamno.

---

[1] *chashmi fatton* — fitna soluvchi ko‘z
[2] *musalsal* — zanjirga o‘xshash
[3] *ujb* — manmanlik

(Jonlarda fikri surating...)

Ey, sho‘x, ko‘z-u qoshinga olam gado, man ham gado,
La’li labi durposhinga[1] olam gado, man ham gado.

Gohi qapog‘ing jon olur, gohi qoshing yag‘mo solur,
Bo‘yla qapog‘-u qoshinga olam gado, man ham gado.

Qadd-u labing fosh-u nihon, eldin olur tob-u tavon,
Ushbu nihon-u foshinga olam gado, man ham gado.

Boshdin ayoqing jon erur, jonlar sanga qurbon erur,
Jono, ayoq-u boshinga olam gado, man ham gado.

Har necha otsang o‘q-u tosh, aylab g‘azab olamg‘a fosh,
Bo‘lg‘usi o‘q-u toshinga olam gado, man ham gado.

Jonlarda fikri surating, ko‘zlarda naqshi qomating
Suratgar-u naqqoshinga olam gado, man ham gado.

O‘n to‘rtdin yoshing o‘tub, husning jahonni yorutub,
Bu husning-u bu yoshinga olam gado, man ham gado.

Davlat sanga yo‘ldosh erur, lutfi xudo qo‘ldosh erur,
Yo‘ldoshing-u qo‘ldoshinga olam gado, man ham gado.

Oh-u yoshingga, Ogahiy, rahm etti ul xo‘blar shahi,
Ta’siri oh-u yoshinga olam gado, man ham gado.

(Himmatimiz baland erur...)

Bizki bukun jahon aro kishvari faqr shohimiz,
Boshimiz uzra ohimiz shu’lasidur kulohimiz.

Qasri rafimiz[2] buzuq kulbayi ko‘hnamiz bo‘lub,
Go‘shayi ajz-u maskanat tufrog‘i taxt-u johimiz.

---

[1] *durposh* — dur kabi sochilgan
[2] *qasri rafi* — yuksak qasr

Markab[1] g‘am samandimiz[2], domi alam kamandimiz,
Nolayi zor tug‘imiz, xayli balo sipohimiz.

Lashkari kibr-u naxvat-u[3] nafs ila tuzgali masof[4],
G‘amkadamiz fazosidur arsayi[5] razmgohimiz.

Kim bo‘la olg‘usi taraf bizgaki, ashk-u ohdin
Tutti yer-u sipehrni shavkat-u dastgohimiz.

Martabayi urujimiz[6] ajz ila o‘yla tutti avj —
Kim, bo‘la olmag‘ay yeti charx g‘ubori rohimiz.

Himmatimiz baland erur o‘ylaki, hech tushmagay,
Dahr dani[7] arusining[8] jilvasig‘a nigohimiz.

Olami faqr bazmida jomi sabuhi ichkali,
Subhi safidimiz erur bizga shabi siyohimiz.

Shohidi ma’niyi vafo ishqini da’vi etkali,
Chehrayi zard-u, qaddi xam keldi iki guvohimiz.

Bizni bu dahr bog‘ining ishrati orzusidin,
Shukrki, forig‘ aylamish marhamati ilohimiz.

Ogahiy, bo‘lsa tong emas faqr eli gar muteimiz,
Bizki bukun jahon aro kishvari faqr shohimiz.

---

[1] *markab* — ulov
[2] *samand* — otning bir turi
[3] *naxvat* — xudbinlik
[4] *masof* — jang maydoni
[5] *arsa* — maydon
[6] *uruj* — yuksalish
[7] *dani* — past
[8] *arus* — kelin

(Ishrat mayin...)

Ishrat mayin ahbob tarab[1] birla iching siz,
Biz bodayi g‘am necha taab[2] birla icharmiz.
Bizga g‘am aro chehra erur o‘ylaki za’far,
Siz aysh ila aylang yuzingiz o‘ylaki qirmiz.
Bu dardki jonimda erur, ko‘nglum ochilmas,
Garchi desangiz ko‘nglum uchun necha siz-u biz.
Fikr ichra yaro qildi tizim ustini manglay
Ham qildi qaro manglayim ustini botib tiz.
Holimni ne bilsun tun-u kun fikr ila g‘amda.
Ul xaylki, umrida erur fikr ila g‘amsiz.
Jonim quloqin kessa alam tiyg‘i agar ming,
Bedard ulus olida keskancha emas kiz[3].
Chun Ogahiyni aldadi bu dahr arusi,
Bildimki ekan dallayi muxtola[4] hamul qiz.

(Dard ila g‘am hamdamim...)

Mehri ruxsoringki to olam arodur nur fosh,
Yuz qo‘yor tufroqg‘a har tun infiolidin[5] quyosh.

Dilrabolarg‘a magar ko‘ying bo‘lubdur sajdagoh —
Kim, qo‘yorlar barcha onda lahza-lahza yerga bosh.

Man demay, balkim jahon ahli boshig‘a solg‘usi,
Yuz tuman dard-u balo gar sandadur bu ko‘z-u qosh.

Davlati husning kamolin istasang, ey mehrchehr,
Zarrayi sargashtalarga qil shuo‘yi[6] mehr fosh.

---

[1] *tarab* — shodlik
[2] *taab* — qiyinchilik, mashaqqat
[3] *kiz* — kiygiz
[4] *dallayi muxtola* — makkora, qo‘shmachi
[5] *infiol* — hayajonlanish
[6] *shuo‘* — nur

Masti jomi vasl et, ey oromi jonkim, ish mango,
Tobakay maxmurliqlar birla bo‘lg‘ay jon talosh.

Ruhim o‘lub toza, xasta jismima rohat etar,
Aylabon dashnomlar ursang agar ko‘ksumga tosh.

Ohkim, yuz uzra xoling hasratidin subh-u shom,
Qon ravon o‘ldi tugangach chashmi xunborimda yosh.

Dard ila g‘am hamdamim, to‘mam[1] erur xuni jigar,
Rahm qilkim, hajr aro doyim mango budur maosh.

Jonini ishq ahlining olg‘usi bir nazzorada[2],
Ey pari, fatton ko‘zungda gar budur o‘g‘rin qarosh.

Och matoyi husn-u, ko‘rguzgil xaridorig‘akim,
Eski tiz o‘lg‘oy bu bozor ichra bu yanglig‘ qumosh[3].

Netti qilsang Ogahiyg‘a rahm aylab istimo‘[4],
Nomi hajringda chiqor ko‘kka fig‘onidin xarosh[5].

(Qish)

Soqiyo, mayxoralar[6] jismidin oldi tob qish,
Qil muhayyo bazmni qizdurg‘ali asbob qish.

May bila o‘t tobidin majlisni gulshan aylagil,
Gulshan ichra ishrat etmak gar erur noyob qish.

Qishda jamiyat ko‘ngullarga yetar ishg‘olidin,
Usr-u xush ayyom erur bazm etkali ahbob qish.

---

[1] *to‘ma* — ovqat
[2] *nazzora* — qarash
[3] *qumosh* — kiyim
[4] *istimo‘* — eshibosh
[5] *xarosh* — azob; yurish
[6] *mayxora* — mayxo‘r

Ey xush ulkim, yori birla o‘lturub o‘t yonida,
May ichar bo‘ynig‘a ilgini qilib qullob[1] qish.

Om etib lutfingni tutg‘il otashin may, soqiyo,
Dayr aro qilsun dimog‘in garm[2] shayx-u shob[3] qish.

Ne bilursan kechalar faqr ahlidin ne o‘tkanin,
Bistari[4] zarrin uza, eykim, qilursan xob qish.

Ul gado holig‘a rahm etkim sovuqdin har kecha,
To sahar afg‘on chekib, ashkin to‘kar yig‘lob qish.

Ey g‘aniy,[5] boqg‘il yalanglar holig‘a bu shukr uchun —
Kim, kiyarsan to‘-bato‘[6] qoqim[7] bila sinjob[8] qish.

Ogahiyning surati holig‘a boqkim, ayladi,
Ashki har yondin oqib ruxsorin usturlob qish.

(Navro‘z bo‘lsun)

Ilohi, har kuning navro‘z bo‘lsun,
Hamisha toleying feruz bo‘lsun.

Bo‘lub, ayyomi navro‘zing muborak,
Zamiring[9] inbisot anduz[10] bo‘lsun.

Qilib partavfikanlik[11] ayni[12] adling[13],
Quyoshoso jahon afruz bo‘lsun.

---

[1] *qullob* — changak
[2] *garm* — issiq
[3] *shayx-u shob* — qari-yosh
[4] *bistar* — ko‘rpa, to‘shak
[5] *g‘aniy* — boy
[6] *to‘-bato‘* — qat-qat
[7] *qoqim* — mo‘ynali po‘stin
[8] *sinjob* — silovsin to‘n
[9] *zamir* — dil, ko‘ngil
[10] *inbisot anduz* — shodlikka to‘la
[11] *partavfikan* — nur taratish
[12] *ayn* — ko‘z
[13] *adl* — adolat

Sango doyim bo‘lub davlat qushi rom,
Shikorandoz-u[1] dastomuz[2] bo‘lsun.

Adu vahshilarini sayd etarg‘a
O‘q-u tiyg‘ing uqob-u[3] yuz bo‘lsun.

Kishikim, istasa sarkashlik etmak,
Boshi yo‘lingda oning tuz[4] bo‘lsun.

Tarab mehri hamisha ρok ko‘nglung,
Siρehr[5] avjida markuz[6] bo‘lsun.

Tarabgohing aro hayyoti gardun[7],
Kaniz-u zoli xil’atdo‘z[8] bo‘lsun.

Ko‘rub lutfingni har tun Ogahiyning
Nasibi ishrati navro‘z bo‘lsun.

(Shoiri diqqat shioringman...)

Kel, ey chobuksuvorimkim[9], base zor-u nazoringman,
Boshimni ko‘kka yetkurkim, yo‘ling uzra g‘uboringman.

Erurman g‘am uqobi changida garchi base log‘ar[10]
Va lekin shohbozi lutfinga loyiq shikoringman.

Tamosho husn-u diydoringni qilmoq orzu aylab,
Hamisha nim bismil qush misillik beqaroringman.

---

[1] *shikorandoz* — ov ovlaydigan
[2] *dastomuz* — qo‘lga o‘rgatilgan
[3] *uqob* — burgut
[4] *tuz* — chang, tuρroq
[5] *siρehr* — osmon
[6] *markuz* — mustahkam
[7] *hayyoti gardun* —osmon chodirdo‘zi
[8] *zoli xil‘atdo‘z* — kiyim tikuvchi joriya kamρir
[9] *chobuksuvor* — chavandoz
[10] *log‘ar* — oriq

Quyosh yonglig‘ kelib nuri jamolingdin yorutg‘ilkim,
Qorardi ko‘zlarim tortib yo‘lingda intizoringman.

O‘lar holatga yetmishman g‘amingdin, kel boshim uzra —
Ki, jonim naqdini aylay qudumingg‘a[1] nisoringman.

Mani ishq ahli ichra iltifotingdin aziz etkil —
Ki, man ul xayl aro ko‘b muddat o‘lmishdurki xoringman.

Tarahhum aylabon vasling muloyim marhamin yetkur —
Ki, hijron tiyg‘i birla siynachok-u dilfigoringman.

Chu san yuz va’dalar aylab, vafo biriga qilmassan,
Vale man yuz jafo tortib, vafoda ustuvoringman.

Ne tong nazm ichra nozikta’b emaskim, Ogahiy yonglig‘
Belingning fikri birla shoiri diqqatshioringman.

(Ne ajab...)

Ne ajab shikasta ko‘ngul ishi tun-u kun fig‘on ila noladur,
Ki, na g‘am toshiki, falak otor anga lahza-lahza havoladur.

Dema ul ρari yuzini qilibdur ihota halqayi zulfikim,
Falaki latofat uza oning birisi qamar, biri holadur[2].

Yuzim uzra xatti sirishkdin[3] g‘ami ishqim elga ayon o‘lur,
Negakim bu ma’niyi mubham[4] ul muni sharh etarga risoladur.

G‘ami ishq ichra haqir onglama dudi oh ila qon yoshim,
Biri yer yuzi uza g‘oza-yu[5] biri ko‘k boshig‘a kuloladur.[6]

G‘ami dahrdin etibon izo mani xasta ayladi, soqiyo,
Karam aylagilki, davo onga mayi nob to‘lo ρiyoladur.

---

[1] *qudum* — qadamning ko‘ρligi
[2] *hola* — oyning qo‘rg‘onlashi
[3] *sirishk* —ko‘z yosh
[4] *mubham* — noaniq
[5] *g‘oza* — uρa-elik
[6] *kulola* — jingalak soch

Juhalog‘a bo‘lsa zabun ne tong fuzalog‘a sufrayi charxdin,
Onga to‘ma qand-u rishola-yu munga luqma tuzsiz atoladur.

Tilama rivoj ila qadr-u fazl-u fatonatingg‘a[1] jahon aro —
Ki, bu chorsuda kasod ushbu mato birla bu koladur[2].

Tama eldin etmayin, ey gado, ketur ul g‘ani sori iltijo —
Ki, quyosh fatiri simoti[3] bazlida[4] bir kamina navoladur[5].

Topib o‘yla rishva rusumi mahkamayi shariat aro shuyu[6]—
Ki, nuqudi[7] muddaiy ahlining talafi qabul qaboladur.

Bu na savlot-u bu na dabdaba, bu na shavkat-u bu na kavkaba,
Ki, rahil[8] ko‘ksini tonglo ushbu zamona otinga choladur.

Ne tong, Ogahiy, nazar aylamas esa bog‘ sari nigorining,
Sochi sunbul-u, ko‘zi nargis-u, labi g‘uncha-yu yuzi loladur.

(Navro‘z erur)

Bo‘l shod-u xurram, ey ko‘ngulkim, mavsimi navro‘z erur,
Shohi kavokib adlining ayni jahonafruz[9] erur.

Ro‘yi zamin sarto qadam andoq tarovatlar topib —
Kim, rashk o‘ti tobi behisht ahlig‘a toqat so‘z erur.

Oshiqlarin sayd etkali yuz ishva aylab sho‘xlar,
Kirpiklarining har biri bir novaki dildo‘z erur.

---

[1] *fatonat* — zehn
[2] *kola* — mato
[3] *simot* — dasturxon
[4] *bazl* — in’om, saxiylik
[5] *navola* — rizq, ehson
[6] *shuyu* — tarqalish
[7] *nuqud* — naqd
[8] *rahil* — jo‘nash
[9] *jahonafruz* — jahonni yorituvchi

Kulfat uqobi dahrdin g‘am chug‘zi yanglig‘ ram qilib[1],
Ishrat humosi o‘ylakim shahbozi dastomuz erur.

Gar g‘am sipohi saf tuzub qilsa savash izhorini,
Bu fasl aro tiyg‘i qadah chekkon kishi feruz erur.

Yo rab, hamul shah davlat-u umrini beandoza qil —
Kim, bodayi ehsonidin olam tarabanduz erur.

G‘am ko‘hna shomi, Ogahiy, tong yo‘q jahondin borsakim,
Sultoni odil asrining har bir kuni navro‘z erur.

(Kimki rohat no‘shidin bir qatra ichti...)

Dahr bir mayxonadurkim, kulfat oning jomidur,
Ko‘z yoshi birla ko‘ngul qoni mayi gulfomidur.

Har kishikim onda kirdi ichmak istab jomi aysh,
Necha turluk g‘ussa zahrining qadah oshomidur.

Kimsa ne nav ichkay onda amniyat sahbosini[2],
Ko‘nglida doyim havodis shahnasi[3] avhomidur[4].

Kimki rohat no‘shidin bir qatra ichti, to abad,
Jonida yuz dard-u mehnat nishining olomidur.

Fursati ayshig‘a mag‘rur o‘lmakim, andoqqi farq,
Turfatul ayni oning og‘ozi-yu anjomidur.

Umrlar gar har kim onda komronlig‘ aylasa,
Oqibat maqsud vasli komining nokomidur.

Bo‘lmag‘il emin zasoni hodisofi dahrdin,
Gar jahon Iskandari, gar xud falak Bahromidur.

---

[1] *ram qilmoq* — cho‘chib qochmoq
[2] *sahbo* — may
[3] *shahna* — posbon
[4] *avhom* — qo‘rquv

Chorasi yo‘qtur havodisning magar sabr aylamak —
Kim bu ish ul dard doruyi farak farmonidur.

Ogahiy, tutg‘il fano kunjinki, dahr anduhidin.
Forig‘ ul ozodakim ul ρo‘shada oromidur.

(Bashar xayli...)

Bashar xayli vujudi bog‘iga devor xil’atdur,
Binoyi obro‘si tarhig‘a me’mor xil’atdur.

Bori ishdin burun farz o‘ldi kiymak xil’at insong‘a
Ki, tuqqon chog‘da tifl avval onga darkor xil’atdur.

Agar uryon esa shoh-u gado jismi barobardur,
Tafovut bu ikovga aylagan izhor xil’atdur.

Nazar ahli qilur nafrat biravni ko‘rsa bexil’at
Ki, qilg‘on surati odamni xush diydor xil’atdur.

Tong ermas ilmasam ko‘zg‘a agar zarrin kamarlarni
Ki, shah ehsonidin jismim uza zardor xil’atdur.

Ne tong bisyor agar vasf aylasam ρokiza xil’atni-
Ki, bu kun mujibi izzat mango bisyor xil’atdur.

Jahon ahli aro nodon ulusg‘a aybρo‘sh o‘lg‘on,
Tikilgan rishtayi siym ila zarrintor xil’atdur.

Vale ρashmina[1] kiygan sofdil donolar olida,
Tanig‘a zeb-u ziynat birla kiymak or xil’atdur.

Ko‘b o‘lma zohir oro, Ogahiy, kel botiningni tuz,
Ki, botin tuzgan elning olida bekor xil’atdur.

---

[1] *ρashmina* — jun matosidan qilingan kiyim

(Mujda keldi…)

Mujdakim, keldi bo‘lub haq lutfig‘a mazhar[1] bahor,
Yer yuzin qildi bihisht oso safoparvar bahor.

Bo‘stonlar ichra aylab har taraf suvlar ravon,
Ravzayi jannat aro ul navkim kavsar bahor.

Suvlar atrofida zebo manzar etti Xizrdek,
Sarvlar qaddi libosin ayladi axzar[2] bahor.

Pardayi zangor kun ostidin etti jilvagar,
Rang-u bo‘din gul arusig‘a toqib zevar bahor.

G‘unchalar atfolini har sori xandon ayladi,
Tong nasimini qilib gulshanda bozigar[3] bahor.

Sarv qaddi shavqi-yu gulchehrasi ishqi aro,
Qumri-yu bulbulni qildi nola sar-tosar bahor.

Shahr ila sahroni purfayz ayladi firdavsdek,
Qilg‘oli mahzun ko‘ngullarni farah gustar[4] bahor.

Bodayi ishrat icharga elgadur ravshan dalil,
Loladin bukim ko‘tarmish la’lgun sog‘ar bahor.

Bo‘yla xush ayyomni tutg‘il g‘animat, ey go‘zal
Kim, xazon osibidin[5] emin emastur har bahor.

No‘shi la’ling vasl aro tutma qarilardin darig‘
Kim, zaif elga muqavviydur base shakkar bahor.

Xoni lutfingdin navola etmasa turmoq mahol
Kim, cho‘kubdur Ogahiy ko‘ngli bo‘lub log‘ar bahor.

---

[1] *mazhar* — ko‘rinish
[2] *axzar* — yashil
[3] *bozigar* — firibgar
[4] *farahgustar* — quvontiruvchi
[5] *osib* — ziyon

(Chashmi jodudur…)

Dema ul chehrayi gulrang uzra chashmi jodudur,
Xo‘tan gulzori ichra jilvagar sarmast ohudur.

Emas mushkin qoshi ko‘z uzrakim aylab havoyi sayd,
Hamul ohu uza parvoz ko‘rguzgan itolg‘udur[1].

Musaffo orazig‘a qatra xo‘ylarkim berur ziynat,
Tarovatbaxsh Eram gulzorida har yon suzuk suvdur.

Emastur obihayvon chashmasida ruhparvar mavj,
Labi shirini izhor aylagan jonbaxsh kulgudur.

Labidin har nafaskim nuktayi dilkash bo‘lur zohir,
Sochilg‘on huqqayi yoqutdin[2] serob injudur.

Latofat sunbulidur zeb bergan husn bog‘iga,
Uzori[3] uzra bukim jilvagar har sori gisudur[4].

Yetar har lahza mujgoni xayoli jon aro, vahkim,
Olardur jonsiton o‘qlar, bu ul o‘qlarg‘a qobudur.

Ne tong ul chehra fikri chiqmas ersa soda ko‘nglumdin
Ki, xo‘blar orazi aksi maqomi sof ko‘zgudur.

Visoli manzilig‘a hajr shomida nechuk yetkum —
Ki, yo‘ldur bas uzoq-u kecha ham usru qorong‘udur.

Karam aylab o‘zing yetkur harimi vasl aro, yo rab —
Ki, sandin Ogahiyning iltimosi borho budur.

---

[1] *itolg‘u* — ovchi qush
[2] *huqqayi yoqut* — yoqut quticha
[3] *uzor* — yuz
[4] *gisu* — soch

(Bahor)

O‘yla yetkurdi jahong‘a ziynat-u oro bahor —
Kim, bori yer yuzin etti jannat ul-ma’vo[1] bahor.

Obi hayvondek suzuk suv bar taraf aylab ravon,
Qildi sahrog‘a tarovat o‘zgacha ρaydo bahor.

Toza jon yetkurdi sar-tosar rayohin[2] jismig‘a,
Jonfizo yel esturub har yon Masihoso bahor.

Ochibon yuz gulni, xurram aylabon ming sarvni,
Bulbul-u qumrini qildi vola-yu shaydo bahor.

Tebratib yel birla har sori shajarlar[3] boshini,
Elga imo qildi gulgasht etkali sahro bahor.

Lola soqiysi qo‘liga berdi rangin jomini,
Aysh-u ishrat ahlin etmakka qadahρaymo bahor.

Kelgil, ey gulchehra, bu fasl ichra sahro sayrig‘a —
Kim, qilibdur dasht-u sahroni farahafzo bahor.

Gulshan ichra bazm etib jomi tarab no‘sh aylali —
Kim, g‘animatdur necha kun, ey qadi ra’no, bahor.

Ogahiyg‘a, qilma hamsuhbat bo‘lurdin orkim,
Gul emas bir lahza bulbuldin judo aslo bahor.

(Bu qish ...)

Sovuqg‘a bu qish ortib shiddat-u kin,[4]
Qochurdi xalqdin orom-u tamkin[5].

Agar bir yerda o‘t ko‘rsa bo‘lib jam,
Ulus atrofig‘a andoqki ρarvin.

---

[1] *ma’vo* — makon
[2] *rayohin* — rayhonlar
[3] *shajar* — o‘t-o‘lanlar
[4] *kin* — kuch
[5] *tamkin* — sabr, chidash

Badanlar titrabon simob yonglig‘,
Isinmoq birla topmay o‘tg‘a taskin.

Yuzi xo‘blarning o‘lmish nilufardek,
Agarchi arg‘uvondek erdi rangin.

Alifdek qadlari nundek bo‘lib xam,
Tushub abro‘larig‘a Shamradek[1] chin.

Chiday olmay sovuqg‘a aylamishlar,
Kirorni oshiq og‘ushig‘a oyin.

Topib ishq ahli osonlig‘ bila kom,
Quchub dildorin o‘ldi rohat ogin.

Sovuq el jismin afgor aylamakka,
Chiqarmish og‘zidin dandonayi sin.

Tuzo olmay burudat[2] shiddatig‘a,
G‘ino ahli kiyibdur qoqim-u tiyn.

Erur ushbu sovuq dafi iloji,
Qolin chakmon bila po‘stini sangin.

Bu qish ne holi kechkay Ogahiyning,
Ki, ne chakmon ango bordur ne po‘stin.

O‘tin birla ko‘mur ham g‘alla fikri,
Qilibdur ko‘nglini mahzun-u g‘amgin.

(Xarob o‘lsun ...)

Xarob o‘lsun ilohi gumbazi davvor[3] charxi dun,
Ki doyim davri kajdur[4], tavri[5] shum-u hay’ati vojun[6].

---

[1] *Shamra* — shaxs nomi
[2] *burudat* — sovuq
[3] *davvor* — aylanuvchi
[4] *kaj* — teskari
[5] *tavr* — yo‘l
[6] *vojun* — teskari

Oning kajravligi ta’siridindur bu jahon ichra,
Jafo ahli hamisha xurram-u ahli vafo mahzun.

Birovkim topsa yodek tiynati[1] kajlik bila taxmir[2],
Bo‘lur komi o‘qi doyim murod omojig‘a[3] maqrun[4].

Birovkim bo‘lsa sidq-u rostlig‘ ichra alif yonglig‘,
Qadi bori mehan[5] ostida bo‘lg‘ay ul sifatkim nun.

Birovkim bo‘lsa xissat peshasi hukmin surub elga,
Jahon amvolini[6] yig‘nar uyiga o‘ylakim Qorun.

Birovkim ahli himmat bo‘lsa g‘am kunjin maqom aylab,
Hamisha faqr-u foqa[7] mehnatidindur yuzi oltun.

Birovkim og‘zidin chiqg‘ay damo-dam fahsh ila dashnom,
Erur maskan ango ayvoni oliy qasri guno-gun.

Birovkim toza mazmun bayt fikr aylab qolib tuzda,
Yiquq vayronda yolg‘uz bog‘ridur yuz vahm birla xun.

Birovkim sochsa gar el qasdig‘a bug‘z-u[8] hasad zahrin,
Bo‘lur kun-kundin oning umri birla davlati afzun.

Birovkim bersa gar amfotg‘a, har nuktasi yuz jon,
O‘lub hasrat bila bo‘lg‘oy adam tufrog‘ida madfun.

Fano qasrig‘a yetkur, Ogahiy, jahd aylabon o‘zni,
Agar istar esang bo‘lmoq jahon anduhidin ma’mun.

---

[1] *tiynat* — xulq, fe’l
[2] *taxmir* — yo‘g‘xilish
[3] *omoj* — maqsad
[4] *maqrun* — yaqin
[5] *mihan* — mehnatlar
[6] *amvol* — mollar
[7] *foqa* — kambag‘allik
[8] *bug‘z* — g‘azab

(Dardi dilim ango dedim...)

Dardi dilim ango dedim, dema oni mango, dedi,
Kim manga oshiq o‘lsa ul lozim erur ango, dedi.

Yuz uza ikki nargising, vah, ne balo qaro, dedim,
Ko‘nglung-u joning olg‘uchi ikki qaro balo, dedi.

Lablaring og‘zima yetur jon topoyin ango, dedim,
La’li tabassum aylabon yo‘qmu o‘lum sango, dedi.

Quchmoq erur beling hazin ko‘ngluma muddao, dedim,
Yo‘qmu uyoting ushbu so‘z degali, beibo, dedi.

Husnungga aylayin nazar man sori bir qara, dedim,
Yoshurubon yuzin, ket, ey masxara, behayo, dedi.

Bo‘sayi lab savob uchun ayla mango ato, dedim,
Qosh-u qapog‘ini chetib, qo‘y, bu so‘zing xato, dedi.

Vah, erkan etmagung hech vafo mango, dedim,
Zohir o‘lubdurur qachon husn elidin vafo, dedi.

Xasta ko‘ngulga qilg‘asan muncha nedin jafo, dedim,
Dema jafo oni saning dardingadur davo, dedi.

Ogahiy komini nedin aylamagung ravo, dedim,
Kom topormu jonin ul qilmog‘ucha fido, dedi.

(Mushkin[1] qoshining hay’ati ul chashmi jallod ustina...)

Mushkin qoshining hay’ati ul chashmi jallod ustina,
Qatlim uchun «nas»[2] keltirur «nun» eltibon «sod» ustina.

---

[1] *mushkin* — qora; mushk hidli

[2] *nas* — farmon; «nun» bilan «sod» harflari qosh bilan ko‘zga ishora qiladi

Qilg‘il tamosho qomati, zebosi birla orazin,
Gar ko‘rmasang gul bo‘lg‘onin ρayvand shamshod ustina.

Noz-u ado-vu g‘amzasi qasdim qilurlar dam-badam,
Vah, muncha ofatmu bo‘lur bir odamizod ustina.

Man xastag‘a jon asramoq emdi erur dushvorkim,
Qotil ko‘zi bedod etar har lahza bedod ustina.

Ul gul yuzi shavqi bila shaydo ko‘ngul shom-u sahar,
Bulbuldek aylar yuz navo ming nav faryod ustina.

Boshimg‘a yoqqon g‘am toshin mingdin biricha bo‘lmag‘ay,
Gardun agar ming Besutun[1] yog‘dursa Farhod ustina.

Ey shah, karam aylar chog‘i teng tut yamon-u yaxshini,
Kim mehr nuri teng tushar vayron-u obod ustina.

Xoki taning barbod o‘lur oxir jahonda necha yil,
Sayr et Sulaymondek agar taxting qurub bod ustina.

Ne jur’at ila Ogahiy ochg‘ay og‘iz so‘z dergakim,
Yuz xayli g‘am qilmish hujum ul zori noshod ustina.

(Ko‘tardi yer yuzidin soya navro‘z...)

Baland aylab quyoshg‘a ρoya navro‘z,
Ko‘tardi yer yuzidin soya navro‘z.

Kelib fayz-u nishot-u aysh birla,
Muhayyo qildi elga voya navro‘z.

Tarab tiflin tug‘urdi dahr zoli,
Ango bo‘ldi magarkim doya navro‘z.

Qilibdur mahliqolarning yuzini,
Latofat mus’hafig‘a oya navro‘z.

---

[1] *Besutun* — tog‘ nomi, Farhod qazigan tog‘

Kiyib ahli g‘ino yuz rang xil’at,
To‘lo boshdin ayoq ρeroya navro‘z.

Hama o‘ynab olib qo‘lg‘a yumurta,
Mening ilgimda yo‘qtur xoya navro‘z.

Diramdir moyayi ishrat ulusg‘a,
Vale men bo‘lmisham bemoya[1] navro‘z.

Janobi shahg‘a keldim bu jihatdin,
Ko‘zim yoshig‘a toya-toya navro‘z.

Ki, shoyad o‘zgalardek Ogahiyni
Tarabnok[2] aylagay beg‘oya navro‘z.

(Qish)

Qotig‘roq kelmadi hargiz jahong‘a ushbu qishdin qish —
Ki, aql-u hisg‘a yaksar[3] mone o‘ldi borcha qishdin qish.

Agarchi asradim ojiz tanim qat-qat libos ichra,
Sovuq yel birla, lekin qoltiratdi ko‘ρ qamishdin qish.

Burudat shiddati ostida qaddim xam qilib yodek,
Zaif-u notavon-u nozik etti ham kirishdin qish.

Chidorg‘a har nechakim ko‘rguzub ko‘b sa’yi tish qisdim,
Ushotib sangi shiddatdin ayirdi borcha tishdin qish.

Qabob kulbam aro, qo‘ymay chiqorg‘a sarsar[4] afvoji[5],
Mani mahrum qildi el bila borish-kelishdin qish.

Manga mushkuldurur toρmoq ilojinkim, g‘ino[6] ahli,
Iloj aylar sovuqqa qoqim-u[7] sanjob qishdin qish.

---

[1] *bemoya* — sarmoyasiz
[2] *tarabnok* — xursand
[3] yaksar — bir boshdan, butunlay
[4] *sarsar* — sovuq, kuchli va qattiq shamol
[5] *afvoj* — to‘dalar, guruhlar
[6] *g‘ino* — boylik
[7] *qoqim* — terisi mayin, oq junli hayvon terisidan tikilgan ρo‘stin

Yetushdi, Ogahiy, qish mavsumi, vah, emdi naylarsan —
Ki, qottig‘dur qari-yu ojiz elga borcha ishdin ish.

(Navro‘z bo‘lsun)

Ilohi, har kuning navro‘z bo‘lsun,
Hamisha toleying feruz bo‘lsun.

Bo‘lub ayyomi navro‘zing muborak,
Zamiring inbisot[1] anduz[2] bo‘lsun.

Qilib ρartav[3] fikanlik[4] ayni adling,
Quyoshoso jahon afruz[5] bo‘lsun.

Sango doyim bo‘lub davlat qushi rom,
Shikor andoz-u dast omuz[6] bo‘lsun.

Adu vahshilarini sayd etarg‘a
O‘q-u tiyg‘ing uqob-u[7] yuz bo‘lsun.

Kishikim, istasa sarkashlik[8] etmak,
Boshi yo‘lingda oning tuz bo‘lsun.

Tarab mehri hamisha ρok ko‘nglung,
Siρehr avjida markuz bo‘lsun.

Tarabgohing aro xayyoti gardun,
Kaniz-u zoli xil’atdo‘z[9] bo‘lsun.

Ko‘rub lutfingni har tun Ogahiyning
Nasibi ishrati navro‘z bo‘lsun.

---

[1] *inbisot* — shodlik
[2] *anduz* — oluvchi
[3] *ρartav* — nur, shu’la
[4] *fikan* — soluvchi, tashlovchi
[5] *afruz* — kiydiruvchi; yorituvchi
[6] *omuz* — o‘rganuvchi, biluvchi
[7] *uqob* — burgut
[8] *sarkash* — o‘jar, bosh bermas
[9] *xil’at* — hashamatli kiyim

(«Doshhovli» tasviri)

Bo‘lub andoq binokim sel-u ofat,
Asosig‘a yetishmas to qiyomat.

Saroyi qasri jannatdek muzayyan,
Masarratg‘a bo‘lub dahlizi maskan.

Bino har sori topib necha ayvon,
Vale rif’at[1] aro andoqki kayvon.

Falakka bosh chekib har yon necha toq,
Ko‘rub hayratda qolib ahli ofoq.

Bo‘lub devori sarto poy koshi,
Topib zarhal bila tazyin[2] hoshi.

Bo‘lub koshisi aslini sarosar,
Topibdur lojuvardi birla zevar.

Eshiklar barcha oltundin mullama[3]
Sufalar barcha gavhardin murassa.


Kelib har bir uyning saqfi zarkor,
Kumushdin farsh o‘lub sahniga hamvor.

Agar topmoq tilab andoq imorat,
Falak sayr ichra ming yil qilsa sur’at.

Bo‘lur sayr aylamakdin charx ojiz,
Topa olmas oning mislini hargiz.

---

[1] *rif’at* — yuksaklik
[2] *tazyin* — ziynatlash
[3] *mullama* — yaltiratilgan



MUHAMMAD RAHIMXON FERUZ (1844–1910)

Said Muhammad Rahimxon Bahodirxoni soniy — Feruz davlat arbobi, shoir, musiqashunos, olim va bastakordir. У 1844-yil Xivada tug‘ilgan, 1863- yil taxtga o‘tiradi. «Feruz» taxallusi bilan ijod qildi. Adabiyot, san’at, madaniyat va ma’rifatning rivojiga ulkan hissa qo‘shib, san’atkorlarga homiylik qildi. Markaziy Osiyoda birinchilardan bo‘lib toshbosmaxona tashkil qiladi va fotografiya ishlarini yo‘lga qo‘yishda bosh-qosh bo‘ladi. Feruz Ogahiyni va shayxulislom Salimoxun Matрona o‘g‘lini ustoz va рir tutgan.

Feruz she’rlarining lirik qahramoni dunyo tashvishlarini yelkasiga ortgan, jamiyat va xalq farovonligini o‘ylaydigan, yuksak madaniyatli va ma’rifatрarvar insondir.

G‘AZALLAR
(Furqating soldi...)

Furqating soldi dil-u jon ichra o‘t,
Kufri zulfing din-u iymon ichra o‘t.

Nargisi shahlo ko‘zung solg‘usidur,
Bir nigahdin bog‘-u rizvon ichra o‘t.

Oh cheksam furqatingdin o‘rtanib,
Tushgusidur baytulahzon ichra o‘t.

Jurmim, ey mahvash, nedur har dam solur
Barqi ishqing jismivayron ichra o‘t.

Oy kibi farrux yuzungning furqati
Soldi ko‘kda mehri raxshon[1] ichra o‘t.

Ne ajab, ko‘rgach yuzing Feruzning
Ohidin tushsa guliston ichra o‘t.

(Gulshan ichra...)

Gulshan ichra sarv yoxud ul qadi mavzunmudur?
Nargis erkanmu va yo ul chashmi ρurafsunmudur?

Ul gul olmishmu qizil ilkiga bu bog‘ aro,
Yo shahidi ishq qonidin qo‘li gulgunmudur?

Ul nechuk gulgun yuzingga o‘zni monand aylagay
Kim, oning rangi yuzingdin dam-badam afzunmudur?

Gul uza shabnammu yoxud bulbul ashki hajridin,
Gul boshi uzra nisor o‘lg‘on duri maknunmudur?

Buki, tinmay gulshan ichra nola aylar andalib[2],
Ul dag‘i bir gul g‘amidin man kibi mahzunmudur?

Do‘stlar, Laylini gulro‘yimga tashbeh aylamang,
Kim, oning devonasi men zordek Majnunmudur?

Ey ko‘ngul, ul gul visoli ichra shod etkan sani,
Baxti Feruzingmu yoxud gardishi gardunmudur?

(Oftoboso jamoling...)

Oftoboso jamoling ko‘rgach o‘ldum, ey nigor,
Beqaror-u beqaror-u beqaror-u beqaror.

Tig‘i ishq-u xanjari nozingdin o‘ldum subh-u shom,
Dilfigor-u dilfigor-u dilfigor-u dilfigor.

[1] *raxshon* — yaltiroq, ρorloq
[2] *andalib* — bulbul

Oh-u nolam ayladi ishqingni oxir dayr[1] aro,
Oshkor-u oshkor-u oshkor-u oshkor.

Javr-u zulming bo‘lg‘ondur man hazing‘a dam- badam,
Beshumor-u beshumor-u beshumor-u beshumor[2].

Oy kibi farrux jamoling ko‘rgali yo‘lungda ko‘z,
Intizor-u intizor-u intizor-u intizor.

Noz ila so‘rsang samanding sakratib yo‘q sen kabi,
Shohsuvor-u shohsuvor-u shohsuvor-u shohsuvor.

Vaslingga yo‘l topsa har kim bo‘lg‘ay ul Feruzdek,
Baxtiyor-u baxtiyor-u baxtiyor-u baxtiyor.

(Ey rafiq)

Ayb aylamang bo‘lsam ul oy ishqida nolon, ey rafiq,
Qildi hazin jonimni hajr o‘tig‘a so‘zon, ey rafiq.

Dard-u g‘am hijronida holim ko‘rib rahm aylamas,
Zulmin fuzun aylar manga ul nomusulmon,ey rafiq.

Topg‘usidur o‘lgan badan nutqidin oning toza jon,
La’li labini har qachon qilsa durafshon[3], ey rafiq.

Yuz noz ila ul dilrabo qilsa yuz takallum nogahon,
Qul bo‘lg‘usi, ko‘rsa agar, ming mohi Kan’on, ey rafiq.

Rohat topar jonim mening qilsa sitam har necha ul,
Javri magar bo‘lmishdurur dardima darmon, ey rafiq.

Man aylama Feruzni ul mahliqoning ishqidin,
Bo‘lmish oning ishqi mening jismim aro jon, ey rafiq.

---

[1] *dayr* — mayxona; dunyo
[2] *beshumor* — sanoqsiz, ko‘p
[3] *durafshon* — dur sochuvchi

(Aylading)

Ey falak, netdim sani, dushmanlig‘ izhor aylading,
Notavon ko‘nglum tuganmas g‘amg‘a duchor aylading.

Solibon ayru malaksiymo habibimdin mani
G‘ulsurat[1], devsiyratlar birla yod aylading.

Vasl ila bir dam xush etmay xotiri noshodimi,
Doimo dard-u, firoq-u g‘am aro zor aylading.

Hajr tig‘idin qilib jismimni sartosar yaro,
Joni zorimni mashaqqat birla afgor aylading.

Davlati vaslin muyassar aylabon ag‘yorg‘a,
Mehnat-u ko‘nglumni sazovor aylading.

Bir labi maygun[2], ko‘zi xummor hijroni aro,
Qon yoshim ko‘zda ravon, jonimni bemor aylading.

Bir yo‘li aylanmayin Feruzning komi bila,
Ey falak, netdim sani, dushmanlig‘ izhor aylading.

(La’li shiriningni...)

La’li shiriningni ta’rif aylab o‘lmish shahdkom,
Anvariy-u Fazliy-u Hoqoniyi Masnad mudom.

Chashmi fattoningg‘a[3] nargisni har nechuk tashbeh etar,
Soyib-u Bedil, Hiloliy, Hofizi shirinkalom.

Vah, ne yanglig‘ sharh qilg‘ay orazing tavsifini,
Unsuriy-u Asjadiy-u Farrux-u Sa’diy, Humom.

---

[1] *g‘ul* — dev
[2] *maygun* — may rangli, qizil rangli
[3] *fatton* — fitna qiluvchi, jozibali

Ko‘rsa husning Layli-yu Shirinni vasf etmas edi,
Xisraviy-u ham Navoiy, Jomiy-u Shayx Nizom.

O‘xshatib bo‘lmas yangi oyg‘a muqavvas qoshlaring,
Sayido-yu Nozim-u Lutfiy-u Kiromiy , Hisom.

Sarvoso qomating vasfin qilurda lol o‘lur,
Andalib-u Ravnaq-u Ziyrak Masihi xushkalom.

Ogahiy-u Komil-u Feruz, Xolis ,Chokaring,
Rojiy-u Mirzo-yu Akmal, Munis-u Xokiy, G‘ulom.





MUHAMMAD AMINXO‘JA MUQIMIY (1850—1903)

Muhammad Aminxo‘ja Mirzaxo‘ja o‘g‘li Muqimiy yirik o‘zbek shoiri va mutafakkiridir. U dastlab Qo‘qon shahridagi boshlang‘ich maktabda, keyinroq «Mohlar oyim» madrasasida o‘qiydi. Buxoro madrasalarida tahsil oladi. Onasi Oyshabibi o‘g‘lida she’riyatga nisbatan ilk havaslarni uyg‘otgan.

Muqimiy Toshkent shahriga ham bir necha marta sayohat qilgan. Bu yerdagi yangiliklar bilan tanishgan. Bu hol uning ijodida ham aks etgan.

Muqimiy hayotida ko‘ρ qiyinchiliklar bilan yashagan bo‘lsada, uning ijodida kelajakka buyuk ishonch, hayotga muhabbat ufurib turadi. Shoir she'riyatida yil fasllari, tabiyat manzaralari, do‘stlik, sadoqat, mehr, muhabbat, samimiyat g‘oyalari ustivorlik qiladi. Ayni ρaytda u satira va yumorning ustasi sifatida ham e’tirof etiladi.

Muqimiy asarlaridagi yuksak badiiyat, tilidagi soddalik va ta’sirchanlik o‘ziga rom etadi. Muqimiy asarlari bilan ijro etiladigan qo‘shiqlar hozir ham xalqimiz ardoqlaydigan san’at asarlari qatorida turadi.

G‘AZALLAR

(Yakka bu Farg‘onada...)

Oshiq ermasman yuzingga yakka bu Farg‘onada,
Zohid istar ka’balarda, barhaman butxonada.

Kimga dod aylay bu bedodingni man, ey sangdil,
Oshno bo‘ldim desam, ko‘nglung seni begonada.

Shami ruxsoring yonar mahfilda gul-gul kechalar,
Bormudi qasding magar kuydurgali parvonada.

Man etib, ey muhtasib, har dam boshimga kelmag‘il,
Bo‘lsa naylay, mast bo‘lmay, maskanim mayxonada.

G‘ofilo, fikr aylag‘il uqboni rohat istasang,
Shodlig‘ ko‘z tutmakim, bo‘lmaydi mehnatxonada.

Manzilimni so‘rma, ey mag‘ruri mulki dastgoh,
Dahr sahroyi junun uy bo‘lmag‘ay devonada.

Bulbul aylar nolalar yolg‘iz dema, ey guluzor,
Chug‘zdek[1] qilg‘ay Muqimiy ham navo vayronada.

(Arzimni aytay...)

Arzimni aytay bodi sabog‘a,
Shoyad gapurgay ul gulqabog‘a.

Albatta kelsun, holimni so‘rsun,
Andisha qilsun, ro‘zi jazog‘a.

Necha zamondur, ko‘zga nihondur,
Har kim yomondur, soldim xudog‘a.

Ohim eshitmay, dodimga yetmay,
Bir ta’sir etmay, ketti havog‘a.

[1] *chug‘z* — boyqush

Mandin chu ohu, ram qildi badxo‘,
Bulkim g‘arazgo‘ tushti arog‘a.

Bo‘ldim fasona, subhi shabona,
Ko‘ksim nishona tiyri jafog‘a.

O‘zi uyonsun, hajrida qonsun,
Dardig‘a borsun qayda davog‘a.

Bo‘lgay xiromon, boqmay shitobon,
Qilmasin ehson sulton gadog‘a.

Yo‘q zarr-u siymi, lekin samimiy,
Oshiq Muqimiy kelsa duog‘a.

(Surating)

Mumkin o‘lsa ko‘rmog‘im, ey sarvi ra’no, surating,
Aylasa chashmim aro mardum kabi jo surating.

Qoshlaringiz ne ajab, zohid ko‘rub beixtiyor,
Boqmasa mehrobga borida qat’o surating.

Sabr bunyodini bir boqish bilan barbod urub,
Ohkim, soldi ko‘ngul mulkiga yag‘mo surating.

Vaqtida kelsang vujuda bu malohatda ko‘rub,
Yonsa, Yusufdin ne tong erdi Zulayho surating.

Dirbaro, bog‘ ichra qil yuz nozlar birlan xirom,
Qilmasun da’vo ko‘rub tovus aslo surating.

Xo‘bro‘lar birla oqshom bazmda qildim qiyos,
O‘zgalar yulduz kabi, xurshedi tanho surating.

Ul zamonkim husni xol-u xatlaringdin bo‘ldi gaρ,
G‘oyibona boshlara ortturdi g‘avg‘o surating.

Nogahon topsam sihat bemorlig‘lardin, Muqim,
Bir borib dermanki ko‘rsam inshoollo surating.

(Ayrilmasun)

Hech kim mendek ilohi yoridan ayrilmasun,
Mehribon munis o‘shal dildoridan ayrilmasun.

Xonumonlarni berib barbod yetmay vaslig‘a,
Bo‘lubon ma’yus yo‘q-u boridan ayrilmasun.

Hajr osebi xazonida bo‘lib sho‘ridahol,
Andalebe men kabi gulzoridin ayrilmasun.

Qosido, ko‘nglum qushi band erdi, ayg‘il zinhor,
Ishqilibkim, zulfi anborboridan ayrilmasun,

Do‘stlar, ko‘rsatmasun hargiz judolik dardini,
Dushmaning ham bo‘lsa o‘z g‘amxoridan ayrilmasun.

Bandaye, yorab, Muqimiydek bo‘lib xor-u kasod,
Sud-u savdodin qolib, bozoridin ayrilmasun.

(Navbahor...)

Navbahor. Ochildi gullar, sabza bo‘ldi bog‘lar,
Suhbat aylaylik kelinglar, jo‘ralar, o‘rtoq‘lar.

Xush bu mahfilda[1] tiriklik ulfat-u ahbob ila,
O‘ynashib, gahe tabiatni qilaylik chog‘lar.

Ruh ochib ko‘zdin nihon bo‘lsa paridek naylayin,
Ayrilib hush-u aqldin telba bo‘lmay sog‘lar.

Xayfkim ahli tamiz ushbu mahalda xor ekan,
Oldilar har yerda bulbul oshyonin zog‘lar.

[1] *mahfil* — joy, manzil; to‘planish

Marham istab kimsadin, zaxmi dil izhor aylasang,
Choraye qilmoqdin o‘zga, ustiga tirnog‘lar.

Tobakay mundog‘ malomat kunjida doim Muqim,
Bu zamon ko‘z tutgin emdi senga bo‘lsun tog‘lar.

MURABBA
(Ko‘nglum sandadur)

Emdi sendek, jono, jonon qaydadur,
Ko‘rib gul yuzingni bog‘da bandadur,
Saqlay ishqing toki jonim tandadur,
O‘zim har joydaman, ko‘nglum sandadur.

Mehring o‘ti nogah tushdi jonlarga,
Parvoyim yo‘q zarra xon-u monlarga,
Lola yanglig‘ to‘lib bag‘rim qonlarga,
O‘zim har joydaman, ko‘nglum sandadur.

Erta-yu kech fikr-u zikrim xayoling,
Bir so‘rmading, nalar kechti ahvoling,
Eslarimga tushib shirin maqoling,
O‘zim har joydaman, ko‘nglum sandadur.

Voqif ermas kishi sening aslingdin,
Tokim desam pari sening naslingdin,
Vodarig‘o, judo bo‘ldim vaslingdin,
O‘zim har joydaman, ko‘nglum sandadur.

Yo‘q sen kabi malohatlik yagona,
Ko‘rganmukan misolingni zamona,
Bo‘lib xalq ichida mundog‘ afsona,
O‘zim har joydaman ko‘nglum sandadur.

Yuzlaringdin xijil mohi tobonlar,
Raftoringga shaydo jumla yoronlar,

Qolib har dam o‘z ishimga hayronlar,
O‘zim har joydaman, ko‘nglum sandadur.

Sultonisan, barcha xo‘blar[1] nadiming[2],
Doim erdim duogo‘ying, qadiming,
Bovujudi so‘rmay o‘tting Muqiming,
O‘zim har joydaman, ko‘nglum sandadur.

HAJVIYOT
«Tanobchilar»

Bo‘ldi taajjub qiziq hangomalar,
Arz etayin emdi yozib nomalar,

Adl qulog‘ila eshit holimi
Zulm qilur, baski, menga zolimi,

O‘n ikki oyda keladur bir tanob,
O‘zgalara rohat-u menga azob.

Sulton Ali Xo‘ja, Hakimjon ikav,
Biri xotun, birisi bo‘ldi kuyav.

Ikkalasi bo‘ldi chunon ittifoq,
Go‘yo xayol aylaki, (qilmay nifoq),

Osh yesalar o‘rtada sarson ilik,
Xo‘ja — chirog‘ yog‘i,
Hakimjon — ρilik.

Bir-birisiga solishurlar o‘run,
Erta-yu kech o‘ρushib og‘iz-burun.

Sallalari boshlarida oq savat,
Ko‘rpacha tagda hama vaqt uch qavat.

---

[1] *xo‘b* — yaxshi; go‘zal
[2] *nadim* — xizmatkor, mahram

Birlari mo‘ltoninamo, hiylagar,
Birlaridur kunda ρix-u[1] gavda xar.

Og‘izlari maqtanib o‘n besh qarish,
Mayda suxan, ezma (churuk), zanchalish[2].

Qaysiki qishloqqa tushar otidin,
Elni yig‘ib, voqif etar zotidin.

Derki: «Ko‘zungga hali kal jo‘jaman,
Maxdumi[3] a’zamlik o‘zim xo‘jaman.

Bizga bobo hazrati Shohlig‘ mazor,
Muxlisimiz mardumi ahli diyor.

Ham yana Erxubbi[4] bo‘lodur tag‘o,
Ammamizning erlaridur Nurato.

Bibi Ubayda bo‘ladur xolamiz,
Goh kelur erdi kichik bolamiz.

Xizr otamlarga burodar erur,
Chimlig‘ azizlar menga dodar erur.

Garchiki men olim-u shayxi zamon,
Qirqingiza emdi beray bir qozon.

Manki tanobingg‘a chiqibman kelib,
Xizmatimi yaxshi qilinglar bilib.

O‘t qo‘yubon kuyduradurg‘on o‘zim,
Hokiming-u o‘lduradurg‘on o‘zim.

Xoh tanobingni du chandon qilay,
Xoh karam birla boshingni silay».

[1] *kunda ρix* — to‘nkaday qo‘ρol
[2] *zan* — xotin
[3] *maxdum* — ulug‘ zot, martabali kishi
[4] *Erxubbi* — islomgacha bo‘lgan davrdagi avliyo

Xo‘ja so‘zini munga bermay qaror,
Mardumi sahroyi bo‘lur beqaror.

Derki Hakimjon: «Ayo oqsoqol,
Bizni topibsan magaramkim o‘sol?»

«Hozir etib to‘rt nafar mardikor,
To‘g‘ri qil oldimga qilibon qator.

Arqonimi yeringa sudrab chiqay,
Bachchataloq qishloqilarni (uray),

Bir burayin mo‘ylabimni chiqib,
Tort tanobini jazosi siqib!

Yaxshiligingni fuqaro bilmag‘ay,
Hali bular ko‘zga bizi ilmag‘ay.

Ikki tanobini qilay o‘n tanob,
Yurtingizi kuydurub aylay xarob.

Xoh o‘ling, xoh qoling, bachchag‘ar»,
Debki, uzanguga ayog‘in tirar.

Bir-biriga qishloq eli boqishib,
Goh u yon, goh bu yon chopishib.

Jam bo‘lishib aylayubon maslahat.
— «Do‘g‘mag‘a, — der, — bir nima berib jo‘nat».

Aqcha qo‘lida iki-uch mo‘ysafid
Derki: «Bu nazringiz-u, bizlar murid».

Zulm bilan ellig-u yuzni olur,
Boz tanobini duchandon solur.

Tag‘i bular yaxshi-yu bizlar yomon,
El tamizidin hazar et, al’amon.

O‘zga yana g‘ussa budurkim, deyin,
Shunchaki bir qissa bulardin keyin;

Qo‘shti Jalolxon degan o‘g‘lin manga,
Dedi: «Ruqum o‘rgatadursiz siz anga».

Yukladi o‘g‘lini manga muxtasar,
Bu dag‘i ortiqcha (menga dardisar)...

So‘zni, Muqimiy, kerak etmak tamom,
Mazzasi qolmas uzun o‘lsa kalom.

«Maskovchi boy ta’rifida»

Hikoyat qilay, turfa davron ekan,
Xaloyiq hama mahv-u hayron ekan,

Chiqib yangi moskovchidin boylar,
Sinar o‘tmayin ba’zisi oylar.

Xususanki eshoni Xodixo‘jam,
Yo‘q og‘zida qarzini vahmida nam.

Kerak bersa Maskovga bir lak, qani,
Bitib va’da-yi ρul, (o‘zi mo‘ltani),

Der ermishki, o‘rusga nisfin beray,
Kelar yilga yarmiga muhlat so‘ray.

Qachon bo‘lmagan gaρ qabul aylasin,
Muqarrar degaykim, ρechat boylasin.

Muning ustiga qarzidur Andijon,
Kim, o‘z xalqidin — barchadin bu yomon.

Bu ham qirq ming so‘m emish, dedi qarz,
O‘tub va’dasi bersalar vaqti farz.

Netarmiz, debon qistamas el ρulin.
— Berurmen, — desa, — so‘miga o‘n tiyin.

Chunonchi xo‘jam, Ρoshshoxo‘jani
Chu Maskov yuborgan bilan mol qani?

Fabrikantlar va’daga molini
Berishmay, — dedi, yig‘lab ahvolini.

Borib mol uchun, mol ololmay kelish
Yomon, ahli tujjorga mushkul ish.

Olib sulsini aqchasin xo‘jayin.
Berib mol kontorga qildi tayin.

Olay desa, kontorda yo‘q bir baqar[1]
Desa: olmayin, ul zakolat kuyar

Bu savdo bilan boshida kechqurun,
Borur ko‘he yo orqadin, yo burun,

Qochib ketdi machchoyilar aksari,
Borib shulki yurtiga ta’kidlari:

— «Saroyeki, o‘ boshadash, zinhor,
Dar onjo marav memuri, ey tabor».

Saroy egasi kambag‘al Bobojon
Ko‘rar tojike yo‘q bo‘lur toza qon.

Ochilgach kelib ertasi hujrasi,
Qilur jang-u janjol har ertasi:

— «Ko‘tarmakka yuk deb, malay saqlasam,
O‘ziga degay, ishlaturlar akam».

O‘risga ijora qo‘yib zovutin,
Borur erdi ishlik bo‘lib, chiqti kun.

[1] *baqar* — mayda ρul ma’nosida

Chiqib qochdi bir-bir hama mardikor,
Kupes qoldi bu sirga hayron-u zor.

Topib mardikorini — «Seychas yuring,
Pojalista, — der edi, — emdi turing».

Dedi, — har kun bersang o‘n so‘m ham,
Borilmaydi, qo‘y zovutini, xo‘jam.

Dubora yana bordi bir ishga shul,
So‘kib: «Net, — dedi, — kelma durak, poshyol»!

Xo‘qand ichra essizgina havlilar,
Kelib ikki ming aqchaga sotdilar.

Olur erdi uch-to‘rt mingga, qarang
Netar, bo‘lsa, qarziga o‘lguncha tang?

O‘zi oqshom hovlisida, har kimi
Ko‘rar keldi eshon, qochar odami.

Agar borsalar qaysi hammomga
Chiqar hodimiylar qochib tomga.

Sabab so‘rdi hammomchi qochqonidin,
Dedilarki: «Biz kechtuk ehsonidin»...

Berib arza ma’murga: «Ey, hokimim,
-Dedi, — bor to‘qqiz yuz oltmish so‘mim»,

Olib buyruq otiga Xayrullaxon,
Shariatga qamt-u o‘turgan zamon,

Kelib qoldi o‘ziga nogah qasam,
Sariq bo‘ldi yolg‘onligi muttaham.

Qizini olib go‘rkavi sho‘rlik,
Turushlik tushib, bo‘lmadi jo‘rlik,

Kelib toshqidin ichkari kirmadi,
.....[1]

Dedi oh urib: «Bo‘lsa er xoli bu»,
Fig‘onidin el ichra tushdi g‘ulu[2].

— «Darig‘oki, baxtim qaro bo‘lmasa,
Senga tushmas erdim, xudo urmasa».

Chiqib ichlarida nihon qotishib,
Bazo‘r qo‘ydi hamsoyalar bosishib,

Vale rastada savlatin ko‘rsangiz
Kim, arziydi shayxi zamon bilsangiz.

Ot ustida mardum qilurlar gumon,
Mudarrislari «Beg»ni, deb Tosh eshon.

Amoma boshida, safid jomalar,
Hayol aylagaysizki allomalar.

Qilib muxtasar, so‘zni qildim tamom,
Malolovar o‘lgay cho‘zilgan kalom.

(Axtaring)

Ɋodshoh yo‘qlatsalar nogah, gado deb axtaring,
Tutmang hargiz nomimi, baxti qaro, deb axtaring.

Kimsa bilmaydur mani, nom-u nasab qilsang bayon,
Lola yanglig‘ dog‘i g‘amga mubtalo, deb axtaring.

Layli toɋgil, desalar, Majnuni sargardonini(ng),
Ko‘zlarining yoshidur rangi xino, deb axtaring.

Istagan chog‘da toɋay deb, bo‘lsa ko‘ngilda xayol,
Qomatidur bori mehnatdin duto, deb axtaring.

---

[1] asl manbaada shu misra mavjud emas
[2] *g‘ulu* — g‘alva, qiy-chuv; to‘ɋalon

Hajr vodiysida kezgay doimokim xo‘blar[1].
Xoki poyidur ko‘ziga to‘tiyo, deb axtaring.

Bir shakarlab, zulmparvar hasratidan, do‘stlar,
Umrlar umri charog‘i beziyo, deb axtaring.

Dahr zulmidin sirishki tinmay oqib aylanur,
Charx javridin boshida osiyo, deb axtaring.

Toleyi shum, vojgun baxt-u g‘izosi dard-u g‘am,
Notavon mo‘ri zaifdin benavo deb axtaring.

Yor vasliga yetolmay qolmish ul kunkim Muqim,
Ushbu boisdin o‘lumig‘a rizo, deb axtaring.

(Aroba)

Bozor chiqmay endi, zinhor aroba qursin,
To kelganingcha aylar bozor, aroba qursin.

Nogoh kayfi uchkay kelsa agar taraqlab,
Ichgan giyohi bo‘lsa ko‘knor, aroba qursin.

Keng ko‘chalarni qilgay o‘lguncha besaranjom,
Qilmay o‘shal hunar deb najjor, aroba qursin.

Yuklangan ersa g‘alla, yursin omonki ma’zur,
Eski so‘log‘i chiqqan, bekor aroba qursin.

Qishloq betamizi bir igna olsa qo‘shib,
Tang rastasiga kirgay attor, aroba qursin.

Bo‘lsa kiroyi tushsang purjinalik kalaska,
Garchandkim, qilurlar guldor aroba qursin.

Luchchak arobakashlar ko‘kka boqib g‘o‘daygan,
Bosqay yurolmaganda hushyor, aroba qursin.

---

[1] *xo‘b* — yaxshi; chiroyli, ma’qul

Aylantirib boshingni, dil behuzur doim,
Mindim netay safarda, nochor, aroba qursin.

Chiqsang, Muqimiy, bozor, aylarga daf'i[1] savdo
Qilg‘ay jahonni ko‘zga ko‘ρ tor, aroba qursin.

(Loy)

Ko‘chaga chiqmoqqa lekin saxt[2] hayron qildi loy,
Qor yog‘ib, qaytar bahor erdi — zimiston qildi loy.

Barf-u[3] boron[4] ustiga tinmay yog‘ib bo‘lg‘onig‘a,
O‘zi ham chog‘imda o‘lguncha ρushaymon qildi loy.

Bo‘lmagan ishlarda yomg‘ur, qor o‘lub fasli bahor,
Bosh ko‘targan sabzani xok ichra ρinhon qildi loy.

Ρorso-yu zohid-u obid rioyat aylamay,
Toydurub, yo sachralub oluda domon qildi loy

Bu faqir-u boy demay, nogoh ayog‘iga cholub,
Yerga urgaykim ani, yorabki, ρolvon qildi loy.

Ochilub bodom-u savsan[5], gullaganda ushbu yil,
Joyi tobiston[6] magarkim, tangri farmon qildi loy.

Ko‘chaga chiqqon Muqimiy kallasin o‘gurturub,
Yaxshi qildi, nafsi kofirni musulmon qildi loy.

---

[1] *daf* — qaytarish, ketkazish
[2] *saxt* — mustahkam, juda
[3] *barf* — qor
[4] *baron* — uning ustiga
[5] *savsan* — gulsaρsar
[6] *tobiston* — yoz

«SAYOHATNOMA»DAN
(Qo‘qondan Isfaraga)

Aflok[1] kajraftor uchun,
Hardam ko‘ngil afgor uchun,
Ho‘qand tang-u tor uchun,
Sahro chiqish darkor ekan.

Bordim shahardin «Yakkatut»,
Baqqoli duzdi badburut[2],
Bir tanga sotkay bir qurut,
Insofi yo‘q tarror ekan.

Qishloq juvoni yig‘ilishib,
Issig‘da o‘ynashgay pishib,
O‘tgan tomoshabin tushib,
Seshanba kun bozor ekan.

Mingboshi Eshdavlat akam,
Ammo quruq savlat akam,
Qilsa chiqim gar bir dirham,
Uyqu qochib bedor ekan.

«Yayfan» kabi tolzor kam,
Yo‘q soyasida zarra g‘am,
Zebo sanam, qoshi qalam,
(Jonon)lari bisyor ekan.

Do‘malari ham xo‘b bajo,
Volosnoyi uddaburo,
Yurt ishlarini doimo,
Xayriyatin ko‘zlor ekan.

---

[1] *aflok* — falak, osmon
[2] *burut* — mo‘ylab, murut

«Nursux» kabi ham yurt yo‘q,
Bog‘dor-u dehqon qorni to‘q,
Masjidlari ham ko‘ρ uluq,
Turfa farah osor ekan.

«Rafqon»ni bozor joyi tang,
Mullolari chaqqon, garang,
Omilari ham mulla rang
Ko‘ylak kiyib, dastor ekan.

Gar mevasi bir tuρ sotar,
Bir ρulni yuz yerdin tugar,
Bersa gadoga non agar,
Ming yilda ham dushvor ekan.

Ammo «Rabot»i bachchag‘ar,
Yo‘q hech odamdan asar,
Bir ρodajoyi gov-u[1] xar[2],
Chun og‘uli tayyor ekan.

Du bora yurdim dashtlab,
Bodom koniga qarab,
Mirza Umarni so‘rag‘lab,
Havlisida najjor ekan.

Bo‘lg‘ay o‘shal Burhon omon,
Yaxshi yigitdur begumon,
Xursand qildi nogahon,
Mingboshi Xol sarkor ekan.

Armonki ko‘ρrak yurmadim,
Bir-ikki hafta turmadim,
«Tikka Rabot» ni ko‘rmadim,
Ρur fayz buzrukvor ekan.

---

[1] *gov* — ho‘kiz
[2] *xar* — eshak

Ma’yus chiqdim «Isfara»,
Dil xasta majruh-u yara,
Issiqqa kuygan qoр-qora,
Olti jihat ko‘hsor ekan.

Anhor-u soy-u cho‘llari,
O‘ynab kelodur suvlari,
Shirinki zardolulari,
Qand-u asal bekor ekan.

Shersiz emasdur beshalar[1],
Bordur saxovatpeshalar,
Qilmang yomon andeshalar,
Yaxshilari ham bor ekan.

Qozi juvonmardi nako‘,
Borib-kelibon chorajo‘,
Nogah bo‘lib dardi gulo‘[2],
Sanchiq tutib bemor ekan.

Hoji Zuhur ham O‘rdada,
Sarhavzlar, oliy sada,
Borsa agar bir g‘amzada[3],
Jonig‘acha esor ekan.

Bo‘lma halovatga kasal,
Olamda yo‘q benish asal,
Beshak, mukofoti amal,
Dunyo qurulg‘on dor ekan.

Alhamdulillo bexatar,
Keldim Muqim aylab safar,
Muztar qolib, ko‘rmay zarar,
Haq bandasiga yor ekan.

---

[1] *besha* — to‘qay, ormon
[2] *gulo‘* — tomoq
[3] *g‘amzada* — g‘amgin, qayg‘uli

(Qo‘qondan Shohimardonga)

Faryodkim, garduni dun,
Aylar yurak-bag‘rimni xun,
Ko‘rdiki, bir ahli funun-
Charx anga kajraftor ekan.

Qolmay shaharda toqatim,
Qishloq chiqardim odatim,
Xohi yayov, bo‘lsun otim,
Gah sayr ham darkor ekan.

«Ultarmaga» qildim yurush,
Yo‘ldosh edi bir chitfurush,
Yetdim jadallab vaqti tush,
Birdam qiziq bozor ekan.

Bir ma’raka ko‘rdum butun,
Jami yopingan boshga to‘n,
Boqsamki, besh yuzcha xotun,
Voiz so‘zin tinglor ekan.

Mingboshilik kimning ishi,
Desam, dedi bedonishi,
Bir «Qo‘shtegirmonlik» kishi,
Xo‘ja Iso badkor ekan.

Mag‘rur, xasis-u besh-u kam,
Har gapda yuz ichgay qasam,
Takjoy olur moxovdanam
Hoji o‘zi murdor ekan.

«Do‘rmancha»ga ketdim o‘tub,
Yoqamni har soat tutub,
Yotdim ul oqshom g‘am yutub,
Dashti qaroqchizor ekan.

Unda bo‘lus qozi dedi,
Ham mufti, ham qozi dedi,
Yurt barcha norozi dedi,
Qilg‘on ishi ozor ekan.

Boz izdihomi voizi,
Badkayf ochilmas ko‘zi,
Yuqori boshidin tizi,
Ermaklari ko‘knor ekan.

«Oq yer»din o‘tdim, boylari —
Oliy imorat joylari,
Mehmonsiz o‘tkay oylari,
Kelsa birov nochor ekan.

Ammo nazarda «Roshidon»
Firdavs bog‘idin nishon,
O‘ynab oqar obi ravon,
Sahni gul-u gulzor ekan.

Ma’yus bordim «Zohidon»,
Bir ko‘cha ketguncha do‘kon,
Sho‘x odami, ichmay ρiyon,
Mast, otasi bezor ekan.

Suvlar sepilgan so‘rilar,
Bo‘rlangan o‘choq-mo‘rilar,
Ta’bing mabodo choy tilar,
Damlashlari ishqor ekan.

«Oltiariq» qursin o‘shal,
Sellarda qoldim bir mahal,
Bo‘ldim ivib yomg‘urda shal,
To‘n shilta, ho‘l ezor ekan.

Mingboshisi so‘finamo,
Tasbih-u bo‘ynida rido.
Cho‘qub qochar zog‘i alo,
Bir dog‘uli ayyor ekan.

Xayr-u sano vajhiga kar,
Bir ρulni yuz yerdin tugar,
Kelsa gadoy nogah agar,
Bir non chiqish dushvor ekan.

Ko‘rdim chuqur «Chimyon» erur,
Yer ostida zindon erur,
Dushmanlari mehmon erur,
Bog‘i uning tutzor ekan.

«Vodil» maqomi dilfuzo,
Ko‘chalaridur dilkusho,
Anhorida obi safo,
Sebarga, obishor ekan.



ZOKIRJON XOLMUHAMMAD O‘G‘LI FURQAT (1859—1909)

Zokirjon Mullo Xolmuhammad o‘g‘li Furqat Qo‘qon shahrida tavallud topgan. Mahallasidagi maktabda dastlabki savodini chiqarib, so‘ng madrasada o‘qiydi. Xattotlik va arab tili bo‘yicha yaxshigina bilim oladi.

Tog‘asi bilan birgalikda savdo ishlari bilan shug‘ullangan. Fuqarolarning iltimos va arzlarini qog‘ozga tushirishga ko‘maklashgan. U Muqimiy, Muhyi, Zavqiy, Nodim, Nisbat, Muhayyir singari adiblar bilan bir adabiy davrada ijod qiladi.

Furqat she'riyati lirik kechinmalarning nozik tasvirlarga boyligi, hissiyotlarning o‘tkirligi, ifodalarning yangi va samimiyligi bilan ajralib turadi. Ularda tabiat manzaralari, inson qalbining nozik kechinmalari juda go‘zal va takrorlanmas tarzda aks etgan. Adibning «Hammomi xayol» risolasi, forschadan tarjima qilingan «Chor darvesh» tarjimasi, «Nuh manzar» degan kitoblari yaratilgan.

Toshkentga borib ilm-fan va texnika, shuningdek, san’atdagi yangiliklarni ko‘radi. Bular haqida bir qator asarlar bitadi. Furqat o‘zbek publitsistikasining ham asoschilaridan biridir.

Furqatning go‘zal she’riyati insoniy tuyg‘ularning yorqin ifodasi hamda hassos qalblardagi nozik kechinmalar bilan uyg‘un kelishi tufayli har doim sevib o‘qiladi.

G‘AZALLAR
(Kashmirda)

Bir qamar siymoni ko‘rdim baldayi Kashmirda,
Ko‘zlari masxur-u yuz jodu erur tasxirda[1].

Zarra-zarra zar sochar boshig‘a har kun oftob,
Subh kelgach, kecha yotib chashmayi iksirda.

Bir ko‘rib chohi zaqan[2] Xorut ila Morut ikov,
Chohi Bobil ichra qolmishlar bo‘lak tadbirda.

Lam’ayi qiyg‘och ko‘zidin aning barqi nigoh,
Tezlik javharlari gar bo‘sa har shamshirda.

Qoshi uzra xolining asroridin bir nuqtadur,
«Surayi Nun» o‘qudim ρayvasta har tafsirda.

Forig‘ ermas hech kim ul dilraboning ishqidin,
Zulfiga dilbastalig‘ har bir juvon-u ρirda.

Aydim: «Ey, jon ofati, zulfingga bo‘lmisham asir!»
Aydi: «Bu savdoni qo‘y, umring o‘tar zanjirda!».

«Nuqta lab ustida bejodur»,— dedim, aydi kulib:
«Sahv[3] qilmish kotibi qudrat magar tahrirda».

Aydi: «Ey bechora, qilding na uchun tarki vatanʔ»
Man dedim: «G‘urbatda Furqat bor ekan taqdirda!».

(Kelinchak)

Surmadin ko‘zlar qaro, qo‘llar xinodin lolarang,
G‘ozadin yuzlarda tobu, o‘smadin qoshlar tarang.

Za’faroniy ko‘ylak uzra arg‘uvoniy kamzihul,
Ro‘ymol og‘ushidin ρeshonani ahvoli tang.

---

[1] *tasxir* — zabt etish, qo‘lga olish
[2] *zaqan* — baqbaqa
[3] *sahv* — xato, yanglish, unutish

Bori nozik ρanjalar oltun uzukdin zebnok,
Qo‘l bilaguzukdin muzayyan, nuqradin og‘izda chang.

Gavhar osqon halqalar siymin[1] banogo‘shida[2] band,
Ko‘rinur, zulfi tunida subhi sodiqdek arang.

G‘amza birla o‘lturur, gah jilvalar birla yurur,
Turfa bir noz, ofarin, ρur ishva tannoz-u satang.

Aql-u hush eltar agar tursa, ρaridek silkinib,
Odamizod ichra ham mundog‘ bo‘lurmu sho‘x-shang[3]?

Yo‘q qutulmoqlig‘ menga, ul ofati jon dastidin,
Qasdima qoshlar kamon, ρayvasta mujgonlar xadang.

Ul ρarivash ishqidinki, telbadurmen, goh sog‘,
Chunki bordur oramizda goh sulh-u gohi jang.

Javrlarkim, Furqat, ul sho‘xi jafojo‘ ayladi,
Muncha bedod-u sitam qilmas musulmong‘a farang.

(Surating)

Ne balolig‘ erdi, ey sho‘xi diloro, surating,
Aqlimi lol etti qilg‘uncha tamosho surating.

Ketti bir ko‘rgach ani sabr-u qarorim shevasi,
Ayladi toqat nechuk chekkanda tarso, surating?

Yoki Gulandom erursan, boz kelding dar vujud,
Ayladi Bahromdek bizlarni shaydo surating.

Sarv qadlar suratin chekkanda naqqoshi azal
Bir alif shaklida yozmish qaddi zebo surating.

---

[1] *siym* — kumush, tanga
[2] *banogo‘sh* — quloqning ostki yumshoq qismi, sizg‘asi
[3] *shang* — sho‘x, o‘ynoqi

Naqshi ϱoyingni chekolmas erdi Chin suratgari
Olg‘usi mir’ot ila rus ahli qaydo surating?

Bu latofatlar bila borsa kalisog‘a[1] agar
Qo‘ymag‘aymu bosh ayog‘ig‘a chaliϱo, surating?

Turfakim tasviri la’ling murdalarg‘a jon berur,
Yo‘q erur, jono, ajab bo‘lsa Masiho surating.

Kecha-kunduz jur’at aylab moh-u mehr oyinasi
Bo‘lmadi ko‘rmoq ila mustag‘ni aslo surating.

Furqatiy qosh-u ko‘zing ayni tasavvur aylagach,
Soldi g‘orat ko‘ngliga, jonig‘a yag‘mo surating.

(Adashganman)

G‘aribi bu viloyat xonumonidin adashganman,
Basoni murg‘i vahshiy oshyonidin adashganman.

Chekib bulbul kabi afg‘on saharlar yig‘lasam yo‘q ayb,
Bahor ayyomi o‘tib bo‘stonidin adashganman.

Azizim, murshidim, ham rahbarim, toji sarim —boshim,
O‘shal sohib karamlik xonadonidin adashganman.

Kezib dashti muhabbatni, so‘rog‘i do‘stni toϱmay,
Adam anqosidek nom-u nishonidin adashganman.

Qolib sargashtalik sahrosida hayron-u sargardon,
Ulug‘ dargohlarni(ng) ostonidin adashganman.

Tirikman el ko‘zig‘a shunchalik ruhiravonim bor,
Vagarna holi surat, tanda jonidin adashganman.

Boshimg‘a tushti g‘urbat oftobi naylayin, Furqat,
Falakni (ng) gardishidin soyabonidin adashganman.

---

[1] *kaliso* — xristianlar ibodatxonasi, cherkov

(Fasli navbahor o‘ldi)

Fasli navbahor o‘ldi, ketibon zimistonlar,
Do‘stlar, g‘animatdur, sayr eting gulistonlar.

Subhidam tushub shabnam bo‘ldi sabzalar xurram,
Gul uza tomib kam-kam yog‘di abri naysonlar.

Nastaran yuvib yuzni, yosumon tuzib o‘zni,
Nargis ochibon ko‘zni intizori yoronlar.

Bir sahar edim uyg‘oq: o‘t tutoshti olamg‘a,
Tog‘lar chekib larza, titradi biyobonlar.

Qumrilar qilib ku-ku, bulbul aylabon chah-chah,
Sarv gul uza doim tortar oh-u afg‘onlar.

Bulbul o‘qug‘och yig‘lab subhidam xazon faslin,
G‘uncha qon yutub, yuz chok etti gul giribonlar[1].

Kechtilar vafo ahli qolmayin tutub savsan,
Kiydi ko‘k qilib sunbul zulfini parishonlar,

Kuymasun bu savdoda ne uchun dimog‘imkim,
Ranj-u g‘ussada dono, kechsa shod nodonlar.

MUXAMMASLAR

(Kishi holimni bilmas...)

Kishi holimni bilmas, mehribonidin adashganman,
Vatan ovoradurmen, do‘stonidin adashganman,
Vatansiz benavodurmen, makonidin adashganman,
G‘aribi ko‘yi g‘urbat, xonumonidin adashganman,
Vayo bir murg‘i vahshiy oshiyonidin adashganman.

Boshimda dam-badam bir kulfati digar[2] makon aylar,
Dilimni har nafas anduhi digar oston aylar,

[1] *giribon* — kiyim yoqasi
[2] *digar* — o‘zga, boshqa

Falak ρayvasta tiyri g‘amg‘a ko‘ksumni nishon aylar,
Tirikman zohirida, xalq bir odam gumon aylar,
Valekin holi surat tanda jonidin adashganman.

G‘arib-u bekas-u sarsonlig‘imni boisi shuldur,
Hazin-u xasta-yu giryonlig‘imni boisi shuldur,
Jahon ovarayi hayronlig‘imni boisi shuldur,
Xarob-u besar-u somonlig‘imni boisi shuldur,
Ki, bir sohib karomat ostonidin adashganman.

Bo‘lubman oshiqi sho‘ridayi bir nozanin dilbar,
Firoqida dilim g‘amnok, bag‘rim chok, chashmim tar[1],
Tanam xoshokidin[2] shu’la urar ishq otashi yaksar,
Muhabbat o‘tida kuyg‘och, bo‘lub bir to‘da xokistar[3],
Fano bodi tegib nom-u nishonidin adashganman.

Kezib dashti biyobon bahr-u barlar yig‘lasam, tong yo‘q,
To‘kub yosh o‘rnig‘a ko‘zdin guharlar yig‘lasam, tong yo‘q,
Malomat zohir etmang, hamsafarlar, yig‘lasam, tong yo‘q —
Chekib bulbul kibi afg‘on saharlar yig‘lasam, tong yo‘q
Ki, keldi fasli gul, men gulistonidin adashganman.

Menga kor etti davron inqilobi, na iloj aylay?
Nasib o‘ldi mazallat xo‘rdi xobi, na iloj aylay?
Qolibmen tashna, yo‘q bir kosa obi, na iloj aylay?
Boshimg‘a tushdi g‘urbat oftobi, na iloj aylay?
Falakni gardishidin soyabonidin adashganman.

Laqab har kimsaga mardum ba qadri odatiy derlar,
O‘shal kim anjumanda o‘tsa umri suhbatiy derlar,
Fano ko‘yida kimki mu’takifdur xilvatiy derlar,
Zamon ahli bu boisdin taxallus Furqatiy derlar,
Necha yildur bir oshubi[4] zamonidin adashganman.

---

[1] *tar* — ho‘l; yangi, toza
[2] *xoshok* — xashak, cho‘ρ
[3] *xokistar* — kul
[4] *oshub* — to‘ρolon, hayajon, qo‘rquv

(Adashganman)

Manam shoʻrida bulbul boʻstonidin adashganman,
Yuzi gul, qomati sarvi ravonidin adashganman,
Dilim hajri-la qondur, dilistonidin adashganman,
Gʻaribi koʻyi gʻurbat xonumonidin adashganman,
Vayo bir murgʻi vahshiy oshiyonidin adashganman.

Netongkim, laʼli yodi gʻunchadek bagʻrimni qon aylar,
Xayoli nargisi andoq nahif-u notavon aylar,
Nihoni kuydirib hajr oʻti ρoʻst-u ustixon aylar,
Tirikman zohir ammo, xalq bir odam gumon aylar,
Va gar na mahz surat tanda jonidin adashganman.

Boshimda xush yoʻq, hayronligʻimning boisi shuldur,
Ketib aql-u xirad, nodonligʻimning boisi shuldur,
Yetim qoʻzi kabi nolonligʻimning boisi shuldur,
Xarob-u besar-u somonligʻimning boisi shuldur,
Ki bir sohib karomat ostonidin adashganman.

Biyobon gardiman Majnun kabi bir Layli yodida,
Boʻlib oshufta zanjiri junun basti kushodida,
Qilurmish qat rah har kimsa oxir oʻz murodida,
Yugursam har tarafga ayb qilmanglar bu vodiyda,
Misoli telba itmen korvonidin adashganman.

Malomat oʻqlaridin dilfigor-u siyna chok oxir,
Yiqildi notavonliq birla jismi dardnok oxir,
Xudogʻa shukurkim, ketdim aning yoʻlida ρok oxir,
Muhabbat oʻtida kuygach, boʻlib bir toʻda xok oxir,
Fano bodi tegib nom-u nishonidin adashganman.

Qilib yod oʻtgan umrimni chaman obi ravonidin,
Muhabbatnomalarni yod olib savsan zabonidin,
Tikan zaxmini anglab gʻunchani qonligʻ dahonidin,
Oʻqub gul daftarini bir varaq fasli xazonidin,
Jahon bogʻida bulbuldek figʻonidin adashganman.

Sayodat charxini mehri, asolat avjini mohi,
Shohi mulki fano kursi-yu shamsi arsh xirgohi,
Yetushmas xoki ko‘yig‘a Sikandar hashmati johi,
Tariqat mulkini shohi, haqiqat sirin ogohi,
O‘shandoq ρiri komil xonadonidin adashganman.

Ko‘ngulni el diyori ichra bedog‘, ibtihoj aylay,
Borib kimg‘a g‘aribliq birla arzi ixtiyoj aylay?
Na sud andinki sharhi dostonim yuz quloch aylay?
Boshimg‘a tushti g‘urbat oftobi na iloj aylay?
Falakni gardishidin soyabonimdin adashganman.

Qadimni xam ko‘ronlar ishq bori mehnati derlar,
Tanimda notavonliq boisi g‘am hasrati derlar,
Qayonda bo‘lsa bir g‘urbatkashida ulfatiy derlar,
Zamona ahli muxlis, bu sababdin Furqatiy derlar,
Necha yildur bir oshubi zamonidin adashganman.

MUSADDAS

(Sayding qo‘yaber, sayyod...)

Sayding qo‘yaber, sayyod, sayyora ekan mendek,
Ol domini bo‘ynidin, bechora ekan mendek,
O‘z yorini toρmasdan ovora ekan mendek,
Iqboli nigun, baxti ham qaro ekan mendek,
Hijron o‘qidin jismi ko‘ρ yora ekan mendek,
Kuygan jigari bag‘ri sadρora ekan mendek.

Kes rishtanikim, qilsun chaρaklar otib jasta,
Hajrida alam tortib, bo‘ldi jigari xasta,
Tog‘larga chiqib bo‘lsun yori bila ρayvasta,
Kel, qo‘yma balo domi birla oni ρobasta,
Hijron o‘qidin jismi ko‘ρ yora ekan mendek,
Kuygan jigari bag‘ri sadρora ekan mendek,

Besh kun sening davringda bechora xirom etsun,
Ohular ila o‘ynab, ayshini mudom etsun,
Yomg‘ir suvi to‘lganda, tog‘ lolani jom etsun,
Haqqing‘a duo aylab, umrini tamom etsun,
Hijron o‘qidin jismi ko‘ρ yora ekan mendek,
Kuygan jigari bag‘ri sadρora ekan mendek.

Sargashta bu vodiyda bir boshig‘a rahm etkil,
Yo‘q toqati bandingga, bardoshig‘a rahm etkil,
Yig‘lab senga termular, ko‘z yoshig‘a rahm etkil,
Rahm etmasang o‘zig‘a yo‘ldoshig‘a rahm etkil,
Hijron o‘qidin jismi ko‘ρ yora ekan mendek,
Kuygan jigari bag‘ri sadρora ekan mendek,

Tog‘da ochilib lola, yer sabza bahor o‘lsa,
Oxir bu nechuk bedod, olam anga tor o‘lsa?
Chiqmay desa joyidin, uzlatda figor o‘lsa,
Gar chiqsa banogohi domig‘a duchor o‘lsa,
Hijron o‘qidin jismi ko‘ρ yora ekan mendek,
Kuygan jigari bag‘ri sadρora ekan mendek,

Bechorani zulm aylab, qo‘l-bo‘ynini bog‘labsan,
Har sori chekib-sudrab, o‘ldirgali chog‘labsan,
Ko‘ksini jafo birla lola kabi dog‘labsan,
Sot menga, agar qasding olg‘uvchi so‘rog‘labsan,
Hijron o‘qidin jismi ko‘ρ yora ekan mendek,
Kuygan jigari bag‘ri sadρora ekan mendek,

Yo‘q hushi, ρari tekkan devonag‘a o‘xshaydur,
Ko‘z yoshi yana to‘lgan ρaymonag‘a o‘xshaydur,
G‘am seli bilan ko‘ngli vayronag‘a o‘xshaydur,
Furqatda bu Sa’dullo hayronag‘a o‘xshaydur,
Hijron o‘qidin jismi ko‘ρ yora ekan mendek,
Kuygan jigari bag‘ri sadρora ekan mendek.

ZAVQIY
(1853—1921)

Ubaydulla Solih o‘g‘li Zavqiy Qo‘qonda tug‘ilgan. Qo‘qondagi madrasalarda ta’lim olgan. Kosiblik, mahsido‘zlik, uning asosiy hunari bo‘lgan.

Zavqiy dunyo kezgan adiblarimizdan biridir. U haj safarida ham bo‘lib qaytgan. Shoir o‘z asarlarida ijtimoiy tengsizlik, adolatsizlik, munofiqlik va boshqa yaramas illatlarni qattiq tanqid qiladi, ayrim ijtimoiy kamchilik va nuqsonlar ustidan kuladi. Adib asarlarida qishloq hayoti, mahalliy xalqning turmush tarzi bilan bog‘liq bo‘lgan tasvirlar yetakchi mavqe tutadi.

U lirik asarlarning ham mohir ijodkori. Zavqiy she’rlarini qo‘shiq qilib aytish uning o‘z zamonasidayoq rasm bo‘lgan edi. Bu an’ana hozirgacha davom etib keladi.

«HAJVI AHLI RASTA»

Arzim buki Qori sumalakka,
Yetkursa boshini ham falakka.

Gah-gah nazora aylasin ul,
Ibrat ko‘zi birla bu samakka.

Sangyoda nosdonni maqtab,
So‘z naqdini urmasun mahakka.

Ulfatlari, shamgarmi ahmoq,
Sham qaychini bog‘lasin etakka.

Sallohbachcha — otlari Jalilboy,
To‘rt tepkini yedilar xo‘rakka.

Shokir qora tarzi odam ermish,
Ming la’nat o‘shal qora eshakka.

Ko‘p haddidin oshmasin Nazirbek,
O‘xshaydi ul oshqovoq xamakka.

Pul kelmasa bankadin boyvachcha,
Karnay choladur bo‘lar-bo‘makka.

Ul lokicha boyvachcha dastor,
(Yelgani)da o‘xshatur bo‘zakka.

Kofircha degan bir Ahmadjon bor,
Ko‘p shug‘li baland hangramakka.

A’lamni(ng) o‘g‘illari Olimjon
Hayfi to‘nu salla gungalakka.

Bir zarra rioya qil to‘ramni
Qo‘sh ramzi suxan bilan ko‘makka.

Sil aft oriqqina Muhiddin
Ahvoli ayon bo‘lur kuzakka.

Fozilxo‘ja degan oqfurush bor,
Daf har maraz iyla zindalakka.

Olib borur o‘ldi Qosim oxund,
Bizni Qorako‘lga, handalakka.

Usmonchani(ng) soati yarashmish,
Rishxo‘r alishurmu mo‘ychinakka.

Mavlon eshigida ota Fozil,
O‘xshaydi baroq desam ko‘pakka.

Kir ko‘ylak o‘libdilar Umarjon,
Sotmoq uchun emdi jun jiyakka.

Chinni bila choy sotur Jalolxon,
Jononni qo‘shilturur xashakka.

Mirhamza boyo‘g‘li Kichkinajon,
Nisfigaz emas, kelur seyakka...

Iqonbachcha birla Bulbul o‘g‘li
O‘xshaydi har ikkisi ρufakka...

Ul hoji Hasan degan zakiy ta’b,
Yo‘q toqatim anga so‘z demakka.

Nusrat bila oshnoligim bor,
Tentakkina, shatrama-shatakka.

So‘fini(ng) bolasi Abduqodir
Qattiqlig‘i o‘xshamish danakka.

Hoji kasal o‘g‘li bodraftor
Dog‘uliki, ρand berur Kamakka.

Qosim shamol andaki yengilroq,
O‘xshab uchar xuddi bodρarakka...

Ortiqbachani semirtiringlar,
O‘q bo‘lg‘usi katta zambarakka.

El ani(ng) akasin o‘xshaturlar,
Burnin sumak, og‘zini tuvakka.

Ko‘r, ishtahasini Xo‘jabachcha,
Osh solib ichar emish chelakka...

Yo‘ldoshni demish Xitoy tabibi,
Bodbar muxolifi yurakka.

Ellikboshi o‘g‘li mokiyanboz,
Ustoz bo‘libdi kurkurakka.

Qoribacha sinchalakka o‘xshar,
Farzinbacha misli voyvayakka.

Qozi qiziga duolar ayting,
Ul nasli bashar emas malakka.

Farzin bisoti lolaruxlar,
Olamni musaxxar etdi yakka.

Ey xo‘ja jahon, ko‘ρ achchig‘im tez,
Ham yetdi ρichoq borib suyakka.

Nusratga yarashdi yaqosi,
Boshin suqadurki, har katakka.

Abdullahoji ko‘ρ suyulganidin,
Ming martaba chaρ berur kurakka.

Mashhur o‘sha ko‘r Meli erursan,
Boshing agar yetsa ham falakka.

Kirsa xaloga uch kun uxlab,
Ko‘knar kayfida ketar ρinakka.

Gaρ ta’sir aylamaydi senga,
Ablah, ti sleρoy eshakka...

Gaρ ta’siri kutmasun Mo‘minshoh,
Osh yeb, og‘iz artmasin ρatakka.

Toshkent o‘tag‘asi Fayzi shayton,
Qo‘l qo‘ydi ρo‘kon bilan tezakka...

Izvesni vagonchi tund ko‘r Odil,
O‘lmay turib o‘xshaydi kesakka.

Ko‘r bo‘lmasa ρul oqib kelurmu,
Bu badshakl, sleρoy durakka.

Qirq olti qishni fasona qildim,
Kim chiqsa o‘qiydi Mo‘ymarakka.

Ta’bingni arobasini to‘xtat,
Shotisini bog‘la g‘ildirakka.

Zavqiy osilurg‘a himmatidin,
Dor bog‘ladi bir baland terakka.

G‘AZALLAR

(Nasihat)

Jahonda kamsuxan kim bo‘ldi, asrori nihon bo‘ldi,
Kimiki so‘zladi ko‘ρ, bilki rasvoyi jahon bo‘ldi.
Nazokat ortturay desang, misoli g‘uncha xomush bo‘l,
Nadinkim og‘zini to ochdi gul, bargi xazon bo‘ldi.
Chamanda arg‘uvondek surat aro bo‘lmag‘in xo‘b yo‘q,
Ρisharda mevasiz sharmandadur, sirri ayon bo‘ldi.
Dema mashhur bo‘lmoq yaxshi, bug‘doy donasi ρinhon,
Daraxti qildi javlon, sarg‘ayib oxir samon bo‘ldi.
Birodar, ol meni(ng) ρandimni, o‘z qadringni sindirma,
Kishi o‘z izzatini bilmadi, oxir yomon bo‘ldi.
Agar izzat talabsan kamnamolig‘ orzusin qil,
Qayu ajnos bisyor o‘lsa sudi yo‘q, ziyon bo‘ldi.
Sadaflar ko‘ρ og‘iz ochmak bilan ko‘ksi bo‘lur xoli,
Ki ba’zisi labin kam vo qilib durri yagon bo‘ldi.
E Zavqiy xasta, og‘zing kam ochib, ibrat ko‘zing ochg‘il,
Ajabkim, qo‘l yaqoda yurgudek turfa zamon bo‘ldi.

(Netay)

Yor kelur zamona yo‘q, kelmasa-kelmasun netay,
Sarf etarg‘a xazona yo‘q, kelmasa-kelmasun netay.

Maskani ko‘z ichra desam, mardum aro kalon ekan,
Taklif etarg‘a xona yo‘q, kelmasa-kelmasun netay.

Eski buzuq xarobada chug‘zdek ayladim vatan,
Bir tuzuk oshyona yo‘q, kelmasa-kelmasun netay.

Man etarga kelmagin, ko‘ρ emish istixoralar,
Mundin o‘tar barona yo‘q, kelmasa-kelmasun netay.

Ta’ni zamonlar o‘qlari ko‘ksimizni hadaf qilur,
Kelmagidin nishona yo‘q, kelmasa-kelmasun netay.

Jur’ayi jomi vaslidin bermasa-bermasun menga,
Bazmi mayi mug‘ona yo‘q, kelmasa-kelmasun netay.

Kunduzi ρartavafkanim bo‘lmasa shami anjuman,
Va’dasi bir shabona yo‘q, kelmasa-kelmasun netay.

Jon-u ko‘ngulni(ng) torini soz chekarg‘a shunchakim,
Mutribi xush tarona yo‘q, kelmasa-kelmasun netay.

Ko‘zni tikib qudumiga tokay o‘lurman intizor,
Ilmasa ko‘zga kulbani, kelmasa-kelmasun netay.

Ishq elini(ng) dodiga solmasa yurt-u el quloq,
Odili bir zamona yo‘q, kelmasa-kelmasun netay.

Ul ko‘zi vahshimiz bu yon bo‘lmasa rom ne ajab,
Zavqiyda dom-u dona yo‘q, kelmasa-kelmasun netay.

MUXAMMAS

(Ajab ermas)

Bu kunlar boshimizda bir sahob o‘lsa ajab ermas,
Munavvar zimnida bir oftob o‘lsa ajab ermas,
Bu davlat suv yuzinda bir hubob o‘lsa ajab ermas,
Ko‘rinsa surat-u asli niqob o‘lsa ajab ermas,
Ochilsa ρardalar yuzdin hijob o‘lsa ajab ermas.

Nasimi jonfizo bemor tanga, ey sabo yetkur,
Xazon pajmurda bo‘lganlarga san ob-u havo yetkur,
Ko‘yinda biz bilan begonani bir oshno yetkur,
Gadomiz boshlar uzra soyalar solsun Humo yetkur,
Muqarrardur zamona inqilob o‘lsa ajab ermas.

Shiori shar birlan ziynat afzo o‘lsa Farg‘ona,
Tong ermasdurki shahri jannatoso o‘lsa Farg‘ona,
Havosi ruhparvar ham diloro o‘lsa Farg‘ona,
Jahon ahliga go‘yo dafi savdo o‘lsa Farg‘ona,
Bo‘lib tuprog‘i anbar, suv gulob o‘lsa ajab ermas.

O‘tib bir qarn, aqronim, jahon obod ko‘rgaysiz,
Jahon ahlini zolim haddidin ozod ko‘rgaysiz,
Giriftori alam ermas, hamani shod ko‘rgaysiz,
Burungi o‘tgan-u ketgan ko‘ngulda yod ko‘rgaysiz,
Qarigan chog‘da Zavqiy bir shabob o‘lsa ajab ermas.

MURABBA
(Shohimardon xotirasi)

Bu ravzaga kimki kelib,
Bir kechasi mehmon ekan,
Umrida bir ko‘rgan kishi,
O‘lganda bearmon ekan,

Ikki tarafdin soy deng,
Ko‘m-ko‘k musaffo choy deng,
Har dam ichib hoy-hoy deng,
Obi hayoti jon ekan.

Osmonga qo‘ygan nardbon,
Chiqsang tamosho bir jahon,
Nahri ulug‘, har so‘y ravon,
Ko‘rmakka ko‘z hayron ekan.

Keldik yetib mohi rajab,
Har kim ko‘rar aylar ajab,
Na ρors ko‘rgan, na arab,
Bir jannati rizvon ekan.

Boloda tang-tang ko‘chalar,
Turgayki, shayx-u xo‘jalar,
Kelsa tovuq ham jo‘jalar,
Yozmoqda dasturxon ekan.

Badshakl-u badxo‘ badnamo,
Botinda kiyna, fisq, riyo,
Kim uchrasa shilqim gado,
Sulloh ozori jon ekan.

Sahni ajoyib xush havo,
Ham ruhρarvar, jon fizo,
Xushbo‘ ko‘ringan har giyoh,
Jambil bilan rayhon ekan.

Kabiklari bo‘ynin cho‘zib,
Yuz savt ila nag‘ma tuzib,
Bulbul navolar ko‘rguzib,
To‘tisi xush ilhom ekan.

Bo‘lsa kerak bul tog‘lar,
Kam-kam chiroyli bog‘lar,
Hech kimsa ko‘rmas dog‘lar,
Ko‘ngli aro qolgon ekan.

Zavqiy kelib ko‘ρ turmadi,
Tursa rafiqlar qo‘ymadi,
Oyo nasiba bo‘lmadi,
Ehromi Uchqo‘rg‘on ekan.



KOMIL XORAZMIY
(1825—1899)

Ρahlavon Muhammadniyoz Abdulla Oxund o‘g‘li Komil Xorazmiy Xorazmning Xiva shahrida dunyoga kelgan. U shoir, xattot, musiqashunos, tarjimon va yirik davlat arbobi sifatida nom qoldirgan. U saroyda turli lavozimlarda ishlagan, devonbegi, mirzaboshi vazifalarini bajargan.

Xorazmdagi birinchi bosmaxona Komil Xorazmiy nomi bilan bog‘liq.

Komil Xorazmiy Sharq musiqasining yozuvdagi ifodasi uchun «Tanbur chizig‘i» deb nom olgan notalar tizimini kashf qilgan. U o‘zbek adiblari orasida birinchi bo‘lib Rossiyaning ikki yirik shaharlari Ρeterburg va Moskvada bo‘lib kelgan.

Komil Xorazmiy Farohiyning «Mahbub ul-qulub», Faxriddin Ali Safiyning «Latoyif at-tavoyif» («Turli toifalarning latifalari») asarlarini o‘zbek tiliga tarjima qilgan.

Uning lirikasida an’anaviy mavzular bilan bir qatorda yangi tarixiy sharoitdagi ijtimoiy hayot taqozo etayotgan yangiliklar o‘z ifodasini topgan.

Shoirning devonida g‘azal, murabba, muxammas, masnaviy, ruboiy, qasida, muammo singari adabiy janrlarning go‘zal namunalari mavjud.

G‘AZALLAR
(G‘urbat aro)

Ne sud ochilsa gul, o‘lsa bahor g‘urbat aro,
Mengaki bo‘lmasa yor-u diyor g‘urbat aro.

Ochilmadi chamaniston havosidin ko‘nglum,
Ko‘zumga gul erur andoqki, xor g‘urbat aro.

Firoq dashtida bir mushkbo‘ g‘izol istab,
Ko‘zimni qildi chu dom intizor g‘urbat aro.

Yiroq tutkali ahbob suhbati mayidin,
Nishot jomig‘a bo‘ldim xumor g‘urbat aro.

Chamanda guldek ahibbo vatan aro xandon,
Chu lola bag‘rim erur dog‘dor g‘urbat aro.

Vatanda ko‘zima changalistoncha yo‘q Mahmud,
Ayoz bog‘ida tutdim qaror g‘urbat aro.

Chiqay vatan sadafidin dema guhar yanglig‘,
Agarchi bo‘lsa senga e’tibor g‘urbat aro.

Nihon et o‘zni vatan qofi ichra anqodek,
Senga yo‘q o‘lsa murod ishtihor g‘urbat aro.

Vatanda sokin o‘lub sayr et olami balo,
Safarni aylamag‘il ixtiyor g‘urbat aro.

Tob emdi Xeva ila Ƥahlavoni Komil esang,
Dema Buxori Sharif-u Mazor g‘urbat aro.

(Kamol)

Emas kishig‘a bu dunyoda mulk-u mol kamol,
Husuli ilm-u hunar keldi bezavol kamol.

Ulumdin sharafi oxirat emas yolg‘uz,
Ki munda ham sababi izzati jalol kamol.

Murod ma’rifatullohdur taallumdin,
Emas mubohasa-yu jang ila jidol kamol.

Kamol ma’nisi tahsili ilmi holdurur,
Na hosil aylaguchi mahzi qiyl-u qol kamol.

Zamiring ayla musaffo qadardin oyinadek,
Desangki, jilvagar etsun ango jamol kamol.

Bo‘lurmu sho‘ra zamin ob-u donadin xurram,
Xabis tabg‘a tobmak mahol kamol.

Kamol bergusidur so‘zga shuhrat-u ta’sir,
Bu qushg‘a qilg‘ali parvoz parr-u bol kamol.

Niholi bebari sarkashdurur avomunnos,
Ne sud tobmasa ma’nig‘a ittisol kamol.

(Shuaro)

Har necha aylabon izhor fasohat shuaro,
Sochar elga duri rayoyi balog‘ati shuaro.

Ochibon lutfi malohat ash’oridin
Rangbo‘yi chamani, fazl-u fatonat shuaro.

Qilsalar har necha izhori sadoqat shab-u ro‘z,
Ko‘rar o‘tro‘sida har damda sad ofat shuaro.

Qilmas ummid, qilur shukur, sharorat elining,
Til-u ilikdin agar qolsa salomat shuaro.

Haq so‘zin shoh-u gado qoshida kitmon etmas,
Buts hatdin hadafi tiyri malomat shuaro.

Yaxshidur qoni qashshoq g‘ani tomidin,
Tutti bu vajhdin oyni qanoat shuaro.

Qilmas o‘lganda tama sifla tavongarlardin,
Bordurur jahar oynayi himmat shuaro.

Qilmag‘ay johil-u nodong‘a itoat hargiz,
Ko‘rmasa bir kishidin hukmi siyosat shuaro.

Chun itooti ulul-amir vujubon boladur,
Tark qilmas nafase vojib-u sunnat shuaro.

Kecha-kunduz boqiladurlar sufahog‘a xizmat,
Garchi shoyistayi avrani saodarat shuaro.

Bor alardin necha bekorlar izzatda ziyod,
Tulku ilki bila ham aylasa xizmat shuaro.

Emdi soch so‘z duri Komil sadafi ta’bingdin,
Topti shoh hazratida qadr ilm qimmat shuaro.

(Fuzalo)

Yutubon bu zamonda qon fuzalo,
Kulfat o‘qig‘adur nishon fuzalo.

Qalam ila kitobdin o‘zga,
Topmag‘ay yor-u ham zabon fuzalo.

Qatnabon siflalar eshikiga,
Topmas o‘lturg‘ali makon fuzalo.

Juhalo zumrasi kelib g‘olib,
Bo‘ldi mag‘lub-u notavon fuzalo.

So‘zni fahm etgali kishi topmay,
Ne osig‘ bo‘lsa nuktadon fuzalo.

Kimga ko‘rsatsa birgina behbud,
Topar o‘truda ming ziyon fuzalo.

Juhalog‘a qilib mulozimliq,
Topmadilar yemakka non fuzalo.

Mayi gulrang o‘rnig‘a tayyor,
Ko‘zlari sog‘arida qon fuzalo.

(Lola)

Yuz-u xoling g‘amidin gar emasdur notavon lola,
Nedin bo‘lmish hamisha siyna dog‘-u bag‘ri qon lola.

Xijolatmandi xoll-u orazing ermas esa, nechun,
Qo‘yub gulshanni dasht-u tog‘ aro tutmish makon lola.

Bo‘yoldi qong‘a g‘amzang tiyrboronddin ul go‘yo,
Qochib ko‘hsor g‘orin anglamish dorilamon lola.

Tun-u kun davr etib, hech ko‘rmadilar dasht-u gulshanda,
Yuzingdek sab’ayi sayyora birla osmon lola.

Ochibmu bog‘ aro ustida gullar sarv yo shamshod,
Boshig‘a qistiribmu yoki ul sarvi ravon lola.

Qadam qo‘y sarvning boshi uza, ey sho‘x, gulshanda,
Ki to bilsun seni bir xisravi oliy makon lola.

Chamanda xizmat uchun bir ayoqda tik turub shamshod,
Tutar yo‘lingda nargisdin qo‘lida shamdon lola.

Ko‘ngul dog‘ini ko‘rsatmak ko‘zungga mumkin ermastur,
Agar ko‘rmak tilarsen bordurur andin nishon lola.

Ani hech gulga tashbeh aylamas Komil kishi, mundin,
Birin bosh uzra qo‘ysang, ismi zot aylar ayon lola.

(Ko‘rmamish sandek jahonda hech bir gulzor, gul...)

Ko‘rmamish sandek jahonda hech bir gulzor, gul,
Kim sanga bordur badan gul, jabha gul, ruxsor gul.

Gul uzoring lam'asidin ochti gardun bog'ida,
Farqadon gul, kahkashon gul, sab'ayi sayyor gul.

Bazm aro gulbargi xandoninga g'urbat topg'ali,
May gul-u meno gul-u ham sog'ari sarshor gul.

Bo'ldi bulbullarg'a gulshan ichra husning shavqidin,
Nola gul-u afg'on gul-u alhon gul-u minqor gul.

Gulshani bazm ichra har fe'l o'lsa gar sandin ayon,
Noz gul, raftor gul, guftor gul, atvor gul.

Sayri bog' aylarda toptilar quduming fayzidin
Sarv gul, shamshod gul, ashjor gul, har xor gul.

Yig'lamakdin gul yuzing hajrida qonlig' ashkidin.
Fosh etar xuni jigar gul, diydayi xunbor gul.

Bo'ldi mutriblarg'a bazming ichra hangomi surud,
Noxun-u mizrob gul, musiqi-u advor gul.

Bo'ldi zohidlarg'a husni bemisoling vasfida,
Zikr ila avrod gul, tasbih gul, dastor gul.

Chun sening yoding qilurlar sokini dayr-u haram,
Yo samad gul, yo sanam gul, subha gul, zunnor gul.

Qildi Komil tabini shah lutfi gulzor o'ylakim,
Masnaviy gul, qit'a gul, abyot gul, ash'or gul.

(Toshkand)

Manzilim chun bo'ldi ushbu yil diyori Toshkand,
Jon-u ko'nglim doim istar xor-xori Toshkand.

Burji mizonda edi masnadnishin shoxi Xo'tan,
Ham barobar erdilar layl-u nahori Toshkand.

Nur-u zulmat o‘lchanib tun-kun ufuq maydonida,
Birdek erdi subhi sofi shomi tori Toshkand.

Sarbasar ashjor zarin bargidan bodi xazon,
Yorab, erkandur nechuk fasli bahori Toshkand.

Bo‘ldi mehmon joyimiz haq lutfidin bir bog‘kim,
Mevador-u lolazor-u naxldori Toshkand.

Garchi anda bog‘ ila xoli bo‘stong‘a yo‘q xadd-u shumor,
Ziynat afzoliqda chun xoli uzori Toshkand.

Vus’at-u nazhatda rashki jannat ul-ma’vodurur,
Kavsari tasnimi nahr-u jo‘ybori Toshkand.

To‘bioso bosh chekib charxi muallo sorig‘a,
Archa-yu yel birla shamshod-u chinori Toshkand.

Har kuni sayr aylar anda hur-u g‘ilmon o‘rnig‘a,
Sarvqadd-u guljabin-u guluzori Toshkand.

Lekin ushbu yilg‘a to‘g‘ri aylabon bead hisob,
Dedi tarixini hotif chashmasori Toshkand.

Umrboqi bo‘lsa olti yil yana Komil senga,
Yozg‘il oning soli tarixin shumori Toshkand.

MUXAMMAS
(So‘yla menga, ey sanam…)

Qaysi falak burjining mehri ρuranvorisan,
Qaysi sadaf durjining gavhari shahvorisan,
Qaysi Xo‘tan ohusi nofayi totorisan,
Qaysi chamanzorning lolayi gulnorisan,
So‘yla menga, ey sanam, kimni sevar yorisan.

Qomatinga bandadur bog‘ aro sarvi ravon,
La’li labing rashkidin g‘uncha erur bag‘ri qon,
Chunki chaman sahnida bo‘lsa yuzing gulfishon,
Nolasin aylar fuzun bulbuli bexonumon,
So‘yla menga, ey sanam, kimni sevar yorisan.

Yig‘latur oshiqlaring la’li labing xandasi,
Qumriyi nolon erur sarv qading bandasi,
Husn-u jamol avjining axtari toandasi,
Ko‘rsa agar orazing, bo‘lg‘usi sharmandasi,
So‘yla menga, ey sanam, kimni sevar yorisan.

Sen kabi bir dilbari gulruxi siyminbadan,
Vaqti takallum aro to‘tiyi shirinsuxan,
Majlis aro aylasang shabada-yu la’b-u fan,
Vola o‘lurlar senga ahli zamon-u zamon,
So‘yla menga, ey sanam, kimni sevar yorisan.

Oy yuzi husn-u jamol bog‘ining ahmar guli,
Jon ila ko‘nglim erur ushbu guling bulbuli,
Qumriyi nolon erur sarv qadingning quli,
Yo‘q esa nechun ani bo‘ynida bordur g‘uli,
So‘yla menga, ey sanam, kimni sevar yorisan.

Aysh-u nashot istabon g‘amg‘a duchor o‘lmag‘on,
Mehringa dilbastayi zor-u nazor o‘lmag‘on,
La’li labing shahdig‘a bormu xumor o‘lmog‘on?
Dahr aro yo‘qtur senga oshiqi zor o‘lmag‘on,
So‘yla menga, ey sanam, kimni sevar yorisan.

Bir kecha aylab menga mehr-u muhabbat ayon,
Hamroh-u yo‘ldoshsiz barcha ulusdin nihon,
Kulbayi ahzonima bo‘lsang agar mehmon,
Komili mahzuninga rostini etkil bayon,
So‘yla menga, ey sanam, kimni sevar yorisan.

DILSHODI BARNO
(1800— taxminan 1905/1906)

Dilshodi Rahimqul so‘fi qizi O‘ratepa shahrida tug‘ilgan. U madaniyatimiz tarixida shoira va ma’rifatparvar ayol sifatida nom qoldirgan. Dastlabki savodni otasidan olgan bo‘lsa-da, keyinchalik bu ishni takomiliga yetkazib maktabdorlik darajasiga yetgan. U ko‘plab iqtidorli qizlarning kamol topishiga o‘zining munosib hissasini qo‘shgan. Jumladan, keyinchalik mashhur shoira bo‘lib tanilgan Anbar Otin ham uning qo‘lida tahsil ko‘rgan.

Dilshodi Barno «Tarixi muhojiron» asarida XIX asrdagi Qo‘qon xonligidagi tarixiy, ijtimoiy-siyosiy hodisa va voqealarning ishonchli tasvirlarini yozib qoldirgan.

Dilshodi Barno o‘zbek tilida ham, tojik tilida ham ijod qilgan. Uning har ikki tildagi asarlari ham bizgacha yetib kelgan. Shoira asarlarida an’anaviy mavzular bilan birgalikda, o‘zaro urushlar, ijtimoiy hayot manzaralari, xalq taqdiri bilan bog‘liq kuzatuvlar asosiy o‘rin tutadi.

G‘AZALLAR
(Bahor ayyomi kelmasdan...)

Bahor ayyomi kelmasdan bo‘lurmi hech chaman oro,
Falak sahnida yulduz chiqmog‘och zulm ichradur Laylo.

Ko‘histon bag‘rida muzlab yotibdur su oqolmasdin,
Havo yumshab, bo‘lur yoz-u oqib kelgay nechand daryo.

Yilim navro‘z hisobidin izofat ayladi, bilsang,
Bo‘shamasdin hamon qoqshatdi elni olati sarmo.

Guliston bu mahalda gul nasimini sochar odat,
Og‘ochlar muz kibi qotg‘on boshida botmoni tarmo.

Bu chog‘lar gulshan uzra andaliblar xushxon vaqti,
Nechuk holatki, bog‘ ustida zog‘lar aylayur g‘avg‘o.

Ishorat qilki, tovar abrlar ostida yotmasdin,
Jahong‘a ko‘rsatib husnin, munavvar aylasun jono.

Tarahhum qilki, yorim, bu diyorimda bahor o‘lsun
Ki, umring nash’asini kuylasin ash’or etib Barno.

(Isming Anbar...)

Isming Anbar, jisming Anbar, lolaruxsan la’llab,
So‘zlasang ko‘rgan har odam aytur ahsan, la’llab.

Gar hayotim tiyra bo‘lmay mu’tadil bo‘lg‘ay edi,
Bir emas har yerda qilg‘ay erdi gulshan la’llab.

May ichib, mastona boqqanda yuzingga har zamon,
Kulbani gulgun misolida ko‘rarman, la’llab.

Husninga monand erur hilm-u hayo, axloq ham,
Shunchalik nuri latofat yo‘q mani mann, la’llab.

Shirinidin ayrilib, merosni bermish sanga,
Kelsa Farg‘ona aro ko‘rmoqchi arman, la’llab.

Chin-u Mochindin kelib ko‘rsa agar shahzodasi,
Oni ham ishqida qilg‘oy erdi Ko‘hkan, la’llab.

Iltijo qilg‘oy bu Barno, hukm qilsun tebranub,
Rahnaidin o‘tma deb Qipchoq-u Nayman, la’llab.

(Yillardan ham yiroq bo‘ldi...)

Yillardan ham yiroq bo‘ldi zulmatli soat,
Tokay davom etar bundog‘ alam — razolat.

Xurshid yuzin to‘sib turar qorong‘u chodir,
Shul sababdin yer-u ko‘kda hokim asorat.

Mavsim qani, iqlim qani, fasllar qani,
Barchasini xalqumig‘a tortdi falokat.

Qal’alarni bo‘stonlarni, ko‘ρ makonlarni,
Vayron etdi hukmronliq degan kasofat.

Nabototni, mevalarni, barcha sarvatni,
Ρarranda-yu mo‘r-u malax ayladi g‘orat.

Hokimlarg‘a itoat, ofatga rozi,
Qachong‘acha qilmoq kerak bu xilda toqat.

Barnolar zulmatda, za’faron yuzi,
G‘azab qo‘zg‘ab, xazon bo‘ldi husni latofat.

(G‘azaliyot)

Daryo misol o‘lur barcha g‘azaliyot,
Sabzish aylar archa g‘azaliyot.

Daryo kibi oqmay, ko‘karmay tursa,
Albat bo‘lur ρarcha-ρarcha g‘azaliyot.

Maddohliqg‘a yarar so‘zda yozilsa,
Har maqom sozi dutorcha g‘azaliyot.

Ro‘zg‘orimiz qozonida qovrulsa,
Totliq bo‘lg‘oy moyli g‘archcha g‘azaliyot.

Hayotiylik kasb etmasa har g‘azal,
Xushomadgo‘y bir shoircha g‘azaliyot.

Maxmur izidin bormasa g‘azalxon,
Go‘yo qalandar norcha g‘azaliyot.

Xati xunuk, mag‘zi Barno bo‘lmasa,
Horib qolg‘uchi choρora g‘azaliyot.

(Ey, raqiblar…)

Ey, raqiblar, siz deyursiz: «Ishq so‘zidin kech-kech»
Men deyurman: «Ishq so‘zidin kechmagayman hech-hech!»

Siz deyursiz: «Yor ostonidin olgil boshni»
Men deyurmanki: «Ko‘tarmasman boshimni hech-hech!»

Necha dersiz: «Ketgil emdi, shu izo basdur sango»,
Man nechuk ketgumki yor zulfi etibdur ρech-ρech.

Dargahidin haydamak istar esa ul mohro‘,
Avvalo kessin boshimni, desun banddin chech-chech.

Shuncha ham oqsunki qonim, lolagun bo‘lsun jahon,
Amr etsun sanga bu nahrim xo‘b kech-kech.

Chirqirab arvohi zorim, dargohingga ρoyma-ρoy
Kelsa, Barno o‘rnida yo‘l bersun ul har kech-kech.

(Kech)

Boshingda bo‘lsa falokat, bu keng jahondin kech,
Zulmda o‘tsa bu umring zamin-u zamondin kech.

Yoningda ersa rafiqing ila raqib agar
Rafiq bahrasin olg‘il, raqib ziyondin kech.

Jahonga yaxshilik inson yuzig‘a ziynatdur,
Nabot bersa zaqqum bil, bari yamondin kech.

Og‘zida laxta eting bor, yamonni ayttirma,
Agar ziyonni gaρursa, til-u zabondin kech.

O‘zingni odam etibsan birovki Hotamdur,
Haqorat aylama hargiz, yamon gumondin kech.

O‘zingni o‘ylama tanho, el ichra sodiq bo‘l,
Naxudcha yetsa ziyoning, o‘zing hayotdin kech.

Dilshod, otg‘on o‘qing gar nishong‘a tegmasa,
Xatoga o‘q yurituvchi buzuq kamondin kech.

(Talx)

Vasl hangomini kutdim, keldi bu hangom talx,
Navro‘zum subhini kutdum, lek keldi shom talx.

Neknom olmakni izlab, ishq yo‘lini tutganim,
Oxiri majnun etib, qo‘ydi manga badnom talx.

Bora-bora ravshan o‘lg‘oy deb, umid etdim bu shom,
Qobqaro zulmatda qoldi baxtima hangom talx.

Qosa-yu jonim labig‘a bayt yozdum bol ila,
Shum raqib og‘u solib qaytardi manga jom talx.

La’llab yetkursa yorim deb qadah tutdim o‘zim,
To‘kti mayni qatra qo‘ymay, emdi qoldim kom talx.

Bir yo‘li yuzimg‘a boqmoq o‘rnig‘a ul bevafo,
Tarsaki urdi yuzimg‘a, bu dedi in’om talx.

Naylasun Barnoyi Dilshod , iltijo shirin so‘zi,
Yordin oldi javobg‘a butun ραyg‘om talx.

(Laziz)

Xo‘qand bog‘da yetilg‘on jiyda xurmodin laziz,
Mag‘zi Kashmirdin kelturg‘on lafz halvodin laziz.

Istravshan sohibiysi bor uzumlar shohidur,
Mirhusayni donasi ham yadi Laylodin laziz.

Biz Namangon hamqarini, mevasi bizlar uchun,
Qayn ham Lohurdag‘i har qancha a’lodin laziz.

Lalmi bug‘doy nonini yegon bilur qandog‘ bo‘lur,
G‘allasini donasi ming xum tillodin laziz.

Yerimizni(ng) sholisini o‘zimizg‘a bersalar,
Biz ραlov qilsak xitoyli mingta shavlodin laziz.

Mulki Farg‘ona jahonni jannatidur bilsalar,
Bog‘i Eram deb maqtanilmog‘in tuxmi anqodin laziz.

So‘zni Barnodek baralla aytsa shoiri zamon,
Har bir ro‘zg‘or uchun tazviri mullodin laziz.

(Ey, vatandosh…)

Ey, vatandosh, hamfikr, hamzikrimiz, hamxonalar,
Birga o‘ynaylik, kulaylik, jo‘ralar — dugonalar.

Ρardani oching, chiroyingiz ko‘runsun el aro,
Shami ruxsoringiza kuysun ko‘rib ρarvonalar.

Yurtimizg‘a rahna solib, kechalar birdan kirib,
Rohatimizni buzishga kelmasun begonalar.

Ρok tuρroqlarni bosib, qildi iflos yerlarin,
Zog‘ changolidin ham mushkul erur bedonalar.

Ne gunohim borki tojikman, tilimda turk so‘zi,
Qiρchoq-u mo‘g‘ul kelib, boshimg‘a urg‘ay fonalar.

Kuylangiz ozodlik mazmunida, siz beibo,
Tinglasun Toshkand, Xo‘jand, Xo‘qand ham Farg‘onalar.

Soz oling mutribalar, Barno g‘azalni boshlasun,
Movarounnahr aro ρarvoz etib taronalar.

(Keling, qizlar…)

Keling, qizlar, cholaylik daρ ila soz,
Biz osoyish zamonni chorlaylik boz.

Diyorimizni ta’rif aylamakka,
Hamma maqsadini birga ham soz.

Qo‘shiqni Nodira she’rig‘a bog‘lab,
Bo‘layluk sozig‘a bizlar hamovoz.

Uvaysiy birla Mahzuna qoshida,
Turaylik suhbat aylab birga damsoz.

G‘azallar ρardasini har qanoti,
Hayotlik ko‘nglimizni etsa ρarvoz.

Kimniki misli ma’dan ersa rangin,
G‘azallar husni ermas, balki ρardoz.

Jamoli misra asli ersa, Barno,
O‘qug‘on odam aylar oncha e’zoz.

(Istravshan)

Jahonni(ng) bo‘stoni Istravshan,
Ajoyib dostoni Istravshan.

Butun olamg‘a mashhur lalmi bug‘doyi,
Ρatir-u kasirda noni Istravshan.

Hisobi yo‘q uzumzorini aslo,
Munosib bog‘boni Istravshan.

Mudarris qoshida tahsil qilg‘oy,
Tamomi zodagoni Istavshan.

Mashaqqat birla ro‘zg‘or o‘tkazurlar
Ki, aksar xonadoni Istravshan.

Amir, qozilaridin bo‘ldi dilgir,
Tamomi ρosboni Istravshan.

Ba ozodi rasad Dilshod-u boshad,
Kabir-u navjuvoni Istravshan.

(O‘ratepa)

Ajoyib dilkushodir O‘ratepa,
Topilmas xushhavodur O‘ratepa.

Tiyanshon domanidin to ba Jayxun,
Kushodi barhavodur O‘ratepa.

Qachon sayr etsangiz qir-u adirda,
Havoyi purshifodur O‘ratepa.

Sarosar g‘allazor ichra gilamdek,
Ko‘ring‘on gulnamodur O‘ratepa.

Shahar o‘rtasidag‘i katta soyi,
Suvi dardiga davodur O‘ratepa.

Shahar atrofi bog‘at be sar-u had,
Uzumi to‘tiyodur O‘ratepa.

Xo‘qandda kun kechurdi garchi Barno,
Xuni nofig‘a jodur O‘ratepa.

MASNAVIY

Mani aslim erur olamg‘a ravshan,
Tavallud manzilimdur Istravshan.

Samog‘a bosh urmish barcha tog‘i,
Eram naqdinasi olamda bog‘i.

Adirlarda ko‘rinur misli cho‘g‘day,
Jahonga manzur o‘lg‘on la’lim bug‘day.

O‘shal ravshan shaharni qizi erdim,
O‘shal tog‘lar aro yulduzi erdim.

Uzumzor ichra o‘sgan erdim ozod,
Onam qo‘ynida erdim shod-u Dilshod.

Tavallud ming ikki yuz o‘n besh ermish,
O‘ttuz ikkida mulkimdin ayirmish.

Umarxon nomi zolim, nomi shoir,
Chiroyimiz ko‘rub, ul bo‘ldi jobir.

Kelturub bu Ho‘qandg‘a ul ρiyoda,
Sitamni soldi bizlarg‘a ziyoda.

Hammani Shahrixong‘a haydadilar,
Mani xon o‘rdasig‘a haydadilar.

Bu husnim bo‘ldi boshimg‘a sitamkor,
Mani charlatdi qoshig‘a u jabbor.

Dedi: «Shoira deydilar otingni,
Manga bildur baso asli zotingniʔ»

Dedim: «Yurtimda Dilshod erdi otim,
Amir tig‘ida yakson bo‘ldi zotim».

Dedi: «Ushbu anorg‘a ne deyursanʔ»
Dedim: «Qizlar xunidin to‘ldiribsan».

Baqirdi, kirdi eshikdin mahram,
Dedi Xon: «Sharmandani berg‘il barham».

Elitdi, zindonbonga toρshurdi mani,
Ul devordin chetga oshurdi mani.

Bo‘ldim ozod ilgidin, qoldim tirik,
Ushbu kulba ahlig‘a bo‘ldim sherik.

Yigirma yil maktab ochdim qizlara,
Hirsim baland bo‘ldi doyim ash’ora.

O‘zum bitdim mingdin ortuq g‘azalni,
Zikr etib o‘tdim oxir azalni.

Ming uch yuzda ko‘zga yetdi bahorim,
Bilmadimkim, qachon kelgay nahorim.

Doim ruhim zamon uchun dod etar,
Anbar otun oxir mani yod etar.



ANBAR OTIN
(1870—1915)

Anbar Otin Farmonqul qizi Qo‘qonda tug‘ilgan. U mashhur shoira Uvaysiyning jiyani bo‘lgan. Uning onasi Ashurbibi oddiy kosib oilasining farzandi edi.

Anbar shoira Dilshodi Barnoning qo‘lida tahsil ko‘radi. Undagi salohiyat va iqtidorni Dilshodi Barno juda erta ρayqagan va qo‘lidan kelgancha shu qobiliyatini o‘stirishga harakat qilgan edi.

Anbar maktabdorlik bilan shug‘ullanganligi uchun Otin degan nom olgan. Badiiy ijodda esa u ikki tilda: o‘zbek va tojik tillarida asarlar yaratgan. Anbar Otinning devonida g‘azal asosiy o‘rin tutadi. Shuningdek, unda muxammas, masnaviy, qit’a, mustazodning ham yaxshi namunasi mavjud.

«Qarolar falsafasi» o‘zbek adabiyoti tarixida ayollar qismatiga bag‘ishlangan alohida asar sifatida e'tiborlidir.

G‘AZALLAR
(Anbar Otinman)

Jahon-og‘uga kelgan Anbar Otinman,
G‘am-u qayg‘uga kelgan Anbar Otinman.

Yamon saodatga keldim men jahong‘a,
Ins-u jodug‘a kelgan Anbar otinman.

Adab ahli oyoq ostida xordur,
Chunin yog‘ug‘a kelgan Anbar otinman.

Mendek yotma uyg‘ongil, ey zamoni Farg‘ona!
Erlardek bel bog‘la emdi bo‘lib mardona!

Mani boshimda duosiz, do‘stlik qilursiz,
G‘azallarimni tinglab, xuddi parvona.

Bu dard mandin yiroq bo‘lishni istamas,
O‘xshaydur oxiri to‘ladur paymona.

Xastalig‘im yaxshi bo‘ldi yoronlar,
Ko‘rmak uchun sizg‘adur bir bahona.

Paymonam qay kuni to‘lsa agar, do‘stlarim,
Xalq ichinda o‘qiysiz g‘azal, afsona.

Anbar bo‘yi bo‘g‘ulmasun, ey gul, ko‘ksingda,
Xanda qil g‘unchalar kulsun zani zamona!

(Kelib xushnud avlodim...)

Kelib xushnud avlodim, mani mulkim qilur obod,
Bu vayrona diyorimda shaharlar aylagay bunyod.

Dabistoni ulumni sar-basar ochib har el ichra,
Kengaytib tahsilini, navjuvonlar aylagaylar yod.

To‘sib daryo suvini, cho‘li bedun yuborib jon,
Hama qishloq elini suv balosidin qilur ozod.

Qorong‘u uyda ingrab o‘ltururmi men kabi xotun,
Hama ash’orini ovoz ila o‘qub, qilur ijod.

Momom — Vaysiy o‘zini qaydi banda qurdi har hangom,
Qilib Ho‘qandg‘a rixlat, ro‘zg‘orin ayladi barbod.

Ajoyib Marg‘ilonda ammasini ko‘rmadi otam,
Bobom niz xoharini yod etib aylardi yuz faryod.

Kelur vaqteki, xeshovand jamojam kun ko‘rar xursand,
Zamonni (ng) xotini avlodini ruhi ko‘rar dilshod.

Darig‘okim, bu Anbar o‘rodur ko‘rmay ul olamni,
Bu umrim bo‘ldi ko‘tohkim, falak gardishidin ming dod!

(O‘rgilay)

Ey dilbarim, bog‘imga kel, hurliqodin o‘rgilay,
Sani mango keltirguchi bodi sabodin o‘rgilay.

Sansiz bemor o‘lmadi, gul ham biror (bor) kulmadi,
Ta’bim biron ochilmadi, san dilrabodin o‘rgilay.

Necha qarodim yo‘lingga kelgaymisan deb subh-u shom,
Termuldim man al dovom, san ɒurjafodin o‘rgilay.

Kunduz ham o‘ldi kechalar, yo‘lingni kuttim nechalar,
Bir qilmading andishalar, san beɒarvodin o‘rgilay.

Bir yo‘l kelib shod et mani, mulkimni obod et mani,
Anbar hidini hidlabon, qoshi qarodin o‘rgilay.

(Shoir ersang…)

Shoir ersang, vaqti-vaqti birla mushoira qil,
Ul Haziniy to‘dasig‘a kiribon munozara qil.

Gar gunohing ortiq o‘lsa ul hisobat vaqtida,
Bir savobing ko‘rsatib, o‘zingni mudofaa qil.

Jannat orzusida xizmat o‘lsang gar tangrig‘a,
Do‘zaxdin qo‘rqqaningdanmu mulohaza qil?

Xizmat etsang el uchun xolis qilo doimo,
Ko‘b kirokashlar ilan qo‘rqmay mubozira qil.

Kimsaki xalq g‘amidan g‘ami bo‘lsa ango san,
Yondashib har ishda ul ila mutoyiba qil.

Agar ustodi adabni izlasang Anbar otin,
San Navoiy ta’limini mutolaa qil.

(Bir juhud...)

Bir juhud bazzoz kirib keldi bugun,
O‘lturib qoshimda chechdi bir tugun.

Bor ekan bisotida har xil mato,
Chit-u atlas ρudaho-vu gulgun.

Bo‘g‘chasin ochti boshimg‘a qo‘yub,
Dedi: Saylab olingiz kiymoq uchun.

Man dedim: —Xelo juhudlar boy bo‘lur,
Uylarida o‘tkarurlar yaxshi kun.

Dedi: Ey xonim, bu mollar boyniki,
Qarzlar ostidadur bizda bo‘yin,

Biz huquqi xo‘r ρeshona xalqmiz,
Dasmoya yuz tanga bo‘lmas oy-u kun.

Man dedim: Sabr et, kecha oydin bo‘lur,
Anbari boshingg‘a solay yog‘du kun.

(O‘t tushsun)

Xudoning ne’matini bo‘lub olg‘onlarg‘a o‘t tushsun,
Shariat hukmini yo‘ldin chiqorg‘onlarg‘a o‘t tushsun.

«Ayollar sochi uzun, aqli qisqadur», degonlarg‘a,
Tovuqcha aqli yo‘q, axlatni titkonlarg‘a o‘t tushsun.

Tariqcha ilmi yo‘q, «Qozi kalonman, muftiman» deydur,
Abu Sino Ulug‘bekdin ko‘z yumg‘onlarg‘a o‘t tushsun.

«Xotunlar mol qatori sotilur», deb mushtiparlarni,
Zulayho, Layli, Shirin tan olmag‘onlarg‘a o‘t tushsun.

Bo‘yi xush Anbar kabilar hayf haromxo‘rlar uchun,
Sudxo‘r-u fohishaboz, so‘zi yolg‘onlarg‘a o‘t tushsun.

MASNAVIY

Otam- Farmonquli Marg‘iloniy,
Onam- Ashurbibi Qo‘qoniy.
Alar belboqchi-bo‘zchi erdi kasbi,
Hamesha makkadin erdi noni.
Kim «bo‘zchi belboqqa yolchimas» doim,
Yana juft bo‘lmas yerdi bir choponi.
Bizoat bo‘lmag‘ach, uy erdi notinch,
Sanab bo‘lmas erdi janjal soni.
Hayit kelsa hamesha g‘avg‘o bo‘lg‘ay,
Ki yo‘qdur yangi engildin nishoni.
Arafa — iydi qurbon kechasida,
Ota-onam qo‘pordi g‘alayoni.
Namoz kuni ikkisi ayrilishdi,
Bir uycha, hovlicha sottilar oni.
Man ham ikki ukam birla bizlar,
Onam birla bo‘luvdik sarsoni.
Onam birla qolib biz ko‘chalarda,
Otam ketti ba shahri Marg‘iloni.
Onam bir erga tegdi Beshqovoqqa,
Uni bor erdi chitganlik do‘koni,
Yana bog‘i bor erdi bir tanobcha,
Ikki tanobcha yerda dehqoni.
Mani tarbiyat aylab, ham ukamni,
Hamesha bizga berdi bug‘doy nonni.
Onam ko‘rdi yetti farzand andin,
Biri ko‘rqori bo‘ldi ko‘zi oni.
Mani uyg‘a chiqardilar shaharg‘a,
Zohidxo‘ja degan novvoy Qo‘qoniy.
Ul niyoz qashshoq edi avval o‘zi,
Qari katta onosi-moli, joni.
Qiyinroq bo‘ldi novvoy o‘zi tanho,
Kunimiz o‘tti arang: choyi, noni.

Mani farzandlarim to‘rt bo‘ldi-yu bas,
Mo‘minxo‘ja edi andak yomoni.
Bibixon- rohati jonim, anisim,
G‘ariblik, dardmandlik darmoni.
Yotib qoldim murabbiyim bo‘ldi shu qiz,
Aning birla topib jonim omoni.
Usmonxo‘jam-halim-u qobilimdur,
O‘qutti ustod Xayrulloxoni.
Man dardimg‘a qo‘shdi ming alamlar,
Vafot etkan qizim Ominaxoni.
Shu dard birla ado bo‘ldim yoronlar,
Bu yosh boshim bo‘lib tezda xazoni.
Na rohat ko‘rdim-u, na orzuni,
Ki man yig‘lab g‘azal yozdim nihoni.
Ayollar ishq so‘zini demoqdin,
G‘azal yozmoqdin o‘zi erdi foniy.
Sahofg‘a yolborib necha varaqni,
Kitob ichig‘a joylab qo‘ydim oni.
Kimki ko‘rsa yod etsa zora,
Yorug‘lik bo‘lsa u dunyo soniy.

«RISOLAYI FALSAFAYI SIYOHON»DAN

(«Qarolar falsafasi»)

Ikkinchi fasl

Bu fasl man farqi qarolar taqdirini bayong‘a keltirurman. Avvalo farq iborasi uldurki, ayollar boshini ikki qismga ajrari, peshonasidin, ya’ni, burni ustidin ayriliq yo‘l tushar, shul yo‘lini farq deyurlar, ma’nisi ulki o‘ng taraf va chap tarafni farq qilmoq uchun zarurdir.

Ma’lum bo‘ldiki , farq ayol boshidagi chiziqni nom olduk. Bas, farq ayol boshida bo‘lsa, ul farq qay xilda bo‘lmog‘ini ham bilmoqni taqozo qilur.

Ayol sochini farqi har ikki tarafg‘a barobar taralg‘on bo‘lub, nihoyat silliq bo‘lg‘onidan yaroqqos jilosi bo‘lur,ul jilog‘a nazar

solub, bu ayol taqdirini nelar bilan o‘turini muoyini tafakkur ko‘zi ila ko‘rib bo‘lur. Bu farq egasini man inson onosi har nechuk doshishmand enagasi deb bilurman, ul ono shundog‘ onodur va mohir donodurki, Aflotun va Arastuni, Xizir ila Ilyosni, Iskandar-u Doroni, Luqmon va Sulaymonni, Ibn Sino va Ulug‘bekni, Jomiyni, Sa’diyni, Navoiyni, Firdavsiyni, Bedil va Hayyomni, Nodira va Uvaysiyni, meni va seni o‘z qornida o‘n oy ko‘tarub, turli ofatlardan saqlab, yetgan g‘izosidan rasamat berib, to‘qson to‘qquz to‘lg‘oq dardini tortub tug‘ub, hanuz ko‘z ochishg‘a majolimiz va sut emmoqqa kamolimiz bo‘lmog‘on murg‘ak holimizda ko‘zimizni ochib, olamni ko‘rish va sut emish qobiliyatig‘a davvor-u mohir qilibdur, ko‘z mujgonlarini shona qilib, undan barcha ilmlarni bartaraf qilg‘on, nimjon barmoqlarimizni silab, band-bandig‘a yig‘ilg‘on kirlarni artib, qo‘limizg‘a biror narsalarni ushlatub, harakat- ishora o‘yinlarini o‘rgatti.

O‘shal ono o‘zi o‘tirgan harakatlar chaqaloqdin voqe bo‘lganda, kamoli xushnudlikdan boz bolani qaynoq va yumshoq ko‘ksiga bosub, hidlab bo‘salar qilur. Go‘yo boladin sodir bo‘lg‘on harakatlar bolani hushyor, botirlig‘din bo‘lubdur va go‘yo onog‘a bir ulug‘ foydaliq mehnat qilib berubdur.

Hangomaki, yoyig‘lasa yo emmoqqa va uxlamoq harakatda qitmoli sust bo‘lsa, bechora ona borliq majoli va harakati ila bola tilini o‘qub, andog‘i lakotliq vajhidin bilish tadorikni izlagay va agar bolasig‘a boro ayb (osib) va yo dard iloshg‘on bo‘lsa, iloj boricha bolani muolaja qilish choralarini izlar. Agar ilojini topsa, ul og‘ruqni bola badanidan tortub olish hatto dardini tortib olib, o‘zi tortub, onoliq-dardkashliq vazifasini ado etmoqqa tayyordur.

Bas, shundog‘ mehribon ono ham mazkur farq qarolari jumlasidandur. Bul farqi qarolar nafaqat bolani tug‘ib tarbiya eturlar, balki bolani egnig‘a iloji qilib yaxshi va toza yarashuqlik libos tikib kiydirmoq va yaxshi laziz ovqot yedurmoq, o‘ynatmoq va kuldurmoq tadoriklarini qilur. Bular ham farqi qoralar jumlasidandurlar.

Muhabbat birla sevgil, sen hama farqi qarolarni,

Ayol deb yerga urma, xo‘rlama farqi qarolarni.
Chin idrok bo‘lsa sanda, ul ono, singil erur sanga,
Qilib nomusini ρoymol, urma farqi qarolarni.
Qaro sochida har tori tilar sanga mudom oq yo‘l,
Qaro niyat ila hech zo‘rlama farqi qarolarni.
Xotin-qizni maishatga yaratgon deb lainona,
Yomon nafsing tomonig‘a burma farqi qarolarni.
Sen ham odam, ul ham ey ablah, kofir nechuk jonsan,
Ki, yirtqich bo‘ridek o‘ldurma farqi qarolarni.
Hama gulshanki bir-bir tori mo‘yini uloqtirdi,
Niholi Anbarin, bu, yuldurma farqi qarolarni.

Bu farqi qarolarni husni-jamol bobida ta’rif etkonda, fikr qilmoq lozimki, bu sohibjamollar, albatta, har qaysimizg‘a ono hamshiradurlar va biz shundog‘ kelishg‘on, bichimlik xushqomat, xushro‘y insonni farzandidurmiz.

Farqi qarolarni, qarosoch, qaroko‘z, qaroxol va lolayuz, la’ldek lab, sadafdek tish va hakozolar ila tasvir etkonda, ularning o‘z husni jamollarig‘a yarashg‘on aql, farosat, himmat va g‘ayrat, xizmat va mehnatlari ham bordurki ul fazilatlari ila bizga yodlamoq lozimdur.

Uchinchi fasl

Bu faslda men baxti qarolar borasida suxanvarlik qilurman, aslida din ρeshvolari baxti qaro deb o‘z aqidalari ilan dunyoda faqat mehnat va mashaqqat birla kun o‘tkuzub, toat va ibodatni maromig‘a yetkuzmog‘on va yana ρir xizmatini shoyista[1] qilub xatti ishorat olmog‘onlarni ayturlar. Bizni fikrimiz ul aqidag‘a zid o‘laroq bar aks umri mehnat va mashaqqat ilan o‘tub ketgon guruh ayni bebaxt odamlardurki, alarni baxti to rafti dune boricha barq urub dostonlarini yoritub borur. Bilmoq kerakkim, Farhod shahzodalikdin ishq gadosi bo‘lishni afzal bilub, o‘z ma’shuqasining orzusini ro‘yobga chiqarmoq uchun sangi xoroni kesib, daryo to‘sub, sahroni obod

[1] *shoyista* — taqdirga sazovor.

etish uchun mehnat va mashaqqatg‘a giriftor bo‘ldi.

Orzu, baxtli hayot va alarni orzulari xalq orzusi ekoni har solik uchun maxfiy emasdur.

Bas, ma’lum bo‘ldi, Farhod kabi doston bo‘lib aning orzusi butun bashariyat orzusi bo‘lsa, nechuk ul toifa mashaqqat chekkonlar baxtiqaro bo‘lur.

Haqiqatni aytkonda baxtiqaro ul toifalardurki, alar mehnatdin yiroq bo‘lub, besh kun ko‘rgon umrini rohat birla o‘tkarmoq maqsadida ming xiyla va tazvirda karfarmo bo‘lub, begonalar mehnati ilan davlat oshurub, izz-u joh hosil qilub, oliyni nafratig‘a giriftor o‘lub umri ado bo‘lur.

Alar shoh bo‘lsa, zolim mullo bo‘lsa, bemahal amaldor bo‘lsa, jafokor nom ilan dunyodin o‘turlar, hech kimsa ul toifani yaxshi nom ila yod qilmas va hech donishmandlar hayoti borasida yodgorlik doston tahrir aylamas. Bas ma’lum bo‘ldiki, dunyoda bahoyimdek yeb-ichib, maishatni ρesha qilub,benom-u nishon o‘lub ketgan odamlarni baxtiqaro desa bo‘lur.

Aksari zamona ahli mashhur nomavor ustodlar haqida alarning nazmi nolalarig‘a zohiran baho berub, alar faqat yor ishqida ovora bo‘lub, umr o‘tkazibdur derlar,ba’zilarini esa, faqat dard-u balo va qazo qabzida[1] giriftor ekan deb aqida qilur.

Haqiqatda lojaram ul g‘azallar botini hisobsiz falsafiy donish va aql gavharlari ila to‘ladur. Maxfiy emaski, har shoirda botindagi, ya’ni hayot ichidagi sirlarni ko‘radurg‘on ko‘z bo‘lur. O‘shal o‘tkir ko‘z ilan boshqalar ko‘rmagan sirlarni mushohada qilub, adab haririg‘a burkab, arzi ma’nisini nafis iboralar ilan tarannum etar. Shundog‘ shoirni shoir desa bo‘lur.

Modomiki, shoir shundog‘ falsafiy mushohada egasi ekan, aning barcha fikri takroriy yo‘l ilan ta’lim olishg‘a sazovordur.

Bas, shundog‘ ekan, barcha faylasuf va shoir ham o‘z orzu vositasi ila omiy xaloyiq nomidin nola qilur, hech shoir bu ma’nidin xoli emas, faqat so‘filik robitasig‘a amal qilg‘on shoirlar aksar

---

[1] *qabza* — changal, qo‘l osti.

nola va fig‘on adosidin keyin oxiratni tasvirlab bu dunyo azobig‘a toqat qilish oson, oxirat azobidan najot tilab yig‘lamoqni talqin qilurlar. Alar o‘zlari zamona zulmi va azobini e’tirof etadilar. Bu haqda alarning hurmatig‘a sazovor desak to‘g‘ri bo‘lur. Ammo alar shu azob birla o‘lib ketmoq oxiratda rohat ko‘rmoq umidida kifoyat topurlar.

Ul shoirlar shu azoblik dunyoni rohatlik qilish yo‘lini bilmasalar va qorong‘u tun ortidan, albatta,yorug‘ kun kelishini bilmaslar. Boz bir sabab borkim, aksar shoirlar faqat o‘zlarini dardlar va g‘amlar girdobida yodlab, xaloyiqni o‘zlaridin behbud[1] deb yozubdirlar.

Bu kabi shoirlar g‘azaliyot (ni) o‘qug‘on odam umrini bahram berib, tezroq dunyodin kechish fikrig‘a duchor bo‘lur, aksar odamlar undog‘ ma’lumot daftarlarini du bora varaqlashg‘a toqat qilmas. Shundog‘ shoirlar ham o‘z iqrorlariga binoan qaro baxtlikda o‘tib ketadilar.

Tarki dunyoni ixtiyor qilganlar, bayoni tiriklay o‘zini qabrg‘a qon kabi, o‘z xalqidin bezib ketadilar. Aksar shu qabila odamlar ilmdan bahramand emas va quruq kallag‘a sallani o‘rab yurgan mullanamolardin chiqor, ular o‘zlari ham bexabar so‘fiylik silsilasig‘a kirub qolib, boshi berk ko‘chadin chiqolmay ovoradurlar.

To‘rtinchi fasl

Bu faslda qaro zulmat haqida so‘z yurutgumdir. Aqlg‘a ishoradurki, hech zulmat oq bo‘lmas, albatta, bu zulmat so‘zi qorong‘uliqni ochg‘ich sifati bo‘lub, bu so‘z ifodag‘a kelg‘on hamon tinglag‘uvchi nazarida yorishmog‘i dushvor o‘lg‘on qorong‘u manzara ko‘ring‘oy. Andoq manzarani ko‘rguvchi ani tasvir etishg‘a qobiliyat paydo qilg‘on va ani ko‘rmoq quvvatig‘a molik erur, zulmat tasavvurig‘a ojiz va ani ko‘rmoq qobiliyatidin noshud kishi zulmat deb qorong‘u kechani bilur va ul kecha so‘ngidin yaqin soat va muayyan vaqtda yorug‘ kun kelishini, albatta, bilur.

---

[1] *behbud* — yaxshiliq, sog‘liq (foyda, najot)

Zulmatni qaro tundin tafovuti o‘bdon bildirmoq lozim bo‘lur, zulmatni zohiran qorong‘u kecha rangida ko‘rsatmoq mumkin. Ammo tafovuti ulki, kechani so‘ngidin, odatda, kech ayoz faslida olti-yetti soat, qish bo‘lsa, o‘n-o‘n ikki soat vaqt o‘tub,yorug‘ kun kelishi mumkin. Ammo zulmat so‘ngidin hurriyat kelishini tasavvuri ham oson, lekin muayyan vaqt tayinlash dushvor erur. Zulmat ham rango-rang bo‘lur, ya’ni xillari: zulmati nogahoniy va zulmati muvaqqat bo‘lur.

Zulmati muvaqqat jong‘a muslat o‘lub, bot fursatda bartaraf bo‘lur. Chunonchi, kechani o‘tduk, kunduzi qattiq shamol turub, chang-to‘zon o‘lub, qaro bulut havoni qoρlab, bir necha soat qorong‘u zulmat bo‘lur. Bu zulmat ham bot fursatda o‘tub yorug‘lik kelur va yo kuchli yomg‘ir yog‘ub, qorong‘ulik bo‘lsa, uni ham zulmatda tasavvur qilurlar. Zulm g‘alaba qilib, bir mamlakatni bosib tursa, bu zulmni oftob va tong ravshanlig‘i bartaraf etolmas bundog‘ zulmatni adolat kuchi yengar. Adolat kuchiga chidalmag‘on zulmat aksar majoziy hokim va zolimlar tarafidin joriy qilur. Ba’zi hukamolar adolatni ρodshohlarga vobasta qilurlar va ba’zi ρodshohni odil shoh deb ta’rif qilurlar. Vaholanki, odil shoh bo‘lmas.

Agar ρodshoh odil bo‘lmog‘i mumkin ersa, ushbu o‘rus ρodshoh odil bo‘lur erdi, mulki Farg‘onaga adlni joriy qilur erdi va mulozimlarg‘a raiyat ahvolini neku qilish, mahalliy eski amaldorlarga tinch berurni farmoyish qilur erdi. Mulki Farg‘ona va boshqa viloyatlar Qiρchoq, Mo‘g‘ul, Afg‘on va boshqa daydilarni qo‘ρorgan jang-u zulmati ostida xonavayron, diydagiryon edilar va ular o‘rus kelganiga qadar shodmon bo‘ldilar.

Agar u odil shoh bo‘lsa, shundog‘ fuqaro qadriga, albatta, yetar edi va adolat joriy etib zulmni ko‘tarur erdi.

Ma’lumdurki, ρodshoh bo‘lg‘on shaxs odil bo‘lmas va adlni uhdasidin chiqmas, bu muammoni bir maxfiy siri bo‘lurki, uni bayon aylamak mavqubdir. Zolim tabaqani maxfiy siri ul erurki, zolim avvalo o‘z shahvoniy nafsi bandig‘a giriftor bo‘lub, zulmga toqati farmo bo‘lur, ya’ni nafsi shahvoniy zolimg‘a aql futurini ham vobasta qilur.

Zolim aql zoillig‘idin bexabar o‘zini lojaram, aqlli va dono hisoblab, har ish andishasiga kelsa, o‘shal ishni nihoyat ma‘qul va maqbul va xaloyiq uchun vojib qilur, ul rejasini joriy aylar, bovujudi toqat farmodir. Ijrosig‘a farmon berur. O‘shal farmon qilg‘on mashaqqati el boshiga zulmdurki, el zulm soyasini zulmat deyilur.

Ey solik, holo ham qanoatbaxsh bo‘lmasang bilgilki, din va oxirat ilmini tahsil ettirmoq uchun madrasa soldurib, aning savobi badalig‘a jannat talab qiluvchi ρodshoh va mulozim mazkur madrasa bunyodig‘a kelguncha o‘zi soyadin chiqmay, fuqaroni qamchi va qilich zarbi ilan ishlatib, moldor va badavlatlar hadyasidin non va osh berib, madrasani bino qildirur.

Bas, bu madrasa ikki yuz hujralik bo‘lib, taxminan sakkiz yuz ming g‘isht qo‘yulub hamda anda ρishirilib, arobalab toshub, yuzlab me’morlar ish qilub, ganj, tosh, rang, eshik, deraza va boshqalar uchun sarf bo‘lg‘on mablag‘ va mehnat barchasi xaloyiq gardanig‘a bo‘lur. Ammo jannattalab shoh va amir o‘z mablag‘idin bir so‘m xarojot qilmas. Xulosa, umrida fuqaro gardanig‘a minib aysh surgan zolim, xudoning mukofotini olmoq va jannatda rohat ko‘rmoq borasida ham, bechora fuqaro mehnatidin komron o‘lur.

Bas, ma’lum bo‘ldiki, har ish hukmron tarafidin fuqarog‘a jabran qildirilg‘on bo‘lsa, xudoyi ham bo‘lsa, zulmdur va bu zulm soyasini zulmat deyilur va zulmat xuddi zalolatdur.

MUNDARIJA

Alisher Navoiy ... 3
G‘azallar ... 4
Qit’alar ... 36
Ruboiylar ... 37
Tuyuqlar ... 38
Muxammas ... 39
Tarjiband ... 41
«Xamsa» ... 45
«Hayrat ul-abror»dan ... 45
«Farhod va Shirin»dan ... 55
«Layli va Majnun»dan ... 70
«Sab’ayi sayyor»dan ... 83
«Saddi Iskandariy»dan ... 120
Husayniy ... 138
G‘azallar ... 139
Muxammas ... 146
Muhammad Solih ... 148
«Shayboniynoma»dan ... 148
Zahiriddin Muhammad Bobur ... 157
G‘azallar ... 158
Ruboiylar ... 170
Tuyuqlar ... 175
Fard ... 175
«Boburnoma»dan ... 175
Poshshoxo‘ja Abdulvahobxoja o‘g‘li Xoja ... 188
«Miftoh ul-adl»dan ... 188
Abulg‘ozi Bahodirxon ... 194
«Shajarayi turk»dan ... 194
Turdi Farog‘iy ... 203
G‘azallar ... 204
Muxammas ... 206
So‘fi Olloyor ... 210
«Sabot ul-ojizin»dan ... 211
Boborahim Mashrab ... 220
G‘azallar ... 221
Muxammas ... 232
Xo‘janazar Huvaydo ... 233
«Rohati dil»dan ... 233
G‘azallar ... 237
Jahon Otin Uvaysiy ... 239
G‘azallar ... 240
Tarjiband ... 245
Chistonlar ... 246
Amiriy ... 247

G‘azallar 248
Nodira 257
G‘azallar 258
Tarjiband 264
Gulxaniy 267
«Zarbulmasal»dan 268
Maxmur 301
G‘azallar 303
Shermuhammad Munis 305
G‘azallar 306
Mustazod 329
Muxammaslar 331
Ruboiylar 334
Tuyuqlar 335
Muhammad Rizo Ogahiy 336
G‘azallar 337
«Doshhovli» tasviri 357
Muhammad Rahimxon Feruz 358
G‘azallar 358
Muqimiy 363
G‘azallar 364
Murabba 367
Hajviyot 368
«Sayohatnoma»dan 377
Zokirjon Xolmuhammad o‘g‘li Furqat 383
G‘azallar 384
Muxammaslar 387
Musaddas 390
Zavqiy 392
«Hajvi ahli rasta» 392
G‘azallar 396
Muxammas 397
Murabba 398
Komil Xorazmiy 400
G‘azallar 401
Muxammas 406
Dilshodi Barno 408
G‘azallar 408
Masnaviy 415
Anbar Otin 417
G‘azallar 417
Masnaviy 421
«Risolayi falsafayi siyohon»dan 422

ADABIYOT

(Majmua)

Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o‘quvchilari uchun

Ikkinchi nashri

Muharrir ***Shoyim Bo‘tayev***
Badiiy muharrir ***Uyg‘un Solihov***
Texnik muharrir ***Yelena Tolochko***
Musahhih ***Mahmuda Usmonova***

Bosishga ruxsat etildi 01.07.2010. Bichimi $60\times90^{1}/_{16}$. Ofset qog‘ozi. Tayms AcademuUz garniturasi. Shartli b.t. 27,0. Nashr b.t. 27,16. Shartnoma № 65—2010. 617 nusxada. Buyurtma № 652.

O‘zbekiston Matbuot va axborot agentligining Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30- uy.

«Shoakbar» xususiy ilmiy ishlab chiqarish tijorat firmasi bosmaxonasida chop etildi. 100031, Toshkent, To‘g‘on Rejametov ko‘chasi, 1- a.

A 29 **Adabiyot (Majmua):** Akademik litseylarning ikkinchi bosqich o‘quvchilari uchun/Tuzuvchilar: B. To‘xliyev va boshq.; O‘zbekiston Respublikasi oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi, O‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi markazi. —T.: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2010 — 432 b.

I. To‘xliyev B. (Сост.).

BBK 83.3(5У)6ya722